

ADABIYOT

Umumi o‘rta ta’lim maktablarining
8-sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan va to ‘ldirilgan to ‘rtinchi nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta ’limi vazirligi
tasdiqlagan*

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2019

UO‘K 372.882(075)

KBK 83.3

O 49

Mualliflar

**Sultonmurod OLIM, Sunnat AHMEDOV,
Rahmon QO‘CHQOROV**

Mas’ul muharrir Vahob Rahmonov

Taqrizchilar

O. Musurmonqulova – RTM metodisti

M. Zohidova – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi mutaxassis

Y. Do‘smatova – R. Glier nomidagi RIMAL o‘qituvchisi

G. Xudoyorova – Toshkent shahar Shayxontohur tumani 34-maktab o‘qituvchisi

Olimov S.

Adabiyot 8: darslik / S. Olimov, S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov. – Toshkent:
G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 352 b.

QADRILI O‘QUVCHI!

Siz, boshqa fanlar qatori, adabiyotdan ham saboqlar olib, ong va tafakkuringizni tinimsiz boyitmoqdasiz. Adabiy saboqlar Sizdan faqat aqlnigina emas, balki tuyg‘ularni ham «ishga solish»ni, zehnliroq bo‘lishni talab etmoqda. Chunki badiiy asar dunyosiga kirmoqchi bo‘lgan odamning aqlligina bo‘lishi yetarli emas. Uning ko‘ngli, tuyg‘ulari, hislari ham toza, samimiyo bo‘lishi lozim.

Siz bu yil 8-sinfga o‘tdingiz, demak, ancha katta bo‘lib qoldingiz. Siz bilan jiddiyroq masalalarda bosh qotirishimiz, hatto, olam va odam taqdiri bilan bog‘liq muammolar ustida ham bahslashishimiz mumkin. Bu yilgi mashg‘ulotlarda aynan mana shu muammolar talqin etilgan asarlarga duch kelasiz.

Ularni idrok etish, tushunib his qilish uchun ixlos qo‘yib, astoydil o‘qishingiz, bilmagan narsalaringizni ustozlardan erinmay so‘rab, aniqlashtirishingiz talab etiladi.

Mana shu jiddiy, ayni paytda, maroqli izlanishlarda Sizni ilhom, kelajakka intilish hissi tark etmasin.

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi
mablag‘lari hisobidan chop etildi.**

UO‘K 372.882(075)
KBK 83.3

© S. Olim, S. Ahmedov,
R. Qo‘chqorov

© G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019

ISBN 978-9943-5551-1-2



KIRISH

Aziz o‘quvchi!

Insoniyat bosib o‘tgan tarixiy yo‘l shu qadar chigal, murakkab hodisalarga boyki, uni yaxlit tarzda baholashning hech iloji yo‘q. Shu tufayli ham o‘tmish hayot to‘g‘risida har bir ilm va san’at sohasi o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib xulosalar yasaydi.

Deylik, ushbu mavzuni o‘rganayotganingizda sinf dera-zalaridan Sizni o‘ziga chorlayotgan kuz faslining tarovatini musavvir mo‘yqalami orqali turfa bo‘yoqlarda tasvirlasa, bastakor ushbu fasl nafasini ohang yordamida ko‘nglingizga olib kiradi. Xuddi shu kabi, agar tarix ilmi voqeа-hodisalarning qachon, qayerda, nima sababdan yuz bergani, bu qanday natijalarga olib kelganini chuqur o‘rgansa, adabiyot uchun ushbu hodisalarda ishtirok etgan kishilarning qalbidan o‘tgan kechinmalar muhimroq hisoblanadi. Tarix-chi bo‘lib o‘tgan hodisalarning o‘rni, unda ishtirok etgan odamlar, ular hayotiga oid faktlarni iloji boricha aniq ifoda etmog‘i lozim. Ijodkor adib esa o‘z g‘oyaviy-badiiy maqsadidan kelib chiqib bu hodisalarga biroz erkinroq yonda-shadi.

Masalan, sarkarda Amir Temurning taqdirida muhim o‘rin tutgan «Loy jangi» (1365- yil)ga raqiblar qanday tay-yorgarlik ko‘rgani, bu jangda har ikki tomondan nechtadan askar ishtirok etgani, har bir tomondan qancha odam qurban bo‘lgani va boshqa tafsilotlarga yozuvchi to‘liq to‘xta-lishi shart emas. U mazkur jangning butun mohiyatini birgina qahramon (u oddiy askar bo‘lishi ham mumkin!) qismati orqali o‘quvchiga anglatadi. Natijada badiiy tasvir ta’siriga berilgan o‘quvchi o‘zini shiddatli jala ostida kechayotgan, jaladan-da shiddatli olishuv ichida his qilishi hech gap

emas. Yozuvchi tarixiy hodisaga ijodiy yondashib, uning bir qirrasini xuddi kuchli lupa ostida ko‘ringandek bo‘rttirib tasvirlar ekan, bunda muayyan maqsadni nazarda tutadi.

O‘rni kelganda badiiy ijodning yana bir muhim jihatini aytib ketishimiz kerak. U ham bo‘lsa, adabiyotda muayyan millat hayotiga daxldor jihatlarning aks ettirilishi masalasidir.

Rus adibi Maksim Gorkiy XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyani qamrab olganadolatsizlik, xunrezliklar o‘ziga qanday ta’sir etganini xotirlab, shunday yozgan edi: «Hayotda ko‘rayotganlarim go‘yo yuragimning ustini shilib tashlagandek bo‘ldi. Shundan buyon mening qalbim har bir nohaqlikdan,adolatsizlikdan ta’sirlanib, achishadigan bo‘lib qoldi».

Endi hozirga qadar hayoti va ijodini o‘rganganingiz yozuvchi-shoirlar asarlarini eslang. Ularning aksariyati-da mana shu holatni kuzatish mumkinmi, yo‘qmi? Ulug‘ Navoiyning:

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram, –

degan shohbaytining mag‘zida ham millat hayotidan ogohlilik, xalq qismatidan qayg‘urish hislari yotibdi.

Albatta, adabiyot hayotdan quruq nusxa ko‘chirish, «hayotdagiga o‘xshatib yozish» degani emas. Agar shunday bo‘lganida so‘z san’atining qadri bo‘lmas edi. Hayot haqiqati (hayotda yuz bergen voqeа-hodisalar) badiiy haqiqat (chinakam badiiy asar)ga aylanishi uchun ijodkor tug‘ma iste’dodga ega bo‘lishi lozimligini Siz yaxshi bila-siz. Bunga qo‘srimcha, o‘sha ijodkor yuzaki qaraganda bir-biriga aloqasi yo‘qdek ko‘rinadigan voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘ra olishi kerak. Eng muhimi, inson ko‘ngli-ni faqat o‘zigagina xos nigoh bilan kashf eta olishi lozim. Buning uchun esa, u tinimsiz o‘qib-o‘rganishi, odamlar xarakteriga xos eng muhim jihatlarni erinmay kuzatishi, ko‘rib-bilganlarini umumlashtira olishi darkor.

Har bir zamonning o‘z qahramonlari, har bir avlodning o‘xhashga intiladigan badiiy obrazlari bo‘ladi. Agar o‘tgan asrlar kishilari Tohir va Zuhra, Romeo va Julyetta, Farhod va Shirin munosabatlaridan qattiq ta’sirlangan bo‘lsalar, XX asr boshlaridagi o‘zbek kitobxoni «O‘tkan kunlar» romanini o‘qib ruhlangan. Yigitlarga Otabekning mardligi, to‘g‘riso‘zligi, millatsevarligi, qizlarga esa Kumushbibining latofati, jasurligi, go‘zal odobi namuna hisoblangan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kun yigit-qizlari ham o‘z qahramonlarini kashf etishlari, ulardan o‘rnak olishlari qanchalar muhimligini his qilamiz.

Hayotni turli muammolarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi, albatta. Muammolarning esa katta-kichigi, muhim va nomuhimi bor. Har qanday muammoni badiiy asar mavzusiga aylantirish mumkindek tuyulsa-da, bu ishning e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlari bor.

Gap nima haqda ketmoqda? Hayotda yuz bergen yoki yuz berayotgan voqealar ko‘pchilik qatori yozuvchi-shoirlarni ham o‘ziga jalb qilmasligi, tezroq ular to‘g‘risida yozishga undamasligi mumkin emas. Qolaversa, ijodkor hayotiy hodisalarga faol munosabatda bo‘lishi, ularni xalq manfaatlaridan kelib chiqib baholashi tabiiy. Bularning barchasini inkor qilmagan holda esda tutishimiz kerak bo‘lgan jiddiy bir masala bor. U ham bo‘lsa, o‘sha – «hammani qiziqtirib qo‘ygan» voqea-hodisa, zamon masalasi qanchalar badiiy voqea-hodisaga, abadiyat masalasiga aylantirildi, degan muammodir. Bu borada adabiyot tarixi juda ko‘p ijobiy va undan-da ko‘proq afsuslanarli tajribaga ega.

Uzoqqa bormay, yetmish yillik tarixni o‘z ichiga olgan sho‘ro davri o‘zbek adabiyotiga nazar tashlash kifoya. Bu davrda milliy adabiyotimizning oltin xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘nlab badiiy durdonalar yaratilishi bilan birga, o‘z davri siyosati singari vaqt sinoviga dosh berolmagan minglab zaif asarlar ham yozilgan edi.

Demak, yana o‘sha qoida: ijodkor zamonaning o‘tkinchi gaplariga berilmay, hayotda yuz berayotgan voqealarning

tub zamiriga nazar tashlashi lozim. O'sha chuqurlikda yotgan asl sabab-mohiyatni ko'rishi, uni mukammal obrazlar hamda vositalar orqali badiiy hodisaga aylantira bilishi kerak. Zero, adabiyotshunoslikda «abadiy muammolar» degan tushuncha mavjud. Bu shunday muammolarki, zamonlar o'tishi, bir-ikki davr kishilarining sa'y-harakatlari bilan ular yechilib, yo'q bo'lib ketmaydi. To odamzod bor ekan, bu muammolar unga doimiy va ajralmas hamroh bo'lib qolaveradi. Odamzodni qiziqtiraveradi, o'ylantiraveradi, qiyaynayveradi.

Muhabbat va nafrat,adolat va adolatsizlik, imonlilik va nafsga qullik, haqiqat va yolg'on, mardlik va qo'rkoqlik, sadoqat va sotqinlik tuyg'ularini o'z ichiga qamragan abadiy muammolarni yoritgan asarlarga umrboqiylik kasb etadi. Xuddi shu tufayli ham Tohir tilga olinganda Qorabotir («Tohir va Zuhra» dostoni), Farhod eslanganda Xusrav («Farhod va Shirin» dostoni), Otabeck yodlanganda Homid («O'tkan kunlar» romani) esga keladi, kishini o'ylantiradi. Bu asarlar va ularning qahramonlari yuqorida sanalgan o'lmas insoniy tuyg'ularni o'zida kuchli aks ettirgani bilan ham abadiyatga daxldordir.

Badiiy mukammal asarlarning yana bir xislati shundan iboratki, ularda muayyan millatning tili butun jozibasi bilan namoyon bo'ladi. Bu asarlar ababiy til me'yorlarini mustahkamlabgina qolmay, balki uning boyishi, yanada sayqallanishi, ta'sir doirasining kengayishiga ham sezilarli turtki beradi.

Navoiy o'z asarlari bilan turkiy til qaddini qanchalar yuksakka ko'targanidan xabardorsiz. Xuddi shu singari bizning ona tilimiz «Kuntug'mish» dostonida o'nlab, Lutfiy tuyuqlarida yuzlab, Nodira g'azallarida yana minglab yangi qirralarini ko'z-ko'z qiladi. G'afur G'ulom she'rlari va nassriy asarlari o'zbek tilining naqadar boyligini yana bir bor isbotlasa, Muhammad Yusuf she'rlaridagi xalqona ohang ularning millionlab muxlislar qalbida qo'shiq bo'lib yangrab qolishiga sabab bo'ladi.



XALQ OG‘ZAKI IJODI

«KUNTUG‘MISH» DOSTONI HAQIDA

Xalq dostonlari har bir millatning ma’naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bami-soli oynadir. Ularda har bir xalqning urf-odatlari, milliy o‘ziga xosligi yaqqol ko‘rinib turadi. Dostonchilik xalq og‘zaki ijodida qadimiy epik an’ana hisoblanadi. Dostonlar, asosan, do‘mbira jo‘rligida aytildi va ijrochidan ham badihada, ham ijroda juda katta ijodiy mahorat talab qiladi. Dostonning yana bir xususiyati, og‘izdan og‘izga o‘tib avloddan avlodgacha yetib kelganidir. Bu o‘z navbatida ustoz-shogirdlik an’analaringin vujudga kelishiga, natijada yirik dostonchilik maktablarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Folklorshunos olim T. Mirzayevning ma’lumotlariga ko‘ra, XV—XVI asrlarda yirik dostonchilik maktablari paydo bo‘lgan, XIX—XX asrlar esa dostonchilik taraq-qiyotida juda rivojlangan davr bo‘lgan. XX asr boshlariga kelib baxshilarimiz ijodiy bisotida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo‘lgan. Bu dostonlarni Tilla kampir, Sul-ton kampir, Bo‘ron shoir, Jumanbulbul, Josoq, Yo‘ldosh bulbul, Yo‘ldosh shoir, Suyar shoir kabi mashhur baxshilar kuylaganlar. Keyinchalik ularning an’analari Er-gash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan, Islom shoir, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Berdi baxshi, Umir baxshi shoir, Bola baxshi ijodida davom ettirildi. Baxshidan u yoki bu dostonni ijro etishda shunchaki voqeа bayonini so‘zlab berish emas, balki uni do‘mbira jo‘rligida tinglovchini rom etadigan dara-jada kuylab berish talab etilgan. Dostonchi baxshilar

o‘z san’atlarini tinglovchiga ma’qul qilish uchun turli usullarni qo‘llaganlar (musiqiy qochirimlar, so‘z o‘yinlari, dostonning eng qiziq joyida tanaffusli chekinishlar kabi). Doston aytish ko‘p hollarda raqobat assosida kechgan. Dostongo‘ylik kechalarida bir necha baxshi ishtirok etib, o‘z mahoratlarini namoyish etganlar, ijodiy bahs qilganlar.

XX asrning 50- yillarida xalq dostonlariga, shu jumladan, «Alpomish» dostoniga ham bu asarlar mehnatkash xalq manfaatini emas, balki yuqori tabaqalar manfaatini aks ettiradi, shuning uchun ularni ommalashtirish zararlidir, degan mafkuraviy ayblar qo‘yildi. Lekin bir qator olimlar bu ayblovlarning xato ekanligini, mazkur dostonlar xalq badiiy tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, boy tilini aks ettiruvchi bebahoh xazina ekanligini isbotlab berishdi va shu tariqa adabiy-milliy merosimizning muhim qismini g‘oyaviy tazyiqlardan asrab qolishdi.

Dostonchilik an’anasi hozirgi kunda ham mavjud. Bi-roq endi kuylash, ijro, tinglovchilar bilan muloqot tarzining zamonaviylik kasb etayotganligini ko‘ramiz. Dostonchilik fan va texnika asrida birmuncha o‘zgarishlarga uchradi. Bugungi kun baxshilari o‘z asarlarini konsert zallarida, katta-katta anjumanlarda, televideniyada ijro etmoqdalar. Yurtimizda dostonchilikni rivojlantirishga va uning ijrochilari – baxshilar faoliyatini rag‘batlantirishga katta e’tibor berilmoida. 2000- yilda «Alpomish» dostonining ming yilligini jahon miqyosida nishonlanishi va hatto «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq baxshisi» unvonining ta’sis etilishi (2000- yil 14-mart) buning isbotidir.

Qadrli o‘quvchilar, Siz 7-sinf adabiyot darslaridan o‘zbek xalq dostonining go‘zal namunasi bo‘lmish «Ravshan» dostoni haqida tasavvurga ega bo‘lgansiz. 8-sinfda esa yana bir ajoyib asar – «Kuntug‘mish» dostoni bilan tanishhasiz. Ushbu doston o‘zining qiziqarli voqealarga boyligi, ravon tili, nafisligi bilan o‘quvchi va tinglovchilarni lol qoldiradi.

Dostonning yozib olingen va ijro etilgan nusxalari juda ko‘p. Darhaqiqat, «Kuntug‘mish» dostoni o‘zbek xalq dostonlari orasida g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biridir. Uning xilma-xil ko‘rinishdagi variantlari ko‘pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarining iste’dodiga, ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan; natijada barcha baxshilarimiz «Kuntug‘mish» dostonini to‘la o‘zlashtirishga intilganlar. Dostonning Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Nurmon Abduvoy o‘g‘li, Egamberdi Ollamuroddan yozib olingen nusxalari mavjud. Qo‘lingizdagি darslikda esa mashhur baxshi bobomiz Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingen nusxasi keltirilgan. Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha: No‘g‘ay yurtida Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podsho bo‘lib, Kuntug‘mish uning yolg‘iz o‘g‘li bo‘ladi. Kuntug‘mish o‘n to‘rt yoshga to‘lguncha ilm-hunar o‘rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O‘n to‘rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko‘pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o‘rganadi, xullas, har tomonlama komil shahzoda bo‘lib yetishadi. Shahri Zangar degan shaharning Buvraxon degan podshosi bo‘lib, uning Shoir va Tohir ismli vazirlari bor edi. Vazirlar bir-birlari bilan juda inoq edilar, ular: «Bizlarga farzand bersa, o‘g‘il bo‘lsa qo‘lqanot bo‘lsin, qiz bo‘lsa do‘sit bo‘lsin», – deya niyat qilar edilar. Kunlardan bir kuni Shoir vazirning xotini qiz ko‘radi. Tohir vazir oilasida o‘g‘il tug‘iladi. Qizning otini Xolbeka, o‘g‘ilning otini Xolmo‘min qo‘yishadi. Lekin Xolmo‘minning onasi to‘satdan vafot etadi, o‘g‘il go‘dakni Xolbekaning onasi emizishga majbur bo‘ladi, natijada ular «shirxo‘ra» (bir onani emgan) bo‘lib, «nikoh yurmaydigan» bo‘lib qoladilar. Xolbeka o‘n to‘rt yoshga yetgach, uning husni kamoli ovozasi olamga yoyiladi. U go‘zal, ayni paytda aqli, nard o‘yiniga mohir qiz bo‘lib yetishadi. Unga barcha mamlakatlardan sovchilar kela boshlaydi. Xolbeka sovchilarga: «Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o‘yinini

qo‘yaman, o‘ynayman, utsa¹ tegaman, utdirsa² so‘yaman», – deb shart qo‘yadi. Hatto shahar podshosi Buvraxonga ham shu javobni aytadi. Podsho g‘azablanib, shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib qatl qildirishga farmon beradi, shunday qilsam, to‘rt-besh yildan keyin menga tegishga majbur bo‘ladi, deb o‘ylaydi.

Xolbeka va Kuntug‘mish tush ko‘radilar, ular tushlarida bir-birlarining qo‘liga uzuk taqishib, uylangan emishlar. Shundan so‘ng, Xolbeka bir mohir suratkashga o‘z rasmini chizdiradi va uni sandiqqa solib, No‘g‘ay yurtiga oqizib yuboradi. Sandiq oqib borib, daryo sohilida ov qilib yur-gan Kuntug‘mish qo‘liga tushadi. Kuntug‘mish Xolbeka visoliga yetish uchun Zangar yurtiga otlanadi, bu yurtga kelib Xolbeka bilan topishadi, so‘ng ko‘p sarguzashtlar-ni boshidan kechiradi: Buvraxon qo‘liga tushib, o‘limga hukm qilinadi, dahshatli ajdarni o‘ldiradi, xiyonatkor Azbarxo‘ja tufayli xotini, egizak o‘g‘illaridan vaqtinchha judo bo‘ladi. Doston so‘ngida xotini, farzandlari Gurkiboy va Mohiboy, otasi Qoraxon bilan topishadi.

Dostonning bosh qahramoni – Kuntug‘mish yolg‘iz, erka o‘g‘il bo‘lishiga qaramasdan, aqli, bilimli, jasoratli, elga g‘amxo‘r, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit. Kuntug‘mish va Xolbeka bir mo‘jiza bilan Buvraxon jazosidan omon qolib, sahroda och, tashna qolishganda hayotdan umidini uzgan yori Xolbekaning «Meni tashlab ketaver, yo‘qsa o‘zing ham halok bo‘lasan», – degan iltijosiga «Bir g‘ayrat qil, yo‘limiz yaqin qoldi», – deb dalda beradi, unga vafodorligini quyidagicha bayon qiladi:

*Po‘lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o‘tarmi,
Sening to‘rang nomardlardan emasdir;
Mard o‘g‘lon sevdigin³ tashlab ketarmi?..*

¹ Yutsa (*sheva*).

² Yutqizsa (*sheva*).

³ Sevganin ma’nosida kelgan.

Kuntug‘mish o‘z maqsadiga sodiq, har qanday sharoitda tushkunlikka tushmaydigan inson. U nomsiz, poyonsiz tog‘ darasidan Vataniga boradigan yo‘lni rosa izlaydi, bu orada egizak farzandli bo‘ladi, ular uch yoshga to‘lganda ham biror bir el daragini topolmaydi. Xullas, Kuntug‘mish fe‘l-atvorida siz havas qiladigan, ergashadigan insoniy sifatlar juda ko‘p. Dostonni sinchiklab mutolaa qilsangiz, bunga o‘zingiz amin bo‘lasiz.

Xolbeka siymosi ham dostonda baxshi bobomiz tomonidan alohida mehr, iliqlik bilan tasvirlangan. U o‘z so‘zida turadigan, barcha hunarlarga mohir qiz. O‘zi qanchalik bir ishga mohir bo‘lsa, bo‘lajak turmush o‘rtog‘idan ham shuni talab qiladi. Shu ma’noda Xolbeka o‘z xulqi va fazilatlari bilan har jihatdan Kuntug‘mishga teng va munosib bo‘lgan inson. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi, e’tibor bering: u o‘z suratini chizdirib, Kuntug‘mish yurtiga yuborar ekan, agar «...shu ko‘rgan tushim rahmoniy bo‘lsa, oshiq-ma’shuqlik avvaldan pok bo‘lsa, Xudoyo xudovando, shu sandig‘im senga omonat, to‘radan boshqasiga tegmasin», – deydi.

Xolbeka hamiyatli, g‘ururi baland qiz. Garchi u Kuntug‘mishni tushida sevib qolgan, uchrashganda esa yigitni ko‘rib biroz muddat ixtiyorini yo‘qotgan bo‘lsa-da, uning husniga talabgor barcha shoh-u shahzodalarga bergen va’dasi, ya’ni faqat nard o‘yinida g‘olib chiqqanga tegaman degan fikridan qaytmaydi. Kuntug‘mish men uchun ma-shaqqat chekib kelibdi, deb unga tegib ketavermaydi, o‘zi ko‘ngil qo‘ygan yigitning el-yurt oldida ham yuzi yorug‘ bo‘lishini istaydi.

Dostonda Kuntug‘mishning o‘g‘illari Gurkiboy va Mohibboy xarakterlari ham chiroyli va ta’sirchan tasvirlangan. Gurkiboy bosiq, vazmin, aql bilan ish ko‘radigan bola bo‘lsa, Mohibboy biroz shaddod, biroz quv yigit. Biroq ikki aka-uka bir-birlariga mehribon, ota-onalariga fidoyi yigit-

lar. Ular mehnatsevarlik va aql bilan ish ko‘rganlari uchun boshlariga tushgan qiyinchiliklarni yengadilar.

Asarda Azbarxo‘ja, Buvraxon, Zamonqul, Xolmo‘min kabi qahramonlar qiyofasi o‘ziga xos tarzda yoritilgan. Azbarxo‘ja dastlab Kuntug‘mish bilan do‘splashadi, so‘ng o‘z manfaatini deb unga xiyonat qiladi.

Buvraxon o‘ziga bino qo‘ygan, qahri qattiq podsho, biroq uning ko‘ngilchan ekanligini ham ko‘ramiz. Buvraxon avval Kuntug‘mish va Xolbekani o‘limga mahkum etadi, keyinroq Azbarxo‘ja xiyonati tufayli mashaqqatlarga duch kelishganini eshitib, ularni afv etadi. Azbarxo‘jani jazolaydi. Dostondagi Qosim, Xolmo‘min, Zamonqul va boshqa obrazlar ham asarda o‘z o‘rniga ega, ularsiz Kuntug‘mish va Xolbeka taqdirini to‘laqonli tasavvur qilish qiyin.

«Kuntug‘mish» dostoni badiiy jihatdan nihoyatda yetuk asar. U yaxlit kompozitsiyaga ega, asarda kishini asosiy voqealardan chalg‘itadigan o‘rinlar uchramaydi, aksincha, har bir voqeal, har bir epizod dostonni to‘ldiradi.

Doston xalq og‘zaki ijodidagi barcha she’riy qoidalar va uslublarni o‘zida jamlagan asardir. Unda xalq dostonlarida bo‘lganidek, voqealar, sarguzashtlar, asosan, nassriy bayon etiladi, qahramonlar tavsifi, ruhiy kechinmalari she’riy yo‘l bilan ifodalanadi. Doston tili esa nihoyatda yengil va ravon. Unda rang-barang badiiy til vositalaridan unumli foydalanilgan, ayniqsa, hikmatli so‘zlar darajasiga ko‘tarilgan ayrim baytlar hech kimni e’tiborsiz qoldirmaydi: «G‘aribning ko‘nglini ovlamoq savob», «Qilichdan seskanmas botirning tani», «Gavharni ne bilsin ushalgan sopol», «Zarning qadrini zargar bilar har yerda», «Kamlikning kamoli bordir, Manmanning zavoli bordir...», «Yaxshilarning yuzin ko‘rsang jannatdir, Yomon odam qilgan ishi minnatdir», «O‘zingdan kattani uchratsang pir bil, O‘zingni er bilsang, birovni sher bil» va hokazo.

Shuningdek, asarda o‘rni bilan ishlatilgan o‘xshatish, mubolag‘a, kinoya kabi badiiy unsurlar dostonning badiiy qimmatini oshiradi, qahramonlar qiyofasini yaxshiroq tasavvur qilishga yordam beradi.

KUNTUG‘MISH

No‘g‘ay podsholaridan Avliyoyi Qoraxon degan bor ekan, laqabi Qilichxon ekan, shu vaqtning odamlari Avliyo ota derdi. Shul azizning bir yolg‘iz o‘g‘li bor edi, undan boshqa bolasi yo‘q edi. Otini Kuntug‘mish to‘ra der edi. O‘n to‘rtga kirguncha ilm-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o‘n to‘rtdan o‘tgandan keyin, sipohilik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, ko‘pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga ko‘sish (*harakatchan, urunish*) qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh toqqa, goh ovga shikor qilib yurar edi.

Shahri Zangar degan shahar podshosining otini Buvraxon der edi. Buvraxonning ikki vaziri bor edi. Birovini otini Shoир vazir der edi, birovini Tohir vazir der edi, ikkovi aka-uka edi. Bular irim qilib niyat qilib edi: «Bizlarga farzand bersa, o‘g‘il bo‘lsa qo‘lqanot bo‘lsin, qiz bo‘lsa do‘st bo‘lsin».

Kunlardan bir kun Shoир vazirning xotini qiz tug‘di, Tohir vazirning xotini o‘g‘il tug‘di. Qizning otini Xolbeka qo‘ydi, o‘g‘ilning otini Xolmo‘min qo‘ydi. Lekin Xolmo‘minning enasi qora bosib o‘ldi, o‘g‘li etak ostida qoldi. Xolbekaning enasi emizib katta qildi. Bular shirxo‘ra bo‘lib, nikoh yurmaydigan bo‘lib qoldi. Ikki vazirning avvalgi va’dalarini shaharning odamlari eshitgan edi. Mardumi shahar: «Xolbeka Xolmo‘minning baxshandası», – der edi, sut emishganini bilmas edi. Ammo Xolbeka o‘n to‘rtga kirgandan keyin... ovozasi olamga ketdi, dong‘i Dog‘istondan o‘tdi. Xolbekaning tavsif-sifatini,

husn zeboligini eshitgan podsho va to‘ralar, polvon-botirlar har mamlakatdan, har yurtdan, har diyordan sovchi qo‘ya berdi. Sovchilarga Xolbeka: «Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o‘yinini qo‘yaman, o‘ynayman, utsa tegaman, utdirsa so‘yaman», – deb elga shuhrat berdi.

Har to‘ra-kattalar, xonzodalar Xolbeka bilan nard o‘ynab utdirib, ko‘p kishilarni Xolbeka nobud qilib o‘ldirib yubordi. Shu mamlakatda Xolbekaga oshiq bo‘lmagan odam qolmadi. Kundan kun Xolbekanining husni ziyoda bo‘lib, shuhrat ovozasi ortar edi.

Kunlardan bir kun Xolbeka qirq zinali ko‘shkining ustiga chiqib, olamni tomosha qilib o‘tirib edi, shu shaharning podshosi Buvraxon Xolbekanining jamolini ko‘rib, yuz shaydoyi dil bilan oshiqi beqaror bo‘lib, ixtiyorini qo‘lidan oldirib, dilida sabr-u qarori qolmay, arkiga borib tushib, bostirib sovchini qo‘ya berdi. «Tegsa ham olaman, tegmassa ham olaman, boshqaning kelganini ko‘raman», – deb odam yubordi. Xolbeka javob aytdi: «Podsho nomardlik qilmasin, o‘ziday podsholarga ta’na-malomat bo‘lmasin. Mening shu shartim eshitmagan, bilmagan odam yo‘q. Ayol bo‘lsam ham qavlimdan qaytmayman, shohingdan qo‘rqmayman. Bizga oshiq bo‘lgan bo‘lsa, kelsin, nard o‘ynasin; utsa tegaman, utdirsa podsho deb siylamayman, so‘yaman, jonidan kechsa bizga kelsin», – deb sovchisini qaytardi. Sovchi bu voqealarni podshosiga bayon qildi. Podsho eshitib, hayron-lol bo‘lib, arkoni davlatiga qarab, ulardan maslahat so‘rab:

– E umarolarim, e vaziri donolarim, bu ishning oxiri qanday bo‘ladi? Borib nardini o‘ynasak, utdirsak, bizni shoh deb siylamasa, qo‘yaylik desak, ishqibozlik yomon bo‘lsa, borsa qo‘ysak, bir kun... birov kelib utib olib ketsa, bu qanday bo‘ladi? – dedi.

Arkoni davlat shu maslahatini aytdi:

– Taqsir podshoyim, buning iloji shulki, baxtini bog‘-lang, hech kim Xolbeka deb otini aytolmasin, balki bu sha-

harga kelolmasin, o‘zi ham to‘rt-besh yil o‘tgandan kay¹, er talab bo‘lib, sizga tegmay kimga tegadi, – deb ma’qul qildi.

Podsho ko‘cha, guzarlarga jarchi qo‘yib: «Har kim Xolbeka deb aytsa, olti oy zindonda boqdiraman, suyagini toshga chaqdiraman, terisini tiriklay so‘yaman, ichiga somon tiqdiraman, ikki ko‘zini o‘yaman, tepasiga moyni quyaman», – deb qichqirta berdi. Hech kimning zahrasi (*jasorat ma’nosida*) yo‘qki, Xolbeka deb aytsa.

Shu o‘rtada to‘rt-besh yil o‘tib ketdi. Xolbeka ham podshoga bo‘ysunmadi, qirqin qizi bilan, necha turli nozi bilan davrini surib o‘tira berdi.

Kunlardan bir kun Xolbeka noz uyguda yotib edi, bir tush ko‘rdi: chiltanlar va mardon g‘oyiblar bir tongda suhbat qilib o‘tirib edi, bir chiltan kelib Xolbekaning ruhini olib bordi, bittasi kelib, Kuntug‘mishning ruhini olib bordi. Chiltanlar to‘y qilib, Xolbekani to‘raga topshirdilar. Ikkovi bir-biroviga so‘z qotib, Xolbeka so‘radi: «Sen kimsan, joy-manziling qayda, oting kimdir?» To‘ra aytdi: «Otim Kuntug‘mish, otamning oti Avliyoyi Qoraxon, otam No‘g‘ayga podsho, No‘g‘ay to‘rasi bo‘laman. Sen kimsan, oting kimdir, yurting qayerda?» Xolbeka aytdi: «Otim Xolbeka, otamning oti Shoir vazir, yurtim shahri Zangarda».

Ikkovi bir-birovini o‘ylab; to‘rasining uzugini² Xolbeka olib qo‘liga soldi, Xolbekaning uzugini to‘ra olib qo‘liga soldi. (Shu kecha Kuntug‘mish ham shunday bir tush ko‘rdi.) Shu ishda ikkovi ham uyg‘ondi.³

To‘ra bir oh tortib, bu dardini hech kimga aytolmay, nginga qarasa, boshqa nigin; qog‘ozga muhr qilib bossa, Xolbekaning oti chiqadi.

¹ Keyin.

² Shevada juzuk.

³ Qo‘lyozmada uyondi.

Xolbeka ham uyqudan uyg‘onib, to‘raning ishqida ilon-day to‘lg‘anib, aslo orom-qarori qolmadi. Bu ham uzugini ko‘rsa, o‘ziniki emas; qog‘ozga bosib ko‘rsa, Kuntug‘mish to‘raning oti chiqadi.

Xolbekaning Bahragul degan kanizi bor edi, aksari sirlarini Bahragulga aytar edi. Bahragul Xolbekaning bezovtaligini anglab:

– Oybibim, seni ilgarilarday ko‘rmayman, xotiring-ning mushavvashligini menga bildirsang, tanda jonim bor, tadorikini – ilojini qilsam kerak.

Xolbeka:

– E Bahragul, menga bir dard-e tekkan, iloji ne bo‘lishi aslo sira (*hech kim bilmaydi ma’nosida*) yo‘q, – deb nigin (*uzuk*)ni ko‘rsatib, ko‘rgan tushlarini Bahragulga bir-bir bayon qilib, yana aytди: – Bir suratkashni keltirsang.

Bahragul suratkashni olib keldi. Xolbeka oyim o‘zining suratini qog‘ozga soldirib, bir sandiqcha tayyor qilib, ichini mumlab, sirtini tillo bilan berkitib, o‘zining sochidan bir tola soch olib, to‘raning uzugini o‘zining suratiga o‘rab, necha arzi hollarini ham arz qilib, sandiqni qulflab, kalitini sandiqqa bog‘lab, Xolbeka shahardan chiqib, shu sandig‘ini suvga (bir katta daryo shaharning ichidan o‘tar edi) solib: «Shu ko‘rgan tushim rahmoniy bo‘lsa, oshiq-ma’shuqlik avvaldan pok bo‘lsa, Xudoyo xudovando, shu sandig‘im senga omonat, to‘radan boshqaga tegmasin», – deb daryoga ravona qildi. Falakning sinoati bilan necha kun, necha vaqtlar oqib, hech kimning qo‘liga tushmay, No‘g‘ayga doxil bo‘ldi. Endi to‘radan so‘z eshititing.

To‘ra qirq yigit bilan daryoning yoqasida shikor qilib yurib edi. To‘raning ko‘ziga bir sandiq ko‘rindi. Yigit-lariga aytidi:

– Ot solib olib chiqinglar.

Yigitlar Kuntug‘mishga arz qildiki:

– Daladan har narsa qo‘limizga tushsa, siz podsholik deb olib qo‘yasiz, biz xizmatkorlaringiz quruq qolamiz.

Bu molni bir shart bilan olib chiqamiz, taqsir, shu sandiqni bo‘lamiz, ichini olasizmi, yo tishini?

To‘ra aytdi:

– Sizlar saylab olinglar.

Yigitlar bir-biriga qarab, ittifoq qilib:

– Tishi tilla ekan, bizlar tishini olamiz, – dedi.

To‘ra aytdi:

– Biz ichini olamiz.

Bir yigit ot solib olib chiqdi. Kaliti ham og‘zida ekan, ochib ko‘rdilar. Ichidan bir qog‘oz chiqdi, qog‘ozni yozib ko‘rsa, Xolbeka oyimning to‘lgan kamoli, oyday jamoli munavvar bo‘lib turibdi. Shahzoda ko‘rgan hamono tu-shida ko‘rgan mahbubini tanib, ichki dardini hech kimga aytolmay yurgan edi, suratini ko‘rgandan kay, osang, ustiga posang, hazor ustiga pansad bo‘lib, bir ishqil yuz bo‘lib, toqat keltirolmay, behush bo‘lib yiqildi. Qirq yigit shoshib, dami ichiga tushib, aqlidan adashib, barisi chuvlashib, to‘rani o‘rtaga olib, hay-hayni solib:

– Ko‘zingni och! – dedi. To‘rani aslo o‘ziga keltirolmadi. Oxir ikki otga saraja qilib, manzilga olib keldilar.

Qoraxon bechora yolg‘iz farzandini bu holda ko‘rib, yoqasini pora-pora qilib, qushnochni olib kelib qoqtirib, baxshini olib kelib boqtirib, mullani olib kelib o‘qitib, eshonni olib kelib halqa qilib qarataberdi. O‘g‘liga aslo naf qilmadi. Qoraxon podsho o‘g‘lining oldida betoqat bo‘lib:

– Nega ko‘zingni ochib gapirmaysan? – deb shuncha il-tijo qildi, o‘g‘li bilmadi, shu qushnochlardan bir ayyori bor edi. To‘raning vujudidan kasal topmay, ishqdan gumon qilib, podshoga aytdi:

– Siz dalaga chiqib turing.

Qushnoch qirq yigitini hozir qilib, bir-ikki-uch piyola sharobni to‘raga berdi. Sharobning kayfi bilan to‘ra ko‘zini ochib qarasa, qirq yigitni yig‘lab, o‘rtaga olib o‘tiribdi. To‘ra ishq dardini pinhon tutolmay, yigitlariga qarab bir so‘z aytib turibdi.

So ‘zi budir:

Bog‘ ichinda olma-anor istaydir,
Bo‘yi mahbub, mushki dildor istaydir.
Qadronlar, birga yurgan beklarim,
Do‘stlar-ay, ko‘ngil bir yor istaydir.

Beklarim, qilmanglar bag‘rimni kabob,
G‘aribning ko‘nglini ovlamoq savob.
Ertaroq podshodan olinglar javob,
Do‘stlar-ay, ko‘ngil bir yor istaydir.

Qulqoq songlar bu to‘raning tiliga,
Bulbul oshno bo‘lar bog‘ning guliga.
O‘zlarining chog‘langlar Zangar yo‘liga,
Do‘stlar-ay, ko‘ngil bir yor istaydir.

Alqissa, Qoraxon podsho o‘g‘lining dardini ishqidan bilib, ko‘ngli buzilib, yurak-bag‘ri ezilib, qaddi bukilib, ko‘zidan yoshi to‘kilib, o‘g‘liga qarab bir so‘z aytib turibdi:

Falak peshtoqidan uchgan yulduzim,
Ulug‘ daryolardan chiqqan qunduzim,
Har so‘zingdan tandagi jon aylansin,
Ne tilovman¹ tilab olgan yolg‘izim.

Ot chopmoqqa qoyim² Xizrnning dashi,
Xizr, Ilyos doim mardning yo‘ldoshi,
Och ko‘zing, boshingni ko‘tar, yolg‘izim,
Bir yor uchun yotarmikan mard kishi?

Eshitib ol bu otangning so‘zini,
Do‘st-dushmanga tuban qilma yuzini,
Yig‘diray No‘g‘ayning uli-qizini,
Obberay qizlarning jodu ko‘zini.

¹ Tilak bilan.

² Doim so‘zi ayrim hollarda xalq og‘zaki ijodiga xos doyim shaklda yozilgan.

Ko‘kragimga solma qayg‘u-alamni,
Ko‘zları qambarday qoshi qalamni,
Bir yor uchun aslo, bolam, g‘am yema,
Obberay paridan ortiq sanamni.

Alqissa, Qoraxonning bu so‘zini o‘g‘li eshitib, yigitlariga buyurdi: «Kechagi qog‘ozdagı suratni otamga ko‘rsatinglar». Yigitlari suratni ko‘rsatdi. Qoraxon qarasa, qog‘ozda bir qiz turibdi qayqayib: qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo‘lib, shirin qilib kulib, taraqqos boy-lab, suqsurday bo‘ylab, tovusday taranib, bellari buralib turibdi. Qoraxon insof qilib qarasa, No‘g‘ay yurtining qizi tugul¹, yer yuzining barnolari bir tola mo‘yiga arzimaydi. Qoraxon bildiki, to‘raning ilojini qilolmas, to Zangar bormasa, Xolbekadan boshqani xohlamas. Podsho noiloj, nochor javob bermoqchi bo‘lib, lashkarlarini yig‘ib, har dastasidan bittadan, qirq yigit ayirib berdi. Qirq xachirga zar ortib, aytdi:

— Ey farzand, burungilardan bir so‘z bor: «Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo‘r yarar kuningga», — degan ekan. Zarga kelsa, xachirdagi pulni ayama, zo‘rga kelsa, qirq yigitga buyursang, Xudodan kelgan ajal bo‘lmasa, bandadan kelgan ajaldan bir-ikki-uchga dovur ayirib olar. Bor, bolam, Alloh yoring bo‘lsin, pirlar madadkoring bo‘lsin, sog‘ borgaysan, salomat kelgaysan, omin Allohu akbar, — deb oq fotiha berdi.

* * *

Kuntug‘mish qirq yigitini olib, xachirlarga mol-dunyo ortib Zangar yurtiga keladi. Bir bazzoz² qiyofasiga kirib, ko‘shk yonida mato sotib o‘tirganida Xolbeka o‘z kanizaklariga bu yigitni saroyga olib kirishlarini buyurdi. Kuntug‘mish saroyga kirkach, shartga binoan nard o‘ynatadi

¹ Qo‘lyozmada tuva.

² B a z z o z — gazlama sotuvchi savdogar, gazlamafurush.

va Xolbeka yengiladi. Ikkalasi bazm-u suhbat bilan ovora bo‘lib, Xolbeka ko‘shkiga chiqmay qo‘yganini ko‘rgan Zangar podshosi Buvraxon undan xabar olgani o‘z jallodlari-yu mirg‘azablarini¹ jo‘natadi. Kuntug‘mish va Xolbeka qochib yashirinishadi. Biroq ayg‘oqchilar ular yashiringan joyni aytib berishgach, har ikkalasini ham ushlab, Buvraxon huzuriga bandi qilib olib borishadi. Buvraxon o‘z saroy a‘yonlariga bu ikkisi qanday jazoga loyiqligi borasida maslahat soladi.

* * *

Hamma umarolar maslahat qilib kengashdilarki: «Bu gapni shoh yaxshi aytdi. Bir ish qiling, shu begunohlar o‘lmasin. «Xon g‘azabi – Xudo g‘azabi», – degan ekan. Bularni shahardan tirik chiqarib yuboraylik, bandi bo‘lsa ham tirik ketsa, ajali yetmasa, bir yerdan chiqar, agar o‘lib ketsa, gunohi shohning bo‘yniga-da, – deb arkonи davlat gurullab birdan arz qildiki: – «E taqsir podshohim: osib o‘ldirdingiz – ko‘rdik, bosib o‘ldirdingiz – ko‘rdik, minor dan tashladingiz – ko‘rdik, to‘pga solib otdingiz – ko‘rdik. Bu beadablarga shunday jazo buyuramiz: bir tuv biyani olib kelib so‘ysangiz, terisini tulup qilib olsangiz, xom teriga ikkovini zich qilib tiqsangiz, bir asov baytalning dumiga taqib, cho‘l-jaziraga haydab yuborsangiz, bularning o‘ligini g‘ajir-quzg‘unlar yeb ketsa». Podshoga ma’qul qildilar. Podsho buyurib, bir tuv biyani tulup qilib so‘yib, ikkovini zich qilib, xom teriga tiqib, darvozadan chiqarib, bir asovning dumiga taqib, bir cho‘l-jaziraga qaratib, ko‘p odam chuylab hurkitib, haydab yubordi.

Asov baytal hurkib, ikkovini sudrab, cho‘lga uloqib ketdi. Baytalning dumি bir tol, yarim tol uzila-uzila, olti kun deganda [tulup] bir yerda tushib qoldi. Xom teri oftobning harorati bilan qurib, chunon qisdiki, temirday berkitdi.

¹ M i r g‘ a z a b – mahbus va bandilarni jazolaydigan, kaltaklab tergov qiladigan zindon nazoratchisi; bu yerda: mirshab ma’nosida.

Yoronlar, Xudoning qudrati kuchli,
Hu tog‘dan bir quzg‘un davr olib uchdi,
U jonivor parvoz aylab osmonga,
Nogahondan ko‘zi qudoqqa¹ tushdi.
Qanotin chimirib qo‘nib ustiga,
Amri Xudo bo‘ldi, cho‘qidi, teshdi.
Qo‘lin solib ikkalasi yirtishdi,
Sog‘-salomat shu qudoqdan chiqishdi.

Shahzoda omon-eson, sihat-salomat yori bilan qudoq-dan chiqib qarasalar, bir cho‘l-jazira, qo‘rqinchli changal-zorda tushib qolibdilar. El qayoqda, yo‘l qayoqda – hech narsani bilmadilar. Atrofga qaraydi, na tog‘ va na boshqa hech narsa ko‘rinmaydi. To‘raning ko‘ziga uzoqdan soyaday qorayib bir narsa ko‘rinadi. Shahzoda ko‘nglida: «Shu qora yo tog‘ bo‘lg‘ay, yo bir qora daraxt el bo‘lg‘ay», – deb ikkovi qo‘l ushlashib shu tarafga qarab ravona bo‘ldi.

Alqissa, shahzoda issiq qumda oyoqlarini oldirib, yo‘l yurolmay, jaziraning haybatidan badanlarida nam qolmay, tashnalik-suvsizliklari g‘olib bo‘lib, ko‘zları tinib, bosh-lari aylanib, giyohlarning tomirlarini qazib so‘rib: «Shu suv bo‘larmi?» – deb, ba’zi tomirlarni qazib: «Ovqat bo‘larmi?» – deb necha kunlar och, suvsiz cho‘llarda kezib, quvvatdan madori ketib, avvalgi kunlari yodlanib, falakdan shikoyat qilib, bir so‘z dedi; shikoyati bu turur:

Bir vaqtinda edim No‘g‘ayning shoyi,
Xizmatimda edi uch lak sipoyi.
Qancha xor aylasang, falak, rizoman,
Bo‘ldim endi qultum suvning gadoyi.

Oh urganda esga kelar boyag‘im,
Burungiday ermas mening siyog‘im,
Suvsiz cho‘lda giyoh bo‘lib ovqatim,
Yuray desam bostirmaydi oyog‘im.

¹ Qu do q – tulup ma’nosida.

Shahzoda olti kun och, tashna ketib borayotib edi. Xolbeka oyim tashnalib, lablari gezarib, tanda majoli qolmay qumga yiqildi. Shunda to‘rasiga qarab: «Men senga iyarolmayman (ergasholmayman), bir manzilga yetolmayman, qumda o‘lib qolaman, menga qarab sen ham nobud bo‘lma, sen elga yetib, odamlarga qo‘silsang, yurtingga borsang, men sendan roziman, zinhor menga qayrilma, orqangga boqmay keta ber, mening kasofatimga shuncha ranjlar ko‘rding, qattiq mashaqqatlar ko‘rding, mening uchun ko‘rding. E mard to‘ram, mendan rozi bo‘l, men ham sendan roziman, ket», – deb bir so‘z dedi:

Gapisam keladi gapning ma’qli,
Mard o‘g‘lonning pirga bo‘lar doxili,
Qaramayin keta bergen orqangga,
Baxtim qora, yaramayman shekili.

Toza gulday so‘lar bo‘ldim men emdi,
Daryoday bo‘p to‘lar bo‘ldim men emdi,
Sendan judo bo‘lar bo‘ldim men emdi,
Suvsiz cho‘lda qolar bo‘ldim men emdi.

Armon bilan o‘lar bo‘ldim men emdi,
G‘arib mozor bo‘lar bo‘ldim men emdi,
Qaramayin keta bergen orqangga,
Taqdirimga ko‘nar bo‘ldim men emdi.

Alqissa, Xolbeka oyim yig‘lab yiqilib qoldi. Shunda to‘rasi Xolbekaning boshiga soya solib, yorini suyab, ko‘nglini ovlab: «Bir g‘ayrat qil, yo‘limiz yaqin qoldi», – deb ko‘nglini ko‘tarib bir so‘z dedi:

Uzog‘dan chopilar otning sarasi,
Ko‘rinadi bir narsaning qorasi,
Bir faslga g‘ayrat qilgin, bo‘yingdan,
Yaqin qoldi manzilimning orasi.

Bandadirman, Alloni yod etarman,
Yolborib Haqqa munojot etarman,
Bir faslga g‘ayrat qilgin, bo‘yingdan,
Ko‘zim bilan qaytib tashlab ketarman.

Po‘lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o‘tarmi,
Sening to‘rang nomardlardan emasdир,
Mard o‘g‘lon sevdigin tashlab ketarmi?..

Ilohi kelmasin senga mahosil,
Qaytayin, bo‘lmadi maqsudim hosil,
Yurarga quvvating, holing qolmasa,
Kel, orqamga ko‘tarayin bir fasl.

Kuntug‘mish to‘ra yoriga g‘ayrat berib, shu qora tarafga tusmollab, oqshom yurib, kunduzlar issiq bo‘lsa changallarning soyasida orom olib, boyana uch kun deganda Mug‘olning tog‘iga yetdilar. Ikkovlari ham xursand bo‘lib: «Shukur, ajalimiz yetgani yo‘q ekan, o‘lmay shu tog‘ga keldik, albatta, chashmazor suvlar, har alvon mevalar bo‘lsa kerak», – deb chunon g‘ayrat qilib yurdilar. Tog‘ darasining ichiga kelib ko‘rsalar, yovvoyi yong‘oqlar, pistalar, jiydalar va yovvoyi toklar – har alvon mevalar pishib turibdi. Ikkovlari qorinlarini to‘yg‘azib, bir joydan oqmaydigan bir chashma ham topdilar. Shu chashmaning bo‘yini manzil qilib o‘tira berdilarn. Kuntug‘mish: «El daragini topamanmi, yo‘l daragini topamanmi?» – deb har kun chiqib shu tog‘larni izlar edi. Mug‘ol shunday tog‘ edi... Yovvoyi meva chunon ko‘p edi. Yoz kunlarida yovvoyi mevalarni qurutib, bir yerni qazib, qishlik ovqatini berkitib olar edi.

Kuntug‘mish to‘ra ertangisin turib ketar edi, bir baland cho‘qqiga chiqib qarar edi, el topolmas edi. Shu qish-u yoz shu yerda qoldilar. Xolbeka oyimning bo‘yida homila paydo bo‘lib, oyi-kuni yetib, vaqt-kuni yaqin bo‘ldi. Shahzoda doyimgi odatini qilib, toqqa chiqib ketib edi.

Xolbeka ikkita o‘g‘il tug‘ib, bolalarini qo‘liga olib, avvalgi kunlari esiga kelib: «Ochdan o‘ldirib qo‘ysam qanday qilar ekanman?» – deb yig‘lab o‘trib edi. Qarasa, Kuntug‘mish to‘ra ham el-yo‘l daragini topolmay g‘amgin bo‘lib kelayotib edi.

* * *

Kuntug‘mish, nihoyat, eng baland cho‘qqiga chiqib, pastga qarasa, bir katta karvonga ko‘zi tushadi. Sevinib quyiga tushadi va bir kosa suv, bir non so‘rab karvonchilar yoniga boradi. Karvonboshi Azbarxo‘ja degan xasis, xudbin, razil kimsa edi. U Kuntug‘mishga bir kosa suv va bir non evaziga buloqni egallab yotgan ajdahoni o‘ldirish shartini qo‘yadi. Kuntug‘mish bu shartni ado etadi. Azbarxo‘ja Qur‘oni karimni o‘rtaga qo‘yib, Kuntug‘mish bilan do‘s tutinadi. Xolbeka va bolalarini ham topib keliшади. Xolbekaning husni jamolini ko‘rib, Azbarxo‘janning fe‘li ayniydi. Kuntug‘mishni ziyofatda mast qilib, kigizga o‘rab, ikki o‘g‘lini (go‘dagini) ham shu sahroda qoldirib, Xolbekani bandi qilganicha Zangar yurtiga olib ketadi. Karvonda Qosim ismli yosh bir insofti, diyonatli yigit bor edi. U agar Kuntug‘mish zora o‘ziga kelsa, bizning izimizdan yo‘lga tushsa deb, bir kunlik-yarim kunlik yo‘lga bir ko‘za suv, ozroq ovqat qoldirib ketaveradi. Darhaqiqat, Kuntug‘mish o‘ziga kelib, ikki go‘dagini olib, karvon izidan tushadi. Yo‘lda bir daryoga duch keladi. Azbarxo‘ja daryodan kechadigan qayiqlarni ham suvga cho‘ktirib ketgan edi.

* * *

Shahzoda u yoq-bu yoqqa yugurib ko‘rdi, kema-qayiq topolmadi. Oxir ilojini topmay, ikki bolasini yo‘rgaklab, o‘zin suvga chog‘lab, daryodan yuzib (suzib) o‘tmoqchi bo‘ldi. Bittasini og‘ziga tishlab, u bittasini shu daryoning labiga qo‘yib, daryoga kirib biror o‘ttiz quloch urib edi.

Endi baxti qaytgan to‘rani ko‘ring, «Davlat ham egiz, mehnat ham egiz», shu bachchani¹ qo‘ygan yerning oldida bir tup g‘isha bor edi, shuning ostida bir qizil iyak qari bo‘ri pisib yotib edi. Shahzodaning daryoga tushganini ko‘rib, to‘ra uzagandan keyin, bachchaning belidan tishlab olib keta berdi. Bola qo‘rqib: «Ota!» – dedi. Shahzoda qarasa, bo‘ri tishlab olib borayotibdi. «Voh!» – deyman deb edi, og‘zidagisi ham suvga tushib ketdi, bir baliq yutib o‘ta chiqди. Shahzoda aytdi: «Bu-ku o‘ldi, ana unisiga yetar ekanmanmi?» – deb suvdan chiqib quvди. Ikki oyoqliga to‘rt oyoqli nega yetqizsin, u ham qutulib ketdi...

Shahzoda farzand dog‘iga toqat keltirolmay, nolishiga osmon-yer tebranib, yig‘lab turib edi. Shu vaqtida to‘raning nolasini eshitib, bir cho‘pon kelib qoldi. Qarasa, bir odam, sher haybatli, yo‘lbars sifatli bir kishi, falakdan shikoyat qilib yig‘laganiga tog‘-u toshlar suv bo‘lib turibdi. Cho‘pon bechora qo‘yni qo‘yib, to‘raning oldiga kelib: «Nega muncha yig‘laysan?» – deb bir so‘z dedi:

E, yori alam ko‘rgan, qaydin kelasan, ayg‘il,
Ko‘p ranj-u sitam ko‘rgan, qaydin kelasan, ayg‘il.

Kim erding guli so‘lgan, shum paymonasi to‘lgan,
Yoki bolasi o‘lgan, qaydin kelasan, ayg‘il.

Diyoridan ayrilgan, qanotidan qayrilgan,
Yo yoridan ayrilgan, qaydin kelasan, ayg‘il.

Sen muncha bo‘lib shaydo, muncha qilib vovaylo,
Yusufmisan, Zulayho, qaydin kelasan, ayg‘il.

Sen muncha bo‘lib purxun, ko‘z yoshing oqar Jayhun,
Yo Laylimisan, Majnun, qaydin kelasan, ayg‘il.

Yig‘laysan bozi-bozi, ko‘kka chiqar ovozi,
Yo Zebomisan, Yozi, qaydin kelasan, ayg‘il.

¹ Sheva xususiyatlariغا ko‘ra dostonda «bola», «bolalar» so‘zлari «bachcha», «bachchalar» tarzida ham ishlataligan.

Yoinki, qalandarsan, yo mardi dilovarsan,
Qilgin buni bovar san, qaydin kelasan, ayg‘il.

Ayg‘il menga¹ otingni, bergil bayon zotingni,
Qo‘y endi uyotingni, qaydin kelasan, ayg‘il.

Anda shahzoda dilovar cho‘pondan xabari yo‘q, o‘z hollariga yig‘lab turgan edi, ko‘zlarini ochib qarasa, bir qo‘y quvuvchi kelib, «Qaydan kelasan?» – deb so‘z so‘rab turibdi. Anda shahzodaning tutun-olovlari jo‘sh qilib, ko‘ngillari qaynab, bir dardmand topolmay, ichi g‘amga to‘lib turgan emasmi, cho‘ponni mungdosh bilib: «E bechora, beri kel», – deb cho‘ponga qarab, boshidan o‘tgan mashaqqatlarini aytib, bir-bir bayon qilib, bir so‘z dedi:

No‘g‘ay yurti – o‘sgan joyim,
Ko‘kka chiqar qilgan ohim,
Qoraxon der qiblagohim,
Otam elga sulton bo‘ldi.

No‘g‘aydadir mamlakatim,
Qayrilib sindi qanotim,
Kuntug‘mish der mening otim,
To‘ra nomi nishon bo‘ldi.

Quloq solgin nolishima,
Yo‘q savdo tushdi boshima,
Men kirdim o‘n to‘rt yoshima,
Bir kuygur tushdi tushima,
Xotirim parishon bo‘ldi.

Shul bo‘ldi Haqning taqdiri,
Ayrilmay manglayning sho‘ri,
Bittasin op ketdi bo‘ri,
Uni ko‘rmak gumon bo‘ldi.

¹ Qo‘lyozmada meg‘an.

Qarorim yo‘q, turay desam,
Madorim yo‘q, yuray desam,
Uyim yo‘qdir, boray desam,
Vatanim yo‘q, kiray desam,

Yorim yo‘qdir, ko‘ray desam,
Qo‘zim yo‘q, o‘rgilay desam,
Ajal yetmas, o‘lay desam,
Cho‘pon, boshim sarson bo‘ldi.

Cho‘pon: «E bechora», – deb o‘tib ketdi. Anda shahzo-da Xolbekani ham unutib, borayotgan yo‘lini ham qo‘yib, boshqa bir yomon yo‘lga tushib, ko‘ngli jo‘sh urib: «Bor dunyongdan kechdim», – dedi.

Shahzodani keta bermoqda qo‘ying, endi so‘zni kim-dan eshititing? To‘raning qo‘lidagi bolasini yutgan baliq mug‘dor o‘n gaz yer ham borgan yo‘q edi. Olim sayyod degan qatag‘anlik katta sayyod bir katta to‘rni yozib o‘tirib edi. Shu baliq boruvi bilan to‘riga tushdi. Ko‘tarib olsalar, bir katta baliq tushibdi. Ichini yordi, «Ota», – deb ichidan bir bola chiqqa keldi. Olim sayyod hayron qolib: «Ajab qudratlarining bor», – deb bolani uyiga olib borib, farzandi yo‘q edi, tarbiya qilib boqa berdi.

Endi bo‘ri olib qochgan boladan so‘zni eshititing.

Bo‘ri to‘raning bolasini olib qochdi, bir, ikki qirdan oshdi. O‘nta cho‘pon itiga osh pishirib yotib edi, bo‘ri-ning guzari ustidan tushdi. Cho‘ponlarning ko‘zi tushdi, itni qo‘shdi, bo‘ri shoshdi, bachchani tashlab qochdi. Cho‘pon-lar bolani tushirib olib, hayron qolib, birovi aytadi: «Qirga chiqqan xotinning bolasi.

Birovi aytadi: – Mo‘ltonining bolasi.

Birovi aytadi: – Qozoqning bolasi.

Birovi aytadi: – Bir uyquchi befarq xotinning bolasi».

Shu yerda o‘n bir cho‘ponning qo‘sni doyim bir edi. Kunda kechkisin bari yig‘ilib kelar edi. Erta turib, qo‘ylar-ni har tarafga haydab ketar edi. Kechkisin boyagi to‘raga

uchrashgan cho‘pon qo‘yini haydab kelsa, jo‘ralari: «E birodar, bizlar bukun bo‘ridan bir bola tushirib olib qoldik», – deb o‘rtaga olib o‘tiribdi. Cho‘pon ko‘nglida aytди: «Haligi sho‘rlining bolasi».

Oradan bir-ikki kun o‘tmay ovoza bo‘lib qoldi: «Olim sayyod qatag‘an baliqning ichidan bitta tirik bolani topgan emish». Buni ham haligi cho‘pon eshitdi. «Haligi sho‘rlining bolasi», – deb yurdi. Cho‘ponlar bo‘rini gurk der ekan, o‘z oti o‘zi bilan, bolaning otini Gurkiboy qo‘ydilar. Baliqni sayyodlar mohi der ekan, unisining otini Mohiboy qo‘ydilar.

* * *

Shunday qilib, Gurkiboy va Mohiboy Zangar shahriga kirib boradilar. Ko‘chada Xolmo ‘min yasovulboshiga duch keladilar. Xolmo ‘min ularni o‘z uyiga xizmatkor qilib olib ketadi. Kuntug‘mish ham shu shaharda, o‘z niyatiga yetolmay, bir tadbir-chora topolmay, eski kuloh-jandalarni kiyib yurgan edi.

* * *

Bachchalarни borganiga besh oy-olti oy bo‘lib edi, shu shaharning podshosi Buvraxon podsho o‘ldi. U vaqtida podsholarga rasm shu edi: davlatqush degan qushini uchirar edi, kimning boshiga qo‘nsa, podsho qilar edi. Shu davlatqushni uchirganiga uch kun bo‘lib edi. Zangar shahring jamiy katta-kichik odami dalada edi. Qush goh daraxtga, goh devorga qo‘nib yurib edi. Banogoh shu vaqtda Kuntug‘mish to‘raning ham guzari shu yerga tushib qolgan ekan. Kuntug‘mish to‘ra katta bir chilimni beliga boylab olibdi, o‘zini hech odamga o‘xshatmay, yomon jandalarni kiyib, o‘zini shaylab olibdi. Hech kim bilan ishi yo‘q, odam bilan xushi yo‘q, o‘zidan boshqa kishi yo‘q; chekadi bang, aytadi vadavang. Bir qurib qolgan daraxtning os-

tiga borib, ko‘mir qilmoqchi bo‘lib, olov yoqib, nashanning taraddudida edi, davlatqushi borib to‘raning boshiga qo‘ndi. Shahri Zangarning odamlari qushni quvalab borsa, qush bir devonaning boshiga qo‘nib turibdi. Arkoni davlat otdan tushib, izzat-ikromlar bilan salom berib:

— «Taqqsir podshoyim, yurtingiz qutli bo‘lsin», — desalar, to‘ra teskariga qarab, dim indamaydi. Oxirda odamlar qushni olib ketdilar. Podshoning arkidan boz uchirdilar. Bo yana kelib (Kuntug‘mishga) qo‘ndi. Bu mavrud ham «Yurtingiz qutli bo‘lsin», — desalar, dim indamaydi. Tag‘i qushni olib ketdilar. Olib borib qushni yana arkdan uchirdilar. Boz kelib, uchinchi marotaba ham bangining boshiga qo‘ndi. Bu mavrud shahri Zangarning ulamolari, fuzalolari, katta ulug‘lari kelib, muborakbod qilib: — «Taqqsir podshoyim, yurtingiz qutli bo‘lsin», — desa, teskariga qarab, javob bermadi.

Shunda kattalar turib aytdi:

— Ey yoronlar, uch debdi, uchdan keyin puch debdi. Endi shu odamni olib borib, podsho qilmoq darkor. Har vaqt bir odam podsho bo‘ladi-da¹. Shu ishga qaraganda, shu odam nazokatli odam, yo bo‘lmasa, qushni arvoh urgan. Agar bangi bo‘lsa, jinni bo‘lsa, bir kun podsholik taxtini tashlab ketib qolar. Biroving podsho bo‘lasan-da va agar bajarsa, shunday bir odam podsho bo‘ladi-da, — deb qo‘lidan chilimini tortib olib, otib yubordilar. Biroq kigizning ustiga chiqarib, chir tevaragidan ko‘tarib, jarchilar:

— Zamon kimning zamoni, Qalandarxonning zamonni, — deb ko‘cha-ko‘chalarga jar solib qichqira berdilar. To‘rani ko‘tarib, taxti shohiga keltirib, tilla taxt ustiga o‘tqizdilar. Ustiga podshohona xil’atlar kiygizib, boshiga tilladan bo‘lgan tojni qarqara qilib, o‘tqizib, hukumat niginini qo‘liga solib, jamiy mardumi shahar dasti bay’at berdilar. Ana Kuntug‘mish to‘ra bir qarichdan beri yurt so‘rab yurgan emasmi, jamiy olamni uzukday changaliga

¹ Qo‘lyozmada bo‘lata.

olib, chirsillatib so‘rab keta berdi. Anda jamiy shulonxo‘r umarolariga farmon bo‘ldiki: «Mening chulon oshimga kelgan amaldorlarkim, bir hafta-bir haftadan jilovxonamda istiqomat qilib ketsin». Avval navbat Xolmo‘min yasovul-boshiga tegdi.

Yasovulboshi hovlisiga kelib, avval bachchalariga tayin qildiki:

— O‘ bachchalar, men yangi bo‘lgan podshoning jilovxonasida bir hafta turib kelaman, lekin sizlar oqshom uxlamanglar, kunduz uxlanglar. Sipoyi xalqining dushmani ko‘p bo‘ladi, namozdigardan keyin aslo darvozani ochmanglar, mabodo bachchalik qilib, g‘ofil qolib, bir hodisa ro‘y bermasin, — deb ko‘p tayinladi. Andin keyin ichkariga kirib ayoliga tayin qildiki:

— O‘ xotin, men ikkita yetim bola saqlab qo‘yibman, ilgarigi yetimlarday beparvo qolib ketib qolmasin, holi ahvoldidan ko‘p xabardor bo‘l, e, yetim-da, dema. Men bularning oxirini ko‘raman, deb yuribman. Umidim shulki, bular soyasi yerga tushmagan xonzoda chiqar, agar hech nima bo‘lmasa, bir asl sayyidzoda chiqar. Bularni aslo yetim demagaysan, — deb xotiniga ko‘p tayinladi. Andin so‘ng hovlisidan chiqib, podshoning davlatxonasiga ketdi.

Xolbeka oyim chechasiga aytди:

— O‘ yanga, akam sira yetimni yetim demas edi, ikki yetim bor, deb og‘zidan tushirmaydi. Shu yetimlarni bir ko‘rsak, qaytadi?¹

Xolmo‘minning xotini aytди:

— Akang bo‘lsa chiqib ketdi, ko‘rsang yur esa ko‘rsatib kelayin, — deb bitta non, bir kosa suv olib mehmonxonaning eshididan uzatib edi, Mohiboy kelib qo‘lidan olib ketdi. Anda o‘tirib nonni o‘rtaga qo‘yib yemakchi bo‘lib turib edi. Xolbeka oyim mehmonxonaning tokcha teshigining ichidan qarab, ikki go‘dakni ko‘rdi. Ikkovini ko‘rgan

¹ Qanday bo‘ladi?

hamono, uvuz eti uv bo‘lib, to‘la badani suv bo‘lib, jamiy a‘zosida larza paydo bo‘lib, ko‘kragiga sut kelganday bo‘ldi.

Xolmo‘min yasovulboshinikida xizmat qilib yurgan Gurkiboy va Mohiboy xo‘jayin uyda yo‘qligida bo‘za ichib, og‘zi qizib turganida Gurkiboy ukasiga sirni oolib qo‘yadi.

Gurki bechora avval aytar edi: «Podsho xalqining dushmani ko‘p, agar aytsam, bu o‘zi yengil ekan, birovga aytib qo‘yar», – deb aytmas edi. Bul vaqtida o‘zini to‘xtatolmay, yuragi toshib, Mohiboya: «E jigarim, kishining zoti-zuryodi, ota-enasi, eli yurti bo‘lmasmi? San go‘daksan. Yurting No‘g‘ayda san bedarak emassan», – deb bir so‘z dedi:

Bilmaganing bildirayin, bilmasang,
Bayakbor maqsadga yetsang, o‘lmasang,
Men senga zotingni bayon aylayin,
Ertangman birovga aytib solmasang.

Uzoqda, Mohiboy, o‘sgan diyorim,
Bexabar qolgandi ko‘p ichkuyarim,
Ikkovimiz sut emishgan shirxo‘ra,
Men akangman, sen bo‘lasan jigarim.

Bu yetimlik seni qildi sargardon,
Cho‘pchak terib, tilab yeysan parcha non,
Zotingni aylasam men senga bayon,
Tub bobongdir Avliyoyi Qoraxon.

Maydon-maydon otam otin yelgandir,
Mard o‘lg‘ondir, shirin jonin bo‘lgandir,
No‘g‘aydan otamiz Zangar kelgandir,
Nard o‘ynab enamni utib olgandir.

Musofirlilik, shohga bandi bo‘lgandir,
Tanimay bularga zulm qilgandir,

Bir teriga tikib ikki oshiqni,
Asovga sudratib cho‘lga solgandir.

Bizni deb zor-zor bo‘lgan otamiz,
Baloga giriftor bo‘lgan otamiz,
Ikkovimiz uch yoshlarga kirganda,
Ko‘p karvonga duchor bo‘lgan otamiz.

Quloq solgin alvon-alvon tillarga,
Bulbul oshno bo‘lar bog‘da gullarga,
Enamizni karvon olib ketgandir,
Ikkovimiz qola bergen cho‘llarga.

Shunday bo‘p ayrılgan ikkovginamiz,
G‘am bilan sarg‘aygan gulday tanamiz,
Ikkovimiz sut emishgan shirxo‘ra,
Shu bebaxt Xolbeka bizning enamiz.

Bu so‘zni Gurkiboy Mohiga aytdi,
Xolbeka xatosiz barin eshitdi,
Bollaridan bu so‘zini eshitib,
Quvongandan bebaxt o‘zidan ketdi.

So‘z eshiting suxanvarning so‘zidan,
Yosh quyilib ikki qora ko‘zidan,
Vo bolam, deb tomdan o‘zin tashladi,
Bolam dedi, sho‘rli ketdi o‘zidan...

Alqissa, Xolbeka oyim bolalari bilan topishdi. Aytdi:

— Ey go‘daklarim, men sizlarni o‘ldi deb edim, sira tirik demas edim. Nima uchunki, sizlar juda yosh edinglar, hech murabbiylaring yo‘q edi, o‘ldi demakka tilim bormas edi. Xayolim bilan tirik qilar edim. Endi menga bola qayoqda, deb umidimni uzgan edim. Ming-ming shukur, sizlar tirik bor ekansizlar. «Otangning o‘lganiga endi xafa bo‘lmayman», — deb bolalari bilan topishib, og‘zi-burnini o‘pishib, xumori tarqashib, gaplashib o‘tirdi.



Xolbeka Kuntug ‘mishning podsho bo ‘lganidan bexabar, Zangar otalaringga vafo qilmadi, sizlarga ham vafo qilmaydi, deya o‘g‘illariga ot-ulov, qurol-yarog‘ berib, bobolarining yurti No‘g‘ayga jo‘natadi. Ular Zangar shahridan chiqishda darvozabon qo‘rboshi bilan janjal-lashib, uni o‘ldirib ketishadi. Sakkiz kecha-kunduz yo‘l bosib Olatog‘ degan joyga yetishadi. Olatog‘da o‘n ming uyli qul yilqi boqib yurar edi. Yilqilarni ko‘rib Mohi-boyning fe‘li ayniydi va bir to‘p yilqini haydab keta boshlaydi. O‘rtada cho‘ponlar bilan qattiq jang bo‘ladi. Jangda aka-uka g‘olib chiqib, barcha yilqilarni No‘g‘ay yurtiga haydab ketishadi. Besh kunlik yo‘l yurgach, ikkaliasi ham horib-charchab, bir yerga qo‘nib uxlab qolishadi. Bu orada cho‘ponlarni ikki yigit o‘ldirib, yilqilarni haydab ketganini podsho eshitib, ular ortidan lashkar jo‘natgan edi. Lashkar yetib kelib, uxlab yotgan Gurkiboy va Mohi-boyni bandi qilib Zangar shahriga olib ketishadi.



Bu ikki go‘dakni bandi qilib, o‘n kun yo‘l yurib, o‘n kun deganda Zangar shahriga olib bordi. Gurkiboy tavakkal qilib ketib borayotibdi, Mohiboy so‘zlab, yig‘lab borayotibdi. Shunda bularning kelayotgani Zangar shahriga ovoza bo‘ldi. Hech bir eshitmagan odam qolmadni. «Yangi bo‘lgan podsho yangi bo‘lgan bandisini to‘xtovsiz dorga tortadi», – deb ovoza bo‘lib, yaxshi-yomon, yugruk-chobon, xurd-u kalon, qiz-u juvon ko‘cha-ko‘ylarda, tomlarning ustiga chiqib, ko‘rmagan odam qolmadni. Bu ikkovini ko‘rib, yig‘lamagan odam bo‘lmadi. «Hay attang, dunyosi qursin, shunday yosh bachchalar o‘lib ketsa. «Xon g‘azabi – Xudo g‘azabi», degan, chiqmasak bo‘lar ekan, chiqib alamimiz ziyoda bo‘ldi», – deb mardumi shahar yig‘lashib, orqasidan ergasha berdilar. Endi yangi bo‘lgan podshodan eshititing.

Arkoni davlat, umaro, vazir-vuzaro, qozi-fuzalo, muf-ti-ulamo, mahram, yasovul, og‘achi, shig‘ovul – jamiy sipohilari bilan o‘tirib edi. Ikkita go‘dakni olib borib, manzur qildi. Ikki bandiga ikki yangi dor tuzab, qurdirib turib edi. Podsho ko‘rgandan mehri toblab, otalik mehri qaynab, bachchalarni ko‘rgandan uvuz eti uv bo‘lib, to‘la badani suv bo‘lib, ko‘ngli buzilib, bag‘ri ezilib, ko‘zining yoshi tizilib, avvalgi aytib o‘tirgan gaplariga pushaymon yeb: «Kel-e, bu bachchalarning og‘ziga bir luqma solay, agar bizlar qilganimiz yo‘q desa, ozod qilay, bu bolalar o‘ldiradigan bola emas ekan-ku», – deb ikki bolasiga qarab bir so‘z dedi:

Yurgan yering balandmidi, pastmidi,
Ko‘p odam bandi qip senga qasdmedi,
Oqsuvdan ne deb haydading yilqimni,
Haydaganing yolg‘onmidi, rostmedi?

Yosh bachchalar, ko‘nglingni shod aylayin,
Bu fonyi dunyodan faryod aylayin,
Munkir kelsang, bollar ozod aylayin,
Haydaganing yolg‘onmidi, rostmedi?

Bachchalar podshoning bu so‘zini eshitdi. «Munkir kelsa ozod bo‘lar ekan, lekin mardlik qo‘ldan ketadi», – deb Moliboy:

– E podshoyim, mardlar o‘laman deb so‘zidan qayt-mabdi, – deb otasiga qarab bir so‘z dedi:

O‘laman, deb mard qavlidan toyama,
Yo‘qchilik jo‘mardning ko‘zin o‘yama,
Oqsuvdan yilqingni o‘zim haydadim,
Qo‘lingdan kelganing qilgin, ayama.

Mardlarning parvoyi bo‘lmas o‘limdan,
Musulmonman, kalma kelar tilimdan,
O‘laman, deb mard ham ikki so‘zlarimi,
Munkir kelsam, mardlik ketar qo‘limdan.

Shu bolalarni haydab borgan o‘n ikki ming lashkar birdan chuylab arz qildi:

— Taqsir podshoyim, bunday bo‘yni yo‘g“on bola yerning yuzida yo‘q; taqsir, o‘n kundan beri haydab kelyapmiz-a, ertadan-kechga davur bizlar bilan o‘rlashib, o‘r yog‘ini bizlarga bermay kelayotibdi. Bunday bo‘yni yo‘g“on bolani bizlar sira ko‘rmay kelayotibmiz. Buning bo‘ynini podsho ingichkartsin, — deb olib keldik.

Shunda podsho hayron bo‘lib, nima deyarini bilmay qoldi. Avvaldan hukm bo‘lgan emasmi, jallod-mirg‘azablar urib-so‘kib yangi tikilgan dorga qaratib olib keta berdi. Shunda Xolbeka bechora ham ayollar bilan dorning oldidagi tomning ustiga chiqqan ekan, shunday tiklab qarasa, ikki bolasini ham jallod-mirg‘azablar olib kelayotibdi. Bolalarini tanib, ichi o‘tday yonib, chirqirab, tomdan o‘zini tashladi...

Alqissa, Xolbekaning aqli shoshib qolgan edi. Jallodlardan ko‘p tayoq yeb, nima derini bilmay, dorni ko‘rgandan, ayol emasmi, joni chiqib qo‘rqib, ha, — derga holi, yurarga majoli bo‘lmay, dorga qarab bir so‘z dedi:

Qaladin qalampir yuklar qalachi,
Durdonadan anbar tog‘ning og‘ochi,
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, dorning og‘ochi.

Shonaman taralar qizlarning sochi,
Madad qiling Bobo Zangi podachi,
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, dorning og‘ochi...

Enasining bu so‘zlariga Gurkiboyning achchig‘i kelib, enasiga qarab: «E sho‘rli, qismati qattiq enam. Bu dunyoga kelib biror shod bo‘lmay yig‘lab o‘tgan enam, taqdiringga ko‘n-da, bu og‘ochning qo‘lidan nima keladi», — deb bir so‘z dedi:

Bizlar chiqdik, ena, Zangar elidan,
Bog‘bon uzar bog‘ning toza gulidan,
Yig‘lasang Xudoga yig‘la, enajon,
Nima kelar qur og‘ochning qo‘lidan...
Podsholar tolibdir taxt bilan tojga,
Ko‘ngli ketar doyim zakotman bojga,
Nima kelar qur og‘ochning qo‘lidan,
Kofirmiding, elanasan og‘ochga?..

Gurkiboy qarasa, jallodlar Mohining boshida, Mohini o‘ldirmoqchi bo‘layotibdi. Shunda enasiga aytayotgan so‘zini qo‘yib: «O», jallodlar, avval meni o‘ldiringlar, mening oldimda Mohi o‘lmasin, mening ko‘zim ko‘rmasin. Mening yoshim katta, yo‘l meniki», – deb jallodlarga qarab, bir so‘z aytayotibdi:

Beklar minar bedov oting tolmasin,
Hech kimsa dunyoda bizday bo‘lmasin,
Mendan burun Mohi bebaxt o‘lmasin,
Mohining o‘ligin ko‘zim ko‘rmasin.
Zolim jallod, bilmaganim bildirgin,
Yig‘latma Mohini, o‘ynab-kuldirgin,
Meni o‘ldir, Mohini qo‘y, jallodlar,
Yoshim ulug‘, avval meni o‘ldirgin.

Shunda Mohi zor yig‘lab: «E jallodlar, gunohni men qilganman, Gurkiboy meni shuncha qaytardi, aytganini qilmadim. Gurkining gunohi yo‘q, meni o‘ldiringlar, Gurkini ozod qilinglar, men Gurkining qoniga zomin bo‘lmayin», – deb jallodlarga qarab bir so‘z dedi:

Qonlar oqsin mening ikki ko‘zimdan,
Yangilmadim, aslo aytgan so‘zimdan,
Bu ishda Gurkining yo‘qdir gunohi,
Qancha gunoh bo‘lsa yolg‘iz o‘zimdan...
Hech odam dunyoda bizday bo‘lmasin,

Bizday bo‘lsa bu dunyoga kelmasin,
Meni o‘ldir, Gurkini ozod aylanglar,
Qoraxonning yurti sabil qolmasin;
No‘g‘ayning yurti besohib bo‘lmasin,
Mening kasodimga Gurki o‘lmasin.

Anda Kuntug‘mish to‘ra taxtidan tushib, aqlidan ada-shib, nima qilarini bilmay shoshib, chopib dorning ostiga kelsa, tomoshabin zich-to‘p bo‘lib turibdi, yo‘l bermaydi. Shunda to‘ra zor yig‘lab, tomoshabinlarga qarab qoch, deb bir so‘z dedi:

Bolam kepti necha tog‘lardan osha,
Ikki zulfi gardaniga yarasha,
Po‘sht-a, po‘sht, tomoshabin jonlarim,
O‘lganning nesin qilasizlar tomosha.
Qo‘ldan ketib davr ilan davronlarim,
Vayron bo‘lib ko‘shk ilan ayvonlarim,
O‘lganning nesin qilasizlar tomosha,
Yo‘l beringlar, tomoshabin jonlarim.
Bolamning oldida men dod aylayin,
O‘z holima necha faryod aylayin,
O‘lganning nesin qilasizlar tomosha,
Qochinglar, bolamni ozod aylayin...
Qulqol soling gapimning payvastiga,
Mayiblarday ingranadi Kuntug‘mish,
Bo‘zlab bordi zolim dorning ostiga.

Odamlar podsho keldi deganiga jallodlar shoshib: «Shu vaqtga davur o‘ldirmabsan, deb bizlarni o‘ldiradi. Shuning uchun kelgan-da podsho», – deb Mohiboyga pichoq solmoqqa shoshib, bo‘ynida arqon bilan kurmak boy-lab, mirg‘azablarga «tort» – deb yubordi. Tortib yubordi. Kuntug‘mish to‘ra chopib kelib, Mohiboyni suyab, jallodlarga: «Qo‘yib yubor ipni», – dedi. Jallodlar ipni qo‘yib yubordi. Mohining dami tutilib, dami ichiga tushib

qoldi. Kuntug‘mish to‘ra Mohini ko‘kragiga olib: «Shamolni ochinglar», – deb har ko‘zidan yet mish qatra yoshini to‘kib, qaddi bukilib, Mohining betiga tiklab turibdi. Gurkiboy ham yig‘lab, ukasining oldiga borib: «Voh, ukamdan ayrildim», – deb yig‘lab turgan mahalda, Xolbeka sho‘rli ham: «Voh, bolam», – deb qarasa, Kuntug‘mish to‘ra Mohini ko‘kragiga olib, ko‘tarib yig‘lab turibdi. Shunda Xolbeka oyim to‘rasini yulmalab, erini qarg‘ab: «Podsho bo‘lmay bo‘luvsiz qolgur», – deb erini mushtlab qoldi. Xolbeka bechora bilsa, Zangarga yangi bo‘lgan podsho Kuntug‘mish to‘ra ekan. Shunda erini tanib, bir so‘z dedi:

Men seni shahzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo‘ygan dard eding,
Chiqsin ko‘zing, tanimading bolangni,
Ne tilingman buni dorga tort, deding...
Armon bilan bilmaganim bildirding,
Zor yig‘latib, ko‘zim yoshga to‘ldirding,
Ne tilingman buni dorga tort deding,
Podsho bo‘lib, o‘z bolangni o‘ldirding.
Yura bilmay yurar yo‘ldan toy rildim,
Ucha bilmay qanotimdan qayrildim,
Chiqsin ko‘zing, tanimading bolangni,
Armon bilan men bolamdan ayrildim.
Men seni shahzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo‘ygan dard eding.

Xolbeka bechoraming: «Voh, Mohi», – deb yig‘laganiga hech kimda tob-toqat qolmadi. Kuntug‘mish to‘raning: «Bolam», – deb na‘ra tortgan dovushi osmonga yetdi. Gurkiboyning: «Voh, ukam», – deb yig‘laganiga hech kim toqat qilolmadi...

Alqissa, shu turgan xaloyiqlar qarasalar, shu qalandarxon Kuntug‘mish to‘ra ekan, o‘g‘ri bo‘lib qo‘lga tushgan bachchalar qumda qolgan go‘daklar ekan. Arkoni

davlat, Xolmo‘min bosh bo‘lib kelib, Mohiboyni suyab ko‘tarib, arkka olib chiqib ketdilar. Bir soatdan keyin Mohiboy ko‘zini ochib, o‘ziga keldi. Xolbeka bechora Mohini bag‘riga olib, quvonib, yuragi yorilib qolay dedi. Mohiboyning boshidan tovoq-tovoq tilla-kumushlarni sadaqa, deb chocha berdi.

Endi turgan katta-kichiklar, umarolar, amaldorlar, podshoning oldida turgan in’omli kishilar Kuntug‘mish to‘ra bilan qayta boshdan ko‘rishib, ixlos-e’tiqodi ziyo-da bo‘lib, Gurkiboy bilan Mohiboyni izzat-hurmat qilib, shohona kiyimlar kiygizib, toji xisravn ni boshiga qo‘yib, qayta boshdan muborakbod qildilar. Kuntug‘mish to‘ra ham ko‘hna xazinalarini ochirib, tilla-kumushni elatiyasiga in’om-ehson qila berdi. Endi Zangar eliga podshoh qirq kun to‘y berdi.

Zangarning katta-kichigini yig‘ib, hammasini o‘zidan rozi qilib turgan vaqtida, arkoni davlat turib arz qildi: «Buvraxon podsho Azbarxo‘jani zindon qilgan edi, hali o‘lgani yo‘q, zindonda yotibdi. Farmoyishlari nima?» Kuntug‘mish to‘ra buyurdi: «Olib chiqinglar!»

Azbarxo‘jani zindondan olib chiqdilar. Kuntug‘mish ikki o‘g‘liga buyurdi: «Mening «do‘stimdan» o‘chlarining oling-lar. Men do‘stlik otini tutganman, qoshiga bormayman, yuzini ko‘rmayman...»

Shunda Mohiboy bilan Gurkiboy qo‘llariga xanjarni olib, Azbarxo‘janing qoshiga bordi. Aytdi: «Huv otamning «do‘sti», bizlarni taniysanmi? Bizlar Zarchamanning cho‘lida emaklab yig‘lab qolgan bolalar bo‘lamiz. Sening shu qilgan «yxaxshililingni» qaytarmoqchi bo‘lib keldik», – deb ... ikki bola Azbarxo‘jani bosib oldi. Azbarxo‘ja ga-pirolmay, ho‘kizday bo‘kirib-bo‘kirib, itday bo‘lib o‘lib qoldi. Azbarxo‘janing ishi tamom bo‘ldi.

Kuntug‘mish to‘ra qirq kun, qirq tun to‘y berib, to‘yi tamom bo‘ladigan kuni jamiy arkoni davlatini yig‘ib, Xolmo‘minni Zangarga podsho qildi. Zangar shahrining jamiy bek, umarolari Xolmo‘minga dasti bay’at berdi.

Endi Kuntug‘mish to‘ra No‘g‘ay elga bormoqchi bo‘lib, yo‘l jabdug‘ini tayyorlay berdi. Qatorda nori bilan, xazinada zari bilan, ikkita bolasi qoshida, Xolbeka yori bilan, qancha xizmatkor, qul, cho‘ri, kanizaklari bilan jo‘nadi. Shunda Xolmo‘min Zangarning ulug‘, akobirlari bilan o‘n kunlik yerga billa kelib, Kuntug‘mish to‘ra bilan xo‘splashib, jiyanlari bilan ko‘rashib, yig‘lashib Zangarga qarab qaytdi.

Kuntug‘mish to‘ra omon-eson, sihat-salomat yurtiga borib, qavm-u qarindoshlari bilan, o‘zining yor-u jo‘ralari bilan, elining ulug‘, kattalari bilan ko‘rashib, o‘ynab-kulishib, otasi Qoraxonning toj-taxtiga ega bo‘lib, davrini sura berdi.

Lekin Qoraxon podsho necha yillardan beri o‘zining o‘rniga qushbegisini qo‘yib, Kuntug‘mishning o‘tiga kuyib, tagizaminga kirib, toat-ibodatga mashg‘ul bo‘lib yotib edi. Bechora ibodatxonasidan chiqib, yolg‘iz farzandini ko‘rib, ko‘rashib, nabiralarini ko‘rib, Xolbeka bilan ko‘rashib, jamiy elini yig‘ib, ko‘hna xazinalarini ochib, qirq kecha-qirq kunduz podshohona to‘y qilib berib, o‘zining taxtiga Kuntug‘mish to‘rani chiqarib, o‘zi boshidan muborakbod qilib, podsho qildi. Kuntug‘mish to‘ra shunday qilib murod-maqsadiga yetdi.

NAZARIY MA’LUMOT

ISHQIY-QAHRAMONLIK DOSTONLARI

Doston xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz adabiyotida keng foydalanib kelinayotgan epik shakllardan biridir. «Doston» so‘zi xilma-xil ma’noni bildirib kelgan. Masa-lan, «doston» forschada epik asar nomini anglatadigan so‘z bo‘lib, u hatto qissa, romandek katta nasriy asarlarga ham nisbat beriladi. Siz bilan biz o‘rganayotgan doston esa xalq og‘zaki ijodida yaratilgan va yaratilayotgan muayyan

kompozitsion yaxlitlikka ega bo‘lgan xalq dostonlaridir. Ular yozma adabiyotdagi «Suhayl va Guldursun», «Far-hod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlardan fantaziya ko‘لامи, ko‘з ko‘rib, qulq eshitmagan voqealar, aql bovar qilmaydigan qahramonliklar tasviri bilan farq qiladi. To‘g‘ri, yuqorida nomlari tilga olingan dostonlarda ham fantastik unsurlar, mubolag‘ali o‘rinlar mavjud. Biroq ularning birortasi sujet erkinligi, favqulodda qiziq voqealar borasida xalq dostonlari bilan tenglasha olmaydi.

Dostonlarimizda xalqimizning baxtli kunlar, ro‘shno-liklar haqidagi orzu-umidlari, faqat yaxshilikka, yorug‘ kunlarga erishish istagi yotadi. E’tibor bersangiz, dostonlar muvaffaqiyatli yakun bilan tugaydi. Asar qahramonlari juda katta fojialarni, qiyinchiliklarni boshlaridan kechiradilar, og‘ir sinovlarga bardosh beradilar, oxir-oqibat murod-maqsadlariga erishadilar.

Xalq dostonlarining ko‘pchiligiga xos xususiyat – ularda ishq-muhabbat mavzusining ustunligidir. Dostonlardagi voqealar qahramonlarning ishqiy sarguzashtlari fonida kechadi. Masalan, dunyoga mashhur «Alpomish»ni olasizmi, «Ravshan» yoki «Kuntug‘mish» dostonlarini olasizmi – bari-barisida muhabbat mavzusi ustuvorlik qiladi. Dar-haqiqat, muhabbat – muqaddas tuyg‘u. Sevimli shoiramiz Nodirabegim ta’biri bilan aytganda esa:

«Muhabbatsiz kishi odam emasdur,
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et».

Muhabbat insonni ezgulikka yetaklaydi, sevgan kishi har qanday qahramonlikka qodir hisoblanadi. Biz o‘rgangan «Kuntug‘mish» dostoni sevishganlar haqida chiroqli asar, uning janrini ishqiy qahramonlik dostoni, deb belgilash mumkin. Chunki Kuntug‘mish dostonda katta qahramonliklar ko‘rsatadi: yurtga qiron keltirgan ajdarni yengadi, tosh bostirib qo‘yilgan kigiz ostidan chiqib ketadi. Bu qahramonliklar shunchaki o‘zini ko‘rsatish emas,

avvalo xalqni ajdar ofatidan qutqazgan bo‘lsa, sevikli yori, bolalarini deb g‘oyat tang bir holatda aql bilan ish tutadi, vatanparvarlik do‘stlikni qadrlaydi.

Umuman, Kuntug‘mishning dostonidagi hayoti qahramonlik bilan kechadi. Uning Xolbeka visoliga yetishish uchun uzoq safarga otlanishi, yo‘lidagi barcha to‘siqg‘ovlarni yengishi haqiqiy insoniy jasorat, fidoyilikdir. Dostonidagi Xolbeka, Gurkiboy va Mohiboy harakatlarida ham qahramonlik belgilari mavjud. Axir Xolbekaning sevgan yori, bolalari uchun jonini berishga tayyorligi, Gurkiboyning ukasi uchun o‘zini fido qilishga shayligi (uning dor ostidagi so‘zlarini eslang) qahramonlik emasmi?!

Birgina «Kuntug‘mish» dostoni emas, boshqa dostonlarda ham asar personajlari turli qahramonlik namunalarini ko‘rsatadilar, bu qahramonliklar odamlarning og‘irini yengil qiladi, el-yurtga ro‘schnolik keltiradi. Baxshi bobolarimiz sevib kuylagan «Kuntug‘mish» kabi ishqiy-qahramonlik dostonlari bizni muhabbatdek ezgu tuyg‘uni qadrlashga undaydi, fidoyilik, qahramonlikka chorlaydi, chunki ishq-muhabbat, qahramonlik, jo‘mardlik doimo egizak tushunchalardir.

Savol va topshiriqlar

1. Xalq dostonlari haqida nimalar bilasiz?
2. Dostonchilik maktabini yaratgan qaysi mashhur baxshilarni bilasiz?
3. Dostonchilik maktablari qachon paydo bo‘lgan va qaysi asr uning juda rivojlangan davri bo‘lgan?
4. Yurtimizda dostonchilikni rivojlantirish, baxshilar ijodini qo‘llab-quvvatlash uchun nima ishlar qilinyapti?
5. «Kuntug‘mish» dostonini ko‘proq qaysi baxshilar ijro etganlar?
6. Siz tanishgan «Kuntug‘mish» dostoni qaysi baxshidan yozib olingan? Baxshi haqida nimalar bilasiz?

7. Kuntug‘mish o‘n to‘rt yoshgacha nimalar bilan shug‘ul-landi, o‘n to‘rt yoshdan so‘ng qaysi amallarni egalladi?
8. Xolbeka kimning farzandi? Uning kamolga yetguncha bo‘lgan hayotini batafsil gapirib bering.
9. Kuntug‘mish va Xolbeka g‘ayritabiiy sharoitda (tushda) tanishadilar. Shunga o‘xhash holatlarni (tush, ko‘zgu, uzuk orqali tanishish) yana qaysi dostonlarda uchratgansiz?
10. Zangar shahri podshosi Xolbekaga oshiq bo‘lib, o‘z niyatiga erishish uchun qanday «choralar» ko‘rdi?
11. Kuntug‘mishning Xolbeka suratini ko‘rib, hushidan ketib yiqilishi holatini tasvirlashda Ergash Jumanbulbul qaysi badiiy vositani qo‘llagan, deb o‘ylaysiz?
12. Qosim Kuntug‘mishni halokatdan saqlab qolish uchun qanday chora ko‘rdi?
13. «Shirxo‘ra» so‘zi qanday ma’noni anglatadi? Izohlang.
14. Kuntug‘mish asarda yana qaysi nom bilan eslanadi?
15. Azbarxo‘ja Kuntug‘mishni halok qilish uchun qanday hiyla ishlatdi?
16. Kuntug‘mish o‘g‘illari ismlarining ma’nosи: Gurkiboy va Mohiboy so‘zлari nimani anglatadi? Sababini tushuntiring.
17. Adabiyot daftaringizga shevaga oid so‘zлarni yozib oling va ularni adabiy tildagi shakli bilan taqqoslang.
18. Doston matnidan hikmatli so‘zlar, maqollar darajasidagi yoki ularga yaqin iboralarни toping. Ularning ma’nosini tushuntirishga harakat qiling.
19. Dostondagi qahramonlarning qaysi sifatlaridan ibrat olish mumkin, deb o‘ylaysiz?
20. Ishqiy-qahramonlik dostonlari deganda, qanday asarlarni tushunasiz?
21. O‘zbek dostonlarining yakunlovchi qismiga xos xususiyat nima?
22. Ishqiy-sarguzasht va ishqiy-qahramonlik dostonlarining farqi nimada ekanligini tushuntiring.

Izoh: Ushbu savol va topshiriqlardan har bir dars davomida o‘qilgan matni asosida o‘rinli foydalanish tavsiya etiladi.



O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIDAN

LUTFIY

(1366 – 1465)



Lutfiy – o'zbek adabiyotining XV asr ikkinchi yarmigacha bo'l-gan davrlardagi eng mashhur lirik shoir. Shuning uchun ham zamonasining ahli adabi va ahli fuzalosi uni «malik ul-kalom», ya'ni «so'z podshosi» deb e'zozlagan. Mabalarda taxallusi oldidan «ulug' ustod» ma'nosidagi «Mavlono» sifatining qo'shib tilga olinishi ham – shundan. Obro'yi va shuhrati juda yuksak darajaga yetgan edi. Alisher Navoiy uni, o'zining ustozlaridan biri, deb biladi. Buni shoirlar haqidagi «Majolis un-nafois» tazkirasida shu ulug' shoir haqida aytilgan ushbu iliq so'zlar ham isbotlaydi: «Mavlono Lutfiy o'z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi... va turkcha devoni ham mashhurdur».

Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat» degan tasavvuf vakillari – shayx-avliyolar to'g'risidagi tazkirasida esa Lutfiyning uzoq umr ko'rgani va qabri haqida ham qimmatli ma'lumot beriladi: «...To'qson to'qqiz yoshida olamdin o'tdi. Qabri Dehikanordadur, o'z maskani erdi».

Bundan shoirning Hirotda hayot kechirgani, o'zi yashagan Dehikanor degan qishloqda dafn etilganini bilib

olamiz. Lutfiy milodiy 1366- yili tug‘ilib, 1465- yili vafot etgan. Bu ustoz shoir dunyodan o‘tganda Alisher Navoiy 24 yoshda edi.

XV asrning birinchi yarmida o‘zbek tilida yaratilgan «Gul va Navro‘z» dostoni sho‘rolar davrida uzoq yillar Lutfiyning asari sifatida xato taxmin etib kelingan edi. Ammo keyingi tadqiqotlar bu doston o‘sha davrda yashab, ijod etgan shoir Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekani ni ko‘rsatdi.

Lutfiyni Alisher Navoiy o‘zigacha bo‘lgan o‘zbek she’riyatining eng kuchli, eng taniqli shoiri sifatida baho laydi. U Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Yaqiniy, Gadoiy kabi o‘zbek shoirlarini sanay turib, o‘zbek she’riyatida «mashhur forsiy shoirlar muqobalasida (qarshisida) kishi paydo bo‘lmagan»ini aytadi. Ammo ular orasida Lutfiyni alohida ajratib ko‘rsatadi: «...Bir Mavlono Lutfiydin o‘zgakim, bir necha matlalari borkim, tab’ ahli (nozik didli adabiyotchilar) qoshida o‘qusa, bo‘lur». Bunda n anglashiladiki, Lutfiy Navoiygacha bo‘lgan davrning eng oldi o‘zbek shoiri edi. U fors-tojik tilida ham go‘zal she’rlar bitgan zullisonayn (ikki tilli) ijodkor edi.

Bizgacha Lutfiy turkiy (o‘zbekcha) devonining XVI – XX asrlar mobaynida ko‘chirilgan jami 33 nusxasi yetib kelgan. Bu qo‘lyozmalar dunyoning turli shaharlidagi e’tiborli kutubxona va qo‘lyozmalar xazinalarida saqlanadi.

Olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra, shoir merosining umumiy miqdori – 3 ming baytga yaqin. Buning 75 foizini g‘azal janri namunalari tashkil etadi. Shoir, g‘azaldan tashqari, qit’a, ruboiy, tuyuq va fard janrlarida ham ijod qilgan.

Lutfiy lirikasi faqat o‘zbek she’riyati vakillarigagina emas, boshqa turkiy xalqlar, jumladan, turkman, ozarboyjon, usmonli turk shoirlari ijodiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Bobur nomli xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan 2006- yili Hirot yaqinida joylashgan Dehikanor (hozirgi Nangobod) qishlog‘idagi Lutfiy qabri aniqlashtirilib, u yerda o‘zbek milliy uslubida ayvonli yangi maqbara bunyod etildi.

Shoirning, xususan, g‘azal va tuyuqlari XV asr o‘zbek lirikasining go‘zal namunalari hisoblanadi. Hozirgi paytda ham shoirning ko‘plab g‘azallari qo‘shiq qilib kuylanadi. Ular xalqimizning sevimli ashulalari safidan joy olgan.

G‘AZALLAR

«XOH INON, XOH INONMA» RADIFLI G‘AZAL

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki, qilich kelsa boshimg‘a eshikingdin
Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk ko‘zing ashkolina har gah nazar etsam,
Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Yoqub bikin ko‘p yig‘idin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzung‘a ko‘z solg‘ali o‘zga kishi birla
Yo‘qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.

Bu g‘azal tamoman turkona ruhda bitilgan. Tilimizda kelib chiqishi jihatidan sof o‘zbekcha bo‘lgan so‘zlardan tashqari, fors-tojikcha hamda arabcha kalimalar ham ko‘p uchraydi. «Turkona» deyilganda shu narsa ko‘zda tutiladi-

ki, she'rda o'zbekcha so'z va iboralar qo'llash asosiy o'rin tutadi.

G'azal – an'anaviy yetti baytdan iborat. An'anaviyligi shundaki, o'zbek mumtoz she'riyatida ko'p g'azallar aynan yetti qo'shmisradan tashkil topgan bo'ladi. She'r aruzning nisbatan murakkab turlaridan biri bo'lmish hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni *maf'uvlu* – *mafoiylu* – *mafoiylu* – *faulun* (yoki *mafoiyl*) vaznida bitilgan. Taqte'si: – – V / V – – V / V – – V / V – – (yoki V – ~).

G'azalda ishq mavzusi qalamga olingan. Lirik qahramon oshiq nomidan so'zlaydi. To'g'ridan to'g'ri ma'shuqaga murojaat qiladi. Biroq bu yerda zimdan ilohiy ishq ko'zda tutilganini ham unutmaslik kerak.

Qofiyasi («sevarim – jigarim – saharim – guzарим – xabarim – basarim – nazarim – siymbарим») va radifi («xoh inon, xoh inonma») – juda jarangdor. Asar qurilishida ularning alohida o'rni bor. Xususan, radifning to'rt so'zdan tashkil topgani, amalda sakkiz misrada ularning qaytarilishi ohang ustuvorligini kuchaytirgan. Radifning o'zida tazod bor: «xoh inon» bilan «xoh inonma» o'rtasidagi o'zaro ma'no zidligi asarga alohida badiiy joziba baxsh etgan.

«Inonma» – hozirgi tilimizda mavjud «ishonma» so'zining XV asrdagi shakli. Mamlakatimizning ayrim hududlarida (masalan, Buxoro viloyatida), shuningdek, Afg'onistonidagi o'zbek shevalarining ba'zilarida hozir ham «ishonma» o'rniga «inonma» shakli ishlataladi.

G'azalning tili – sodda, ravon. Murakkab, falsafiy-tasavvufiy so'z va timsollar – uchramaydi hisob. Shuning uchun g'azal mazmuni – bugungi o'quvchi uchun ham tushunarli. Baytlar yengil kayfiyat, ayricha bir ishqiy zavq bilan o'qiladi. Hozirgacha hofizlarimiz bu g'azalni qo'shiq qilib kuylayotgani ham shundan bo'lsa kerak. Bu g'azal ham mumtoz yo'lida, ham zamonaviy estrada usulida ashula qilingan.

Matlada, radif («xoh inon, xoh inonma»)dan tashqari, to‘rttagina («sensan», «sevarim», «qondur» va «jigarim») so‘z ishtirok etgan. Bu birinchi bayt amalda yorga oshiqlikni anglatadi, xolos. Lekin qo‘shmisra mazmunidan uning to‘g‘ridan to‘g‘ri yorga murojaat ekani bilinib turibdi.

Ikkinchi baytda ustalik bilan oshiqning hijron (ayriliq) kechasida sahargacha oh chekkani, bu charxi falakka yetgani aytiladi. Birinchi misra oxiridagi «moh» so‘zi bilan ikkinchi misra boshidagi «oh» o‘zaro ohangdoshlik paydo qilganki, bu ham shoirning yuksak badiiy mahoratidan dalolat beradi.

Uchinchi bayt alohida izoh talab qiladi. Buning uchun avval «guzar» so‘zining ayni matndagi xos ma’nosini tu-shunib olish kerak. Agar bu so‘zni «o‘tish» deb anglasak: «Xoh ishon, xoh ishonma, Xudo haqqi, boshimga qilich kelsa ham, eshiging oldidan o‘tmayman», – degan g‘azaldagi umumiy mantiqqa zid ma’no-mazmun kelib chiqadi. Shuning uchun bu so‘zni «ketish» ma’nosida tu-shunish lozim. Shunda: «Xoh ishon, xoh ishonma, Xudo haqqi, boshimga qilich kelsa ham, eshiging oldidan nari ketmayman», – degan to‘g‘ri ma’no anglashiladi.

To‘rtinchi baytda lirik qahramon har vaqt yorining su-zuk («usruk») ko‘zi shakliga qaraganida hushidan ketib qolishi («qolmas xabarim»)ni aytib: «Bunga xoh ishon, xoh ishonma», – deydi. Xuddi ikkinchi baytdagi kabi, to‘rtinchi qo‘shmisra birinchi satrida «nazar» so‘zi qo‘llangan: uning g‘azal qofiyasidagi so‘zlarga (ular orasi-da «nazарим» ham uchraydi) umumiy hamohangligi bor.

Beshinchi baytda talmeh san’ati ishlatilgan. Shoiring lirik qahramoni Yoqub alayhissalom kabi ko‘p yig‘layverganidan «nuri basari qolmagani», ya’ni ko‘zlar ko‘r bo‘lganini aytadi. Yoqub alayhissalom o‘g‘li – Yusuf alayhissalom dardida ko‘p yig‘lab, ko‘r bo‘lgan. Bu mum-toz she’riyatimizda ko‘p bor tilga olinadigan yoki unga

ishora qilinadigan tarixiy voqealardan biri hisoblanadi. Lirik qahramon yori ishqida yig‘layverib, ko‘zdan qolgani ni aytish uchun shu talmehdan foydalanadi.

Oltinchi baytda yana bir muhim nuqtaga e’tibor qaratildi. Yor timsolida zimdan Tangri taolo ko‘zda tutilgani uchun u hamisha yakka-yu yagona zot sifatida ta’riflanadi. Bu baytda ham lirik qahramon yorini o‘zga kishi bilan yonma-yon ko‘rishni istamasligini ta’kidlaydi. Biroq: «Oy yuzung‘a ko‘z solg‘ali o‘zga kishi birla yo‘qtur nazarim...», – deyish orqali shoir matn mag‘ziga: «Sening Oydek yuzingga boshqa kishining boqishini istamayman», – degan fikrni ham singdirgan bo‘lsa, ajab emas. Shoir yorni «Oy yuzli» deb ta’riflagani uchun ham shunga mutanosib ravishda maqtada uni «siymbirim» deydi. Oyning oqligi bilan siym, ya’ni kumushning oqligi o‘rtasida kuchli o‘xhashlik bor.

Bu ikki qo‘shtmisra aro yana bir mutanosiblikni sezmaslik mumkin emas.

Oltinchi baytda yor yuzi tilga olingen edi. Maqtada lirik qahramon, g‘azaldagi maqsad-muddaosidan kelib chiqib, o‘z yuzi haqida ham unga eslatib qo‘yishni unutmaydi: Lutfiyning yuzi azbaroyi hijron azobini chekaverganidan sarg‘ayib ketib, oltinni yashiradigan darajaga yetdi, ya’ni shunchalik sarg‘aydiki, buning oldida tilloning sariqligi hech narsa bo‘lmay qoldi!

Lutfiy g‘azallari bunday go‘zal badiiy topilmalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotimizda mashhur g‘azallarga naziralar bitish, ya’ni uning qofiya va radifidan foydalanib, o‘xshatmalar yozish an’anasi shakllangan. Lutfiyning bu g‘azali ta’sirida Boborahim Mashrab (1640 –1711) ham bir tazmin g‘azal yaratgan.

Savol va topshiriqlar

1. G‘azal mazmuni haqida ma’lumot bering.

2. G‘azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
3. Maqtada Lutfiyning yuzi oltinni yashirgani zamirida qanday ma’no ko‘zda tutilgan?

«QILADURG‘ON BU KO‘NGULDUR, BU KO‘NGUL» RADIFLI G‘AZAL

Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul,
Xor-u rasvo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

O‘qdayin qomatimizni qora qoshlig‘lar uchun
Muttasil yo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Meni yozg‘urma: «Sevar», – debki, mening haddim emas,

Ul tamanno qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

«Borma, – derlar, – eshiki sori damo-dam», – netayin,
Ko‘p taqozo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Tori mo‘yin havasi birla qorong‘u kechada
Jonni savdo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Dushman-u do‘st orasinda meni g‘ofilni mudom,
Besar-u po qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

O‘zgadin ko‘rmoki ko‘zung yoshini, ey Lutfiy,
Ayni daryo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

G‘azal an’anaviy ishqiy mavzuda bitilgan. U yetti baytdan iborat. Vazni – ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya’ni foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon). Taqte’si: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~).

G‘azal vazni bekorga bu tarzda ikki xil qilib belgilanmadи. Ya’ni oxirgi ruknning «foilun» yoki «foilon» ekani qayd etilishining jiddiy sababi bor. G‘azaldagi oltinchi

baytning birinchi misrasi «mudom» so‘zi bilan tugaydi. Aruz vaznida «-dom» o‘ta cho‘ziq hijo hisoblanadi va bu g‘azalda u bilan tugallangan rukn «foilun»ga emas, aynan «foilon»ga tushadi. Aruzda har qanday she’r, qaysidir misraning oxirgi hijosiga ko‘ra, xuddi ana shunday bir-biridan ozgina farq qiladigan ikki vaznda bitilishi mumkin.

Bu asarida shoир besh so‘zdan iborat radif qo‘llagan («qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul»). G‘azal radi fidagi barcha so‘zlar – turkiy. Qofiyasi – arabiyy-forsiy kalmalar («shaydo – rasvo – yo – tamanno – taqozo – savdo – po – daryo») dan tashkil topgan.

Ko‘ngul mumtoz she’riyatimizning asosiy tasvir manbasi hisoblanadi. Chunki, tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, Alloh kishining ko‘nglidagina aks etadi. Ishq ham – ko‘ngil ishi.

Lirk qahramon ishq bobida barcha «ayb»ni ko‘ngliga qo‘ymoqchi: uni shaydo, xor-u rasvo (matla), qora qoshliklar uchun o‘qdayin tik qomatini yoydek egik qiladigan (ikkinchi bayt) ham – shu ko‘ngil.

«Meni sevdi deb ayblama, buni istayotgan ham – ko‘ngil» (uchinchi bayt), – deydi lirk qahramon. U mulo-hazalarini davom ettiraveradi: «Eshigiga tez-tez boraverma, – deyishadi, – lekin ko‘ngil shuni talab qilsa (taqozo etsa), nima qilay» (to‘rtinchi bayt)?

Qorong‘i kechada sochining tolasiga havasi kelib, jonni unga almashadigan («savdo qiladurg‘on») ham (beshinchi bayt), do‘st-u dushman ichida men g‘ofil bandani boshsiz-oyoqsiz qilib qo‘yadigan ham (oltinchi bayt) – shu ko‘ngil.

Maqtada lirk qahramon Lutfiyga murojaat etib, bu ishni boshqadan ko‘rma, ko‘z yoshlaringni daryodek to‘kayotgan ham – aynan «bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul», – deydi.

Bu g‘azal hozirgacha xonandalarimiz tomonidan sevib kuylanadi. Oradan to‘rt yuz yil o‘tib, XIX asrning birinchi yarmida Nodira Lutfiyning shu g‘azaliga o‘xshatma yozdi.

Savol va topshiriqlar

1. G‘azal hajmi va mavzusi, ulardagi an’anaviylik va o‘ziga xoslik haqida so‘zlab bering.
2. Lirik qahramon ishqqa mubtalo bo‘lganini qanday izohlangan va bunga sabab nima?
3. G‘azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
4. G‘azalni yodlang.

«AYOQINGG‘A TUSHAR HAR LAHZA GISU...» G‘AZALI

Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu,
Masaldurkim¹: «Charog‘ tubi – qorong‘u».

Tuturmen ko‘zki, ko‘rsam orazingni, –
Ki derlar: «Oqqan ariqqa oqar su(v)».

Yuzungni tuttum ortuq Oy-u Kundin,
«Kishining ko‘zidur, ore, tarozu».

Ko‘zing qonimdin iymanmas, ajabtur, –
Ki: «Qo‘rqrar, qaydakim qon ko‘rsa, hindu».

Tilar vaslingni, Lutfiy, qil ijobat, –
Ki ayturlar: «Tiloganni – tilogu».

Lutfiy – yozma adabiyot vakili. Biroq so‘z san’ati tariidan yaxshi bilamizki, dastlab og‘zaki adabiyot yuzaga kelgan. Yozma adabiyot ana shu folklor zaminida paydo bo‘lgan. Shuning uchun o‘zbek mumtoz she’riyati taraqqiyotini xalq og‘zaki ijodi ta’siridan ayri holda tasavvur qilish aslo mumkin emas.

O‘qiganingiz g‘azal buning yorqin bir isboti yanglig‘ jaranglaydi. Uni muallif tamoman o‘zbek xalq maqlulari asosiga qurgan. Har bir baytda shoir bittadan maqol

¹ Masal – maqol

qo‘llaydi. Maqollar har bir baytda go‘yo baytlar birinchi misrasida aytilgan fikrga bir isbotdek keltiriladi. Shuning uchun barcha baytlarning ikkinchi satri maqol bilan tugaydi. Shundan ham bilib oldingizki, shoir avval beshta bir-biriga qofiyadosh so‘z bilan tugaydigan maqol topgan. Shu tariqa g‘azal besh baytdan iborat qilib bitilgan.

G‘azal hazaji musaddasi mahzuf, ya’ni «*mafoiylun – mafoiylun – faulun*» vaznida yozilgan. Taqte’si: V — — / V — — / V — — .

Matla – nihoyatda go‘zal. U Lutfiyga xos lutf bilan qog‘ozga tushgan: har lahza soching oyog‘ing ostiga tushadi, shuning uchun maqolda aytilganidek, «*Chirog‘tubi – qorong‘u*». Bu yerda yorning yuzi aytilmagan holda oppoq nur taratib, yonib turgan chiroqqa qiyoslanyapti. Baytda keltirilgan maqol – juda mashhur. Biroq hozirgi zamonda shamchiroq deyarli ishlatilmagani uchun bu maqol kam qo‘llanadi. Holbuki, sham yoqilganda kuzating, rostdan ham uning tubiga nur tushmaydi, shuning uchun u yer qorong‘i bo‘ladi.

Baytdagi «gisu» so‘zi sochni anglatadi. Tasvirlanishi-cha, yorning sochi har doim oyog‘ining tubiga tushib turadi. Ikkinchi satrda maqol keltirish orqali shoir yorni zimdan tik turgan shamga o‘xshatyapti. Endi ziyrak o‘quvchi uning shamdek oppoqligi-yu yuzining yonib turgan shamdek yorug‘ligini tasavvur qilaveradi. Shoir yorning sochini ana shu qorong‘ulikka o‘xshatyapti. Maqolning kuchi bilan baytda ifoda ixchamligiga, shu bilan birga, badiiy jozibaga erishilgan.

Ikkinchi baytda lirik qahramon yorning yuzini (orazini) ko‘rishga ko‘z tutayotganini aytadi, axir, maqol bor-ku: «*Oqqan ariqqa oqar su(v)*». Bu maqol hozir ham ko‘p ishlatiladi. Faqat endi u «*Oqqan daryo oqaveradi*» shaklini olgan.

«Oqqan ariqqa oqar su(v)» maqoli, asosan, umidvorlik ma’nosida qo‘llanadi. Baytda u aynan shu vazifani

o‘tagan. Bu maqol lirik qahramonning «tuturmen ko‘z» degan fikriga mantiqiy asos sifatida kelgan: axir, ariqda suv oqqanmi – yana oqadi.

Uchinchi baytda ham yuz tasviri izchil davom etadi. Shoir uni: «Oy bilan Kun (Quyosh)dan ham ortiq», – deb ta’riflaydi, chunki «*Kishining ko‘zi – tarozi*» degan maqol bor-ku.

Bu yerda ham maqol lirik qahramon birinchi satrda aytgan fikrning tasdig‘i sifatida qo‘llangan. Chunki birinchi misrada mubolag‘a qilinyapti. Bu gapimga shubha qilmanglar, demoqchi shoir, kishining ko‘zi – tarozi, ya’ni u to‘g‘ri o‘lchaydi, adashtirmaydi.

Shu tariqa to‘rtinchi baytda tasvir yuzdan ko‘zga o‘tib oladi. Lirik qahramon yor ko‘zi oshiq qonidan iymanmayotgani, ya’ni qo‘rqmayotganiga ajablanadi. Chunki, axir: «Hindi qayda qon ko‘rsa, qo‘rqadi» degan maqol bor edi-ku! Bu yerda ochiqdan ochiq «ko‘zing – hindi» deyilayotgani yo‘q. Lekin ko‘z tasviri bilan maqolda «hindi» so‘zi kelishi zimdan shuni yuzaga chiqargan. Aksar hindlarning ko‘zlar qop-qora bo‘lishiga ishora qilingan.

Lutfiyning dardi – yor vasliga yetish, yoridan shu niyatini amalga oshirishini, ya’ni ijobat qilishini so‘raydi. Sababi – u «*Tiloganni tilogu*», ya’ni «*Tilagan kishi tila-giga yetadi*» degan maqolga tayangan.

Ko‘rinib turganidek, asarda boshidan oxirigacha irsoli masal qo‘llash san’atidan mahorat bilan foydalanilgan. Buning badiiy-tabiiy (badiiy-estetik) jozibasi bor. Bir qofiya tizimiga tushadigan shuncha maqolni topib, ularni ustalik bilan qo‘llashi shoirning yuksak badiiy mahorati-dan dalolat beradi.

Maqollar amalda g‘azaldagi asosiy ma’no yo‘nalishini boshqarib turibdi.

Savol va topshiriqlar

1. Yozma adabiyotning xalq og‘zaki ijodi bilan aloqadorligi haqida nimalarni bilasiz?

2. G‘azal mavzusi, vazni, qofiyasini tahlil qiling.
3. Matladagi tasvir go‘zalligi va so‘z nazokati haqida gapirib bering.
4. Baytlar mazmuni va ulardagi xalq maqollarini badiiy vazi-fasini birma-bir sharhlang.
5. G‘azaldagi o‘zbek xalq maqollarini daftaringizga yozib oling, ularning hozirgi tilimizda mavjud yoki mavjud emasligini, o‘zgargan bo‘lsa, hozirgi shaklini aniqlang.

TUYUQLAR

«DOG‘I BOR» TAJNISLI TUYUQ

Ko‘ngluma har yonki boqsam, dog‘i bor,
 Har necha dardimni desam, dog‘i bor.
 Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
 Bir sori bo‘ldi firoqing dog‘i bor.

Tuyuqni tushunib, undan zavq olish uchun, avvalo, misralar zamiridagi ma’nolarni obdon anglab olish lozim. Chunki qofiyalarda kelgan bir shakldagi so‘zlar yoxud so‘zlar turkumi anglatgan ma’nolar bir-biridan farq qilgani sababli tajnis yuzaga kelgan. Agar o‘quvchi aynan bir xil shakldagi so‘zlar yoxud so‘zlar turkumidagi ma’nolarning nozik farqlarini ajrata ola bilmasa, asar o‘z vazifasini o‘tamagan, muallifning maqsadi amalga oshmay qolgan bo‘lib chiqadi.

Shu jihatdan ushbu tuyuqning qofiyalarida quyidagi ma’nolar yashirin: *birinchi* misrada kelgan «dog‘i bor»ni «dog‘i bor», ya’ni «yarasi bor» deb tushunish kerak; *ikkinchi* misrada kelgan «dog‘i bor»ni «yana bor» deb tal-qin qilish lozim, chunki eski o‘zbek tilida «dog‘i» (yoki «dag‘i») so‘zi «tag‘in», «yana» ma’nosida ishlatilgan; *to’rtinchi* misradagi «dog‘i bor»ni esa «otashi yuk» (to‘liqrog‘i – «ayrilig‘ing otashi yuk bo‘ldi») deb tushunish lozim.

Tuyuqning tajnisli qofiyasi ikki so‘zdan – «dog‘i» va «bor» so‘zlaridan tashkil topgan. Albatta, asosiy tajnis

«dog‘i» so‘zida mujassamlashgan. Biroq «bor» so‘zida ham tajnis mavjud. Agar birinchi va ikkinchi satrlarda «bor» so‘zi «mavjud» ma’nosida kelgan bo‘lsa, uchinchi va to‘tinchı misralarda u «yuk» tushunchasini ifodalagan.

Shoir bu tuyug‘ida ikki qavat tajnis qo‘llash mahoratini namoyish etgan. Shu tariqa tuyuqning mana bunday talqini kelib chiqadi: Ko‘nglimga har tarafdan boqsam, dog‘i bor, har qancha dardimni aytsam, yana bor. Qildekkina tanamga ishqing yuki yor edi, bir tarafdan endi firoqing otashi ham yuk bo‘ldi. Ayrim adabiyotshunoslar – «firoqing dog‘i»ni firoqing tog‘i deb, talqin etish tarafdoi. Biroq «te»ni ba’zi turkiy tillardagidek «de» tarzida yozish Lutfiy ijodiga xos emas.

«BANDAMEN» TAJNISLI TUYUQ

Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,
Vah, qachon yetkaymen ul dilbanda men.
Bevafolarg‘a meni qilding asir,
Sen menga sultonsen, ey dil, banda – men.

Ushbu tuyuqda, odatdagidek, tajnisli so‘zlar qofiya bo‘lib kelgan va ular quyidagi ma’nolarni anglatadi:

- dil, bandamen – yurak, (men) banddaman (bog‘lanib qolganman);
- dilbanda men – dilbandga men;
- dil, banda – men – yurak, banda (qul) – men.

Misralar talqin etilsa, quyidagicha mazmun kelib chiqadi:

- Men sening dastingdan, ey dil, banddaman (bog‘lanib qolganman), evoh, men qachon u dilbandga yetgayman? Ey dil, meni bevafolarga asir qilding, sen menga sultonsan, banda (qul) – men.

«YOZAMEN» TAJNISLI TUYUQ

Charxi kajraftor elidin yozamen,
Chiqmadim hijron qishidin yoza men.

Bir meni yorliq bila yod etmas ul,
Har necha ul shahg‘a qulluq yozamen.

Bu tuyuqda quyidagi tajnislarga duch kelamiz:
– yozamen – yozg‘iraman (shikoyat qilaman);
– yoza men – yozga men;
– yozamen – yozaman (bitaman).

Satrlar ketma-ketligi asosida talqin etilganda quyida-gicha fikrlar ilgari surilgani ma’lum bo‘ladi:

Charxi kajraftor (egri aylanuvchi charx, zamon) dasti-dan noroziman (birinchi misra). (Chunki) hijron (ayri-liq) qishidan yozga chiqqa olmadim (ikkinci misra). Har qancha u shohga qulluq (iltifotli maktub) yozganim bilan (to‘rtinchi misra), meni bir yorliq (maktub) bilan u yod et-maydi (uchinchi misra).

NAZARIY MA’LUMOT

ARUZ VAZNI

Muayyan tartibga solingan matn «nazm» deyiladi. Shuning uchun nazmnинг birinchi talabi – vazn. O‘zbek she’riyatining asl vazni (*tug‘di-bitdi*) barmoq sanaladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari, asosan, shu vaznda yaratiladi. Buni Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yozilgan «Devonu lug‘ot ut-turk» asarida misol tariqasida keltirilgan she’riy parchalar ham to‘la isbotlaydi. Ahmad Yas-saviy, Sulaymon Boqirg‘oniyning aksar va boshqa shoirlarimizning ayrim she’rlari ham barmoq vaznida yaratilgan.

Biroq XI asrdan yozma she’riyatimiz namunalari aruz vaznida yozila boshladi. Ming yillik aruziy merosga ega-miz. Aruzda bitilgan she’rning vaznnini yaxshi bilmay turib to‘g‘ri o‘qishning hech ham iloji yo‘q. Aruzni barmoq vazniga qiyosan tushunish – osonroq.

She’riyatimizning bu ikki vazni o‘rtasida o‘xshash ji-hatlar ham mavjud, tamoman mos kelmaydigan xususiyat-lar ham bor.

Barmoq vazni – ikki muhim xususiyatga ega.

Birinchisi shuki, misralardagi bo‘g‘inlar soni teng kelishi lozim. Ahmad Yassaviyning mana bu bandi shunga yorqin misol bo‘la oladi:

Beshak, biling, bu dunyo borchcha eldin o‘taro,
Ishonmagil molingga, bir kun qo‘ldan ketaro.
Oto-ono, qarindosh, qayon ketti? Fikr qil –
To‘rt ayog‘lig‘ cho‘bin ot bir kun sanga yetaro.

Ammo bu, hamma misralarda bo‘g‘inlar soni barobar kelishi kerak, degani emas. Ba’zan toq misralar bo‘g‘inlari soni toq, juft misralar bo‘g‘inlari soni juft misralar bo‘g‘inlari soniga teng bo‘lishi qoidasiga ham amal qilinadi.

Ikkinchisi – misralarning muayyan turoqlarga bo‘linishi. Turoq misralarni bo‘laklarga bo‘ladi. Bunda muayyan bir sanoqdagi bo‘g‘indan keyin so‘z, albatta, tugashi kerak. Ahmad Yassaviydan keltirilgan to‘rtlik, aslida, 7+7 turoqli she’r sifatida bitilgan. Biroq ana shu 7 bo‘g‘indan iborat turoqning o‘zi ham yana ikkiga, ya’ni 4+3 turoqlariga bo‘linadi. Shuning uchun bu bandni, 7(4+3)+7(4+3) turoqli she’r, deb ham, 4+3+4+3 turoqli she’r, deb ham hisoblash mumkin.

Aruz vazni arab she’riyatining asosiy vazni hisoblanadi. U bizga arab she’riyatining ta’sirida shakllangan. Bu vazn – barmoq vaznining yuqorida sanalgan ikki jihatiga o‘xhash xususiyatga ega.

Birinchidan, bu vaznda ham, xuddi barmoq vaznidagi kabi, hamma, xoh u kichik bo‘lsin, xoh katta, she’riy asardagi barcha misralar vaznan teng o‘lchovda bo‘ladi. Faqat endi bu vaznda toq misralarning toq misralarga, juft misralarning juft misralarga vaznan teng kelishi hodisasi yo‘q. Ya’ni bu vaznda toq misralar bo‘g‘inlari soni – boshqa, juft misralar bo‘g‘inlari soni – boshqa bo‘lishi mumkin emas.

Ikkinchidan, xuddi barmoq vaznidagi kabi, misralar muayyan bo‘laklarga bo‘linadi.

Ammo bular shakliy o‘xshashliklargina, xolos. Sifat jihatidan misralarning o‘zaro vaznan teng kelishi ham, ularning muayyan vazniy bo‘laklarga bo‘linishi ham o‘zaro jiddiy farq qiladi.

Dastlabki tafovut shuki, barmoqda bo‘g‘inlar sanaladi, aruzda esa – hijolar. Hijo shaklan bo‘g‘inga o‘xshasa-da, hatto, ko‘p hijolar bo‘g‘in bilan aynan mos kelib qolsa ham, mohiyatan undan keskin farq qiladi. Hijolar uch xil bo‘ladi. U qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarga bo‘linadi. Ilmda qisqa hijoni «V», cho‘ziq hijoni «↔» va o‘ta cho‘ziq hijoni «~» tarzida belgilab ko‘rsatish rasm bo‘lgan.

Qisqa hijoga nimalar kiradi? Bunga, asosan, qisqa un-lilar («a», «e», «a», «u», «o») bilan tugaydigan hijolar kiradi. Kelib chiqishi turkiy bo‘lgan so‘zlardagi urg‘u tushmanagan «o» tovushi ham qisqa hijo hisoblanishi mumkin. Shuning uchun Alisher Navoiyning:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a, –

baytidagi «ato» va «ano» so‘zlarini «oto» va «ono» tarzida o‘qisak ham, «ota» va «ona» tarzida o‘qisak ham, vazn buzilmaydi. Biroq ularni «ato» va «ano» tarzida yozib, shunday o‘qisak, bu har taraflama, ya’ni istisnolarsiz holda vaznga mos bo‘ladi. Baytdagi «-ni», «fi-», «-la», «a-», «-shi-», «-m-», «-ni», «-qa», yana «a-», yana «-shi-» (jami – 10 ta) hijolari qisqa hijo bo‘lib kelgan. Lekin, vazn taqozo qilsa, bir undosh tovushning o‘zi ham bir qisqa hijo vazifasini o‘tayveradi. Bu misolimizdagи «-m-» ana shunday hijo bo‘lib kelgan. Uni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun undan oldingi cho‘ziq hijoni urg‘u berib, ya’ni cho‘zibroq talaffuz qilishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun bu hijo ishtirok etgan so‘zni «ji-sim-ni» deb emas, «jis-m-ni» deb

aytish lozim. Shunda u qulooqqa xuddi «jis-m(i)-ni» deganga teng keladigan vaqtda aytigandek bo‘ladi.

Cho‘ziq hijoga nimalar kiradi? Cho‘ziq unlilar ishtirokidagi ochiq yoki har qanday yopiq bo‘g‘inlar, shuningdek, ya’ni vazn taqozo etsa, so‘z oxirida kelgan qisqa unli bilan tugagan bo‘g‘inlar cho‘ziq hijo hisoblanadi. Keltirilgan baytning «bosh-», «-do», «ay-», «-to», «qo-», «-g‘a», «jis-», «qil», «sad-», «-no», «bo-» va yana «-g‘a» (jami – 12 ta) hijolari cho‘ziq hijo hisoblanadi. Misra oxirida kelgan har qanday qisqa unlili bo‘g‘in ham cho‘ziq hijo hisoblanadi. Vazn taqozo etsa, misra o‘rtasidagi so‘zlar oxirida kelgan qisqa unli bilan tugagan ochiq bo‘g‘inlar ham cho‘ziq hijo hisoblanishi mumkin.

O‘ta cho‘ziq hijoga nimalar kiradi? Kelib chiqishi arabcha yoki forscha-tojikcha bo‘lgan «yor», «or», «xor», «zor», «nur» yoki «oshkor» so‘zidagi «osh-», «hush-yor» so‘zidagi «hush-» hijolari, shuningdek, oxiri ikki undosh yonma-yon kelishi bilan tugagan «sabr», «qabr», «qand», «band», «jism», «ism» va boshqalar kabi har qanday bo‘g‘in o‘ta cho‘ziq hijo hisoblanadi. O‘ta cho‘ziq hijo faqat va faqat misra oxirida keladi. Agar bunday so‘zlar misra o‘rtasida uchrasa, ular ikkiga bo‘linadi. Bu bo‘linishda yo keltirilgan misollardagi hijolar bir cho‘ziq va bir qisqa («o-sh-kor», «qan-d», «sab-r» kabi) hijoga ajratiladi, yo undagi qisqa hijo keyingi tovushga bog‘lanib, boshqa hijo hosil qiladi.

Ana endi aruz vaznining eng muhim xususiyatlaridan birini bilib olishimiz mumkin. Bu – rukn masalasi. Rukn, bir jihatdan, barmoq vaznidagi turoqqa o‘xshaydi. Ikkinci jihatdan aslo o‘xshamaydi. O‘xshashligi shundaki, xuddi turoqdek, ruknda ham o‘zidan oldingi misradagi parallel kelgan rukn bilan vaznan teng bo‘lishi kerak. Ya’ni barmoqda 11 bo‘g‘inli she‘r 4+4+3 tarzida turoqlarga ajratib yozilishi mumkin bo‘lgani kabi, keltirgan misolimizdagi Navoiy bayti ham 4+4+3 hijoli ruknlarga bo‘lingan. Eng

asosiy farq shuki, turoqda so‘z tugashi shart, ruknda esa shart emas.

Navoiyning keltirgan baytida turoq bilan rukn aynan mos kelib qolgan:

Boshni fido / ayla ato / qoshig‘a,
Jismni qil / sadqa ano / boshig‘a.

Shuning uchun bu baytni amalda barmoq vazni qoidasiga solib o‘qisa ham bo‘laveradi. Faqat barmoq talabiga binoan «jismni» degan ikki bo‘g‘inli so‘zni, shartli ravishda, «ji-sim-ni» deb o‘qishga to‘g‘ri keladi.

«Hayrat ul-abror»dagi shu baytdan bitta keyingi baytda ahvol o‘zgaradi, uning ikkinchi misrasida rukn bo‘linishi ikki so‘z («Oy» va «birisin») o‘rtasiga to‘g‘ri keladi:

Tun-kununga / aylagali / nur fosh,
Birisin O/y angla, biri/sin – Quyosh.

Shuningdek, vazn taqozosiga ko‘ra, ikkinchi misradagi ikki bor kelgan «birisin» so‘zini misra boshida «bi(y)-risin» degandek, ya’ni birinchi bo‘g‘indagi «i»ni cho‘zib, ikkinchisini esa «bi-ri(y)-sin» degandek, ya’ni ikkinchi bo‘g‘indagi «i»ni cho‘zib talaffuz qilishga majburmiz. Shundagina she’r ohangiga mos o‘qigan bo‘lamiz.

Ko‘rib o‘tganimizdek, barmoq vaznida so‘z oxiridagi bo‘g‘inning o‘zidan keyin keladigan so‘z bo‘g‘iniga bog‘lanib ketishi hodisasi yo‘q. Bu misolimizda esa «y+ang» qo‘silib, «yang» degan hijo hosil etgan.

Aruzning yana bir qat’iy qoidasi shuki, birinchi misrada qanday ruknlar ishtirok etgan bo‘lsa, she’r oxirigacha barcha misralarda xuddi shunday ruknlar qatnashadi. Boshqa-cha aytganda, har bir qisqa hijo pastida aynan qisqa hijo, cho‘ziq hijo pastida esa aynan cho‘ziq hijo keladi.

Aruzda vaznlar – ko‘p. Biroq o‘zbek she’riyati tarixida ulardan 3 tasi eng ko‘p qo‘llangan. Bular – ramal, hazaj va mutaqrorib.

Ramalning asosiy, ya’ni bosh rukni – «foilotun». Unda

bir cho‘ziq, bir qisqa va yana ikki cho‘ziq hijo ishtirok etadi. Uni «— V —» tarzida ifodalaymiz.

Hazajning asosiy, ya’ni bosh rukni – «mafoiylun». Unda bir qisqa va uch cho‘ziq hijo ishtirok etadi. Uni «V—» tarzida ifodalaymiz.

Mutaqoribning asosiy, ya’ni bosh rukni – «faulun». Unda bir qisqa va ikki cho‘ziq hijo ishtirok etadi. Uni «V—» tarzida ifodalaymiz.

Agar ruknlar misralarda qisqarmagan tarzda, ya’ni to‘liq holda uchrasa, vazn nomi oxiriga «solim» so‘zi qo‘shiladi. Agar rukn misra oxirida qisqargan tarzda (masalan, «foilotun» – «foilun», «mafoiylun» – «faulun», «faulun» – «faul» bo‘lib) kelsa, vazn nomi oxiriga «mahzuf» so‘zi qo‘shib aytildi. Agar bu rukn misra so‘ngida qisqargan ruknning oxirgi hijosi o‘ta cho‘ziq tarzda (masalan, «foilon», «mafoiyl», «faol» bo‘lib) kelsa, vazn nomi oxiriga «maqsur» so‘zi qo‘shib aytildi.

Baytda nechta rukn ishtirok etayotgani ham vazn nomida aks etib turadi. Masalan, har misrada 3 tadan, ya’ni baytda jami 6 rukn ishtirok etgan bo‘lsa, «musaddas», agar har misrada 4 tadan, ya’ni baytda jami 8 rukn ishtirok etgan bo‘lsa, «musamman» so‘zi qo’llanadi.

Shunday qilib, muayyan bir aruz vaznini uch tarzda ifodalash mumkin:

1) nomi aytildi (masalan, «ramali musaddasi solim», «ramali musaddasi mahzuf», «ramali musaddasi maqsur»);

2) afoilu tafoili aytildi (masalan, «foilotun foilotun foilotun», «foilotun foilotun foilun», «foilotun foilotun foilon»);

3) taqte’si beriladi (masalan, «— V — / — V — / — V —», «— V — / — V — / — V —», «— V — / — V — / — V ~»).

Aruz vaznidagi har qanday she’rning qaysidir misrasi oxirida o‘ta cho‘ziq hijo ishlatilishi mumkin. Shuning uchun bu vaznda har qanday she’r – ikki vaznda bitilish imkoniga ega. U holda bu vazn nomida (masalan, «ramali

musaddasi mahzuf (yoki maqsur)», afoilu tafoilda (masalan, «foilotun foilotun foilun (yoki foilon)») va taqte'da (masalan, «— V — / — V — / — V — (yoki — V ~)») aks ettiladi.

Sezgan bo'lsangiz, biz ushbu darslik-majmuada she'rlar vaznini bildirish uchun aynan shu yo'lni tutdik.

TUYUQ

Tuyuq – lirik janr. U arabiylari va forsiy adabiyotda yo'q. Bu janr namunalarini faqat turkiy she'riyatdagina uchratamiz.

Tuyuqlar aslan turkiy xalqlar og'zaki adabiyoti ta'sirida shakllangan, takomil topgan. Keyinchalik yozma adabiyotga o'tib, muayyan qoidalarga bo'ysungan, talablari qat'iylashgan.

Quyidagi adabiy-badiiy talablar tuyuq janrining asosiy qoidasiga aylangan:

Tuyuq, albatta, to'rt misradan iborat bo'lishi kerak.

Tuyuqlar, xuddi ruboiy kabi, *a-a-a-a* tarzida ham, *a-a-b-a* tarzida ham qofiyalanish tizimiga, ya'ni tajnisga ega bo'lishi mumkin. Navoiyning siz o'qib, o'rganadigan tuyuqlari *a-a-b-a* tarzida qofiyalangan. Bu eng ko'p uchraydi. Biroq Navoiyning ayrim tuyuqlari hatto *a-b-d-b* tarzida ham keladi. Buni mana bu tuyuqda ko'ramiz:

Ul pari ishqida bu devonani,
Eyki, istarsen, kelib gulxanda ko'r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko'ngul, nazzora qil, gulxanda ko'r.

Tuyuqda qofiyaga olingan so'zlar, albatta, tajnisli bo'lishi, ya'ni omonim so'zlardan yoki shakldosh so'zlar turkumidan tashkil topishi darkor.

Ilgari tuyuqlar janrning ana shu talablaridan dastlabki uchtasiga javob bergen, xolos. Lekin keyinchalik janrning

to‘rtinchi sharti yuzaga kelgan. Shu tariqa tuyuqlarni taj-nissiz tasavvur qilib bo‘lmay qolgan.

Navoiyning mana bu tuyug‘ida tajnisdagi so‘z (yoki so‘zlar) uch alohida-alohida ma’noda kelgan:

Kechti umr-u, tushmadi ul yor ila,
Qo‘rqaram ko‘nglum bu g‘amdin yorila.
Bu vafosizliqki, sendin ko‘rmisham,
E’tiqodim qolmadi hech yor ila.

Bu tuyuqda quyidagi tajnislarga duch kelamiz:
– yor ila – yor (sevgili) bilan;
– yorila – yoriladi;
– yor ila – do‘sit bilan.

Tuyuqning yana bir o‘ziga xosligi bor. Bu shundan iboratki, uning ikki, uch yoki to‘rt misrasi oxirida taj-nis san’atini hosil qiladigan so‘zlar yoki so‘zlar turkumi qo‘llangani uchun shuning o‘zi qofiya o‘rniga o‘tadi.

O‘zbek mumtoz she’riyatida Lutfiy va Alisher Navoiy tuyuqning eng go‘zal namunalarini yaratgan.

Tuyuqning turkiy she’riyatda aynan shu ramali musad-dasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida yuzaga kelishi bejiz emas edi. Chunki ramal aruzning turkiy she’riyatda eng ko‘p qo‘llanadigan, xalq tarafidan oson o‘qilib, qiynal-masdan talaffuz qilinadigan vazni hisoblanadi. Bundan tashqari, tuyuq vaznining o‘zbek xalq og‘zaki she’riyatiga yaqinligi bor. Og‘zaki she’riyatimizda barmoq vaznining 11 bo‘g‘inli, ya’ni 6 va 5 bo‘g‘inli turoqlardan iborat she’rlar ko‘p uchraydi.

ALISHER NAVOIY

(1441 – 1501)

Muhtaram o‘quvchi!

Oldingi sinflarda siz buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy tarjimayi holi, u yozgan o‘lmas asarlar, ulardan ba’zilarining mazmun-mohiyati, badiiy jozibasi bilan bir qadar tanishgan edingiz.

Yaxshi bilasizki, Alisher Navoiy 1441- yil 9- fevralda temuriylar hukmronligida bo‘lgan Xuron davlatining poytaxti Hirot shahrida saroy amirlaridan bo‘lmish G‘iyosiddin Kichkina xonadonida tavallud topdi. Kichik yoshidan ta’lim olib, maktabda o‘qib yurgan kezlar forsiy tildagi tasavvufiy adabiyotning asoschilaridan biri hisoblanmish Farididdin Attorning mashhur «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi») dostonini sevib, berilib o‘qidi (asarni yoddan bilishidan xabardorsiz).

Siyosiy vaziyatlar taqozosni bilan Navoiylar oilasi bir muddat Iroqqa ko‘chib yashaganidan xabaringiz bor. Hozirgi Eronning Mashhad shahriga ko‘chirilganda yosh shoir saroy xizmatchisi sifatida u yoqqa borganini, shu yerdagи madrasalarda ta’lim olganini ham bilishingiz lozim.

1466–1469- yillari yosh shoir Samarqanddagi madrasalarda ta’lim oldi. Bu shaharda yosh qalam sohibi davlat ishlarida xizmatda ham bo‘ldi, faol ijod ham qildi. 1469- yilning bahorida yaqin do‘sti – temuriyyzoda Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaganidan so‘ng shoirni yoniga chaqirdi.

Navoiy bir necha yil Husayn Boyqaro saroyida oliy martabali lavozimlarda xizmatda bo‘ldi. U buyuk amallardan iste’foga chiqib, erkin ijodiy ishlar bilan mashg‘ul



bo‘lgan kezlarida ham ijtimoiy-siyosiy faoliyatdan aslo chetlashgan emas. Unga Husayn Boyqaro «Muqarrabi shohiy», ya’ni «Shohning eng yaqin kishisi» degan oliv martaba bergen edi. Bu sharaflı mavqening hukmdor oldidagi imtiyozi shundan iborat ediki, u podshohga bir masala yuzasidan ketma-ket yetti martagacha murojaat qilish huquqiga ega edi.

1483–1485- yillari shoirning eng buyuk asari – besh dostondan iborat «Xamsa» yaratildi.

1491/92 – 1498/99- yillar mobaynida esa barcha lirik she’rlarini to‘rt devonga taqsimlab, «Xazoyin ul-maoniy» nomli yirik to‘plamini tuzdi.

Umrining so‘nggi o‘n yili mobaynida ham Navoiy juda ko‘p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar bunyod etdi.

Alisher Navoiy 1501- yilning 3-yanvar kuni Hirotda vafot etdi. O‘sha kuni butun mamlakat motam tutdi. Qabri – Hirotda. Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan bobokalon shoirimiz maqbarasida yangi qabr toshi o‘rnatildi va tevarak atrofi daraxtzor ko‘kalam-zorlashtirildi, obodonlashtirildi.

1991- yili Toshkent shahridagi O‘zbekiston Milliy bo‘g‘ida, 2017- yili esa Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti binosi oldiga shoirning yangi haykali o‘rnatildi. Bu uning Toshkent shahridagi uchinchi haykali hisoblanadi. Poytaxtimizning Navoiy ko‘chasida ham uning haykali qad rostlab turibdi.

Keyingi yillarda Tokio, Moskva, Boku shaharlarida ulug‘ o‘zbek shoiri haykali bunyod etildi.

Shoir butun turkiy adabiyotda eng katta lirik va epik merosga ega qalamkash hisoblanadi.

RUBOIYLAR

Ruboiy – o‘zbek mumtoz she’riyatining lirik janrlari dan biri.

«Ruboiy» so‘zi arabchadan olingan. U «to‘rttadan»,

«to‘rtlik» degan ma’nolarini bildiradi. Adabiyotshunoslikda esa u to‘rt satrli kichik lirik janrni anglatadi. Nomlanishi arabcha bo‘lsa ham, bu she’riy shakl dastlab forsiy (Rudakiy, Shahid Balxiy) va turkiy (Lutfiy) she’riyatda vujudga kelgan.

Har qanday to‘rtlik ruboiy bo‘lavermaydi. O‘ziga xos shakliy qurilma, *a-a-a-a* yoki *a-a-b-a* tarzidagi qofiya tizimiga ega, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ishqiy va axloqiy mavzularda, faqat aruzda mavjud hazaj bahrining axram va axrab shajaralaridagi jami 24 vazndagina bitiladigan to‘rt satrli she’rga «ruboiy» deyiladi.

Navoiy – o‘zbek adabiyotida eng ko‘p ruboiy yozgan shoir. Uning o‘zbekcha ruboilyari «Xazoyin ul-maoniy»-ning birinchi devoni – «G‘aroyib us-sig‘ar»ga kiritilgan. Ularning umumiy soni – 133 ta.

Ulug‘ mutafakkir ayrim nasriy asarlarini ham she’riy parchalar bilan bezab ketavergan. Adib nasrdagi fikriga is-bot-dalil sifatida, unda ilgari surilayotgan fikr yoki g‘oyani yanada ta’sirchanroq qilib yetkazish uchun she’riy parchalar ham ijod qilaveradi.

Navoiy nasriy asarlaridagi she’riy parchalarning ayrimlari janr nuqtayi nazaridan ruboiy tarzida bitilgan. Masa-lan, «Xazoyin ul-maoniy»ga yozilgan nasriy «Debocha» tarkibida naqd 30 ta ruboiy keltiriladi. Boshqa ayrim asarlarida ham ko‘plab ruboilyar mavjud.

Navoiy Muhammad payg‘ambar alayhissalomning ku-yovlari – hazrati Alining hikmatli so‘zлari jamlangan, «Nasr ul-laoliy» («Marvarid hikmatlar») asarini she’rga solib tarjima qiladi. «Nazm ul-javohir» deb atalgan bu o‘ziga xos to‘plamdagи 270 ta to‘rt satrli she’rning hammasi ham janr jihatidan ruboiy hisoblanadi.

Demak, shoir o‘zbek tilida 500 ga yaqin ruboiy bitdi. Uning forsiy devoni – «Devoni Foniy»da esa bu janrning 100 ga yaqin namunasi mavjud.

Ruboiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarini aks ettirish, hayo-

tining turli davrlarida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar ta’sirida ko‘nglida kechgan oniy tuyg‘ulari-yu chiqargan muhim xulosalarini ifodalashda shoirga juda qo‘l kelgan.

«GARDUN GAH MANGA JAFO-U DUNLUQ QILDI...» RUBOIYSI

Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi,
Baxtim kibi, har ishta zabunluq qildi,
Gah kom sari rahnamunluq qildi,
Alqissa, base buqalamunluq qildi.

«Mahbub ul-qulub» – nasr va nazm aralash tarzda bitilgan asar. Undagi she’riy parchalarning ayrimlari ruboiy janrida yozilgan. «Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi...» ruboiysi ham – ana shundaylardan biri.

Unda to‘rtala misra ham o‘zaro qofiyalangan («dunluq» – «zabunluq» – «rahnamunluq» – «buqalamunluq»). Shuning uchun she’r bu janrning taronayi ruboiy turiga kiradi. «Qildi» so‘zi esa radif bo‘lib kelgan.

Bu ruboiyda hasbi hol xususiyati mavjud. Ya’ni unda muallifning tarjimayi holi bilan bog‘liq vaziyat aks ettirilgan. Lirik qahramon birinchi misrada «gardun» deganda «taqdir» ma’nosini ko‘zda tutgan. Taqdir esa unga ba’zan jafo-yu pastliklar qilgan («Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi»). Xuddi baxti kabi, har ishda unga shikast, xor-u zorlik yetkazgan («Baxtim kibi, har ishta zabunluq qildi»). Lekin gohida u maqsadi sari yo‘l ko‘rsatdi ham («Gah kom sari rahnamunluq qildi»). Xullas, u shoirga ko‘p buqalamunlik qildi («Alqissa, base buqalamunluq qildi»).

Buqalamunni bilasiz. Issiq o‘lkalarda sudralib yuruv-chilarning shunday bir turi borki, u tabiatdagи rangga qarab terisining ko‘rinishini o‘zgartirib turadi. Yashil o‘simgiliklar orasida yurganda yashil, sarg‘aygan barglar orasida esa sariq rangga kiradi. Bu uning uchun himoya vositasi hisoblanadi.

Shoir ruboiyda taqdir ham unga nisbatan shunaqa rang-baranglik qilganini, ya’ni goh jabr-u jafo o’tkazib, goh siylaganini qalamga olgan.

Ruboiyning tub mag‘zida hayotga muhabbat bor. Har qanday shaxs taqdiri mohiyatan murakkab kechadi. Kishi hayoti bir kun undoq, bir kun bundoq o’tishi mumkin. Xalqimiz buni: «*Oyning o’n beshi – qorong‘i, o’n beshi – yorug‘*», degan ajoyib maqol orqali ifodalagan. Shoir bu yerda inson taqdirining bunday buqalamunligidan ustun kela olishi lozimligi g‘oyasini ilgari surgan.

«Mahbub ul-qulub»ning ana shu ruboiy keltirilgan qismida ham muallif o‘z boshidan kechirgan bir-biriga zid holatlar tasviri orqali aynan shu xulosani ilgari surgan.

«AHBOB, YIGITLIKNI G‘ANIMAT TUTUNGUZ...» RUBOIysi

Ahbob, yigitlikni g‘animat tutunguz.
O‘zni qarqliq mehnatidin qo‘rqtunguz.
Oyini adovat-u hasaddin o‘tunguz,
Har nav’ ila o‘zni necha kun ovutunguz.

Bu ruboiy «Mahbub ul-qulub» asarining 105-tanbehi tarkibida kelgan. Mazkur tanbehga «Shabob ayyomi zikrida» («Yoshlik davri zikrida») degan sarlavha qo‘yilgan. Unda «umr gulshanining bahori... va hayot shabistoni (kechasi)ning nahori (kunduzi)» bo‘lgan yigitlik davri xususiyatlari ta’riflanadi.

Ruboiy ana shu tanbehning xulosasi sifatida kelgan. Unda shoir to‘g‘ridan to‘g‘ri nasihatga o‘tadi. Ruboiyning «ahbob» («do‘sstar») degan undalma bilan boshlanshi ham, misralardagi ma’no yo‘nalishi ham, jumlalarning shakliy tuzilishi ham shunday deyishimiz uchun to‘la asos beradi.

Ruboiyning har bir satrida bir o‘git ilgari surilgan:

1- *mistrada* shoir do'stlariga yigitlik davrini g'animat bilishni;

2- *mistrada* o'zni hali oldinda qarilik mashaqqatlari borligi bilan qo'rqtishni, ya'ni hozirgi kuch-quvvatga to'la davrning qadriga yetishni;

3- *mistrada* boshqalarga adovat va hasad qilish odatlari ning bahridan o'tishni;

4- *mistrada* esa, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham, o'zni necha kun, ya'ni ana shu yoshlik davrida ovutishni nasihat qiladi.

Ruboiydagи «ahbob»ga murojaat – bir badiiy vosita, xolos. Chunki bu gaplarini muallif faqat o'zining do'stlarigagina qarata aytgan, deb hisoblasak, asarning ahamiyatini kamaytirib, uning ta'sir maydonini cheklab qo'ygan bo'lamiz.

Bu ruboiy, shoirning har qanday asari kabi, makon va zamon tushunchalari qobiqlarini yorib o'tadi, bu jihatdan u chegara bilmaydi. Hayot bor ekan, insoniyat mavjud ekan, yoshlik va qarilik tushunchalari bo'ladi. Shoir lirik qahramoni qarilik shabadalari esmasidan burunroq yoshlikning qadriga yetishni, ya'ni uni g'animat bilishni targ'ib qilyapti.

Yoshlikni g'animat bilish tushunchasining mohiyati esa – juda keng. U kishini aynan yoshlikda hayot yo'lini mustahkam qilib qurishga, baxtli qarilikning poydevorini oldindan qurishga, buning uchun adovat va hasad kabi illatlardan forig' bo'lib, ana shu yoshlik davrini yaxshi o'tkazishga undaydi.

Ruboiy – ana shunday g'oyaviy, ijtimoiy, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

«EY UMRI AZIZ» RADIFLI RUBOIY

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Har neniki sevmak ondin ortuq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.

Bu – shoirning «G‘aroyib us-sig‘ar» devoniga kiritilgan ruboiylaridan biri.

Atrofga bir nazar tashlang: hayot – qanchalar go‘zal! Toki tirik ekansiz, yuragingiz urib tursa, ko‘zlariningiz ko‘rib tursa, yashash sizga shirindan shirin ne’mat bo‘lib tuyulaveradi. Chindan ham, tiriklik – hech qachon qaytib berilmaydigan bir tortiq. Buni o‘ylaganingiz sari, mohiyatini anglay boshlaganingiz sayin hayot sizni ohangrabodek yanada kuchliroq o‘ziga mahliyo etaveradi.

Xo‘sh, Navoiy ko‘nglida ana shunday o‘ta hayotsevarlik tuyg‘ulari jo‘sh urmaganmi, deysiz?!

Hayotsevarlik buyuk shoir va mutafakkir uchun asosiy mavzulardan biri edi. Uning umumijodida bu g‘oya bosh masala yanglig‘ ilgari suriladi. «Sab’ayi sayyor»dagi mashhur:

Xushdurur bog‘i koinot guli,
Borchadin yaxshiroq – hayot guli, –

degan baytni eslang.

Ko‘nglida, his-kechinmalarida hayotga muhabbat jo‘sh urgan bir mahalda shoirning kuchli hayajon bilan o‘qiladigan yuqoridagi ruboysi qog‘ozga tushgan.

Umr – kishiga bir borgina taqdim etiladigan ne’mat. Lekin ruboiy kishining yashagan yillari ma’nosidagi umr haqidagi emas. Tilimizga arabchadan olingan «umr» so‘zining «hayot» degan ma’nosi ham bor. Shoir bu asarida aynan hayotning azizligi haqida so‘zlayapti.

Lirk qahramon aziz hayotni jonidan ham ortiq (ko‘p) sevadi (1- misra). Jon nima bo‘libdi?! Agar, mabodo hayotga mehr miqdorini o‘lchash uchun son ishlatiladigan bo‘lsa, lirk qahramon muhabbati uchun son yetishmas edi (2- misra). Biror narsani sevishning bundan ortiq darajasi

bo‘lmasa, ey aziz hayot, men ana o‘sandan ham ko‘p sevaman seni, deydi lirik qahramon (3- va 4- misralar).

Ruboiyda bor-yo‘g‘i 13 ta so‘z ishlatalgan: «jondin», «seni», «ko‘p», «sevarmen» («sevmak»), «ey», «umri», «aziz», «sondin», «har», «neniki», «ondin», «ortuq», «bo‘lmas».

Bularning ayrimlari takror qo‘llangan. Xuddi ana shu takrorlar ruboiy jozibasini ta’min etib turibdi.

1-, 2- va 4- misralarda 1- so‘z («jondin», «sondin», «ondin») gina – qofiya, ulardagi qolgan so‘zlar («seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz») esa – radif.

Kishi uchun jonidan ham azizroq narsa bormi? Shoir ruboiyda gapni aziz hayotni jonidan ham ortiq sevishini aytishdan boshlaydi.

Ruboiy *a-a-b-a* tarzida qofiyalangan. «Jondin»ga ohangdosh «sondin» va «ondin so‘zлari esa o‘ziga xos bir zanjir bo‘lib, misralarni mahkam ushlab turibdi. Shuning uchun bu ruboiyni past ohanglarda o‘qish – qiyin.

1-, 2- va 4- misralarda qofiyadan boshqa barcha so‘zlarning radif bo‘lib kelishi, fikrni satrdan satrga o‘tgan sayin kuchaytira borish she’r jozibasini tayin etgan.

Oddiy so‘zlar ulug‘ shoir qalamining sohir kuchi bilan o‘ta nozik tuyg‘uning juda ta’sirchan ifodasiga xizmat qilgan.

«BO‘LMAS EMISH» RADIFLI RUBOIY

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish.

Bu ruboiyni siz yoddan bilasiz. Bu yerda uning batafsil adabiy-badiiy tahlili bilan tanishasiz. Bu ruboiy «Xazoyin ul-maoniy»ning «G‘aroyib us-sig‘ar» devonidagi ruboilar

tarkibiga kiritilgan. Navoiyshunoslikda, uni shoir taqdir taqozosiga ko‘ra, hozirgi Eronning Mashhad shahrida – musofirlikda yashagan davrida yozgan, deb hisoblanadi.

Ruboiyda musofirlilik – begona yurtdagi Vatan hijroni-yu sog‘inch ohangi ustuvor. Chunki «g‘urbat» so‘zi – musofirlilik, begona yurtda yashash, degan ma’noni anglatadi. «G‘arib» esa – ana shu begona joyda yashayotgan kishi. Odam o‘zga diyorda shodmon, ya’ni xush-u xursand hayot kechirishi qiyin. 1- misra ana shu bir insoniy holatni ifodalab kelgan.

2- satrda bu fikr dalil bilan isbotlanadi: shodmon bo‘lmaslikka sabab shuki, begona yurtning eli musofir – notanish odamga shafqat qilmas va aslo mehribonlik ko‘rsatmas ekan... «O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha o‘z yurtingda gado bo‘l» degan maqol ham ma’nosiga ko‘ra, ana shu ruboiy mazmuni bilan hamohanglik qiladi. Bu ham yurtparvarlik g‘oyasini xalqimiz azal-azaldan yuksak darajada qadrlab kelganini ko‘rsatadi.

G‘urbatning musofirlilik ekaniga dalil shuki, shoir «Saddi Iskandariy» dostonida:

Navoiy, chu g‘urbatda sen shod bo‘l!
Vatan yodi ranjidin ozod bo‘l! –

deydi.

Musofirlikda kishi Vatanni o‘ylaydi, shod bo‘lolmaydi, albatta. Lirk qahramon shuning uchun ham Navoiyga murojaat qilib: «Vatan yodini unutgin-u, musofirlikda shod bo‘l», – deyapti.

Ruboiyning 3- va 4- misralarida dastlabki ikki satrda aytilgan yalpi fikrning qiyosiy isboti berilgan. Bulbul – dala-yu dasht, bog‘-u bo‘stonda erkin uchib yuradigan qush. Qafas uning asl makoni emas. Bu tutqunlikda u xuddi o‘zga yurtda yashayotgan kishidek musofir. Garchi qafas oltindan yasalgan, ichida qizil gul bitgan bo‘lsa ham, bu tabiatan gul oshig‘i bo‘lmish bulbulga hech ham tatimaydi.

Chunki oltin qafas ichidagi qizil guldan ko‘ra unga, tikanli bo‘lsa ham, o‘z oshyoni – ma’qul.

Bu yerda shoir bulbulning xas-xashaklar, ya’ni tikandan uya qurishini ham ko‘zda tutgan.

Ruboiyning oxirgi ikki misrasini: «Oltin qafas ichida qizil gul bitsa ham, bulbulga bu qafas oshyon, ya’ni Vatan bo‘la olmaydi, gul esa tikandek sanchiladi», – deb tushunish ham mumkin.

Qanday talqin qilinmasin, ruboiyda Vatandan ayri-lik dardi qalamga olingan. Keyingi ikki misrada mavjud bulbul timsoli, xususan, uning qafasda ekani ko‘plarga ruboiyda ozodlik ruhi ham bordek tuyuladi. Asar matni bunga imkon beradi.

Musofirlik mavzusi, shoir ijodining ilk, jumladan, Mashhaddagi hayoti davrida va undan keyin Samarqand hamda Astrobod shaharlarida kechgan yillari yozilgan, deb taxmin qilinadigan yana ayrim ruboiylarida ham davom ettiriladi.

Qush uchun qafasdagi har qanday go‘zal hayotdan ko‘ra, vayrona bo‘lsa ham, tikanli oshyoni ming chandon a‘lo ekani g‘oyasini Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida epik tasvirda ham talqin etadi. Undagi «Kabutar hikoyati...»da aynan ana shu ruboiydagi fikr yoyibroq bayon etiladi.

Erkin uchib yurgan bir kabutar ovga chiqqan bir podshohning tuzog‘iga tushib, bandi bo‘ladi. Necha yillar hukmdor uni bag‘oyat bezatilgan qafasda saqlaydi. Payti kelib, kabutar bu «zindon»dan qochish imkonini topadi. Shunda tinmay qanot qoqib, o‘z diyori sari parvoz etadi. Vatan sog‘inchi bilan necha kunlik yo‘lni bir damda bosib o‘tadi.

Lekin, afsuski, o‘tgan ana shu yillar mobaynida uning uyasi buzilib ketgan edi...

Kabutar uchishdan to‘xtamaydi. O‘z tomini izlashda davom etadi. Odamlar uni qo‘lga tushirish uchun tomlariga sepib qo‘ygan donlarga qiyo ham boqmaydi. Oxiri, o‘sha

uyasi xarobalarini topib, xursand bo‘lganicha o‘sha yerga qo‘nadi. Vayrona bo‘lsa ham, o‘z vayronasini unga begona bo‘lgan shoh qasridan afzal biladi. Chunki qush uchun ti-kanli oshyoni – bezatilgan qafasdan ming chandon ustun:

Ki: «Ma’nus erur, garchi vayronadur,
Netay shoh qasrinki, begonadur».

Erur qushqa xushroq, chu boqsang, ayon,
Murassa’ qafasdin tikon oshyon.

Vayrona bo‘lsa ham, o‘z Vatanini go‘zal o‘zga yurtdan ustun ko‘rish g‘oyasi bugun ham dolzarb hisoblanadi.

Har qanday badiiy asar kabi, ruboiylar ham turlichalishni va har xil talqin etilishi mumkin. Ko‘p ma’no-lilik badiiy, xususan, she’riy matnning tub xususiyati – timsoliy (obrazli)likdan kelib chiqadi. Shu ma’noda «Bo‘lmas emish» radifli ruboioining tahlil etganimiz hayotiy mazmunidan boshqa, aytish mumkinki, tasavvufiy mohiyati ham bor.

G‘ariblik falsafiy-tasavvufiy tushuncha sifatida insonning tiriklik chog‘ini bildiradi. Umr kechirish esa faqat shodliklardangina iborat emas. Lirik qahramonning el, ya’ni kishilardan mehr-shafqat kam ko‘rganidan nolishi ham – tabiiy. Zamon ahli bevafoligidan shikoyat Navoiy lirikasining bosh mavzularidan biri hisoblanishini bilasiz. Tasavvufiy talqinga ko‘ra, bu dunyo – bir qafas. Qizil gul bitgan qafas bulbulga tikandek oshyon bo‘lmagani kabi, bu dunyodagi azob-uqubatli hayot ham, shohona hayot ham insonga asl Vatan bo‘la olmaydi...

Musofirlilik kayfiyati shoirga ana shunday bag‘oyat chuqr ma’noli, juda o‘ziga xos bir ruboiy bitish imkonini bergen.

Shu tariqa ruboiyda musofirlilik va zimdan bandilikda shohona hayot kechirishdan ona yurtda va ozodlikda g‘aribona kun ko‘rish ustun qo‘yiladi.

Bunda Navoiyning to‘rtgina misraga ana shunday boy hayotiy mazmunlarni yuklay olishdek yuksak mahorati namoyon bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar

1. Ruboiy janrining Alisher Navoiy lirikasida tutgan o‘rnini haqidagi so‘zlang.
2. «Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi...» ruboisining hasbi hol xususiyati nimalarda namoyon bo‘lgan?
3. «Ahbob, yigitlikni g‘animat tutunguz...» ruboisi ifoda-langan g‘oyanining mohiyatini tushuntiring.
4. «Ey umri aziz» radifli ruboiydagi hayotsevarlikning ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?
5. «Bo‘lmas emish» radifli ruboiyda vatanparvarlik g‘oyasi qanday tasvirlangan va musofirlilik fojiasi qay tarzda aks ettirilgan?

TUYUQLAR

Tuyuq haqida nazariy ma’lumotga egasiz. Uning so‘n turkiy she’riyatgagina xos janr ekanidan ham xabardorsiz. Mantiqan, turkiy she’riyatni haddi a’losida taraqqiy etti-rishni ko‘zlab qalam tebratgan buyuk Alisher Navoiyning bu janrni chetlab o‘tishi mumkin emasligini ham tasavvur qilasiz, albatta. Shoir barcha tuyuqlarini bir yerga jamlab, «Badoye’ ul-vasat» devoni tarkibiga kiritgan. Devondagi tuyuqlarning umumiyligi soni – 13 ta.

«BORMOG‘IN» TAJNISLI TUYUQ

Necha dedim ul sanamg‘a: «Bormog‘in»,
Qilmadi ul tark oxir bormog‘in.
Munchakim xudroyliq ko‘rguzdi ul,
Aql hayrat qildi, tishlab bormog‘in.

Tuyuq shunday janrki, uning qofiyasida kelgan shaklan bir xil so‘zlar yoki so‘zlar turkumining har satrda

boshqa-boshqa ma’no anglatib kelishi kishida ajib bir zavq uyg‘otadi.

Ushbu tuyuqning 1- misrasi oxiridagi «bormog‘in» so‘zi hozirgi tilimizdagи «bormagin» ma’nosida kelgan («Necha bora u sanamga: «Bormagin», – dedim»).

2- misradagi «bormog‘in»ni «bormog‘ini» deb tushunishimiz kerak, satrdagi «oxir» so‘zi esa «hech» ma’nosida ishlatilgan («U bormog‘ini hech tark etmadi»). Demak, sanam lirik qahramonning gapiga kirmabdi.

3- misrada sanamning qaysarligi («xudroyliq», ya’ni o‘zboshimchalik qilgani) aytiladi («U shunchalik qaysarlik qildiki...»).

4- misradagi «bormog‘in» so‘zi «barmog‘ini» degan ma’noda qo‘llangan («Aql bundan hayratlanib, barmog‘ini tishladi»).

Tilimizda «barmoqni tishlamoq» degan ajoyib ibora bor. Odatda, iboraning ma’nosi bir so‘zga teng kelishi kerak. Bu ibora «hayratlanmoq» degan ma’noning ta’sirchan ifodasi sifatida ishlatiladi. Ayon bo‘lyaptiki, o’sha Navoiy yashagan XV asrda ham mazkur ibora mavjud ekan.

Shuni ham o‘quvchilarimizga eslatib ketishimiz kerakki, u davrdagi arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek alifbosida «bormagin», «bormog‘in» va «barmog‘in» so‘zlari aynan bir xil harflar bilan bitilgan. Shundan tajnis hosil qilingan.

Shoirning yuksak badiiy mahorati shundaki, o‘zaro shakldosh, ya’ni ohang jihatidan aynan bir xil so‘zlarni tuyuq qofiyalariga olish orqali kitobxon ong-tafakkuri va ruhida ajib bir badiiy-tabiyy (badiiy-estetik) kayfiyat uyg‘ota olgan.

Tuyuqning 3- va 4- misralarida aql mavhum tushunchasi jonlantirilgan. Aslida, odam hayratdan barmog‘ini tishlaydi. Bu asarda esa mazkur harakat aqlga tegishli qilib tasvirlangan. Bunda ham shoirning xalq tilidagi tabiiylikka rioya qilgani ko‘rinadi. Chunki tilimizda: «Aqlim lol qoldi», – degan ibora ham bor-ku. Holbuki, bunda ham o’sha

so‘zlayotgan shaxsning o‘zi lol qolgani tushuniladi. Faqat bu ish-harakat aqlga ko‘chirilgan holda ifodalanyapti.

Tuyuq, aslida, ana shu lisoniy go‘zallik asosiga qurilgan. Lekin unda zimdan sanamning qaysarligi, gapga kir-magani qoralanayotganini sezish qiyin emas. Aql bundan hayratlanib, barmog‘ini tishlagani bayonida esa bilinar-bilinmas tarzda: «Birovning jo‘yali maslahatiga kirmay, qaysarlik qilish ham aqldan emas», – degan g‘oya ilgari surilayotganiga ham shubha yo‘q.

«SARVI GULRUX SORIDIN» TAJNISLI TUYUQ

O‘tkali ul sarvi gulrux soridin,
Yo‘q xabar ul sarvi gul ruxsoridin.
Hajridin bog‘ ichra berur yodima
Qomatidin sarvu, gul – ruxsoridin.

Tuyuq haqidagi nazariy ma’lumotdan bilib oldingizki, badiiy asarda tajnis hosil qilish uchun faqat tildagi tay-yor shakldosh (omonim) so‘zlardangina foydalanish shart emas. Chunki qalam sohibi bir necha so‘z qo‘shilmasi orqali ham ohoriy, ilgari tutilmagan, ya’ni tamoman yangi tajnislar ijod qilishi ham mumkin.

Ushbu tuyuqda ham Navoiy shunday yo‘l tutgan. 1- misradagi «sarvigul ruxsoridin» so‘zlar tarkibiga 2- misrada «sarvigul ruxsoridin» va 4- misrada «sarvigul ruxsoridin» degan so‘z tarkibi qofiya bo‘lib kelgan. Lekin bu uch qofiyadagi so‘zlarning har biri alohida-alohida ma’noga ega. Lekin eski o‘zbek alifbosida bu tajnis tarkibi bir xil yozilgan.

1- *mistrada* «sarvi gulrux» so‘zi istiora bo‘lib, tik qomatli va gul yuzli yorni anglatib kelgan. Natijada satrdan: «Gul yuzli yor (yonidan) o‘tgani», – degan ma’no uqamiz.

2- *mistrada* buning iloji yo‘qligi mantiqan asoslanadi: «U sarvdek tik qomatli gulning yuzidan xabar yo‘q».

Bu yerda endi «gul» istiora sifatida to‘g‘ridan to‘g‘ri yorni anglatib kelyapti. «Ruxsor» so‘zi esa o‘z ma’nosida «yuz»ni bildirib turibdi. Lekin bunda ham so‘z ko‘chimi – metonimiyaning «sinekdoxa» degan turi bor: uzb, ya’ni butunning bir bo‘lagi («yuz») tilga olinib, amalda butun (ya’ni yor)ning o‘zi ko‘zda tutilgan.

3- *mistrada*: «Yorning hajridan bog‘ ichra yodimga soladi...» – degan fikr ifodalangan.

4- *mistrada* shoir endi «sarv» va «gul» so‘zlarini o‘z ma’nosida ishlataladi: «(Bog‘dagi) sarv – yorning qomatini, gul esa uning yuzi (ruxsori)ni (yodga soladi)».

«Sarv» so‘zi o‘zbek mumtoz she’riyatida ko‘p qo‘llanadigan so‘z-timsollardan biri hisoblanadi. Aslida, u ignabarglilar turkumiga kiradigan archasifat daraxt turini anglatadi. U ingichka bo‘lib o‘sadi. Bo‘yi 25 metrgacha yetadi. U, asosan, issiq o‘lkalarda ko‘p uchraydi. Yurtimizda ham bir paytlar bo‘lgan. Masalan, Toshkent shahridagi Shayx Xovand Tahir qabri yonida qurib qolgan sarv daraxtining tanasi saqlangan. Ajdodlarimiz shu daraxt tansini ichkarida qoldirib, maqbara buniyod etishgan. Hozirgi paytda poytaxtimizning hashamatli «O‘zbekiston» xalqaro tantanalar saroyi kiraverish yo‘lagining ikki yoniga qator qilib sarv daraxtlari ekilgan. Ular tik qomatini namoyon etib, salobatli koshonaga yanada ko‘rk bag‘ishlab turibdi.

Tuyuq turkiy janr bo‘lgani uchun uning aksar namunalarda qofiyaga olingan tajnislari, asosan, turkiy so‘z va qo‘shimchalar vositasida shakllantiriladi. Ammo bu tuyuqda shoir aynan kelib chiqishi forscha-tojikcha bo‘lgan so‘zlar vositasida tajnis yaratadi.

Asarda «sarv», «gul» va «ruxsor» so‘zlari shoir sehrli qalamining kuchi bilan ajoyib joziba yuzaga keltirgan. Lirik qahramon bog‘dagi sarv va gulni ko‘rib, yorini ularga o‘xshatadi. Shu tariqa tuyuqda hijron tuyg‘usi aks etgan. Shoir shu mo‘jaz hajmli she’rni o‘qigan kitobxon ko‘z oldida go‘zallik timsolini yaratana olgan.

Adabiyotda go‘zallik so‘zlar va ularning ajib ifodasi orqali yuzaga keladi.

«BUTMAGAN» TAJNISLI TUYUQ

Tig‘i ishqing yorasidur butmagan,
Dardini har kimga aytib butmagan.
Hajr sahrosidur ohim o‘tidin,
Anda gul yoxud giyohe butmagan.

Bu tuyuqda tajnis turkiy (o‘zbekcha) «butmagan» shakldosh (omonim) so‘ziga tayangan holda yuzaga keltililgan. Shunisi borki, bu so‘zning hozirgi tilimizdagi «bitmagan» shakli bugun ham mazkur tuyuqdagi ma’nlarni ifodalab kelaveradi.

1- *misradagi* ifoda «tuzalmagan» ma’nosidagi «bitmagan» so‘zi sifatida ishlatilgan («Ishqing tig‘i yarasi bitmagan»).

2- *misra* qofiyasida «tugatmagan» ma’nosidagi «bitmagan» so‘zi qo‘llangan («Dardini har kimga aytib tugatmagan»).

3- *mistrada* tajnisli qofiya mavjud emas («Hijron cho‘lida ohim otashidan...»).

4- *mistrada* tajnisdagi so‘z «unib chiqmagan», «o‘sma-gan» ma’nosidagi «bitmagan» shaklida istifoda etilgan («Unda biror gul yoxud giyoh unib chiqmagan»).

Tuyuq ishqiy mavzuda bitilgan. Lirik qahramon avval yorning ishqisi tig‘i qalbini bitmaydigan yaraga aylantiriganini so‘zlaydi (1-misra). Keyin yara jonlantiriladi: bu yara dardini hech kimga aytib tugatmagan (2- misra). Shundan so‘ng «hajr sahrosi» («ayriliq sahrosi») istiorasi tilga olinadi-da, uning lirik qahramon ohi olovidan yongani o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantiriladi (3- misra). Bilasiz, yozda sahro go‘yo yonadi. Bu otash holatida u yerda biror gul yo giyoh o‘smanydi. Xulosada lirik qahramonning ohi,

otashi bunga sabab qilib keltiriladi. Bunday chiroyli va mantiqiy dalil keltirish usuliga adabiyotshunoslikda «husni ta'lil san'ati» deyiladi.

Tuyuqda shaklan bir xil bo‘lgan so‘zning uch bor qo‘llanishi amalda ana shunday badiiy-tabiiy (badiiy-estetik) ta’sirchanlikni yuzaga keltirgan.

Savol va topshiriqlar

1. Tuyuqning turkiy she’riyatda tutgan o‘rni qanday va bu janr namunasini yaratish uchun qanday shartlarga amal qilish lozim?
2. «Bormog‘in» tajnisli tuyuqni satrma-satr sharhlang.
3. «Sarvi gulrux sordin» tajnisli tuyuqning badiiy-tabiiy ta’sirchanligini ta’milagan vositalar nimalardan iborat?
4. «Butmagan» tajnisli tuyuq mohiyatida nima yotadi?

FARDLAR

Arabcha «fard» so‘zi eski o‘zbek tilida «yakka», «tanho», «yolg‘iz», «boshi ochiq», «sheriksiz», «yagona», «benazir», «bir kishi», «ajralib turadigan» degan ma’nolarda qo‘llanadi. Xalqimiz orasida uchraydigan «Farid» va «Farida» ismlari ham shu ma’nodan kelib chiqib qo‘yiladi.

Biroq adabiyotshunoslikda uning alohida ma’nosи mavjud. Garchi eski tilimizda «fard» g‘azalning alohida ajralib turadigan, eng ta’sirchan bir bayti, ya’ni «shohbayt» ma’nosida ham ishlatilgan bo‘lsa-da, hozir bu so‘z o‘zbek mumtoz she’riyatidagi faqat bir baytdangina iborat alohida, mustaqil lirik janri ifodalaydi.

Alisher Navoiy asarlar bitgan 16 lirik janrning biri – fard.

Shoir alohida mustaqil asar sifatida bitilgan barcha fardlarini bir yerga jamlab, «Favoyid ul-kibar» devoni tarkibi-

ga kiritgan. Devondagi fardlarning umumiy soni – 86 ta.

Fard ixcham hayotiy xulosalar uchun eng qulay janr hisoblanadi. Fardlarda Navoiy fikr-mulohazasi, ko‘rgan-kechirganidan chiqargan xulosasining mag‘zini aytib qo‘ya qoladi. Shuning uchun shoirning aksar fardlari xalq maqoli yoki hikmatli so‘z (aforizm) kabi jaranglaydi, kuchli ta’sirchanlikka ega bo‘ladi, o‘quvchilar tarafidan tez yod olinadi.

Bu janrning ko‘p namunalarida pand-nasihat xususiyati ustunlik qiladi.

Fardlar, xuddi g‘azalning matlasi kabi, *a-a* tarzida juft qofiyaga ega bo‘lishi ham, xuddi g‘azalning qolgan bayt-lari kabi, ikki misra o‘zaro qofiyalanmagan shaklda kelishi ham mumkin. Navoiyning siz o‘qib, o‘rganadigan fardlari *a-a* tarzida qofiyalangan. Biroq Navoiyning quyidagi fardida ikki misra o‘zaro qofiyalanmagan:

«Belu og‘zidin, – dedilarkim, – degil afsonae»,
Boshladim filholkim: «Bir bor edi, bir yo‘q edi...»

«YUQAR YAMONLIG‘ ANGAKIM, KIRAR YAMON EL ARO...» FARDI

Yuqar yamonlig‘ angakim, kirar yamon el aro,
Ko‘mur aro ilik urg‘an qilur ilkini qaro.

Xalqimiz orasida: «Qozonga yaqin yoursang, qorasi yuqadi», – degan mashhur maqol ko‘p ishlataladi. Navoiyning ushbu fardida shu maqol mag‘zidagi fikr boshqacha-roq tarzda ifodalangan.

1- *misrada* shoir gapning po‘stkallasini aytib qo‘ya qoladi: «Yomon odamlar davrasiga kirgan kishiga (ular-dan) yomonlik yuqadi».

2- *misra* ana shu fikrga hayotiy dalil-isbot yanglig‘ jaranglaydi: «(Axir), ko‘mirga qo‘l tekkizgan (kishi) qo‘lini qora qiladi(-da)».

Fardda yomon kishilar davrasiga qo‘shilmaslik kerak-

ligi g‘oyasi ilgari surilgan. Buning yoshlar ma’naviy tarbiyasi uchun ayricha ahamiyati bor. Adabiyot hamisha ezgulikni targ‘ib qilishi kerak. Ezgulik targ‘ibi tushunchasi tarkibiga esa yomonliklardan qaytarish ham kiradi.

«ULKI, SANGA ELDIN ERUR AYBGO‘...» FARDI

Ulki, sanga eldin erur aybgo‘,
Elga dog‘i sendin o‘lur aybjo‘.

Bu fard mohiyatida ham muhim bir pand yotibdi. Undagi «dog‘i» so‘zi «tag‘in», «yana», «ham», «aybgo‘» kali-masi «ayb aytuvchi», «aybjo‘» esa «ayb qidiruvchi», «ayb topuvchi» ma’nosini anglatishini bilsak, satrlardagi asosiy mazmunni to‘la tushunib olgan bo‘lamiz.

«Kimki senga odamlarning aybini aysa, (esingdan chiqarmaginki), u sendan ayb topib, boshqalarga ham aytadi», – deydi shoир.

Bu bilan, birinchidan, hech kimning aybini aytmaslik g‘oyasi ilgari surilyapti, ikkinchidan, birovlarning aybini aytib kelgan g‘iybatchilarining gapini eshitmaslik, ularga quloq solmaslik ham nasihat qilinyapti.

Bu fikrni oddiy bir o‘git tarzida qabul qilmaslik kerak. Chunki asarning vazni yuzaga keltirgan yengil va o‘ynoqi ohang, ikki satrni bir-biriga chambarchas bog‘lab turgan qofiya («aybgo‘» – «aybjo‘») badiiy go‘zallik hosil qilgan. She’riy ta’sirchanlikni shu unsurlar ta’minlagan. Bu kichkinagina asarda ham shoirning yuksak mahorati, qalaming kuchi bilinib turibdi.

«MEN – SINUQ, KO‘NGLUM – SINUQ, SABRIM UYI XUD –YERGA PAST...» FARDI

Men – sinuq, ko‘nglum – sinuq, sabrim uyi xud –
yerga past,
Bilmagay holim shikastin ko‘rmagan muncha shikast.

Ushbu fardda asli arab tilidan olingan ikkita («sabr» va «hol») va fors-tojik zabonidan kirib kelgan uchta («xud», «past» va «shikast») so‘z qo‘llangan. Qolgan kalimalar ning hammasi – sof turkiy. Bu ikki arabiy ifodani ham, shuningdek, forsiy «past» so‘zini ham hozir hamma bema-lol tushunaveradi. «Xud» bu yerda hozirgi «ham» ma’nosini ifodalab kelgan. «Shikast» esa – aynan «siniq» yoki «buzuq» so‘zining forscha-tojikcha ifodasi. Hozirgi tili-mizda ham «shikast yetkazmoq» qo‘shma fe’li mavjud. Le-kin bu ko‘proq «zarar yetkazmoq» ma’nosida qo‘llanadi.

Shu tahlillardan keyin baytda ifodalangan fikrni hozirgi tilimizda bemalol bayon etish mumkin: «Men – siniq, ko‘nglim – siniq, sabrim uyi ham – yerga past bo‘lgan (ya’ni buzilgan), buncha shikast ko‘rmagan (kishi) holim shikast(zabunlig)ini bilmaydi (tasavvur qilolmaydi)».

Fardda bevosita shoirning hasbi holi ifodalangan. Yaxshi bilamizki, Navoiyning hayot yo‘li bir tekis kechmagan. Ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar o‘zgarishi, ya’ni hokimiyat almashishlari oqibatida oilaning ona shahrini tark etib, Mashhadga ko‘chishiga to‘g‘ri kelgan. 1466- yili esa ijtimoiy-siyosiy vaziyat 25 yoshli shoirni yana Hirotdan o‘zga shaharga – Samarqandga kelishga majbur qilgan.

Bular – ulug‘ zot hayotining ko‘pchilik bilgan mashaq-qatlari. Inson sifatida u yana qanday siniqliklar, nohaqliklar, jabr-u zulm ko‘rgan – bu o‘ziga-yu Xudogagina ayon.

Ushbu fard shoir ko‘nglida kechgan ana shunday kayfiyat hosilasi sifatida qog‘ozga tushgani – aniq.

Asarda har qanday kishi boshidan kechirishi mumkin bo‘lgan holat va kayfiyat tasvirlangan. Shoир erishgan ijodiy muvaffaqiyatlar esa u bunday qiyinchiliklarni sabrmatonat bilan yengib o‘tganini ham xayolidan o‘tkazadi. Bu esa o‘quvchida: «Hayot mushkulotlaridan tushkunlikka tushmaslik kerak», – degan dalda paydo qiladi.

Yana bir narsani bilib olamiz. Navoiy nega asarlarida hayotning bori achchiq-chuchugini haddi a’losida aks et-tira oldi? Bu fard ana shu savolga javob topishga undaydi: chunki shoир hayotning achchiq-chuchugini ko‘p bor o‘z boshidan o‘tkazgan-da.

Shoир – haq: kimki hayotda u boshidan o‘tkazganchalik shikast ko‘rmagan bo‘lsa, uning holi shikastini bila olmaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Fardning janr sifatidagi o‘ziga xosligi nimada?
2. «Yuqar yamonlig‘ angakim, kirar yamon el aro...» fardining tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring.
3. «Ulki, sanga eldin erur aybgo‘...» fardi kishini nimaga undaydi?
4. «Men – sinuq, ko‘nglum – sinuq, sabrim uyi xud – yerga past...» fardining hasbi hol xususiyatini sharhlang.



MUSTAQIL O'QISH UCHUN RUBOIYLAR

Eldin qochib, ulki, tutsa tog‘ ichra qaror,
Sovug‘da yeri bu tog‘ning javfida g‘or.
Issig‘da makoni andakim, yotmisq qor,
Olam elining shahlig‘idin bor anga or.

* * *

Kim istasa sultanat, saxodur anga shart,
Har va’daki, aylasa, vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.

* * *

Kim ko‘rdi ekin jahonda oyo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq?
Yuz yilcha agar bir o‘lsa paydo xushluq,
Omodadur yonida yuz noxushluq.

* * *

O‘lsam, yasamang munda mazorimni mening,
Yuklab, eliting jismi figorimni mening.
O‘tru chiqarib ahli diyorimni mening,
Ko‘yida qo‘yung tani nizorimni mening.

TUYUQLAR

Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay,
Otki, o‘trusig‘a oning ko‘z tutay.
Necha ko‘rgach o‘zga mahvashlar qoshin,
Yangi Oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.

* * *

Charx tortib xanjari hijron bu tun,
Qo‘ymadi bir zarra bag‘rimni butun.
Tunga borib bizni behol ayladi,
Ne balolig‘ yer emish, yo Rab, bu tun?

Ul pari ishqida bu devonani,
Eyki, istarsen, kelib gulkanda ko‘r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko‘ngul, nazzora qil, gulkanda ko‘r.

* * *

Naqsh tushmish ko‘zda ul yoshim mening,
Uylakim, bormas buyon yoshim mening.
Komim o‘lmoqdur habibimdin yiroq,
Gar xud o‘lsun Xizrcha yoshim mening.

FARDLAR

Ulki, Haq borinda maqsud istagay har zotdin,
Mehr borinda yorug‘lug‘ ko‘z tutar zarrotdin.

* * *

Tama etma, ko‘p bo‘lsa el moli,
Ko‘rmayin Haq xazinasin xoli.

* * *

Yetar chu rizqing, agar xoradur va gar yoqut,
O‘zungga yuklama anduh tog‘in, istab qut.

* * *

Muruvvat – borchha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat – borchha qilmoqdur, demak yo‘q.

* * *

Takalluf erur tang‘a farsudaliq,
Aning tarkidur jong‘a osudaliq.

* * *

El ichra, ey hasud, seni qildi Haq zalil, –
Kim nohaq elga zidsen-u Haq molig‘a baxil.

* * *

Xoliq o‘lg‘on saxiydin elga bo‘ldi baxshoyish,
Ham ehsonidin oroyish, ham axloqidin osoyish.

* * *

Yolg‘on demakda tajriba avvalg‘i subh bas,
Yolg‘on nafas chu urdi, qorardi hamul nafas.

NODIRA

(1792 – 1842)



Nodira – XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan taniqli o‘zbek shoirasi. Uning asl ismi Mohlaroyim bo‘lib, Nodira – uning adabiy taxallusi. Bundan tashqari, Komi-la taxallusi bilan ham o‘zbekcha she’rlar bitgani ma’lum. Bu qalam sohibasi – zullisonayn (ikki tilda ijod qilgan) shoiralarimizdan. Fors-tojik lisonidagi asarlarini Maknuna taxallusi bilan yozgan.

U ijod qilgan davrda Qo‘qon adabiy muhitida o‘zbek va fors-tojik tillarida badiiy asarlar yaratish qariyb teng darajada edi.

Nodira 1792- yili Andijonda tavallud topgan. U Andijon hokimi Rahmonqul otaliqning qizi.

Nodiraning ota-onasi Zahiriddin Muhammad Bobur, ya’ni buyuk Sohibqiron Amir Temur xonadoniga mansub edi. Buni uning ushbu baytlaridan ham bilib olish mumkin:

Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen,
Xudoyo, rahmat ayla barcha ajdodi izomimni.

Nodiraning onasi – Oysha begim qizining soliha farzand, iste’dodli shoira bo‘lib yetishuviga ko‘p hissa qo‘shdi. Bo‘lg‘usi shoira zamona xoni oilasiga yaqin qarindosh bo‘lgan xonadonda voyaga yetdi. Rahmonqul otaliq Qo‘qon xoni Olimxonning tog‘asi edi. Shuning uchun 1807- yili Olimxon ukasi Umarxonni tog‘asining qizi Mohlaroyimga uylantirdi. Umarxon Marg‘ilon begi lavozimiga tayinlangandan keyin oilasini shu shaharga olib ketdi.

Oradan uch yil o‘tib, 1810- yili Qo‘qon xoni, ya’ni Nodiraning qaynakasi Olimxon qatl etildi. Uning taxtiga ukasi Umarxon o‘tirdi. Shoiraning bundan keyingi hayoti mamlakat poytaxti bo‘lgan shu shaharda – xon saroyida kechdi. Bu uning ijod bilan muntazam va unumli shug‘ullanishi, o‘zidan oldingi turkiy va forsiy shoirlar asarlarini qunt bilan o‘rganishi, ular an’analarini o‘zlashtirib, izchil davom ettirishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Shoira yashagan zamonda Qo‘qon adabiy muhiti gulab-yashnagan edi. Umarxon uning umr yo‘ldoshi, mamlakat rahbarigina emas, ustoz shoir ham edi. U Amiriyl taxallusi bilan she’rlar ijod qilar, shoir sifatida mashhur edi. Tarix takrorlanadi, degan gap bor. O‘xhash yerini qarangki, Nodira va Zulfiyaning turmushi ham qariyb bir xil kechdi. Ya’ni Nodira 30 yoshligida, Zulfiya esa 29 yoshida umr yo‘ldoshidan ayrıldi. Bu ayrılıq tabiiy ravishda ana shu ikki shoira ijodida hijron ohangini asosiy yo‘nalishga aylantirdi. Nodira va Zulfiya faqat adabiyotimizdagina emas, umuman, hayotda ham o‘zbek ayolining vafo va sadoqati timsoli bo‘lib tarixda qoldi.

Nodira ijodi haqida gap ketar ekan, yana bir nozik jihatni esdan chiqarmaslik kerak. Yor timsolida zimdan Alloh ko‘zda tutilishini, bu o‘zbek mumtoz g‘azaliyotida an’anaviy bir hodisa ekanini yaxshi bilasiz.

Aksar erkak shoirlar yor deganda go‘zal bir qizni ko‘z oldilariga keltirib, uning chiroyini – qaddi-qomati, beli, sochi, yuzi, yonog‘i, ko‘zi, qoshi va hokazolarini qalamga olgan, bu borada bisotidagi bor yaxshi so‘z-u ifoda-yu tasvirlarini ishga solgan. Bu mantiqan o‘zini oqlagan. Chunki Alloh – husn shohi, ya’ni go‘zallikning eng oliv namunasi, uni har qancha ta’riflasangiz ham kamlik qilaveradi.

Biroq endi shoira yozgan g‘azal yo boshqa kichik lirik janrlar namunalarida yor timsoliga munosabat biroz o‘zgaradi. Birinchidan, ancha umumiylashadi, ya’ni endi

uni xushro‘y bir qiz sifatida tasvirlab bo‘lmay qoladi. Ikkinchidan, g‘azal janri an’anasiga ko‘ra, lirik qahramon – oshiq tarzida namoyon bo‘ladi, erkak shoirlar yozgan asarlar mantiqan ma’shuqaga bag‘ishlanadi, shoiralar qalamiga mansub satrlarda lirik qahramon oshiqqa aylanadi va g‘azal endi ma’shuqaga emas, balki ma’shuqqa bag‘ishlanadi. Shuning uchun shoiralar qalamiga mansub g‘azallarda yorning uzun sochi, ingichka beli, qalam qoshi, uzun kipriklari... maqtalavermaydi. Uchinchidan, shoiralar yor (ya’ni ma’shuq)ni shunday umumiy tarzda tasvirlashi kerakki, undan Allohga ishora uzoqlashib ketmasin.

Nodira ijodi bu talablarga to‘la javob beradi. Uning «Eshit» radifli g‘azalida bir yo‘la ham Amir Umarxon, ham Yaratganga ishora borligini sezish qiyin emas. Bu matladayoq ko‘zga tashlanadi:

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

Chindan ham, xonni «*salotin sarvari*» («podshohlar boshlig‘i»), ma’shuqini «*shah*» deyishi, o‘zini «*benavo*» hisoblashi mumkin, bu ta’riflar, *Xudoga qaratilgan*, deb hisoblansa ham, bo‘laveradi. G‘azal davomidagi «*sarvi ozodim*», «*sarvinozim*», «*parizodim*» undalmalari ham xuddi shunday tarzda bir yo‘la ikki obyektga qaratilgan holda qo‘llangan.

Kelki, bir soat seni ko‘rmoq uchun mushtoqmen,
Telba bo‘ldim sendin ayru, ey parizodim, eshit, –

bayti esa she’rni yana-da hayotiyroq qilib, uning insoniy muhabbatga daxldorligini kuchaytirgan.

Nodira asarlari mumtoz shoiralarimiz ijodiyotining ana shunday o‘ziga xosliklari borligini, ularni nozik tushunish zaruratini ko‘rsatib turibdi.

«*Jilva ko‘rsatdi chu ul sarvi diloro bog‘ aro...*», «*Fig‘on-kim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin...*», «*Kel, sanga,*

ey shahi jahon, mamlakati jahon fido...», «Na gul sayr ayla, na fikri bahor et...» deya boshlanadigan va boshqa g‘azal-larini ham majoziy (insonning insonga muhabbat), ham haqiq (insonning Allohga muhabbat) ishq jihatidan talqin etish zarur. Ana shunda asar mazmuni falsafiylashadi, u ir-foniy-tasavvufiy ma’no-mazmun kasb etadi, uning badiiyligi, har zamon va makonga mosligi darajasi oshadi.

Shoira asarlarida mumtoz she’riyatimiz shart va talabalarini mukammal o‘zlashtirishga, shu yo‘lda izlanishlar qilishga, yangiliklar yaratishga intilish sezilib turadi. Bu jihatdan uning musammatlari¹ – alohida diqqatga mo‘lik. Xususan, «Firoqnama» muashshari o‘zbek so‘z san‘atining ajoyib namunasi hisoblanadi. Asar mazmun-mohiyati – shoira umumijodidagi mavzu va ohanglar bilan chambarchas bog‘liq.

Nodira chekkan g‘am, kulfat-u hijron azob-uqubatlari yetmagandek, o‘zi va o‘g‘illarining hayoti ham fojiali yakun topdi. 1842- yili Buxoro amiri Nasrulloxon lashkar tortib kelib, Qo‘qonni bosib oldi. Uning buyrug‘i bilan Nodiraning o‘zi ham, uning o‘g‘illari Muhammadalixon, Sulton Mahmudxon ham, nevaralari ham vahshiyona qatl etildi.

Nodiradan xalqimizga ikki devon qoldi. Nisbatan to‘la deb hisoblanadigan turkiy devonida 189 g‘azal mavjud. Ulardan ayrimlari – tojikcha. Forsiy she’rlari «Devoni Maknuna»da jamlangan.

Sharqda sohibi devon shoир bo‘lish katta sharaf hisoblangan. Chunki devon tuzishi uchun shoир arab alifbosidagi barcha harflar bilan tugaydigan g‘azallar bitgan bo‘lishi kerak. Nodira ikki tilda ham ana shunday yuksak darajaga yetgan ijodkor edi. She’riyat muxlislari orasida shuhrati juda baland edi. Bu haqda uning o‘zi faxr bilan:

¹ *Musamat* – har bandi uch (musallas), to‘rt (murabba’), besh (muxammas), olti (musaddas), yetti (musabba’), sakkiz (musamman), to‘qqiz (mutasne’ yoki tasne’) va o‘n (muashshar yoki mashru’) baytdan iborat bo‘lgan lirik she’r turi.

Nodira, har so‘zki insho ayladim,
Aydi anga ahli davron: «Marhabo!» –
deb yozganida tamoman haq edi.

Chunki mana, oradan bir yarim asrdan ko‘p vaqt o‘t-gan bo‘lishiga qaramay, uning she’rlari sevib o‘qiladi, hofizlarimiz tomonidan qo‘sish qilib kuylanadi, hamon kishilarga ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-tabiiy (badiiy-estetik) zavq va lazzat ulashadi.

Nodira ijodi o‘zidan keyingi ko‘plab shoirlar uchun mahorat maktabi bo‘lib xizmat qildi. Zokirjon Furqatning ayrim she’rlari aynan ana shu shoira asarlariga nazira (o‘xshatma, tatabbu’) tarzida dunyoga kelgan. XX asrda Nodira haqida drama sahnaga qo‘yildi, badiiy film ishlandi. Yurtimizda ayrim san’at va ta’lim maskanlari, ko‘chalar shoiraning nomiga qo‘yilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Nodiraning hayot yo‘lini so‘zlab bering. Umrining eng muhim nuqtalarini esdan chiqarmaslik uchun daftaringizga ularni alohida ketma-ketlik bilan qayd eting.
2. Nodira qanday oilada tarbiya topdi? Bu uning shoira bo‘lib yetishuvida qanday ahamiyat kasb etdi?
3. Nodira va Umarxon munosabatlari, buning shoira ijodiga ta’siri haqida ma’lumotlar topib, so‘zlab bering.
4. Nodira va o‘zbek shoiralari munosabatlari haqida gapirib bering.
5. Shoira ijodining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni aynan nimalarda namoyon bo‘ladi?

G‘AZALLAR «ESHIT» RADIFLI G‘AZAL

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

Dudi ohim shu'lasi husning dabiristonida
Misrayi barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit.

Sarvi nozim, sendin ayru naxli ohim bo'ldi xam,
Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim, eshit.

Har nechakim sabr ta'mirini bunyod ayladim,
Ashk selobida vayron o'ldi obodim, eshit.

Barcha yor-u oshnordin aylading begonalig',
Necha kunlar bo'ldi, hargiz qilmading yodim, eshit.

Kelki, bir soat seni ko'rmoq uchun mushtoqmen,
Telba bo'ldim sendin ayru, ey parizodim, eshit.

Nodira, bodi sabodin sanga irsol etgali
Qildi insho bu g'azalni tab'i noshodim, eshit.

Yetti baytdan iborat bu oshiqona g'azal o'zbek mumtoz she'riyati uchun an'anaviy bo'lgan ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya'ni *foilotun foilotun foilotun foilon* (yoki *foilon*) vaznida bitilgan. Taqte'si: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~). G'azaldagi beshinchи baytning birinchi misrasi «*begonalig'*» so'zi bilan tugagani, ya'ni oxirgi bo'g'in o'ta cho'ziq hijordan tashkil topgani uchun ramali musammani maqsur (– V – – / – V – – / – V – – / – V ~) vaznida bitilgan.

G'azalda turkiy so'z («eshit») radifga olingan. Qofiyadagi so'zlarning barchasi o'zbekcha egalik qo'shimchasi bilan kelgan forscha-tojikcha so'zlardan tashkil topgan (dodim – faryodim – ozodim – shamshodim – obodim – yodim – parizodim – noshodim).

Lirk qahramon gapni to'g'ridan to'g'ri yorga murojaatdan boshlaydi. Ammo g'azalning boshidan oxiriga cha biror joyda «yor» so'zi ishlatilmaydi. Chunki oshiq ma'shuqqa «ey salotin sarvari» («ey podshohlar podshohi», 1- bayt), «ey sarvi ozodim» («ey sarv daraxtidek tik qomatligim», 2- bayt), «sarvi nozim» («mag'rur turadigan

tik qomatligim», 3- bayt), «ey parizodim» («ey parilar avlodidan bo‘lganim», 6- bayt) undalmalari bilan murojaat qiladi. To‘rt baytda bunday undalmalarning kelishi g‘azalning o‘ziga xos uslubidan dalolat beradi.

Bulardan tashqari, lirik qahramon yorni «shah»ga, o‘zini «benavo»ga o‘xshatadi ham (matla).

Shu ifodalardan ham ko‘rinib turibdiki, g‘azal zimdan Nodiraning umr yo‘ldoshi – Amir Umarxon (Amiriyl)ga bag‘ishlangan. Lekin bu ochiq-oydin oshkor qilinmagan. Bunda adabiyotning adabiyotligi, shoiraning badiiy mahorati namoyon bo‘lgan. Ya’ni she’r an’anaviy, ya’ni oshiqning yor sog‘inchi ifodalangan ishqiy g‘azal tarzida qabul qilinaveradi.

G‘azalda tazod san’atining go‘zal namunalari ham uchraydi. Matladagi «shah» bilan «benavo» (muhtoj, bechora), 3- baytdagi «sarvi noz» bilan «xxam» (egilgan), 4- baytdagi «vayron» (buzilgan) bilan «obod», 5- baytdagi «oshno» (tanish) bilan «begona», 5- va 6- baytlarda kelgan «necha kunlar» bilan «bir soat» o‘rtasida yuzaga chiqqan ajib bir qarama-qarshilik fikrni kuchaytirishga, oshiq holtini yanada aniqroq tasvirlashga xizmat qilgan.

G‘azaldagi baytlar ma’no-mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin:

Ey podshohlar podshohi, arz qilib, (oldingga) keldim, arzimni eshit,

Sen shohsan-u, men bechoraman, mehr ko‘rsatib, faryodimni eshit (matla).

Ohimning cho‘zilgan shu’lasi husning devonxonasi (mirzoxonasi)da (bir) munosib misra (bo‘ldi), ey sarvdek tik qomatli (yorim), eshit (2- bayt).

Mag‘rur tik qomatli sarvdek yorim, sendan uzoqda xurmo daraxtidek tik ohim egildi,

Qomating hajrida shamshod shoxidek shoxim sindi, eshit (3- bayt).

*Sabrimni har qancha ta'mirlamayin,
Ko'z yoshlarim selidan (bu) obodim vayron bo'laverdi,
eshit (4- bayt).*

*(Ishqing bilan) barcha yor-u oshnodan begona aylading,
Necha kunlar bo'ldi, hech meni yodga olmaysan, eshit
(5-bayt).*

*Kelki, bir soat seni ko'rmoq uchun mushtoqman,
Seni ko'rmayotganidan telba bo'ldim, ey parizodim, eshit
(6- bayt).*

*Nodira sharqdan esadigan yoqimli shamol orqali senga
yuborish uchun*

*Xursand bo'lмаган ta'bidan, bu g'azalni yozdi, eshit
(maqta).*

G'azal ma'no-mazmuni bilan tanishib, uning yana bir xususiyatini sezish mumkin. Unda shoira yorining tik qomatini yoki, aksincha, ishqiy iztiroblari oqibatida o'zining tik qomati bukilgani holatlarini tasvirlash maqsadida mumtoz she'riyatimizda an'anaviy bo'lgan daraxtlar, yoki ular bilan bog'liq («sarvi ozod», «sarvi noz», «naxli oh», «shoxi shamshod») timsollardan mahorat bilan foydalanadi.

Savol va topshiriqlar

1. G'azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
2. G'azalning mavzusi, uni yoritishda qo'llangan vositalar, jumladan, shoiraning undalmalar hamda daraxtlar yoki ular bilan bog'liq timsollardan foydalanish mahoratini tahlil qilib bering.
3. G'azaldagi mansublilik, ya'ni uning zimdan aynan kimga bag'ishlangani haqida so'zlang.
4. Tazodlarning g'azaldagi o'rni va ahamiyatini tushuntirib bering.

«OQIBAT» RADIFLI G‘AZAL

Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli g‘amdin bu imorat bo‘ldi vayron oqibat.

Qildi choki pirahan dog‘i dilimni oshkor,
Qolmadi ko‘nglimda zaxmi ishq pinhon oqibat.

Ahd-u paymonlar qilib erdi: «Vafo qilg‘um», – debon,
Ayladi tarki vafo ul ahdi yolg‘on oqibat.

Orzu qildim: «Tutarmen – deb, – visoli domanin»,
Pora bo‘ldi hajr ilgida giribon oqibat.

Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma’zur tut,
Yor ko‘yida na bo‘ldi Shayx San’on oqibat?

Baski, qon bo‘ldi yurokim gavhari ashk o‘rniga,
Qatra-qatra ko‘zlarimdin tomdi marjon oqibat.

Ohkim, bo‘ldi yana subhi nashotim shomi g‘am,
Chehra pinhon etti ul Xurshidi tobon oqibat.

Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,
Poymoli xayli mo‘r o‘ldi Sulaymon oqibat.

Nodira, bulbul kabi to nola insho ayladim,
Navbahor o‘tti, xazon o‘ldi guliston oqibat.

Bu g‘azal – to‘qqiz baytdan iborat. Vazni – oldingi g‘azaldagi kabi, o‘zbek mumtoz she’riyati uchun an‘anaviy bo‘lgan ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya’ni foilotun foilotun foilotun foilun (yoki foilon). Taqte’si: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~). G‘azaldagi 2- baytning 1- misrasi «oshkor» so‘zi bilan tugagani, ya’ni oxirgi bo‘g‘in o‘ta cho‘ziq hijodan tashkil topgani uchun ramali musammani maqsur (– V – – / – V – – / – V – – / – V ~) vaznida bitilgan.

G‘azalda «oqibat» so‘zi radifga olingan. Bu kalima har bir bayt mazmunini boshqarib turadi.

G‘azal ishqiy mavzuda bitilgan. Unda hijron iztiroblari tasviri asosiy o‘rin tutadi. Lirik qahramon yor vasliga yetolmagani oqibatida chekkan dard-u g‘amlarini turli-turli badiiy tasvirlar orqali bayon etadi.

Baytlar ma’no-mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin:

*Vasl uyini obod qildim, (ammo) hijron oqibatda (uni) buzdi,
Oxir-oqibatda g‘am selidan bu imorat vayron bo ‘ldi (matla).*

*Ko ‘ylagimning choki dilimning dog‘ini oshkor qildi,
Oqibatda ko ‘nglimdagi ishq yarasi pinhon qolmadi (2- bayt).*

*«Vafo qilaman», – deb ahd-u paymonlar qilgan edi,
(Ammo) vafoni tark etdi, oqibatda uning ahdi yolg‘on bo ‘lib
chiqdi (3- bayt).*

*«Visoli etagini tutarman», – deb orzu qilgan edim,
Oqibatda hajr qo ‘lida yoqa bo ‘lak-bo ‘lak bo ‘ldi (4- bayt).*

*Ey zohid, ishq-u muhabbat ahlini kechir,
(Axir), yor ko ‘yida oqibatda Shayx San’on nima bo ‘ldi?
(5- bayt).*

*Bas, ko ‘z yoshi gavhari o ‘rniga yuragim qon bo ‘ldi,
Oqibatda ko ‘zlarimdan qatra-qatra marjon(dek yosh) tomди
(6- bayt).*

*Ohkim, xursandligim tongi yana g‘am shomi bo ‘ldi,
Oqibatda u porloq Quyosh yuzini yashirdi (7- bayt).*

*Garchi devlar Sulaymon farmoniga bo ‘ysungan bo ‘lsa
ham,*

*Oqibatda (oxirida) uning o‘zi chumolilar to ‘dasi oyog ‘i
ostida toptaldi (8- bayt).*

*Nodira, bulbul kabi to nolamni yozib ulgurganimga qadar
Oqibatda navbahor o‘tib, guliston xazon bo ‘ldi (maqta).*

Tazod g‘azaldagi eng muhim badiiy san’atlardan biri sifatida namoyon bo‘lgan. «Vasl uyi» bilan «hijron», «obod qildim» bilan «buzdi» va «vayron» (matla), «oshkor» bilan «pinhon» (2- bayt), «ahd-u paymonlar» bilan «tarki vafo», «vafo qilg‘um» bilan «yolg‘on» (3- bayt), «Orzu qildim: «Tutarmen – deb – visoli domanin» bilan «Pora bo‘ldi hajr ilgida giribon oqibat» (4- bayt), «qon» bilan «gavhari ashk» (ko‘z yoshi gavhari, 6- bayt), «subhi nashotim» bilan «shomi g‘am» (7- bayt), «devlar» bilan «xayli mo‘r» (chumolilar to‘dasi, 8- bayt), «navbahor» bilan «xazon» (maqta) o‘rtasidagi qarama-qarshi ma’no fikrni teranlashtirish, bevosita ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

G‘azalda talmeh san’atining yorqin namunalarini ham uchraydi. Fors-tojik shoiri Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» hamda uning ta’sirida Alisher Navoiy bitgan «Lison ut-tayr» dostonlarida tarso (xristian) qizga ishqini tasvirlangan. Shayx San’on (5- bayt), shuningdek, Sulaymon payg‘ambar alayhissalom (8- bayt) tilga olinishida o‘quvchiga oldindan tanish qahramonlar va ular bilan bog‘liq voqealarga ishora mavjud.

Savol va topshiriqlar

1. G‘azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
2. G‘azalning mavzusi, uni yoritishda qo‘llangan vositalar, jumladan, shoiraning tazod va talmeh san’atlaridan foydalanish mahoratini tahlil qilib bering.
3. G‘azalda hijron iztiroblari qanday yo‘llar bilan tasvirlangan?

«ETIB KET» RADIFLI G‘AZAL

Kel, dahrni imtihon etib ket,
Sayri chamani jahon etib ket.

Bedardlaring jafolaridin
Faryod chekib, fig‘on etib ket.

Dunyo chamanini(ng) bulbulisan,
Gul shoxida oshyon etib ket.

Ey ashk, ko‘zimning maktabidin
Hayrat sabaqin ravon etib ket.

Olam chamaniki, bevafodur,
Bir oh bila xazon etib ket.

Ushshoq maqomi bo‘stondur,
Azmi rahi bo‘ston etib ket.

Maqsad na edi, jahona kelding?
Kayfiyatini bayon etib ket.

Fosh etma ulusqa ishq sirrin,
Ko‘ngulda ani nihon etib ket.

Kel, ishq yo‘lida ko‘zlariningi,
Ey Nodira, durfishon etib ket.

Ushbu g‘azal – to‘qqiz baytdan iborat. Vazni – mumtoz she’riyatimizda ko‘proq ruboiy bitiladigan an‘anaviy hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf, ya’ni maf’ulu mafoilun faulun. Taqte’si: -- V / V – V – / V --.

G‘azalda «etib ket» so‘zлari radifga olingan. Har bir bayt mazmuni ana shu ikki so‘z orqali boshqarilgan.

G‘azalaycha zavq-shavq bilan o‘qiladi. Ohangi ham shunga mos. Shu tariqa unga kuchli hayotsevarlik tuyg‘usi singdiriladi. G‘azalda umrni mazmunli, samarali o‘tkazish g‘oyasi ham targ‘ib etiladi.

G‘azal: «Kel», – degan undov so‘z bilan ifodalana-di. Maqta boshida ham xuddi shu murojaat qo‘llangan. Maqtaning ikkinchi misrasida esa shoira taxallus ishlatib: «Ey Nodira», – degan undalma keltiradi. Ma’lum bo‘ladiki, til mantig‘i jihatidan oldingi ikki bor takrorlangan «kel» undovi ham aynan Nodiraga qaratilgan. Demak, bu she’r shaklan lirik qahramonning shoiraga murojaati tarzida bitilgan. Odatda, g‘azalda lirik qahramon muallif tarzida namoyon bo‘ladi. Taxallus qo‘llansa, demak, endi shoir timsoli lirik qahramondan alohida timsol hisoblanadi. Bu ikkalasini aslo adashtirib yubormaslik kerak.

Shuning uchun bunday g‘azallarni, shartli ravishda, muallifning o‘zi bilan o‘zi so‘zlashuvi tariqasida baholash ham mumkin.

4- bayt: «Ey ashk», – degan undalma bilan boshlanadi. Shunday qilib, g‘azalda 2 karra undov so‘z va 2 bor undalma ishlatilgani bu ifoda usuli ushbu she’rning muhim uslubiy xususiyatlaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Endi har bir baytning alohida-alohida ma’no-mazmuni bilan tanishaylik:

*Kel, dunyoni imtihon etib ket,
Jahon chamanini sayr etib ket (matla).*

*Bedardlaringning jafolaridan
Faryod chekib, fig‘on etib ket (2- bayt).*

*Dunyo chamanining bulbulisan,
Gul shoxida oshyon etib (in qurib) ket (3- bayt).*

*Ey ko ‘z yoshi, ko ‘zimning maktabidan
Hayrat darsini ravon etib ket (4- bayt).*

*Olam chamani – bevafo,
Bir oh bilan uni xazon etib ket (5- bayt).*

*Oshiqlar maqomi (erishgan darajasi) – bir bo ‘ston,
Ana shu bo ‘ston orqali o ‘tib ket (6- bayt).*

*Dunyoga kelishdan maqsading nima edi?
Shuni aytib, kayfiyatini bayon etib ket (7- bayt).*

*Ishq sirini odamlarga oshkor etma,
Ko 'ngilda uni nihon etib (yashirib) ket (8- bayt).*

*Kel, ishq yo 'lida ko 'zlariningi,
Ey Nodira, dur sochadigan qilib ket (maqta).*

Sezgan bo'lsangiz, g'azalning ko'p misralarini bugungi tilimizga aylantirish uchun ortiqcha o'zgartirish qilishga to'g'ri kelmadi. Bu uning shu qadar ravon va xalqona til va uslubda bitilganidan dalolat beradi. Shu jihatni bilan u oldin ko'rib o'tilgan ikki g'azaldan farq qiladi.

G'azalda muayyan ma'noda shoiraning badiiy (badiiy-estetik) dasturi, ya'ni o'z oldiga qo'ygan maqsad-muddaulari bayon etilgan.

Shoira hayot har bir inson uchun bir imtihon ekani-ga urg'u beryapti. G'azalda garchi: «Dunyoni imtihon etib ket», – deyilgan bo'lsa ham, kishi dunyoni imtihon qilmasligini, aksincha, bu yerda dunyo shaxsni imtihonidan o'tkazishi ko'zda tutilayotganini anglab olish kerak. Dunyo imtihonidan o'tish uchun jahonni sayr etish, chuqurroq ma'noda aytilsa, uni o'rganish lozim. Ammo endi bedard (beg'am, beparvo, loqayd) odamlar ham ko'p. Ular kishiga jafo yetkazadi. Bunga faryod chekib, fig'on etishga ham to'g'ri kelishi mumkin. Modomiki, o'zingni dunyo chamanining bulbuli deb hisoblasang, endi gul shoxida in qurishing zarur.

Bu da'vat insonni hayotda yuksak pog'onalarini ko'zlab yashashga undaydi. Dunyo – hayratxona. Uning sir-sinoati, go'zalligi, jozibasidan zavq olish kerak. Shu bilan birga, hayot – vaqtincha (bevafo). Shuning uchun unga ko'p ham bog'lanmasdan, undan yuksakroq narsaga (Allohogha) muhabbat qo'ygan oshiqlarga ergashish lozim. Chunki inson bu dunyoda oldiga aniq maqsad qo'yib, unga in-

tilib yashashi zarur. Biroq Allohga bo‘lgan ishqni hamma-ga oshkor qilaverish shart emas. Modomiki, ishq yo‘liga kirgan bo‘lsang, endi ko‘zlaridan dur sochishing lozim. Bu yerda dur, aslida, ko‘z yoshi ma’nosida kelgan. Biroq zimdan aytilyaptiki, shoira ishq yo‘lida (demak, hayotda) ko‘rganlarini dur kabi sochishi (asarlar yaratishi) zarur.

Savol va topshiriqlar

1. G‘azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
2. G‘azaldagi hayotsevarlik g‘oyasi targ‘ibini uni yoritishda qo‘llangan vositalardan foydalanish mahoratini tahlil qilib bering.
3. G‘azalda qaysi ma’noda shoiraning badiiy-tabiiy (badiiy-estetik) dasturi, ya’ni o‘z oldiga qo‘ygan maqsad-muddaolari bayon etilgan?
4. Undov so‘z va undalmalarning g‘azaldagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirib bering.

NAZARIY MA’LUMOT

TALMEH

«Talmeh san’ati» deganda badiiy asarda biror voqeahodissa, tarixiy fakt, adabiy yoxud afsonaviy qahramon nomini tilga olish yoki unga ishora qilib o‘tish tushuniladi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘qiy boshlasak, ularda, albatta, ko‘pdan ko‘p payg‘ambar alayhissalomlar nomlari, ular hayotida kechgan voqeahodisalar tilga olinganining guvohi bo‘lamiz. Shoirlarimiz ko‘pincha o‘z fikr-mulohaza yoki his-tuyg‘ularini Farhod, Majnun, Vomiq yoki Shirin, Layli, Uzro kabi adabiy qahramonlar nomlari yoki ularning ishqiy sarguzashtlariga bog‘lab ifodalaydi. Bularning hammasi – talmeh.

Dinimiz tarixidan yaxshi bilamizki, Yusuf payg‘ambar alayhissalomni aka-ukalari uzoqlardagi quduqqa tashlab keladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Yoqub payg‘ambar alayhissalomning eng suyukli o‘g‘lidan ayrilgani, behad aziyat chekib, yig‘layverganidan uning ko‘zlarini butkul ko‘r bo‘lib qolganidan xabariningiz bor.

Lutfiyning ko‘rib o‘tilgan «Xoh inon, xoh inonma» radifli g‘azalidagi:

Yoqub bikin ko‘p yig‘idin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma, –

baytida xuddi shunday yo‘l tutilgan. Lirik qahramonning yori ishqida yig‘layverishini xuddi Yoqub payg‘ambar alayhissalomning o‘g‘li Yusuf alayhissalom dardida ko‘z yoshi to‘kkaniga o‘xshatadi.

Talmeh san’ati asar ta’sirchanligini oshirishda alohida o‘rin tutadi. Muallif kitobxon tasavvurida avvaldan shakllanib ulgurgan tayyor timsollar orqali o‘z fikr-mulohazasi yoki his-tuyg‘usini ifodalash bilan kuchli ta’sir o‘tkazishga erishadi.

Talmeh san’ati hozirgi o‘zbek she’riyatida ham ko‘p qo‘llanadi.

IRSOLI MASAL

Nasriy asardagi jumlada yoki she’rda xalq og‘zaki ijdida mashhur bo‘lib ketgan biror maqol, matal yoxud hikmatli so‘z keltirib, nutq ta’sirchanligini oshirish usuliga «irsoli masal san’ati» deyiladi.

Bu yerdagi irsol – «keltirish», masal – «misol», «tamsil», «maqol», «matal» ma’nolarini anglatadi. Eski o‘zbek tilida tamsil, maqol va matallar «masal» yoki «zarb ul-masal» deyilgan.

Hozirgi tilshunosligimizda maqol, matal va hikmatli so‘zlar «barqaror birikmalar» deb yuritiladi.

Irsoli masal san'ati o'zbek yozma adabiyotining eng qadimgi namunalarida ham uchraydi. XI asr shoiri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», XII asrda yashab, ijod qilgan Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarlarda bu ifoda va tasvir vositasining yuksak namunalariga duch kelamiz. XVIII asrda yashab, ijod qilgan Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari esa usluban boshdan oxir irsoli masal san'ati asosida bitilgan. Ya'ni uning har bir sahifasida ko'p-ko'p maqol, matal va hikmatli so'zlar ishlataladi.

Irsoli masalda muallif o'z fikr-mulohazasini tayyor maqol, matal, hikmatli so'z orqali quvvatlab oladi, shu tariqa o'quvchini ishontirishni kuchaytiradi, matnning ifoda ta'sirchanligini oshiradi.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlarida irsoli masal san'atining eng yorqin namunalari mavjud. Qalam ahli, xususan, shoirlarimiz tilning shunday zo'r imkoniyatidan yuksak mahorat bilan foydalanishga harakat qilishgan.

Shu (maqol keltirish) jihatdan Mavlono Lutfiy ijodi o'zigacha bo'lган davr shoirlari ichida alohida ajralib turadi. Chunki uning she'riyatida irsoli masal juda ko'p uchraydi. Shunga ko'ra, irsoli masal qo'llash – shoir ijodiyotining yetakchi uslubiy fazilatlaridan biri, deyish mumkin.

Bu qalam sohibi merosida shunday g'azallar ham borki, ular boshidan oxirigacha badiiy-uslubiy tarafdan tamoman ana shu irsoli masal san'ati asosiga quriladi.

«Ayoqingg'a tushar har lahza gisu...» g'azali xuddi shunday asarlar sirasiga kiradi. Undagi mavjud besh bayting bari aynan ana shu san'at ishtirokida yaratilgan. Bu qo'shmisralarning hammasida maqol 2- satrda kelgan. Amalda ularning har biri dastlabki misrada ifodalangan fikrning tasdig'i yanglig' qog'ozga tushgan. Shu tariqa shoir o'z nuqtayi nazarini ikki karra mustahkamlagan-dek bo'ladi.

TAJNIS

Tajnis – badiiy san’atlardan biri. Asli arabchadan olingen bu so‘z lug‘aviy jihatdan «jinsdosh», ya’ni «shakldosh» degan ma’noni anglatadi. Bu nutqda shakli bir xil, ammo ma’nosи har xil so‘zlar yoki so‘zlar turkumini qo‘llash, degani.

Ammo bu san’atni oddiygina qilib, omonimlar ishlatish ekan-da, deb hisoblamaslik kerak. Chunki omonimlar – tilda qat’iylashgan shakldosh so‘zlar. Tildagi omonimlar adabiy asarda tajnis hosil qilish uchun eng asosiy vosita hisoblanadi, albatta. Biroq tajnisni yuzaga keltirish uchun ba’zan muallif bir necha so‘zlar ishtirokida ohoriy (original, ilgari ishlatilmagan, ya’ni bir martalik) shakldoshliklar yaratishi ham mumkin.

Masalan, *ul Oy, u loy, uloy (ulay)* so‘z birikmali tilda o‘zaro omonim emas. Shoир she’rda bularni shunday qo‘llaydiki, natijada bir gal *ul Oy* (*u Oy*), boshqa safar *u loy*, uchinchi ko‘rinishda esa *uloy (ulay)* ma’nolarini anglatadi. Shundan ifoda go‘zalligi kelib chiqadi. O‘quvchi yo tinglovchi shuurida ajib bir badiiy zavq paydo bo‘ladi.

Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili – tajnis yaratish uchun juda katta imkoniyatlarga ega. Hatto, tilimizdagи shu qulaylik adabiyotimizda tajnis ishlatish shart qilib qo‘yilgan alohida, maxsus bir janrning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Tuyuq – shunday janr, unda qofiyaga olingen so‘z yoki so‘zlar turkumi o‘zaro shakldoshlik paydo qilishi shart.

Navoiyning mana bu tuyug‘i qofiyasida tajnis bo‘lib kelgan so‘zlarni ko‘rib chiqaylik:

Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay,
Otki, o‘rusig‘a oning ko‘z tutay.
Necha ko‘rgach o‘zga mahvashlar qoshin,
Yangi Oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.

Bu tuyuqda quyidagi tajnislarga duch kelamiz:

- ko‘z tutay – kutay;
- ko‘z tutay – ko‘zimni tutay;
- ko‘z tutay – ko‘zimning ustiga qo‘limni qo‘yib qaray.

Tajnis qofiyaga olinganda unda ishtirok etayotgan so‘zlarining o‘zi qofiya vazifasini o‘taydi. Ya’ni ma’nosi har xil bo‘lgani uchun bu yerda tajnis tarkibidagi so‘zlarining takrorlanishi qofiya o‘rnida qabul qilinadi. E’tibor qilgan bo‘lsangiz, ushbu tuyuqdagi 1-, 2- va 4-misralarda tajnisdan oldin kelgan «o‘q», «onning» va «kishidek» so‘zlarida qofiya xususiyati, ya’ni o‘zaro ohangdoshlik yo‘q.

She’rda tajnis hosil qiliш uchun o‘zaro shakldosh so‘zlar yoki so‘zlar turkumi faqat qofiyada, ya’ni satr oxi-rida kelishi shart emas. Har qanday matnda shakldosh so‘zlar yoki so‘zlar turkumini qo‘llash tajnis san’atini hosil qilaveradi. Shuning uchun tajnis nasriy asarlar uchun ham xos badiiy san’at hisoblanadi.



G'AFUR G'ULOM

(1903 – 1966)

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandası, O‘zbekiston xalq shoiri, akademik G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi to‘g‘risidagi umumiy ma'lumotni Siz avvalgi sinflardan yaxshi bilasiz. Shunday bo‘lsa-da, bu ijodkor tarjimayi holiga oid ayrim tafsilotlarni eslab o‘tsak, foydadan holi bo‘lmaydi.



Jahon va milliy adabiyotimiz tariхini kuzatib bir qonuniyatni o‘zingiz uchun kashf etgan bo‘lsangiz, ajab emas. U ham bo‘lsa, aksariyat ijodkorlar adabiyotning muayyan bir yo‘nalishidagi ijodiy yutuqlari bilan ko‘proq dovrug‘ qozonganidir. Ya’ni kimdir she’riyatda, kimdir nasrda, boshqa bir ijodkor esa dramaturgiyada ijodiy qanotlarini keng yoyadi. Xuddi shu tufayli ham Lev Tolstoy, Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor deganimizda ko‘z oldimizda epik (nasriy) janrlar ustalari namoyon bo‘lsa, Sergey Yesenin, Abdulla To‘qay, Usmon Nosir, Hamid Olimjon nomi tilga olinganda, beixtiyor, she’r musiqasi ulog‘imizga chalinadi.

G‘afur G‘ulom misolida esa bu yozilmagan qonuniyatning har doim ham amal qilavermasligiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni G‘afur G‘ulom ham she’riy, ham nasriy janrlarda birdek muvaffaqiyat bilan qalam tebratdi, har ikki yo‘nalishda o‘zidan nodir namunalar qoldirdi.

Ayniqsa, Ikkinci jahon urushi voqealari, ko‘rgililiklari G‘afur G‘ulom qalbida o‘chmas iz qoldirdi. Agar u Birinchi jahon urushi yillarida bolaligiga borib, urush-

ning butun dahshati va asoratlarini to‘liq his qila olmagan bo‘lsa, yangi urushni va uni qo‘zg‘aganlarni ijodkor o‘zining shaxsiy, ashaddiy dushmani deb bildi. Shu yillari shoirning «Sen yetim emassan», «Oltin medal», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog‘inish», «Bizning ko‘chada ham bayram bo‘lajak», «Men – yahudiy» singari tom ma’nodagi mumtoz she’rlari dunyoga keldi.

Shoir urush yillarida yozilgan she’rlari jamlangan «Sharq-dan kelayotirman» to‘plami uchun 1946- yilda Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgandi.

SOG‘INISH

Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek,
Intizor ko‘zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O‘zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh!

Uzilgan bir kiprik abad yo‘qolmas,
Shunchalar mustahkam xonayi xurshid.
Bugun sabza bo‘ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertagi umid.

Xoki anjir tugab, qovun g‘arq pishgan
Baxtli tongotar chog‘ uni kuzatdim,
Bir mal‘un gulshanga qadam qo‘ymishkan,
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim!

Unda yetuk edi meros mard g‘urur,
Ostonani o‘pib, qasamyod qildi.
Ukalarin erkalab, o‘zimday mag‘rur,
Ya’ni obod uyimni u dilshod qildi...

Iblisning g‘arazi bo‘lgan bu urush
Albatta, yetadi o‘zin boshiga.
O‘g‘lim omon kelar, g‘olib, muzaffar,
Gard ham qo‘ndirmsandan qora qoshiga.

Ne qilsa otaman, meros hissiyot...
Jondan sog‘inishga uning haqqi bor,
Kutaman, uzoqdan ko‘rinsa bir ot,
Kelayapti, deyman ko‘rinsa g‘ubor.

...Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam,
Qo‘msayman birovni – allakimimni,
Doimo umidim bardam bo‘lsa ham,
Ba’zan vasvasalar bosar dilimni.

Balki bir g‘alat o‘q yo xavf-u xatar
Xazinai umrimdan yo‘qotdi olmos...
Yo‘q, u o‘lmas, qadami olam yaratar,
Hayotiy bu olam siz-u bizga xos.

Tong otar chog‘ida juda sog‘inib,
Bedil o‘qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

O‘rog‘-u gulqaychi, istak ko‘tarib,
Hovrimni bosishga boqqa jo‘nadim.
Hasharchi qo‘shni qiz – uning sevgani,
Ma’yus bosar edi orqamdan odim.

...Dur bo‘lib taqilar yoring bo‘yniga,
Sadafday ko‘zimda behuda bu yosh.
Ikkoving ikki yosh, labing labiga
Qo‘yar, vasvasamdan kuladi quyosh.

...Sizlarni keldi, deb eshitgan kuni
O‘zing to‘qib ketgan katta savatda
To‘latib shaftoli uzib chiqaman,
G‘alaba kunlari yaqin, albatta.

Yayov, ko‘ksim ochiq, boshda shaftoli,
Xuddi mo‘ylovingdek mayin tuki bor.
Har bitta shaftoli misoli kulgu,
Shafaqday nimpushti, sarin, beg‘ubor.

Suyganing labida reza ter kabi,
Unda titrab turar sabuhiy shabnam.
Munchalik mazani topa olmaydi
Uyquda tamshangan chaqaloqlar ham.

Ye o‘g‘lim, jonginang salomat bo‘lsin,
O‘z bog‘ing, o‘z mevang danagin saqla.
Shu meros bog‘ingni o‘z qo‘lingga ol,
Menga topshirilgan merosiy haq-la.

Bog‘da tovus kabi xiromon bo‘lib,
Umid danagini birga ekingiz.
G‘olib kelajakni sayr qilaylik
Mushfiq onaginang bilan ikkimiz.

1942

Siz «o‘zbek onasi» degan ibora anglatadigan mazmun-mohiyatni, harqalay, yaxshi anglaysiz. Uni eshitganingizda farzandi uchun jonini berishga tayyor, butun fikr-zikri bolasining baxt-u iqboliga qaratilgan munis ayol qiyofasi ko‘z oldingizda gavdalanadi.

Yaxshi bilasizki, poytaxtimiz Toshkentdagি Mustaqillik maydonida Ikkinchи jahон urushi qurbanlari xotirasiga so‘lim xiyobon barpo etilgan. O‘zbekona ayvonlar bilan o‘ralgan Xotira xiyobonining to‘rida urushga ketgan bolasini intizor kutayotgan ona siymosi gavdalantirilgan. «O‘zbek onasi» tushunchasining ko‘z o‘ngimizda aniq reallashuvida bu siymo beqiyos rol o‘ynaydi.

Endi shunga yaqin boshqa bir tushuncha to‘g‘risida o‘ylab ko‘raylik. Bu – «o‘zbek otasi» tushunchasidir. Albatta, bu iborani eshitishingiz bilan ko‘z oldingizda o‘z padari buzrukvorингiz siymosi gavdalanishi bor gap. Otangizning Sizga bo‘lgan e’tibori, Sizni boqib katta qilish yo‘lida qilayotgan mehnatlari, kun-u tun oila tashvishlari bilan band yurishi... bularning bari mana shu tushunchada jamuljamdir.

Biroq «o‘zbek otasi»ning bo‘rtma, umumiyligi, hamma uchun tanish, yaxlit siymosini aynan G‘afur G‘ulom hozirgina o‘qiganimiz «Sog‘inish» she’rida aks ettirgan desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu she’rda otalarimizga xos bo‘lgan jamiki fazilatlar o‘zining yorqin ifodasini topgan. Ularning samimiyligi, jonsarakligi, har doim ham oshkor qilinavermaydigan farzandga mehr-u muhabbat, kuzatuvchanligi, andishasi... barcha-barchasi shu she’rda namoyon bo‘ladi.

Asar misralari ichra urushga ketgan o‘g‘lidan bir mujda – nedir yaxshi xabar kutayotgan Otaning bezovta yuragi gupullab urib turibdi. Uning ko‘ngliga goh vahima-vasvasa ko‘lanka soladi. Atrofga har kuni yuzlab «qoraxat» qo‘nayotgan tahlikali kunlarda bu bezovtalikka, albatta, o‘rin bor – «Ne qilsa otaman, meros hissiyot...»

Ko‘phililingizga sog‘inch hissi hozircha bir qadar uzoqroq bo‘lishi tabiiy. Negaki hozir ota-onangiz, aka-ukalaringiz yonidasiz – har kuni ularni ko‘rish, diydori dan bahramand bo‘lish imkoniyatingiz bor. Lekin harbiy xizmatdami, uzoqroq xizmat safaridami bo‘lgan otangiz yoki boshqa qarindoshlaringiz suhbatiga qulop solsan giz, ular uyni, yaqin qarindoshlarni, Vatanni qanchalar qo‘msaganliklarini hikoya qilishadi. Ayniqsa, tunlari oyga qarab, «uyimdagি ota-onam ham uni ko‘rishayotgandir, men ham qarab turibman, demak, bir-birimizni ko‘rgandek bo‘lyapmiz», – degan ilinj mana shu sog‘inch taftini, biroz bo‘lsa-da, bosadi...

«Sog‘inish» she’rining lirik qahramoni – Otaning sog‘inchi shunchalar zo‘rki, u har bir narsadan umidlanadi, najot so‘rab to Quyoshga qadar zorlanadi:

Eng kichik zarradan Yupitergacha
O‘zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh.

She’rning:

Tong otar chog‘ida juda sog‘inib,
Bedil o‘qir edim, chiqdi oftob.

Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob –

degan bandiga e'tibor bering. Nima uchun Ota sog'inch o'rtagan paytlari aynan Bedilni o'qiydi? Nega uni o'qigach, «loyqa xayolotlar chashmaday» tinadi?

Gap shundaki, asli nasli turkiylardan bo'lgan fors shoiri Bedil she'riyati o'zining falsafiy chuqurligi, o'quvchini o'tkinchi dunyo g'am-tashvishlaridan yuqoriroq turib fikr-lashga undashi bilan ajralib turadi. Bedil mutolaasi Otaga abadiy haqiqatlardan, o'lmas va yuksak tuyg'ulardan saboq beradi. Abdulqodir Bedil she'riyatida, jumladan, shunday misralarni uchratamiz:

Maqomi zolim oxir bar zaifonast arzoniy,
Agar otash furu aftad baxokistar dehad joro...

(Mazmuni: Zolimning maqomi – qudrati, zulmi oxir-oqibat zaiflashib, kuchdan qoladi. Lovullab yonayotgan olov ham bir kun kelib kulga aylanadi.)

Endi bu fikrning G'afur G'ulom she'ridagi ifodasiga e'tibor beraylik:

Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush
Albatta, yetadi o'zin boshiga...

Bedilning Otaga – shoirga bergen daldasi, yupanchi, loyqa xayolotlarini chashmaday tindirishi shu emasmi?

Aytadilarki, shoirlar yarim avliyodirlar. Bu qarashning naqadar to'g'riliqini G'afur G'ulomning «Sog'inish» she'ri ham to'la isbotlaydi.

Qarang, bu she'r 1942- yilda yozilyapti. Urushning tugashiga hali uch yil bor. O'zbek otasi esa:

...Sizlarni keldi, deb eshitgan kuni
O'zing to'qib ketgan katta savatda
To'latib shaftoli uzib chiqaman,
G'alaba kunlari yaqin albatta. –

deydi. Urush esa 1945- yilning mayida tugagan, unda tirik qolgan jangchilar ayni shaftoli pishig‘ida uylariga qayta boshlaganlar...

Xulosa qilib aytganda, G‘afur G‘ulomning «Sog‘inish» she’ri nafaqat urush davri va nafaqat o‘zbek she’riyati, balki insoniyat badiiy tafakkurining eng yuksak cho‘qqilarida turishga arzигуллик, o‘zida eng pokiza insoniy hislarni badiiy mukammal tarzda mujassam etgan noyob badiiy asardir.

Savol va topshiriqlar

1. O‘qituvchingiz yordamida G‘afur G‘ulomning «Sog‘inish» she’ri yozilishiga sabab bo‘lgan hayotiy faktini bilib oling.
2. Nima deb o‘ylaysiz: agar shoirning o‘z farzandi urushga ketmaganida bu she’r yozilmasligi mumkinmidi?
3. «Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek, Intizor ko‘zlarda halqa-halqa yosh», – misralarida tasvirlangan manzarani ko‘z oldingizga keltirib, sinfdoshlariningizga aytib bering.
4. Ota o‘g‘lini yilning qaysi faslida urushga kuzatganini aniqlash mumkinmi?
5. «Hasharchi – qo‘shni qiz»ning holatini izohlab bering-chi. Nega u «ma’yus odim bosadi»?
6. She’rning qaysi bandlarida avlodlararo azaliy davomiylilik o‘z ifodasini topgan?

VAQT

G‘uncha ochilguncha o‘tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba’zida bir nafas olgulik muddat
Ming yulduz so‘nishi uchun yetgulik.

Yashash soatining oltin kapgiri
Har borib kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o‘z kurrasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug‘ilib, o‘sib,
Yashab, umr ko‘rib o‘tguvchilar bor.
Ko‘z ochib yumguncha o‘tgan dam – qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o‘lchamoq uchun
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.
Nurlar qadami-la chopgan sekundning
Barini tutolmas ayuhannos ovoz.

Yigit termiladi qizning ko‘ziga,
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...
Qo‘sha qarimoqqa muhr bo‘ladi
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.

Yashash darbozasi ostonasidan
Zarhal kitob kabi ochilur olam,
Tiriklik ko‘rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

...Reyxstag ustiga g‘alaba tug‘in
Qadashda otilgan jangchining o‘qi
Yalt etgan umri-la barqaror qildi
Basharning muqaddas, oliy huquqin.

G‘alaba amri-la mag‘lub nemisning
Generali qo‘l qo‘ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal’un imzoda odamlar o‘qir
Million yil fashistning umriga la’nat.

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so‘raydi qadrin.
Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog‘idir umr daftarin.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma’badin yoqmoq shart emas.
Ko‘plarning baxtiga o‘znikin jamlab
Shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak bas.

Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal,
Umrordan o'tajak har lahza uchun
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.

Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiyidir, umrimiz boqiy.

1945

(She'r qisqartirishlar bilan berildi).

Urushda qozonilgan g'alaba to'g'risida har kim har xil yozishi tabiiy hol. Kimir bu g'alabani ko'tarinki ohang, ko'tarinki so'z bilan ifoda qiladi. Kimningdir ichiga sig'magan quvonchi g'alabani olqishlash shaklida qog'ozga to'kiladi.

G'afur G'ulom ijodiy tafakkuriga faylasufona mulo-hazakorlik, kichik tuyulgan hayotiy detallardan katta umumlashmalar yasay olish xos edi. Bu noyob fazilatlar shoirning 1945- yilda fashizm ustidan qozonilgan g'alaba munosabati bilan yozgan «Vaqt» she'rida yaqqol ifodasini topdi. Shoir mazkur she'rda lahza(sekund)ning mohiyatiga nazar tashlaydi.

Darhaqiqat, yuzaki qaraganda, lahza nima? Ko'z yumib ochguncha o'tadigan fursat. Go'yo e'tiborga, diqqatga arzimaydi. O'z umrini poyonsiz deb o'ylaydigan aksariyat odamlar uchun lahzaning sariq chaqalik qimmati bo'lmasligi ham mumkin. Biroq...

Biroq shoir ijodiy tafakkuri butun insoniyat hayoti – uning quvonch-u tashvishlari, hatto qismati ham mana shu lahzalarga jo ekanini favqulodda misollar bilan isbotlab beradi:

Bir onning bahosin o'Ichamoq uchun
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.

Hayotning abadiy qonuniyatlarini anglagan, his qilgan odam uchun behuda lahzaning o‘zi yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Zero, inson necha yil umr ko‘rishidan qat’i nazar, bu umrning asosini mana shu lahzalar tashkil qiladi. Buyuk qahramonliklar ham, isnodli sharmandaliklar ham ayni lahzalar oralig‘ida ro‘y beradi. O‘zini, o‘zligini unutgan odam bir lahzada yo‘l qo‘ygan xatosi, qo‘rroqligi, shijoatsizligi tufayli umrbod yuzi qora bo‘lib qolishi hech gap emas. Yoki aksincha, Amir Temurdek, Jaloliddin Manguberdidek, Bobur Mirzodek bobolarimizning shon-shavkati aynan bir lahzada qabul qilgan qat’iy qarorlari, biror lahma unutmaganlari – yurtga sadoqatlari tufayli abadiyatga daxldor bo‘ldi.

Endi ayting-chi, ular kabi jo‘mard insonlarning umri, faoliyati, millat taraqqiyotiga qo‘sghan hissalarini oltindan yasalgan tarozi-yu olmosdan qilingan tosh bilan o‘lchab bo‘ladimi?!

G‘alaba amri-la mag‘lub nemisning
Generali qo‘l qo‘ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal‘un imzoda odamlar o‘qir
Million yil fashistning umriga la’nat.

Yanagi o‘quv yilda Siz Ikkinchi jahon urushining barcha tafsilotlari, u keltirgan kulfatlar to‘g‘risida batafsil ma’lumot olasiz. Hozir esa shuni eslatib o‘tamizki, insoniyat tarixidagi eng dahshatli hodisa bo‘lgan bu urush 70 milliondan ortiq kishining umriga zavol bo‘ldi. Minglab shahar va qishloqlar, Yevropa, Afrika, Osiyo qit’asining eng noyob madaniy yodgorliklari shu urush olovida kuyib kulga aylandi. Qanchadan qancha bolalar o‘z ota-onalaridan, ota-onalar esa farzandlaridan ajrab, hayotlari sarson-sargardonlikda o‘tdi. Bu urush yetkazgan jarohatlar o‘rni hali-hamon bitgani yo‘q. Hali-hamon Yaponiyaga tashlangan atom bombalarining zahri avlodlar tan-u joniga, atrof-muhitga ozor bermoqda...

Holbuki...

Holbuki, fashizmning o‘z mag‘lubiyatini tan olib, german armiyasining so‘zsiz taslim bo‘lishi to‘g‘risidagi huj-jatga imzo chekishi uchun uch daqqa (*sekund*) vaqt talab qilindi, xolos. Biroq shu uch sekundga yetib kelish insoniyatga qanchalar qimmatga tushganini bir tasavvur qilib ko‘ring-a.

Darvoqe, 1939- yil 1- sentabrda Ikkinchi jahon urushini boshlash – Polshaga hujum qilish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishga ham, balki uch sekund kifoya qilgandir.

Shoir dunyoda shuhrat qozonmoqning yo‘llari ko‘p ekani, biroq bu yo‘llarning biri odamni sharmandali shuhratga olib kelsa, boshqasi abadiyatga olib borishini quyma satrlarda eslatadi:

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma’badin yoqmoq shart emas.

Darhaqiqat, o‘z davrining buyuk mutafakkirlari goh ilm-fan, goh san’at, goh falsafada ulkan natijalarga erishayot-ganidan ichi kuygan Gerostrat degan kimsa odamlar uni ham doimiy yodlab-yo‘qlab turishlarini xohlab qoladi. Bunga arzirli biror ish qo‘lidan kelishiga ko‘zi yetmay, ulkan buzg‘unchilik, vahshiylikka qo‘l uradi. Dunyo arxitekturasining noyob namunalaridan biri bo‘lgan Diana ma’badi – ibodatxonasiga o‘t qo‘yadi. Qarabsizki, hali-hamon Gerostratning nomini ham insoniyat eslashga majbur.

Lekin bu eslov-yo‘qloving qimmati va ahamiyati qanchalik? Hamma gap mana shunda!

Shukrki, insoniyatga xotira degan ulkan saboq – xazina ato etilgan. U o‘zining baxt-u iqboli yo‘lida kurashgan ulug‘lar bilan birga, odamzod tirikligiga xavf-u qo‘rqinch solgan yovuz kimsalarini ham unutmaydi. Ularning qilmishlari takrorlanishidan ogoh turadi.

Faylasuf shoir G‘afur G‘ulom o‘zining mo‘jazgina asari – «Vaqt» she’ri bilan lahzaga abadiy haykal qo‘ydi, deb bemalol aytsak bo‘ladi! Bu she’r bag‘riga jo bo‘lgan man-

tiq va ma’no, san’at va sayqal ko‘lamini anglamoq uchun, qarangki, asrlar talab qilinmoqda. Chinakam she’riyatning, adabiyotning mo‘jizaviy qudrati, balki mana shundadir.

Savol va topshiriqlar

1. «Vaqt» she’rida kapalak umri nega g‘uncha ochilguncha o‘tgan fursatga tenglashtirilyapti?

2. «Yashash soatining oltin kapgiri Har borib kelishi bir olam zamon. Koinot shu damda o‘z kurrasidan Yasab chiqa olur yangidan jahon...» – satrlarida ifoda qilingan ilmiy haqiqatni boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz yordamida ochib berishga harakat qiling.

3. Shoir «Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram...» deydi. Shu fursat insonni yana ne ko‘ylarga solishi mumkin?

4. «Aziz asrimizning aziz onlari

Aziz odamlardan so‘raydi qadrin», –

degan chaqiriq bugun qanday yangraydi? Siz «bu da’vatning menga ham daxli bor», – deb o‘ylaysizmi?

5. Umr daftarini bezashi mumkin bo‘lgan shoh satrlar nimalar bo‘lishi mumkin? Sizning umr daftaringizga birorta shunday satr tushdimi?

7. Sizningcha, lahza insonni, voqeani abadiyatga daxldor qiladimi yoki inson lahzaga shunday qismat bag‘ishlaydimi? Bu savolga javobni tengdoshlaringiz bilan birgalikda topishga harakat qiling.

BILIB QO‘YKI, SENI VATAN KUTADI

Sen bu kun sinfda shod yurak bilan
Sinov navbatini kutib turasan.

A’lo mamlakatning a’lo farzandi,
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

Globusda bo‘lgan har kichik nuqta
Millionlab qondoshga vatan albatta.

Baxtiyor xalqimiz yashar abadiy,
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

Jabrdas masala qo'sh muammodir.

Xuddi shunda bir ulug' qurilish jodir.

Sen katta injener ertami, indin,

Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!

She'rdir, lirika, balki oddiy til,

Xalqlarning tillari bir xil emas, bil!

Diplomat bo'larsan, shu bukun, endi,

Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!

Fanlar ko'p, fanlar bor o'rganishga kuch:

Yerda yur, suvda suz, osmonda uch.

Hammasidek a'lo, barchadan oldin,

Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!

O'tmishni o'rgansang, kelajak porloq,

Ona yurt tarixi yo'lingda charoq.

A'lo mamlakatning a'lo farzandi,

Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!

1941- yil, 18-may

Bilasizki, gapdan gapning, nasihatdan nasihatning farqi bor. Bir odamni eshitib turib, qachon gapi tugashini kutsangiz, boshqa inson suhbatini «tugamasa edi» degan orziqish ila tinglaysiz. Ayniqsa, agar bu suhbat, shu da'vat she'riy yo'sinda, sidqidildan aytilgan bo'lsa!

G'afur G'ulomning yuqorida o'qigan she'rimiz ana shunday – eshituvchiga malol kelmaydigan, aksincha, uni o'ziga birdan jalb qila oladigan kuchga, ohangraboga ega. Zero, unda ortiqcha nasihatbozlikdan, aql o'rgatishdan, yo'l ko'rsatishdan asar ham yo'q. Aksincha, mehribon, jonkuyar otaning ezgu umidlari ko'ngilga xush yoquvchi ovozda farzandga izhor etiladi.

She'rning dastlabki to'rt misrasidagi holat, mazmunga e'tibor beraylik. O'quvchi bola (u Siz bo'lishingiz ham mumkin!) imtihon navbatini besabr kutmoqda. Shoir esa

uni Vatan kutishini, bu imtihon bugungi sinovdan ancha jiddiy, mas’uliyatli ekanini eslatadi.

She’rdagi «Jabrda masala qo’sh muammodir. Xuddi shunda bir ulug‘ qurilish jodir» misralari Sizni ozgina qiyinashi mumkin. Birgalikda o’ylaymiz. Tarix darsliklaringizdan yaxshi bilasizki, ulug‘ olim bobomiz Al-Xorazmiy «Al-jabr val-muqobala» – algebra faniga asos solgan. G‘afur G‘ulom «Jabrda masala qo’sh muammodir» – deganida xuddi shu narsani – algebraning murakkab formulalari mavjudligini, biroq ular zamirida ulug‘ qurilishlar hisob-kitobi jo ekaniga ishora qilmoqda. Katta injenerlar esa, algebrani «suv qilib ichvorgan» bo‘lishlari lozim.

Asarning mana bu misralari ham ayricha diqqatni talab qiladi:

Fanlar ko‘p, fanlar bor o‘rganishga kuch:
Yerda yur, suvda suz, osmonda uch.
Hammasidean a’lo, barchadan oldin,
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

O‘zbeklarda, «Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin» degan gap borligini yaxshi bilasiz. Darhaqiqat, fanlar ko‘p, bu fanlarning piri bo‘lish ham katta sharaf, mas’uliyat. Biroq hammasidan a’lo, barchasidan muhim bir ilm bor – Vatanni anglash, uni sevish va asrash ilmi. Dunyoning turli burchaklariga ilm izlab ketayotgan farzandlarimizga bu harakatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilash barobarida, ularni shu Vatan kutishini, albatta, eslatmog‘imiz shart. Zero, Siz bilan bizni bag‘rida o‘stirib undirgan, oq yuvib, oq taragan ona Vatanimiz koriga yaramasak, uning bag‘rini obod etmasak, o‘qib-o‘rganganimiz ilmlardan ne foyda?!

...Endi ushbu she’rning yozilish sanasiga e’tibor bering: 1941- yilning 18- may kuni. Urush boshlanishiga bor-yo‘g‘i 33 kun qolgan. Shoir ne umidlar bilan ko‘z tutayotgan yosh avlodning aksariyatini, afsuski, shu

urushning shafqatsiz olovi domiga tortdi. Ular orasida shoirning o‘z farzandi ham bor edi...

Shukrki, bugun yurtimiz tinch, ko‘nglimiz xotirjam. Alloma G‘afur G‘ulomning haroratli da’vati esa o‘z ahamiyatini, dolzarbligini zarracha yo‘qotgan emas. Dunyo hamjamiyatiga bag‘rini keng ochayotgan, barcha sohalarda dunyoning eng ilg‘or mamlakatlariga bo‘ylashish yo‘liga kirgan mamlakatimizga qanchadan qancha olim-u injenerlar, diplomat-u agronomlar kerak. Ular esa xuddi Sizdek zamonaviy sinf xonalaridan, o‘zbekning minglab shahar va qishloqlaridan yetishib chiqadi. Ona xalqimizning barcha oqil farzandlariga aytadigan istagi esa o‘zgarmay qolaveradi: «*Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!*»



ОYBEK

(1905 – 1968)



XX asr o‘zbek adabiyotining zabbardast vakili Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek badiiy adabiyotning deyarli barcha yo‘nalishlarida bir-dek samarali ijod qilgan. Uning she’riyat, nasr, badiiy publitsistika, tarjima, adabiyotshunoslik va tanqidchilik sohasida qoldirgan boy adabiy merosi 20 jildli «Mukammal asarlar to‘plami»dan joy olgan. O‘rni kelganda eslatib o‘taylikki, o‘zbek adabiyoti tarixida hozirga qadar faqat ikki ulug‘ ijodkorninggina shunday to‘plami nashr etilgan: Alisher Navoiy va Oybek.

Oybekning ilk she’rlaridan biri «Cholg‘u tovushi» nomi bilan 1922- yilda e’lon qilingan. Shundan buyon shoir yaratgan she’riy asarlar uning «Tuyg‘ular», «Ko‘ngil naylari», «Mash’ala», «Baxtigul va Sog‘indiq», «Quyosh qo‘shig‘i», «She’rlar», «Front bo‘ylab», «Olovli yo’llar», «Ko‘ngil kuylari» to‘plamlarida jamlangan.

Shuni ta’kidlash kerakki, Oybekning shoir sifatida shakllanishida barmoq va erkin vazndagi yangi o‘zbek she’riyati asoschilaridan bo‘lmish Cho‘lponning ta’siri juda kuchli bo‘lgandi. Shu sababli, Oybekning lirik qahramoni, bиринчи navbatda, o‘z ruhiyati bilan o‘quvchi yodida qoladi.

Bu nima degani?

Bu degani, Oybekning aksariyat she’rlarida asosiy e’tibor voqeа yoki narsaga emas, balki ulardan hosil bo‘layotgan tuyg‘uga, kayfiyatga, ko‘ngilga qaratiladi. Masalan, «Kuz yomg‘iri...» deb boshlanuvchi she’rning so‘nggi misralariga diqqat qilaylik:

Kuz yomg‘iri, quy, quy, muttasil!
Derazam chert, kel, chal, mungli soz!
Bir yalt etib o‘tdi-ketdi yoz...
Quvonchlarga hayot mish baxil.

Go‘yo kuz yomg‘iriga qaratilgan murojaat zamirida quvonchlarga baxil hayotdan ozor topgan lirik qahramon ko‘nglidagi dardlar zalvori seziladi. Bu ezgin holat faqat so‘zlar takrori («quy, quy»), da’vatning ketma-ketligi («chert, kel, chal») evazigagina emas, balki ohorli qofiya evaziga ham kuchaytiriladi: qofiyaning an'anaviy a-b-a-b yoki a-a-a-b shakli emas, balki a-b-b-a tarzi qo‘llaniladi.

Yoki 1941- yilda bitilgan, Ikkinci jahon urushi qurbanlari haqida uzlusiz kelayotgan shum xabarlar dahshatini ifoda etgan «Qoraxat» to‘rtligini o‘qiymiz:

Bexosdan uzilgan shoda dur kabi
To‘kildi umidning rangli barglari.
Osildi bir onda qo‘llar madorsiz,
Yer qochdi, qoraydi quyosh zarlari...

She’rda qo‘liga qoraxat tutqazilgan kishining kim ekani – ayol yoki erkak, yosh yoxud qariligi aytilmagan. Balki u yakka-yu yagona o‘g‘lini urushga yig‘lab yo‘llagan mushfiq onadir. Yo chimildig‘i yig‘ishtirilmay turib yordanaytirilgan kelinchakdir. Balki, besh bolasi nobud bo‘lib, qirq yoshida topgani shu o‘g‘liga suyanib qolgan beli buzik choldir. Biroq, shunisi aniqki, ularning hammasi va ularga o‘xshagan yana ming, o‘n ming, yuz minglab chorasisizlar uchburchak shaklidagi mana shunday xatlarni oladi. O‘scha yuz minglab insonlarning barchasi shoir tasvirlagan holga tushmog‘i ham, afsuski, achchiq haqiqat.

Bu mo‘jaz she’r ta’sir kuchini oshirishda o‘rnida qo‘llangan she’riy san’atlar muhim rol o‘ynaydi. O‘xshatish («Bexosdan uzilgan shoda dur kabi»), istiora («umidning rangli barglari», «quyosh zarlari») va jon-

lantirish («Yer qochdi») lirik qahramon holati va kayfiyatini o‘quvchi ko‘z oldida yorqin gavdalantiradi.

Oybekning shoir sifatidagi mahorati uning quyida taqdim etilayotgan ikki she’rida ham yaqqol aksini topgan.

NA’MATAK

Nafis chayqaladi bir tup na’matak
Yuksakda, shamolning belanchagida.
Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o‘shshaygan qoya labida.

Nafis chayqaladi bir tup na’matak
Mayin raqsiga hech qoniqmas ko‘ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So‘nmaydi yuzida yorqin tabassum.

Yanoqlarni tutib oltin bo‘sa-chun
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!
Poyida yig‘laydi kumush qor yum-yum...
Nafis chayqaladi bir tup na’matak.

Shamol injularni separ chashmadak,
Boshida bir savat oq yulduz – chechak,
Nozik salomlari naqadar ma’sum!
Tog‘lar havosining firuzasidan

Mayin tovlanadi butun niholi.
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
Yuksakda raqs etar bir tup na’matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

1936

Avvalo, «Na’matak» she’ri yozilgan yilga e’tibor qaratamiz.

1936- yil. Sobiq sho‘rolar davlati, jumladan, O‘zbekistonda ham «sotsialistik tuzumga qarshi kuchlar», «xalq dushmanlari»ni fosh qilish harakatlari avjga chiqayotgan bir palla. Xalq, millat qayg‘usida ijod qilgan va qilayot-

gan jadid ziyolilari, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat singari erk kuychilarini yoppasiga qoralash oddiy holga aylangan. 1927- yildayoq ustozni Cho'lpon haqidagi bo'htonlarga qarshi maqola yozgan, 30- yillar o'rtalarida esa «Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li» degan risolasi bilan ulug' yozuvchi himoyasiga chiqqan Oybekka nisbatan munosabat ham nihoyatda salbiy va xavfli.

Mana shu sharoitda shoir: «viqor-la o'shshaygan qoya labida», «quyoshga ko'tarib bir savat oq gul», – deya nafis chayqalayotgan na'matakning mag'rur timsolini chizadi. Uning joyi qorong'i chakalakzorlarda, nur tushmas puchmoqlarda emas, «yuksakda, shamolning belanchagida». Na'matak o'zining «tog'lar havosining firuzasidan» mayin tovlanayotgan niholi – nozik tanasi ila mayin raqsga tushmoqda. Niyati ham o'zidek pok, go'zal va ezgu: «Quyoshga tutadi bir savat oq gul!»

Dunyo yaralibdiki, ezbilik va yovuzlik, nafislik va qo'pollik, nur va zulmat o'rtasidagi ziddiyat to'xtagan, poyoniga yetgan emas. Eng qizig'i, yana bir o'zbek adibi O'tkir Hoshimov romani nomida bitilganidek, nur borki, soya bor. Ya'ni bu ikki qarama-qarshilik, ikki qutb biri birisiz yashay olmaydi, mavjud bo'lmaydi. Ular o'rtasidagi kurash, doimiy ziddiyat hayotning ham ma'nosini, mohiyatini, davomiyligini ta'minlaydi.

Bu abadiy haqiqatni teran anglagan shoir go'zal na'matak ham «vahshiy qoyalarning ajib ijodi» ekaniga urg'u beradi. Biroq bu «ijod» ixtiyoriy, ko'ngilli bo'lgan emas. Boshqacha aytganda, bu go'zallikni vahshiy qoyalar dunyoga keltirgan emas. Na'matak timsolida ko'ringan buyuk qudratning siri ham mana shunda. Ya'ni o'sha o'shshaygan, vahshiy qoyalar, metin toshlarga basma-bas, ular iskanjasiga mardona qarshilik na'matakning tabiatida, tomirida mujassamdir.

Mana shu ijodiy qudrat, so'nmas ruh Nasimiy va Mashrab nazmida, Pushkin va Lermontovning erkparvar she'rlarida, Cho'lpon va Musa Jalillar nidosida yangragan.

Oybekning «Na'matak» she'ri erksizlik, tutqunlikka bo'ysunmagan ijodkor ruhning, olamni qutqaruvchi bezavol go'zallikning so'nmas timsoli bo'lib qoldi. She'r bag'ridan ufurib turgan hayotga muhabbat ruhi, doimo yorug'likka, ezgulikka – quyoshga talpinish she'rxon ko'ngliga ko'chib o'tmasligi mumkin emas. Ayni shu sifatlar mazkur mo'jaz asarning umrboqiyligini ta'minlaydi.

O'ZBEKISTON

Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi,
Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor,
Bir o'lkaki, sal ko'rmasa, quyosh sog'inar...
Bir o'lkaki, g'ayratidan asabi chaqnar.
Baxt toshini chaqib, bunda kuch guvullaydi.
Derdilarki: «uning ruhi injiq va xasta»,
Biroq, tomchi qoni uning bir kulcha oltin!..
Tebratadi o'lkani ish – baxtning o'z qo'li,
Ochilgandir tarixlarning eng ulug' yo'li.
Xazinasin ochib bergen qiri, tog', cho'li,
Butun Sharqda yozajak u shafaqdan qanot.
Bolg"alar-la parchalandi uyqu iloni,
Mehnatkash el bukun belin ko'tardi mag'rur,
Termometr simobiday... O'par ekan nur
Yangi tarix quyoshidan uning manglayi,
Mehnatidan ayqiradi endi baxt, surur.
Dalalarda mashinaning tetik nafasi,
Ufqlarning zumrad ko'ksin o'par paxtazor.
Chollar – yigit, yigitchalar chaqmoqday yonar,
Erkin mehnat baxtli ko'zda cho'g' kabi porlar,
Irodaning qilich yanglig' o'tkirdir dami...
Xonaqoni tashlab fikr fanlarni mindi,
Elektron tekshiradi kechagi cho'pon.
Institut kursisini o'par qiz-juvon...

Yaratildi bir shoh asar, go‘zal bir doston,
G‘adir-budur mehnat qo‘li bitgandir buni,
Kelajakning bahoridan olingen kuyi,
Xayollarga sig‘maydi hech buning mazmuni,
Qofiyadir fabriklar-la qizlar qo‘shig‘i,
O‘qi va sev! Buning ismi yosh O‘zbekiston.

1934

(*She’r juz’iy qisqartirishlar bilan berildi*).

Ona yurtimiz O‘zbekiston haqida bitilgan she’rlarning son-sanog‘i yo‘q. Ularning bir qismi qo‘shiqqa aylanib, xalqimizning tilidangina emas, dilidan ham joy olgan. Bu she’rlarda aziz Vatanimiz tarixi, beqiyos tabiatи, xalqimizning eng noyob fazilatlari badiiy tarannum etilgan, quyma satrlarga joylangan.

Agar adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, mazkur an‘ananing keng quloch yoyishi aynan XX asr adabiyotida yuz bergeniga guvoh bo‘lamiz. Albatta, «Alpomish» singari dostonlar, O‘rxun-Enasoy toshbitiklari, «Boburnoma», Muqimiyyining «Sayohatnomा» singari asarlarida ham yurt va uning odamlari ta’rif-u tavsifiga duch kelamiz. Lekin ta’kidlanganidek, jonajon Vatanimizning alohida mavzu sifatida talqin etilishi XX asr she’riyatida sezilarli kuchaydi. Bu borada tashabbus ko‘rsatgan ijodkorlardan biri, shubhasiz, shoir Oybekdir.

Aziz o‘quvchi, bugungi kunda Siz prezentatsiya – taqdimot degan so‘zni ko‘p eshitasiz, to‘g‘rimi? Taqdimoti, u yoki bu narsa, buyum, yangilik, ilm-u fanning muayyan mavzusi ekranda ko‘rinadigan slaydlar yordamida yoritib beriladi. Shu nuqtayi nazardan Oybekning «O‘zbekiston» she’riga nazar tashlasak, shoir go‘yo dunyo ahli qarshisida turib, o‘z yurtini yonib va jo‘shib taqdimot qilayotgandek taassurot tug‘iladi.

Bu taqdimotda o‘lkaning kechagi va bugungi kuni, tabiatи, xalqi, shu xalq qilayotgan tinimsiz mehnat va

uning natijalari bor rang-barangligida ko‘z oldimizda gavdalantiriladi. Tuprog‘ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, sal ko‘rmasa darrov Quyoshni qo‘msaydigan bu o‘lka kishilarining g‘ayratidan asabi chaqnaydi. Bu chaqnayotgan asab buzg‘unchilik, shosh-qaloqlik, yovuz kuch daragi emas aslo. Uning kuchi baxt toshini chaquvchi, o‘lkaning qiri, tog‘i, cho‘li bag‘rida pinhon xazinalarni ochguvchi qudratdir.

She’rdagi mana bu misralarga e’tibor beraylik:

Derdilarki: «uning ruhi injiq va xasta»,
Biroq, tomchi qoni uning bir kulcha oltin!..

O‘zbekistonni, uning xalqini «ruhi injiq va xasta» deguvchilar, darhaqiqat, hamma zamonlarda ham topilgan. Yurtimizga bostirib kelgan Aleksandr Makedonskiy va Chingizzondan tortib, chor armiyasi generallarigacha dastlab shu fikrda bo‘lishgan. Faqat kelishgach, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Dukchi eshonlarning mardona ruhi nimalarga qodir ekanini o‘z tanalarida his qilishgan...

Oybek bu qudratni «tomchi qoni uning bir kulcha oltin» deya ta’riflaydi. E’tibor bering: o‘zbek xalqining bir tomchi qonida bahosi osmonga teng kulcha oltinning qudrati yashirin. (Qadimda oltin hozirgidek to‘rtburchak – ruschasiga «slitka» shaklida emas, balki, shoir aytganidek, kulcha nonning zuvalasiga o‘xhash ko‘rinishda quyilgan.)

Asardagi quyidagi misralarda esa yana bir tarixiy haqiqatga ishora bor:

Bolg‘alar-la parchalandi uyqu iloni,
Mehnatkash el bukun belin ko‘tardi mag‘rur.

Siz o‘qiyotgan tarix darsliklarida XVII–XIX asrlar oralig‘ida Turkiston o‘lkasi har jihatdan qoloqlikka yuz tutgani haqida hikoya qilinadi. Abdulla Qodiriy iborasi bilan aytganda, «tariximizning eng kir va qora kunlari bo‘lmish» oxirgi xonliklar davrida butun o‘lka go‘yo

chuqur uyquga, g‘aflat og‘ushiga ketgan edi. Sanoatlashishdan yiroq bo‘lgan iqtisodiy holat ijtimoiy va ma’naviy sohalarda ham karaxtlikni paydo qilgandi. Ana shu tarixiy haqiqatni nazarda tutib, shoir «uyqu iloni» jismini bolg‘alar-la parchalaydi. Mana shu birgina so‘z bilan Respublikamizning sanoatlashish yo‘liga qadam bosgani, bu narsa esa yerga ming bora egilib dehqonchilik qilib kelgan o‘zbek mehnatkashining «belini g‘oz» qilganini yorqin ifoda etadi.

Xuddi shunday o‘sish-o‘zgarish fanda, ilm-u ma’rifatda, demakki, fikr va tafakkurda ham yaqqol seziladi: «*Xonaqoni tashlab fikr fanlarni mindi, Elektron tekshiradi kechagi cho ‘pon...*»

Turkiston ahli asrlar osha ta’lim-tarbiyaning bir xil qolipidan chiqa olmagan, ilm deganda aksariyat faqat diniy ilmni, uning ham yodaki va yuzaki o‘zlashtirilishini tushunardi. Shu tufayli ham o‘lka G‘arb xalqlarining aniq fanlar sohasida erishgan yutuqlaridan benihoya ortda qolib ketgan edi.

Nihoyat, she’rning oxirgi misrasiga e’tibor qiling:

O‘qi va sev! Buning ismi yosh O‘zbekiston!

Bir qaraganda, shoir yurtdoshlarini, ayniqsa, yoshlarni o‘qishga va yurtni sevishga chorlayotgandek. Lekin bizningcha, Oybek barchamizni O‘zbekiston atalmish yurtni, uning o‘zligini – tarixi, buguni va kelajagini qunt ila o‘qish, tanish va shular asosida sevishga, ardoqlashga yonib da’vat etgan. Ulug‘ shoirning bu da’vati o‘z ahamiyati va kuchini bugun ham zarracha yo‘qotgan emas.

Savol va topshiriqlar

1. Oybek hayoti va ijodi to‘g‘risida avvalgi sinflarda olgan bilimingizni tiklashga urining.
2. Shoirning «Qoraxat» to‘rtligini mustaqil tahlil qilishga harakat qiling.

3. Na'matakning «Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil» deydi shoir. Bu misradagi «qoniqmas» so'zi qanday ma'noni beryapti?
4. Na'matak qaysi jihatni bilan vahshiy toshlarga ham fusun – chiroy, go'zallik baxsh eta oladi?
5. Nima uchun na'matakning poyida kumush qor yum-yum yig'laydi?
6. «O'zbekiston» she'ridagi:
Yaratildi bir shoh asar, go'zal bir doston,
Gadir-budur mehnat qo'li bitgandir buni
misralari orqali ifoda etilgan ma'noni tushuntirishga harakat qiling.
7. Oybekning «O'zbekiston» she'ri yurtimiz to'g'risida yozilgan boshqa she'rlardan nimasi bilan farq qiladi, deb o'ylaysiz?



MAQSUD SHAYXZODA

(1908 – 1967)

Maqsud Shayxzoda nomi nafaqat o‘zbek kitobxonlari, balki qardosh ozarboyjon o‘quvchisi uchun ham ardoqli nomdir. Chunki iste’dodli shoir Ozarboyjon diyorida tug‘ilib, ijodkor sifatida O‘zbekistonda, o‘zbeklar bag‘rida ulg‘aydi, atoqli qalam sohibi sifatida kamol topdi, o‘zbek adabiyotining XX asrdagi ulkan namoyandasiga aylandi. Ikki xalqning farzandi bo‘lmish Maqsud Ma’sum o‘g‘li Shayxzoda 1908- yilda Ozarboyjonning Agdash (Oqtosh) shahrida shifokor oilasida tug‘ildi. Boshlang‘ich va o‘rta ma’lumotni o‘zi tug‘ilgan shahrida olgach, Boku Oliy pedagogika institutiga sirtdan o‘qishga kiradi. 1925- yildan boshlab Darbanddagi 1-bosqich Ozarboyjon mакtabida, Bo‘ynoqdagi ta’lim va tarbiya texnikumida o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. 1927- yilda aksilinqilobiy tashkilot a’zosi sifatida qamoqqa olinib, 1928- yilning fevralida Toshkentga surgun qilinadi. Maqsud Shayxzoda Toshkentga kelgach, turli gazeta-jurnallarda adabiy xodim, 1935–1938- yillarda



O‘zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938- yildan vafotiga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hозирги Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti)ning o‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qildi.

Shayxzoda o‘zi e’tirof etganidek, hali savodi chiqmasidan she’r mashq qila boshlagan shoir. Biroq u o‘zining dastlabki ijod namunalarini 1929- yildan boshlab

e’lon qila boshladi. O’ttizinchi yillarda shoirning «Loyiq soqchi», «O’n she’r», «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Jumhuriyat», «O’n ikki», «Yangi devon», «Saylov qo’shiqlari» nomli she’riy to‘plamlari nashr etiladi. Ushbu she’riy majmualar Maqsud Shayxzodani o‘zbek adabiyotida o‘z ovoziga ega bo‘lgan katta iste’dod sifatida elga tanitdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Shayxzoda barcha o‘zbek shoir va yozuvchilari qatori bor ijodiy salohiyatini fashizm ustidan g‘alaba qozonishga qaratdi. Bu davr shoir ijodining yuqori darajaga ko‘tarilgan, uni chinakam vatanparvar ijodkor ekanini namoyon qilgan davr bo‘ldi. Insoniyatga tahdid solayotgan XX asr balosi – fashizmni yo‘q qilish, hayotni, tiriklikni, or-nomusni saqlash, xalqni ruhan yengilmaslikka, matonatga undash shoirning o‘scha yillari chop etilgan «Kurash nechun», «Jang va qo’shiq», «Kapitan Gastello», «Ko‘ngil deydiki» kabi to‘plamlaring bosh mavzusi bo‘ldi.

Maqsud Shayxzoda «Jaloliddin Manguberdi» dramasini yozdi. Unda o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Xorazm shohining jango var jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirladi.

Qadrli o‘quvchi! O‘zbekiston tarixi fanidan yaxshi ma'lumki, yurtimizni XIII asrlarda Chingizzon qo’shilari bosib olmoqchi bo‘lganida, xalqimizning asl mard o‘g‘lonlaridan biri Jaloliddin Manguberdi istilochilarga qarshi qattiq kurashadi. Vatan mustaqilligini saqlash uchun mardonavor turib jang qiladi. Ushbu drama o‘z vaqtida sahnalaشتirilgan va jasur vatanparvar Jaloliddin Manguberdi siymosini sahnada buyuk aktyorimiz Shukur Burhонов gavdalantirgan.

Maqsud Shayxzoda urushdan keyingi tinch qurilish yillari yana qaytadan nohaq qatag‘on qilinganiga qaramay, farovon hayot va bunyodkorlik zavqini tarannum etuvchi

she’rlardan iborat «O’n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu’la», «Chorak asr devoni» kabi to‘plamlarini nashr ettiradi. 1958- yilda shoir qadimiya va navqiron, azim poytaxtimiz Toshkent haqida teran falsafiy va ushbu shaharga nisbatan nihoyatda samimiy tuyg‘ularga boy «Toshkentnomá» dostonini yozadi.

Shayxzoda adabiyotning liro-epik turida ham muvafiqiyat bilan qalam tebratgan ijodkor. U «O‘rtoq mulk», «Tuproq va haq», «Chirog‘», «O‘rtoq», «Meros», «Ovchi qissasi», «Iskandar Zulqarnayn», «O’n birlar», «Jenya», «Oqsoqol», «Ahmadjonning hikmatlari», «Uchinchi o‘g‘il», «Nurmat otaning tushi» kabi dostonlarning mualifidir.

Maqsud Shayxzoda badiiy asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid sohasida samarali ijod qilgan. Ayniqsa, uning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodi va faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan jiddiy tadqiqotlari navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi, desak yanglishmaymiz. Shuningdek, zabardast olimimiz o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotning Bobur, Muqimiyl, Furqat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, xalq og‘zaki ijodining ajoyib vakili Fozil shoir, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, A.N. Ostrovskiy, T.G. Shevchenko, A.P. Chexov kabi namoyandalariga bag‘ishlangan asarlar yaratgan. Shayxzoda mohir tarjimon sifatida Sh. Rustaveli, V. Shekspir, A.S. Pushkin, M.Y. Lermontov, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

JALOLIDDIN MANGUBERDI

(tarixiy fojiadan lavhalar)

Qatnashuvchilar:

Sulton Muhammad Alovuddin Xorazmshoh – Xorazm shohi.

Jaloliddin Manguberdi – uning o‘g‘li.

Sultonbegin – shohning qizi, Jaloliddinning tug‘ishgan singlisi.

Amir Badriddin – Samarqand hokimi, Sultonbeginning qaylig‘i.

Temur Malik – sardor. Xo‘jand hokimi.

Elbors pahlavon – cho‘pon.

Muhammad Nasaviy – Tarixchi. Jaloliddinning kotibi.

Ona – Jaloliddin va Sultonbeginning onasi.

Yaroqbek – Badriddinning mulozimi.

Chingizxon – mo‘g‘ul xoqoni.

Qodog‘on no ‘yon – Chingizning sarkardalaridan.

Devona chol, sipohlar, bozor ahli, saroy xonimlari, kanizlar, mo‘g‘ul askarlari.

Voqeа XIII asrning birinchi choragida bo‘lib o‘tadi.

UCHINCHI PARDA

BIRINCHI KO‘RINISH

Parda ochilganda xarob bir manzara ko‘rinadi. Bu yerda yiqiq devorlar, cho‘kik imoratlar, kesik daraxtlar katta bir falokatdan darak bermoqda, usqda yongan bog‘lar va tepalar ko‘rinadi. Parda ochilarkan, sahna orqasidan bir cholning g‘amgin ashulasi eshitiladi.

Chol

O‘yla bir devonaman, mendan qochar devonalar,
Yostig‘im tosh-u tikan, xonam bo‘lib vayronalar.
Suvda gar aksimni ko‘rsam, o‘z-o‘zimdan alhazar,
Xasta soyamdan cho‘chib, solmasman unga bir nazar!

Sahnaga parishon sochli, devonasifat bir chol kirib keladi. Ashulani davom ettirib.

El xarob, umid sarob, davlat turob, ko‘nglim kabob,
Yo Xudo, men tobakay kutgim samovotdan javob?
Bir zamon inson aro odam edim men purviqor,
Xonumon, nomus-u nom, imon bo‘libdur tor-u mor.

Safar kiyimida Sultonbegim bir mulozim bilan kirib keladi.

Sultonbegim

So‘yla, bobo, sen kimsan, bu yer qaysi yurt, o‘lka?
Nega cho‘kkan har yoqqa ko‘p parishon bir ko‘lka?

Chol

So‘ramay qo‘y, oh, qizim, tirnamagin yaramni,
Do‘zaxiyman, yo‘qotdim go‘yo Bog‘i Eramni,
Ne qilasan nomimni, unutibman o‘zim ham,
Allanima derdilar, esdan chiqqan tamoman.
Boshim ko‘rgan baloni ko‘rsa edi bitta fil,
Erib sichqon bo‘lurdi, o‘lmaganda... Tingla, bil!
Bu ofatga Azroyil, mo‘g‘ul xoni Chingizzon,
Dunyodagi qoplonlar urug‘iga u xoqon.
Ko‘z oldimda so‘yildi avlodlarim, xotinim,
Yosh qizginam zo‘rlandi, men urildim betinim.
O‘g‘lim halok etildi bog‘lanib ot dumiga,
Bir qizim qaynatildi tashlanib xum suviga.
Kichik o‘g‘lim ko‘mildi tiriklayin tuproqqa,
Bundan keyin ne kerak umr menday ahmoqqa?

Sultonbegim

(ma'yus)

Kattamidi aybingiz?

Chol

Inson edim, vassalom.

Ular qonga xumori, tashnadirlar bil, bolam.

Na falakdan javob bor, na duodan savob bor,

Ko'p mahkam kulfatlangan ilohiy baland darbor!

Xafa bo'ldim olamning Xudosidan, rabbidan,

Ko'p istidod so'radim payg'ambardan, nabiydan...

Dunyoda nafas olish o'zi serxatar ekan.

Qo'l – butog'i kesilgan samarasiz bir to'nka –

Mana menman... Yashamoq lozimmikan hech menga?

Umrimda yagona bir ma'ni bo'lsa – intiqom.

Sultonbegim

(o'ylanib)

Oh, bechora Vatanim bir afsona bo'libdur,

Mo'ysafidlar devona, bog' vayrona bo'libdir.

Qayerlarga qochibdur u g'azalxon bulbullar,

Yo'llarimda ko'rganim o'lik erlar va tullar.

Suv qurigan, cho'l kuygan, bo'g'ilgandir miroblar,

Dilim torin uzdilar bu sarsari, xaroblar.

Yig'lamayin o'tarmi bundan g'arib bir yo'lchi,

Bu devona ota ham shum xabarchi, bir folchi.

(Cholga)

Bobo ayt, shu tepaning qanaqa bir nomi bor?

Chol

Atashga ulgurmadik, ko'p g'alati bir minor,

Chol tepadan bir kesakni olib, Sultonbegimga ko'rsa-tadi.

Sulton begim

(qaltirab)

Oh, bu kesak emas-ku... Allaqanday bir kalla!

Chol

Kallalardan bu minor... Payqading, barakalla!
Shu qishloqda aholi to‘lamagan edi boj,
Mo‘g‘ul kesib boshlarin, shunday topdi tez iloj.
Bu yerda istiqomat qilar bitta devona
Va badbaxt boyqushlarki, ixlosmandi vayrona!

Sulton begim

(titrab)

Oh, bu dahshat!

Mulozim

(qilichini ushlab)

Tez yuring, yo‘ldan bilsak bir xabar!

Sulton begim

Bobo so‘yla, qayerda Jaloliddin o‘rdasi?

Chol

U soyning chap yonida, huv tepaning orqasi!
Ammo bu yo‘l ko‘p sirli, yotlar bundan bexabar!

Sulton begim

(keta turib)

Şir olgan o‘zga emas, qizingiz, ko‘p mo‘tabar!

Sultonbegim va mulozim ketadilar. Chol zohiran hech ajratib bo‘lmaydigan bir g‘orga kirib, teshikni bekitadi. G‘or ichidan cholning yana g‘amgin ashulasi.

Chol

O'yla bir devonaman, mendan qochar devonalar,
Yostig'im tosh-u tikan, xonam o'lub vayronalar!

Yaroqbek to 'ra va uning orqasidan bir to 'da mo 'g 'ul izchilari kirib keladi.

Qodog'on no'yon

(Yaroqbekka)

Xorazm kiyimida ikki kishi edilar,
Izma-iz poylab kelib, ko'p yo'l bosdim barobar,
Shunda nihon bo'ldilar...

(Yerga yotib izlarni iskab oladi va turib soy tomonni imlaydi.)

Soy tomon ketgan ular...

(Yaroqbekka)

Shu tomonda bor ekan, yashirin so'qmoq yo'llar,
Sen mulozim, soqchilar sendan shubha qilmaslar.

(Bir bo 'g 'cha beradi)

Buni Sultonbeginning tuhfasi deb berasan!

(Bir xanjar beradi)

Buni ulug' xoqonning jazosi deb urasan!

Yaroqbek

Men otamning tabarruk xuni uchun qasoskor!

Qodog'on no'yon

Bari bir-ku, xoqonga bu zarbangda xizmat bor.
Menga qara.

(Ko'r ko'zini ko'rsatib)

O'ylama, men tug'asi shunday ko'r,
Temur Malik o'qidan bu ko'zimdan uchdi nur!

Yaroqbek

Temur Malik?!

Qodog'on no'yon

Bilaman u otangning qotili,
Uning ham bor payida yuronlardan bir xili.
Ammo sen-chi? Burgutlar boshlig'iga xanjar ur,
So'ngra xoqon qasrida sultonlarcha davlat sur!

Yaroqbek

(keta turib)

Yo, omad!

(Ketadi)

Qodog'on no'yon

Temur Malik ko'zimga o'jni uzib degandi:
Qahrimizni ko'rmoqqa bir ko'zing bas, ket endi!
Shu bir ko'zning o'zi ham dushman izin payqadi,
Shu yo'l ulug' dushmanga to'g'ri olib chiqadi.

(Qaytib ketadi)

Chol

(g'ordan chiqadi)

Ilohim, har yoqda xiyonat, pastlik,
Odamzod qonidan ko'zlarda mastlik.
O'limlar shohidi – ko'zlar devona,
Fikrim-chi? Ko'r emas, fahmim – nishona!

(Qochib ketadi)

P a r d a

IKKINCHI KO'RINISH

Parda ochiladi. Jaloliddin qarorgohi. Chodirlar; Jaloliddin sipohiy qiyofada bir to'nka ustida o'tiribdi. Bir chetda Nasaviy o'z daftariga so'nggi chog'larning voqealarini yozmoqda.

J a l o l i d d i n

O'qigin yozganiningni, do'stim Nasaviy,
Sherikdur qilich birla qalam ikkovi.

N a s a v i y

(daftarga qarab)

«Xorazmshoh voz kechdi jangdan, janggohdan,
Laqqa baliq qochganday yutqich timsohdan.
Xarob bo'ldi Buxoro, mahv o'ldi Urganch,
Pok tuproqni toptadi majusiy jirkanch.
Ammo sher Jaloliddin tortdi na'rasin,
Tig' sug'urib o'pirdi mo'g'ul marrasin.
Beshta ulug' janglarda qochdi yov – vahshiy,
Rost debdilar: mo'g'ulni qochirgan kishi!»

J a l o l i d d i n

Xyla bizni maqtabsan, do'stim tarixchi!

N a s a v i y

Tarixni siz yasaysiz, bizlar yozamiz,
Ishingizga yarasha bor andozamiz.

(chiqadi)

M a h r a m

Kelibdir qal'adan Yaroqbek to'ra!

Jaloliddin

Ayt, kirsin!

(*chiqadi*)

Ko‘ray-chi, qochiqdan so‘ngra –
Qaysi noibiga sig‘inmish sulton?

(*Yaroqbek kiradi*)

Yaroqbek

Assalom! Valiahd, sardori zamon!

Jaloliddin

Nechuk xabarlar bor uzoq ellarda?

Yaroqbek

Ishingiz bo‘lmishdir doston tillarda,
Sizni kutmakdadir ezilgan o‘lka,
Boqar intizor-la doimo yo‘lga.
Sizga hasadkorlar tamom pushaymon,
Onangiz, singlingiz qal’ada omon.
Sizga yubordilar sipohiy xil’at,
Safarda yayar deb sardorga, albat.
Ko‘p duo aytishdi malika xonim!..

(*bo ‘g ‘chadan to ‘nni oladi*)

O‘zim kiyintiray shudir armonim!

Jaloliddin

(*xursand*)

Ha, meni ko‘p o‘ylar azizalarim,
Afsuski, ayirdi bu jang, shu g‘anim.

Orqasini o‘giradi. Yaroqbek chopon ostidan xanjar chi-qaradi.

Yaroqbek

Otam qonin unutmasman hech!

Xanjarni o'qtaladi. Shu choqda devona chol otilib kiriadi. Yaroqbekning orqasidan pichoq sanchadi. Orqasidan mahram, Nasaviy kirib keladi.

Chol

Shukrkim, madadkor qolmaptikan kech!
Eshiting avvalo, o'ldiring keyin.
Ha! Men-ku, qotilman, ammo bu xoin...
Umrimda ilk odam o'ldirishim shu.
Ammo najot topdi bir el, yoshullu!
G'orimda poyladim men yashirinch –
Bitta ko'r no'yon-u shu mal'un bacha
Ozurda ekanlar Temur Malikdan,
Sizga qasd qilgali bo'lishdi bir tan.
Xanjar o'qtalganga qadadim nishtar,
U yog'i ma'lumdir, hikoyat etar!

Jaloliddin

Tugul Jaloliddin ko'kragini san,
Qutqarding lashkarning yuragini san!
In'omlar berilsin cholga farovon!

Chol

Ne lozim, shahzodam, ulug' qahramon,
Kerakmas menga hech tuhfa, in'omlar...
Kerakmas unvonlar, oliv maqomlar,
Sadoying eshitdim, o'zga kerakmas,
Kimsasiz ko'nglimga shuning o'zi bas!

(qochib ketadi)

Jaloliddin

Koshki shunday bo'lsa jumla otalar!

Nasaviy

Shu xil ota bo‘lsa barcha kattalar!

Nasaviy chiqadi, mulozimlar Yaroqbek jasadini olib chiqadilar.

Jaloliddin

Afsus, badbaxt bo‘lsa bir o‘lka agar,
Uning o‘g‘illari ko‘r bo‘lur yo kar.
Shundan buzuqlarni fitnakor Chingiz
Makr ila tuzoqqa oldi u xunrez.
Ammo menga botmas nayza-yu xanjar,
Meni o‘ldirolmas qilich yo zahar,
Suvlarga cho‘kmayman, jardan yiqlilmam,
Nomard qo‘lidagi xanjardan ne g‘am?

Nasaviy

(kiradi)

Sizga ajib bir sovg‘a, sardor.

Jaloliddin

Chingizning kallasimi, ufunat (*badbo ‘y*), murdor?

Nasaviy

Yo‘q, boshqa!

Jaloliddin

Xo‘sh, mo‘g‘ul tutqunlarmi?

Nasaviy

Yo‘q, boshqa!

Jaloliddin

Ha, yordam qo‘shinlarimi?
Qo‘shinlarki, kutaman G‘iyosiddindan?

Nasaviy

Yo‘q, boshqa!

Jaloliddin

Kuttirma! Darhol so‘yla sen!

*Nasaviy chodirning darpardasini ko‘taradi. U yerda
Sultonbegim ko‘rinadi.*

Nasaviy chiqadi.

Sultonbegim

Yo‘q, og‘am bu na amir,
Na mo‘g‘uldan bir asir,
Va na Chingiz kallasi...
Bu bir qizning hiylasi.
Bu urganchlik g‘arib qiz –
Tanirmisiz?

(quchoqlashib ko‘rishadilar)

Jaloliddin

(hazilona)

Jajji kelin, bu qanday jahongashtalik?
Kuyov jonga tegdimi? Sevgi shunchalik!

Sultonbegim

Yorim birdur va lekin og‘am ham bitta,
Tug‘ilmaydi ikkinchi og‘am, albatta.
Siz jang ichra, har lahza holingiz qaltis!
Diydoringiz g‘animat, niyat shu yolg‘iz!

Jaloliddin

So‘ylagin sarguzashting, bo‘layin ogoh!

Sulton begim

Chiqdik Xorazmdan g‘urbatga, evoh,
Yashirindik onam-la mulki Eronda,
Xayolim uyida Urganch har onda.
Shoh ziyoratiga ketdi Badriddin,
Men esa og‘amni sog‘inib g‘amgin,
Hijronga chidolmay chiqdim qal’adan,
O‘tdim daryolardan, bog‘-u daladan,
Yo‘limda uchradi vayrona-yu, dasht,
Nasib bo‘ldi diydor, mana, sarguzasht.

Jaloliddin

Ko‘p ulug‘ sovg‘asan, azizim, singil,
Kelishing yaxshi fol men uchun, bilgil.

Sulton begim

O‘zim bo‘lsam hamki ko‘p ulug‘ sovg‘a,
Sizga bir armug‘on keltirdim, og‘a!

(unga bir uzuk cho ‘zib)

G‘alati bir uzuk, o‘zi ham tumor,
Nizo-yu janglarda har dam xaloskor,
Kim buni barmoqqa bir taqsa agar
O‘limlar, yaralar bo‘lur bexatar.
Samarqand shahrida ulug‘ alloma
Buni Badriddinga qilmish iona.
U jangda yurmasa uzuk ne kerak?
Sarkarda og‘amga berur deb ko‘mak –
Bir omad keldi-yu, qo‘lga tushirdim,
Esdalik qatori sizga keltirdim.

Jaloliddin

(uzukka qarab)

Ko‘p nafis, munaqqash, sehrli uzuk!

Sultonbegim

Ustida duosi, undan ham tuzuk!
Lekin o‘qib bo‘lmas mushkul muammo!

Jaloliddin

Mullaga yechmoqlik osondur ammo!
Hazrat Nasaviy!

(Nasaviy uzukni olib davotdagi siyohni uning ko‘ziga surkaydi va so‘ngra ipak qog‘ozga bosib, Jaloliddinga ko‘rsatadi)

Nasaviy

Sardor, bu muhrdir, kechiring meni,
Lo havlo... Siz o‘qing shu kaliman!

Uzuk va qog‘ozni topshirib chiqadi.

Jaloliddin

(qog‘ozga qarab)

«Podsho Badriddin shohi barru bahr,
Sultoni Samarqand, Movarounnahr».

(Sultonbegimga)

Eringga shohlikni so‘z bergen Chingiz,
Bu ham xo‘jasiga ishlagan shaksiz.
Yurtiga sarlashkar bo‘lishdan ko‘ra –
Shohlik nomi bilan mo‘g‘ulga to‘ra...
«G‘alati bir uzuk – o‘zi ham tumor».
Emish: «O‘limlarga qarshi madadkor»,
Endi shu uzukda ochildi tilsim,
Oh, yomon dahshatdir g‘azabim, hirsim!
Uning bir boshiga yuz marta o‘lim!..
Ering bir sotqindur, bechora singlim!

Sulton begim

Voy, endi tushundim, so‘ylardi doim,
Samarqand taxtida bo‘lurmiz qoim,
Bosh egmay hech kimga mustaqil, erkin!

Jaloliddin

Zohiran pok so‘z-u, ma’nosi chirkin,
Pokiza labingga sen-ku, hamisha,
Do‘ndirmay yurarding hattoki pashsha,
Endi ko‘r, labingga lab qo‘ygan mal’un,
Yalaydi Chingizning u qonli qo‘lin.

Uzukni yerga tashlab chiqadi. Sultonbegim chuqr alam ichida uzukni yerdan oladi.

Sulton begim

To‘y kuni jang chiqib, dilpora bo‘ldim,
Yurtdan yiroq tushib ovora bo‘ldim,
Evoh, nomard ekan suyulgan yorim!..
Endi bas, endi bas, ey, bir-u borim.

(qo‘lidagi uzukni barmog‘iga taqib)

Shuncha jilvakorsan munaqqash, nozik,
Ko‘p yurding sen uning qo‘lida, uzuk!
Lekin olmos ko‘zing shuncha bema’ni,
Ularda xiyonat o‘qilar ya’ni.
Iloyim, chiroyning zamirida ham,
Chirkinlik yashaydi iflos, nomahram!

(uzukka qarab)

Senga nishon bosmish sevgi, deydilar,
Seni ishq qasridan belgi, deydilar.
Lekin voqif bo‘lgach maxfiy muhringdan,
Voz kechdim husningdan, ishq-u mehringdan,

Voz kechdim u nokas sohibingdan ham.
Seni tashlaganday tuproqqa og‘am –
Chiqardim barmoqdan, dildan, xotirdan,
Sen ham xarob bo‘lgin, yo‘qolgin birdan!

Uzukni barmog‘idan chiqarib tashlab, chodirdan chiqadi, Jaloliddin va Elbors kirib keladilar.

Jaloliddin

Gapirgin, gapirgin Temur Malikdan,
Ofarin, u doim mardlikka yaktan!

Elbors

Bizni ko‘p ovora qildi zo‘r qal‘a,
To‘g‘ri hamla qildi...

Jaloliddin

Ha, barakalla!

Elbors

O‘zi Temur Malik o‘tib daradan,
Quvdi mo‘g‘ullarni katta marradan,
Olindi Banokent qal‘asi darhol,
Tushdi qo‘limizga ko‘p asir, ko‘p mol,
Soyda to‘lgan edi ming kesik kalla,
Yovlarning kallasi...

Jaloliddin

Ha, barakalla!

Elbors

Nihoyat o‘n yara yesa ham sardor
Tushmadi otidan, turdi ustivor,
Men ham qo‘lda xanjar, og‘zimda yalla,
Baqadri imkon...

Jaloliddin

Ha, barakalla!

Elbors

Hozir hamma lashkar katta o‘rmonda,
Turgay pistirmada, tayyor shu onda...
Amir Badriddin birla kengashib...

Jaloliddin

Kim, kim?

Elbors

Shoh nomidan kelibdi shoshib...

Jaloliddin

Nima qilar unda u shayton, sotqin?
U yo murdor bo‘lsin va yoki tutqun!
Oh, Temur Malik ko‘p ulug‘ sardor
Va lekin dil sodda, hiylada nochor.
Mulozim!

(mulozim kiradi)

Otlangin turkman otiga,
Borib ayt, qo‘shinning so‘l qanotiga –
O‘rmondan chiqsinlar, soyga o‘tsinlar,
Badriddin xoynni darhol tutsinlar!
U, Temur Malikka bir hiyla qurban,
Yomon bir niyatda u yerda yurgan.

(mulozim chiqadi)

Chiq jarning bo‘yiga, Elbors pahlavon,
Yirtqich to‘da birla tur unda pinhon!

(Elbors pahlavon chiqadi)

Mulozim!

(*Ikkinchi mulozim kiradi*)

Otlanib jo‘nagin, chiqqin sen toqqa,
Qo‘shin tog‘dan tushsin orqa qishloqqa.

(*mulozim chiqadi*)

Jaloliddin

(*o‘zicha*)

Bizning mavqelarni ham birin-ketin,
Yovga ma’lum qilgan sotqin Badriddin!

(*o‘ylab*)

Adir bo‘yi yotar askar jim,
Kun botmasdan qilaman hujum,
Shapoq otday yovvoyi mo‘g‘ul,
Kunga qarab yurolmas nuqlu.

(*Nasaviy kiradi*)

Sultonbeginm hozir serqayg‘u,
Chodirida tinch uxlasin u.
So‘rab qolsa meni basharti,
Tag‘in oshib ketmasin dardi...
Ot solaman bostirib yovga,
Unga, meni chiqdi de, ovga!

(*Nasaviy chiqadi. Hansirab bir chopar kiradi*)

Mulozim

Yomon xabar keltirdim hozir,
Temur Malik bo‘lmishdir asir!

Jaloliddin

A, Badriddin, amir Badriddin?!
Qani, qo‘lga tushdimi xoin?!

Chopar

Darvozani Badriddin ochgan,
Sardor asir tushgach, u qochgan.

Jaloliddin

Oh, dahshatli, ko‘p yomon xabar,
Ming o‘limdan ming marta battar.
Bir qanotim sindi Temursiz,
Go‘yo qoldi bir ko‘zim nursiz.

(mulozimga)

Darhol qo‘ying bedovga egar,
Hujum uchun shaylansin lashkar!

Mulozim chiqadi, uzoqda hujum qilayotgan askarlar-ning «Olloh-Oolloh!», «ur-ur!» sadolari... Jangovar kiyin-gan Sultonbegim va orqasidan Nasaviy kiradi.

Nasaviy

Unamaydi, shahzoda, begim!

Jaloliddin

Kim bo‘ysunmas sarkardaga, kim?

Sultonbegim

Og‘am, og‘am, jangovar og‘am,
Men ham sizga bo‘lgayman hamdam.
Ko‘p xafasiz, men xabardorman,
Men singlingiz, men ham sardorman!
Sizga jon va sut bergen u ona –
Nahot bo‘lsa menga begona?!

Aybim nima? Ayolligimmi?
Kokilimmi?

Jaloliddin

(*uni quchoqlab*)

Barakalla, singlim! Kim deydi
Jalolning yo‘qdir inisi?..
Tuhmatdur bu... Mana botir er.

(*mulozimga*)

Bir ot bering, tez chopar, bardam,
Jaloliddin singlisiga ham!

M u l o z i m c h i q a d i . J a l o l i d d i n v a s i n g l i s i c h o d i r e s h i - g i g a c h i q a d i l a r . U z o q d a j a n g - g ‘ a v g ‘ o s a d o s i . B o s h q a m u - l o z i m c h o p i b k e l a d i .

Mulozim

Erovullar surib ketdilar,
Dashtga qochar mo‘g‘ul darbadar.

Jaloliddin

(*sevinib*)

Oh... Oh...
Qasam bo‘lsin tangriga billoh,
Tiriklikda eng shirin holat –
Yov dochishin ko‘rmoqdir faqat.

*Jaloliddin qilichini sug‘urib, o‘pib baland ko‘taradi.
Singlisi ham shunday qiladi. Jaloliddin narigi tomonga qa - rab buyruq beradi.*

Hujumga qo‘shin!
Qon – qasos uchun
Qilichni sug‘ur,
Dushmanni ur-ur!

Jaloliddin va Sultonbegim yugurib ketadilar. Uzoqda katta olomon Jaloliddin buyrug‘ini takrorlab, «Hujum qo ‘shin!», «Yo Olloh, yo Haq!», – deya nidolar ko ‘taradi, otlar kishnashi va qilich, qalqon qarsillashi eshitilib turarkan, chodir ichida yakka va tikka turgan Nasaviy daftariga nimalarnidir yozmoqda.

Nasaviy

Ha... Shu yo‘sin tug‘ilar tarix.

Parda

BESHINCHI PARDA

BIRINCHI KO‘RINISH

Jaloliddin

(chodirdan chiqib kelib)

Yana mening uyqumga iblis qildi rashk,
Go‘yo janjal... Balki bu sipoh qilgan mashq!
Haftalar mobaynida mizg‘idim biroz,
Tushlar ko‘rdim qayg‘uli, gamgin jongudoz.
«O‘lim mangu uyqudir», – deydi shoirlar,
Achchiq xato: o‘lmasdan buni kim bilar?
Tush olami bir bog‘dur – xayollar, qushlar,
Ammo, afsus, go‘rlarga kirmaydi tushlar!
Ko‘rdim chaman... Urganchda... Amudaryoda –
Arg‘uvoni kosada xushbo‘y bir boda,
Menga tutib qadim do‘st der edi kulib:
Ko‘p sog‘indim, shahzoda, sendan ayrilib!
Yana bir bor ichaylik, suvdan kechaylik...
Mayli, ichdim, tanidim. U – Temur Malik!

Yig‘lamas deb o‘ylaydi meni odamlar,
Ammo chaqmoqtoshga ham qo‘nar shabnamlar.
Yashirib men olamdan ko‘z yoshlaramni,
Kechalari eslayman yo‘ldoshlarimni!

Nasaviy

(kirib)

Tong yorisha boshladi, hazrati sardor!

Jaloliddin

(kulib)

Tarixchiga shart erur bo‘lmoqlik bedor,
O‘tib qolsa basavlat biron hangoma –
Ko‘rmay qolsang benuqson bo‘ladi noma.
Menga ayt-chi, urishdik, shuncha jang qildik,
Goho yovni yiqitdik, goho yiqildik,
Qal’alarni fath etdik, lashkarni ezdik,
Bodi sar-sar singari ellarda kezdik,
Kallamizni kesdilar, kallalar kesdik,
Sahrolarda yugurdik, daryoda suzdik,
Bosdik, yengdik, yengildik va yana yengdik,
Qilich o‘pib, o‘q uzib, ayg‘irlar mindik.
Shuni yutib ketmasmi bevafo zamon,
Jayhun – soyga tashlangan bir kesaksimon?
Xo‘s, yozganing ne bo‘lur, kimlarga yetar?

Nasaviy

(daftarni ko‘rsatib)

Ko‘p yulduzlar o‘chadi, o‘chmas bu daftar!..
O‘qir aziz avlodlar yuz-yuz yillarda!

Jaloliddin

O‘qiydimi?

Nasaviy

Albatta!

Jaloliddin

O‘qiydimi?

Nasaviy

Ha!..

Jaloliddin

Bo‘lmasa yoz: shiddatli olti jang bo‘ldi,
Chingiz qochdi Jaloliddindan, holi tang bo‘ldi.
Bugungi tarixni yoz yettinchi jang deb,
Kimga qilar xudovand zafarni nasib?

(turib aylanadi)

Shunday tuzoq qurbanman Chingizga, bilsang,
Nogahoniy hamlamdan bo‘lur hang-mang.
Chaqir, kelsun amirlar.

(Nasaviy ketadi)

Qurshab olay bu yerda uch yoqdan tamom,
To olamdan bu maraz bitkay, vassalom.

(Nasaviy, Elbors va bir necha amirlar keladi)

Qani boshqa amirlar, qani Muzaffar?

Nasaviy

Xafalashib ketibdi g‘urlar barobar.

Jaloliddin

Qani Balxiy qo‘smini, qayerda A’zam?

Nasaviy

Chiqisholmay ketmishlar bundan ular ham.

Jaloliddin

Qani qipchoq amiri Sayfiddin Ag‘roq?

Nasaviy

U ham ketdi va ketgan lashkari qipchoq!
Nizo chiqqan o‘rtada o‘lja tufayli!

Jaloliddin

Amirlarning o‘ljaga ko‘p nafsi, mayli,
Urug‘lar o‘rtasida chiqqani nizo –
Zafarning marrasida dahshatli qazo!

Mulozim

(yugurib kiradi)

Sardor, bo‘ling xabardor!
Tog‘ yo‘lidan mo‘g‘ullar kelmoqda, sardor.

Jaloliddin

Saflab qolgan lashkarni, tuzinglar to‘g‘on!
Dovonni egallab tur, Elbors pahlavon,
Orqamiz Jayhun soyi va g‘urbat ellar,
Mahkam turing, bo‘lg‘ayman o‘zim sarlashkar!

(hamma ketadi, Jaloliddin yolg‘iz. Sultonbegim keladi.)

Sultonbegim

Og‘a, sizdan sevinchi, aziz, mehribon –
Onam keldi qal‘adan eson va omon!

Jaloliddin

Har choq xursand bo‘lay desang, singiljon
Bir musibat yuz berar bizga nogahon.

Qochib ketdi amirlar, kelmoqda mo‘g‘ul,
Onasini shu holda kutarmi o‘g‘il?

(*O n a keladi. Mahram ashylarni chodirga kiritadi*)

O n a

Seni ko‘rmak oxiri bo‘ldi muyassar,
O‘g‘ilginam, endi men o‘lsam yo‘q kadar!

Jaloliddin

(*quchoqlab*)

Kulfatli bir lahzada tashrif buyurding,
Yolg‘iz qolmish maydonda, bil, Jaloliddin.

(*o‘zicha*)

Onamni qutqazaymi daryodan o‘tib,
Yoxud yana urishay saflarni tutib?!

Yaxshi o‘g‘il yaxshimi, yo yaxshi sardor?
Yaxshi o‘g‘il maydonda turgay ustuvor!

(*onasiga*)

Ana, qara, ya’jujday bo‘lishib g‘ujum –
Bir to‘daga mo‘g‘ullar qilmoqda hujum.
Ona, fotiha ber!
Bo‘lsun pokiza duong jangda madadkor.

O n a

Xudo yor bo‘lsin.

Jaloliddin

(*singlisiga*)

Posbon bo‘l onamga, jangga tayyor bo‘l!

(*onasini o‘pib ketadi*)

Hujum qo‘shin, qon-qasos uchun!

Qilichni sug‘ur, g‘animni ur!

(*Sultonbegim va ona tepalikdan ufqqa qaraydilar*)

Sultonbegim

Qara, og‘am otini jangga suradi.

Ona

Ko‘zim yaxshi ko‘rmaydi, dilim ko‘radi!

Sultonbegim

Qara, og‘am sher kabi zarba uradi!

Ona

Ko‘zim yaxshi ko‘rmaydi, dilim ko‘radi!

Sultonbegim

Boq, o‘ng yoqda mo‘g‘ullar qochar parishon.

Ona

Yov onasi yig‘lasin, qirgin beomon!

Sultonbegim

Oh, falokat, so‘l yoqdan qochib afg‘onlar,
Dushman yoqqa o‘tdilar, tez beray xabar!

(*ketadi*)

Ona

Endi qilay sizni deb qibлага duo!
Shoyad, ijobat bo‘lgay niyoz – muddao.

(*daryo labiga borib qo‘llarini osmonga ko‘taradi*)

Ikki lochin yetkazib bo‘ldim nomdor:
Bitta qiz-u bir o‘g‘il – ikkovi sardor.

Bitta siyna shunchalik parvarish qilur,
Bitta ona ko‘p qilsa shuncha ish qilur.

(*chodirga kirib ketadi. Sultonbegim qaytadi*)

S u l t o n b e g i m

Dushman ko‘pdur bag‘oyat, musulmonlar oz,
Ming kalxatga ne qilur bitta shunqorboz?

(*ketmoqchi bo‘lur*)

Og‘am bilan o‘lganim qo‘lma-qo‘l yaxshi!..

(*o‘ylab*)

Lekin onam, onam-chi... men unga soqchi!

O n a

(*kirib keladi.*)

Buni bergin og‘angga, aytgin, bu ma’jun.

(*bir shisha beradi*)

Bilmasin, tomirimdan olingen sof xun!

U ochlikka yo‘liqsa safarda agar,

Buning bitta yutumi unga jonparvar.

Endi sizlar boringiz g‘urbat ellarga,

Tutqun Vatan dardini chertib dillarga.

Qaytib kelgach, go‘rlarga soling bir nazar,

Balki unda sunbul-u rayhonlar o‘sar.

Mo‘g‘ullarga bir oqsoch bo‘lishdan ko‘ra,

Baliqlarga yem bo‘lsam – afzal ming karra.

Dunyoga oldin kelgan, oldin ham ketar

Yashashim yetar!

*O‘zini suvga tashlaydi. Sultonbegim yugurib sohilga
yiqiladi.*

S u l t o n b e g i m

Ona, ona, oh, dahshat... To‘xtang to‘lqinlar!

To‘xta daryo, hech onang yo‘qmidir magar?

Jaloliddin

(*Bir necha mahram bilan qaytib keladi. Ko‘zi Sultonbegimga tushadi.*)

Sultonbegim, ne bo‘ldi, onamiz qani?

Sultonbegim

(*daryoni ko‘rsatib*)

U bir murda, na go‘r bor va na kafani!

Jaloliddin

(*tiz cho‘kib, boshini ushlaydi*)

Vatan deya kurashdim, onadan kechdim,
Unisidan sut ichdim, bu deb qon ichdim.
Mudhish tole bermishdir Jalolga Olloh,
Na ona bor, na yurt bor, na lashkar, evoх!

Uzoqdan jang sadolari. Jalol turib, yuragini ushlaydi.

Ko‘tara olarmikin shu dardni yurak?

Yo‘q. Qasosni olay deb yashamoq kerak!

Sarboz, qara, daryoda bormi qayiqlar?

(*mulozim chiqadi*)

Sultonbegim

(*shishani beradi*)

Bir ma‘jun, bergen edi onam – yodgor,
Dedi: qachon qilsangiz g‘urbat ixtiyor,
Och qolsa Jaloliddin, ichsin ma‘jundan,
Toqatsizlik va ochlik daf bo‘lur undan.

Jaloliddin

(*shishani o‘padi*)

Balki yurak qonidur, yoki bir eksir,
Bir eksirki, bag‘ishlar abadiy umr.
Aziz ona, qaydasan, o‘lsang ham tingla,
Qayerda men tiz cho‘kay qabringga, so‘yla!

Bildim, sening qabringdur butun shu Vatan,
Daryo sening tobuting, ko‘piklar kafan.
Sohillar izzat ila ko‘taring yelka,
Jayhun to‘g‘ri eltadi tobutni elga!
Quyosh o‘zi guvohki azaldan beri,
Amudaryo oqqanmas aslo teskari!

Nasaviy

(yarador bo ‘lib keladi)

Beshta og‘ir yaram bor, yaram o‘ldirar,
Jangdan chiqdim, yo‘qolib qolmasin daftар!

(daftarni chiqarib yoza boshlaydi)

Jaloliddin

Bir musht kabi yumilmay qoldi sultanat,
Qabila-yu urug‘ga tushdi adovat!

Nasaviy

(behол)

Nafas bitar, Azroyil, yo‘qol, badburush!

(sardorga)

Nima bilan tugadi yettinchi urush?
Nima yozay, sardorim... o‘char nafas, xush!

(u behol yerga yotadi)

Jaloliddin

Yozgin, hali bitganmas yettinchi urush!

Nasaviy

(ko ‘krak yarasidagi qon bilan yozadi)

Siyna qonidan yozay so‘ng fojiani!

(yiqilib o ‘ladi. Daftar q ‘o ‘lidan tushadi)

Jaloliddin

(uning sovuq qo‘lini o‘pib)

Shunday umring tugadi, buyuk tarixchi,
Ulug‘ jangga vasiqa shu qo‘lning ishi.

Sultonbegim

Ko‘msak Vatan yerida biz uni darrov,
Qaytib kelishimizga bu turfa garov!

*O‘likni olib chiqadilar. Elbors pahlavon ust-boshlari
gon, qo‘lidagi qilichi ham qondan qip-qizil bo‘lgani holda
kelib, holsizlanib o‘tiradi va qilichini tashlab*

Elbors

Qirmoq bilan tugamas bu ya’juj – dushman,
Tirik qolib ne qilay, jangda o‘lgayman.

Jaloliddin

(Nasaviy tashlagan daftarni olib)

Yo‘q, sen yasha, bu yerda qol mardonavor!
Biz aylaymiz yig‘labon g‘urbat ixtiyor!

(quchoqlashib xayrlashadi)

Elbors

Qaytib kelgin, el butun bo‘limgay murda,
Kuyimga qiyom qilur o‘liklar go‘rda!

(ketadi)

Mulozim

(kirib)

Hech qayoqda ko‘rinmas qayiqlar, sardor!

Jaloliddin

Darhol, darhol egarlang chopog‘on tulpor!

M u l o z i m

Egarlardan uzilgan jangda ayillar,
Daryoning suvi toshqin, quturmish sellar!

S u l t o n b e g i m

(birdan xanjarini chiqarib, o 'z kokillarini kesadi)

Arqonga ham yaraydi shu qalin kokil,
O'n besh otga chiqadi bemalol ayil!

(kokilini beradi)

J a l o l i d d i n

Fido etding husningni, bahodir singlim!

S u l t o n b e g i m

(qalpog 'ini kiyib)

Kokil yana o'sg'usi, bo'lmasin o'lim!

(Jaloliddin bir qo 'lida kitobni ko 'tarib, boshqa qo 'li bilan Sultonbegimni qo 'ltiqlagan holda)

G'urbatlarga yo'l olmoq uchun musibat,
G'urbatda ham armondir Vatanga xizmat!
Hali ado bo'lmahti ulug' hangoma,
Nasaviy bitirmasdan qoldi jangnomha.
Bir bo'lsaydi sultanat, el-urug'lar bir,
Dahshat sochib bo'lardik jangda olamgir.
Mangulikdan joy olgan – yashar abadiy,
Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.
Ko'klardanmi, suvdanmi, yo yer tagidan,
Balki sahro bag'ridan, tog' etagidan,
Bir kun paydo bo'laman shu yurt, shu yerda,
Yurt shaydosi ko'milmas g'urbatda – go'rda.
Ulug'ver niyatlarg'a kor qilmas ajal,
Kim yurtdan yovni quvs'a – mendurman o'shal.

(mahram kiradi)

Mahram

Otlar tayyor, fursat oz, tez bo‘ling, sardor!

Uzoqdan Elborsning nayi eshitiladi. Jaloliddin singlising qo‘lini ushlab.

Jaloliddin

Eshit, xalq ham u kuyday, mangu poydor!

Bilasanmi, biz qaytar kunda u maqom

Yo‘limizni belgilar! U kunga salom!

Nayning uzoqdan chalinayotgan sadosi va mo‘g‘ullarning kuchayib turgan nidosi asnosida ikkalasi jarga tushib ketadi.

Parda

«JALOLIDDIN MANGUBERDI» FOJASI HAQIDA

Qadrli o‘quvchilar! Siz mazkur asardan olingen, mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan xalq qahramoni, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi hayotining eng fojiali va hasratli manzaralari aks etgan adabiy parchalar bilan yaqindan tanishdingiz. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasi o‘zbek dramaturgiyasining yetuk namunasi hisoblanadi.

Asardagi Jaloliddin Manguberdi shaxsi, uning taqdiri hozirgi kungacha kishilarni hayratga solib kelyapti. Buyuk sarkarda, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdining to‘liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad bo‘lib, Xorazmshohlarning so‘nggi hukmdori hisoblanadi. Jaloliddin otasining harbiy yurishlarida qatnashadi va o‘zining jasur jangchi, iste’dodli sarkardalik qobiliyatini namoyish etadi. Mo‘g‘ul istilochilarining haybatidan cho‘chigan otasi Muhammadshoh dushmanga qarshi kurashish o‘rniga, go‘yo mamlakat xalqi hayoti-

ni saqlab qolish bahonasida Samarqandni tashlab orqaga chekinadi. Kaspiy dengizi bo‘yidagi Obeskun shahriga yo‘l oladi, u yerdan panoh topadi. O‘g‘li Jaloliddinning da‘vat-u undovlari ham foyda bermaydi. Yosh sarkarda kuchli mo‘g‘ul qo‘s Shiniga qarshi bir o‘zi kurashga otlanadi. O‘ziga yaqin xon-u beklar va lashkarboshilarning boshini qovushtirib jangga kiradi. Jaloliddin o‘z qo‘sShini bilan eng kuchli mo‘g‘ul lashkarlarini yengib, dushmanga qiron keltiradi, umrining oxirigacha Vatanimiz hududini yovdan tozalashga harakat qiladi. Sohir sarkarda, haqiqatgo‘y, vatanparvar Jaloliddin o‘z davrida, keyingi davrlarda tarixchi olimlar, shoir va adiblar tomonidan sharaflandi. Buyuk davlat arbobi, Vatan fidoyisi haqida ko‘plab tarixiy kitoblar, she‘r-u dostonlar bitildi. Buyuk tarixchi Shahobiddin Muhammad al-Nasaviyning «Tarixi Jaloliya», Mirxondning «Ravzat us-safo» asarlarida Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatini mufassal yozib qoldirganlar. Buyuk sarkarda haqida ko‘plab tarixiy, badiiy asarlar yaratildi. Mamlakatimizda Jaloliddin Manguberdi xotirasasi abadiylashtirildi. O‘lkamizda qahramon tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. Uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydonlar, maktab va muassasalarga uning nomi qo‘yildi. 2000- yilda oliy darajadagi harbiy mukofot «Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta’sis etildi, ushbu orden bilan davlatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘sghan harbiylar taqdirlanadigan bo‘ldi.

Taniqli yozuvchi Maqsud Shayxzoda «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasini 1944- yilda, ikkinchi jahon urushining qizg‘in bir davrida yaratdi. Asar o‘tmishda chet el bosqinchilariga qarshi xalqimiz olib borgan mardonavor kurashning yorqin sahifalarini sahna asari shaklida yoritish va uni xalqimizning fashizm bilan olib borgan kurashi o‘rtasidagi mushtaraklikni ko‘rsatish borasida muhim targ‘ibiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etdi.

Ushbu tragediya 1945- yilning yanvarida Hamza nomidagi O‘zbek davlat akademik drama teatri (Hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatri)da sahnalashtirildi va tez orada tomoshabinlar, jamoatchilik e’tiborini qozondi. Akademik yozuvchilarimiz Oybek va G‘afur G‘ulom: «Ko‘pdan bu- yon uzun umrli, badiiy salmoq dor sahna asarlarini orzu qilar edik. «Jaloliddin» bu orzumizga javob berishga qodir», – deya e’tirof etganlar.

Tragediya mazmuni bilan tanishar ekanmiz, unda M.Shayxzodaning shoirlig, zukko olimlik mahorati to‘liq namoyon bo‘lganini ko‘ramiz. Asar she’riy shaklda yozilgan. Bu usul esa spektakldagi voqealarni aniq-oydin, personajlar xarakterini ta’sirchan, jozibador tasvirlash imkonini bergen. Tragediya matni bir nafasda o‘qiladi va u kishiga chuqur ta’sir qiladi, epizodlar va eng murakkab sahnalar ham o‘quvchi ongiga borib yetadi. Asarning bosh qahramoni Jaloliddin Manguberdi obrazi, uning insoniy qiyofasi – halol-pokligi, dushmanga shafqatsizligi, mardona xarakteri o‘quvchida ham, tomoshabinda ham zo‘r taassurot qoldiradi.

Asar o‘zining falsafiy ruhi va badiiy tasvirdagi til jozibadorligi bilan kishi e’tiborini tortadi. Tragediyada asar qahramoni tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, muallifning tarixiy shaxs va uning badiiy obrazi tasviri hayotiy ko‘rinish olgan. Jaloliddin Manguberdi xatti-harakati, uning gapso‘zлari, muomala tarzi tarixiy muhit bilan uyg‘un ravishda namoyon bo‘ladi. Jaloliddinning otasi Muhammadshoh, amir Badriddin, Yaroqbek kabi Vatanga xiyonat yo‘liga o‘tgan kimsalarga nafratli murojaati, onasi va singlisi Sultanbegimlarga nisbatan mehribonona muomalasi aks etgan sahna epizodlari nihoyatda ta’sirchan, hayotiy chiqqan.

Tragediyada Jaloliddin Manguberdi qiyofasi ko‘proq asardagi boshqa obrazlar orqali ochilgan. Jumladan, zolim

Chingizzon, o‘z yurtiga xiyonatkor Shoh Muhammad, ol-choq amir Badriddin bilan bo‘lgan muloqotda uning mard, yurtiga vafodor, bosqinchi va xiyonatkor kishilarga nafrati haddan ziyoda inson sifatida namoyon bo‘ladi, ayni paytda Temur Malik, Muhammad Nasaviy, Elbors cho‘ponlar bilan so‘zlashlari xalqparvar, elga g‘amxo‘r yurt rahbari, validasi va singlisi Sultonbegim bilan qilgan muloqotida mehribon farzand va tug‘ishgan inisi uchun qayg‘uradigan kishi qiyofasida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

Tragediyada M.Shayxzodaning sahma asarini yaratish bobidagi mahorati tufayli Manguberdi yashagan ziddiyatli davr, kishilar hayoti aniq, jonli, jozibador, eng muhimmi, ishonarli tasvirlangan. Mazkur asardagi har bir so‘zga, manzaraga, sahma jihozlariga ishonasiz, uni yurakdan his etasiz, go‘yo o‘zingizni shu suronli voqealar ichida yurgandek sezasiz. Xullas, asarda buyuk sarkarda, elimizning qahramon o‘g‘loni – Jaloliddin Manguberdi obrazi o‘zining butun salobati bilan gavdalantirilgan. Uning yana bir nurli qiyofasini taniqli haykaltarosh I.Jabborov tiklagan yodgorlikda va iste’dodli rassom T.Quryozov chizgan «Jaloliddin Manguberdi» portretida ko‘ramiz.

Tragediyaning she’riy yo‘sinda buyuk shoir tomonidan yaratilishi, uning jozibadorligi, o‘qilishliligin ta’minlagan. Undagi sahma qahramonlari Jaloliddin, Temur Malik tilidan jaranglagan monologlar yurtimiz, xalqimizni sharaflagan madhiyalar kabi yangraydi. Aziz o‘quvchilar, Siz bunga asar matnini o‘rganish jarayonida o‘zingiz ishonch hosil qilasiz. Shunday ekan, «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasini Vatanimiz tarixining eng suronli davridan hikoya qiluvchi mukammal sahma asari sifatida har qancha o‘qib o‘rgansak arziydi.

Savol va topshiriqlar

1. Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz? U necha marta siyosiy qatag‘ondan jabr ko‘rgan?

2. Maqsud Shayxzoda o‘z asarlarini qachondan boshlab e’lon qila boshladi?
3. Shoirning 30- yillarda qaysi asarlari chop etildi?
4. Maqsud Shayxzodaning urush yillarida yaratgan tarixiy tragediyasi qanday nomlanadi va u nima haqida edi?
5. Adib yaratgan dostonlarni sanang.
6. Maqsud Shayxzodaning ilmiy va pedagogik faoliyati haqidagi gapirib bering.
7. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasidagi voqealar qaysi tarixiy davrni o‘z ichiga oladi?
8. Jaloliddin kim? Uning shaxsi, qaysi sulolaga mansubligi haqida qisqacha so‘zlab bering.
9. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasida Jaloliddinning vatanparvarligi, sarkardalik iste’dodi nimalarda ko‘rinadi?
10. Dramadagi tarixiy shaxslar (Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshoh, Temur Malik va h.k.) va badiiy to‘qima obrazlarni (Elbors pahlavon, devona chol kabi) ajrating.
11. Jaloliddin va otasi Muhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi kelishmovchilikning sababi nimada edi?
12. O‘z davrida Sharq davlatlari orasida eng qudratli, besh yuz mingdan ortiq qo‘smini bo‘lgan shoh qanday jinoyatga qo‘l urgan?
13. Mo‘g‘ullarga qarshi kurashda Jaloliddinni qo‘llab-quvvatlagan vatanparvar shaxslarning nomlarini aytинг.
14. Tarixchi Muhammad Nasaviy Jaloliddin Manguberdi haqida qanday asar yaratgan? Manguberdi haqidagi yana qanday tarixiy asarlarni bilasiz?
15. Tragediya matnidagi arxaik so‘zlar va iboralar (No‘yon, soqiy, zulfiqor, mustarix, ahkom, «Hubbil – vatan, minal imon», majusiy, valiahd kabi)ni lug‘at yordamida ma’nosini topib, aadbiyot daftaringizga ko‘chirib oling.

TRAGEDIYA (FOJIA)

Tragediya adabiyotning dramatik tur janrlaridan biri bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi yunoncha tragos – echki, ode – qo'shiq; tragediya – «echki qo'shig'i» ma'nosini anglatadi. Echki qayoqda-yu, fojiali sahna asari qayoqda, deb o'ylishingiz mumkin. Aslida, yuqoridagi so'zlarining zamirida haqiqatga yaqin ma'no bor: qadim yunonlarda hosil xudosi Dionis sharafiga xalq bayramlari o'tkazilgan. Bu bayramlarda echkilar so'yilib dasturxonga tortilgan. Qiziqchilar esa echki terilarini yopinib, turli sahna tomoshalarini ko'rsatishgan. Bunday jaydari qiziqchilarini tragoslar deyishgan. Keyinchalik bu so'z oqibati fojia bilan tugaydigan sahna asarlariga nisbatan qo'llanila boshlagan.

Tragik asar, ya'ni tragediyaning boshqa sahna asarlari (komediya, drama, intermediya)dan farqi shundaki, u qahramonlar o'rtasidagi kuchli ziddiyatlar asosiga quriladi, qahramonlar taqdiri fojia bilan yakun topadi, ular o'rtasidagi ziddiyat shiddatli va keskin tus oladi. Bu asar qahramonlar xarakterining yorqinligi, ichki kolliziya (qarama-qarshilik, to'qnashuv) kuchliligi, personajlar o'rtasidagi konfliktning o'ta kuchli ekanligi bilan farqlanadi. Tragediya murosasiz kurash, g'oyatda keskin ziddiyat zaminiga quriladi. Bunday asar asnosida kishilar qismati shiddatli, suronli siyosiy voqealar, turli ijtimoiy, shaxsiy qarashlar kurashi fonida ko'rsatiladi.

Siz o'qib-o'rgangan «Jaloliddin Manguberdi» fojiasidagi voqealarni esga olsak, bunga ishonch hosil qilamiz. Asar buyuk sarkarda o'limi bilan tugasa-da, undagi optimistik ruh kishiga dalda beradi. Fojia so'ngida o'zini jarga tashlayotgan Jaloliddinning kelajakka ishonch, yaxshi kunlar umidi bilan yo'g'rilgan xitobi fikrimizning dalilidir.

Manguberdi joy olgan – yashar abadiy,
Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.
Ko‘klardanmi, suvdanmi, yo yer tagidan,
Balki sahro bag‘ridan, tog‘ etagidan,
Bir kun paydo bo‘laman shu yurt, shu yerda,
Yurt shaydosi ko‘milmas g‘urbatda – go‘rda.
Ulug‘vor niyatlargal kor qilmas ajal,
Kim yurtdan yovni quvs – mendurman o‘shal.

Yevropada tragediya uyg‘onish va undan keyingi davrlarda ham keng rivojlandi. Ispan dramaturglari Lope de Vega, Kalderon, ingliz yozuvchisi V. Shekspir, nemis dramaturglari Gyote, Shiller, rus shoiri A.S. Pushkin kabilalar bu sohada samarali qalam tebratdilar. Ular yaratgan «Otello», «Gamlet», «Romeo va Julyetta», «Boris Godunov» kabi tragediyalar bugungi kunda jahon teatrлari sahnalarida qayta-qayta o‘ynalmoqda.

O‘zbek adabiyotida tragediyaning go‘zal namunalari sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» (1911), Abdurauf Fitratning «Abulfayzxon» (1926), Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» (1944), «Mirzo Ulug‘bek» (1961) kabi asarlar yaratildi. Ushbu asarlar o‘zbek sahna madaniyatining haqiqiy durdonalariga aylandi.

Savol va topshiriqlar

1. Tragediya so‘zining lug‘aviy ma’nosi va bu terminning kelib chiqish tarixini aytib bering.
2. Tragediya dramaturgiyaning boshqa janrlaridan nimasi bilan farqlanadi?
3. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasi so‘ngidagi Manguberdi so‘zi bu janrga xos qaysi xususiyatni anglatadi?
4. Tragediya janrida qalam tebratgan qaysi o‘zbek yozuvchilari bilasiz?

USMON NOSIR

(1912–1944)

«1912- yilning 13-noyabrida Namangan shahrining «Chuqur ko‘cha» dahasida qorachadan kelgan bir bola tug‘ildi. U tug‘ilganida hech kim sevinmadi ham, hech kim xafa ham bo‘lgani yo‘q.

To‘sakda yotgan bemor ota esa bola go‘dakligidayoq bu olamdan ko‘z yumdi...

Ammo otalik mehrini to‘rt yashar Usmon Masodiq o‘g‘li Nosirhoji xonadonidan topdi. Ikkinchi ota oilasini Qo‘qon shahriga ko‘chirib olib keldi. Bola shu dargohda ulg‘ayib, ko‘p bolalar kabi internatda o‘qib tarbiyalandi. O‘rta maktabda va Samarqanddag‘i O‘zbekiston dorilfununida o‘qib yurgan yillaridanoq u shoir Usmon Nosir bo‘lib tanildi.

Usmon Nosir!.. Bu nom yigirmanchi yillarning oxirlari-dayoq o‘quvchiga tanila boshladi. O‘ttizinchi yillarda esa, u asarlarini kitobxonlar intiqlik bilan kutadigan shoirga aylandi. Endi uni «tabiatan shoir», «tug‘ma shoir» deb ta’rifladilar. Ana o‘shanda Usmon Nosir 20 yoshlarda edi. «Bo‘ladigan bola boshidan ma’lum» deganlaridek, Usmon Nosir ham mashhur siymolarimiz kabi juda yoshligidan ko‘p ijobiy xislatlarga ega bo‘lgan edi.

U nihoyatda ziyorak, idrokli, keng mushohadali, o‘ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi. Shuning uchun ham Usmon Nosir ijodda yoshligidanoq iste’dodli, «tug‘ma shoir» sifatida tanildi. Bu tanilish yosh shoirona tabiatidan tashqari, uning ijodga jondili bilan berilishi, ijod sirini bilishga urinishi, bu yo‘lda o‘rganishi va izlanishi samarasini edi. «Geyne bilan o‘rtoq



tutindim, Lermontovdan ko‘mak o‘tindim» degan yosh shoir rus va jahon poeziyasining maftunkor fazilatlarini ijodiy talqin qilish bilan birga, Sharq adabiyoti va og‘zaki ijodining boyliklarini ham egallashga intildi...

Usmon Nosir 18 yoshidan to 24 yoshigacha bo‘lgan davrda ijod qildi. Shu qisqa 6–7 yil ichida u beshta she’rlar to‘plami («Quyosh bilan suhbat», «Safarbar satrللار», «Traktorobod», «Yurak», «Mehrim») va ikki doston («Norbo‘ta», «Naxshon») hamda to‘rt drama («Atlas», «Zafar», «So‘nggi kun», «Dushman» asarlarini) yaratdi.

Badiiy tarjima sohasida ham shoir o‘ziga xos tarjimonlik madaniyatini va poetik didini namoyish qilgan edi. N.A.Dobrolyubovning «Haqiqiy kun qachon keladi?» degan mashhur asarini, V.I.Kirshonning «Ulug‘ kun» dramasini, A.S.Pushkinning «Bog‘chasaroy fontani», M.Yu.Lermontovning «Iblis» nomli dostonlarini, Hayne, Gyote, Bayron ijodidan ko‘pgina namunalarni o‘zbek kitobxonlari Usmon Nosir tarjimasida o‘qidi. Bu poetik tarjimalar, o‘zbek adabiyotining tarjima asarlar sahifasida shoh namunalar bo‘lib qoldi.

Usmon Nosir lirik shoir edi. Bu yangroq lirika o‘zbek she’riyatidagi lirik oqimga hamohang bo‘ldi, bu oqimga yangi sharshara bo‘lib qo‘sildi va bu unga yana-da joziba baxsh etdi.

Shoir ijodidagi bu xususiyatlar she’riyatda lirikaning yangi turini, badiiy soddalikning eng yaxshi namunasini namoyish qildi. Usmon she’rlarida jimjimadorlik, g‘alizlik, zo‘rma-zo‘rakilik ko‘rinmas, fikr-tuyg‘u sodda, lekin lirik harorat bilan, jozibadorlik bilan, original tashbihlar bilan bayon qilinar edi:

She’rim! Yana o‘zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda.

(«Yana she’rimga»)

Bu she'riy parchada yana bir narsa, ya'ni shoir ijodining yetakchi mazmuni – she'riyat va hayot oshiqligi namoyon bo'ladi.

...Shoir ijodiy faoliyatida biz ikki pog'ona borligini ko'ramiz. Uning 1927- yildan 1932- yilgacha bo'lgan ijodida publitsistika, voqealarga publitsistik munosabat, publitsistik pafos va ritorika ko'proq ko'zga tashlandi. Shuning uchun uning she'rlari shior va chaqiriq bo'lib yangradi. Bu xususiyat Usmon ijodining zamon talabiga hozirjavobligini ko'rsatadi...

Shoirning mana shu dastlabki davr ijodida tematik aktuallik va rang-baranglik ustun bo'lsa-da, bu yillar badiiy mahorat va ijodiy mustaqillik yo'lida izlanish davri edi...

Usmon Nosir o'z ijodini, o'z she'rini:

Sen yuragimning chashma suvisan,
Sen ko'zlarimning gavhar nurlari.
Sening bahongni kim so'rasa, de:
«Bahom – umring bahosiga teng», –

(«She'rim»)

deb baholagan yildan boshlab uning ijodining yangi davri, yangi oqimi, yangi to'lqini, yangi toshqini boshlandi. Bu toshqin shoir ijodining kamolot bosqichi edi. Bu bosqichda u yetakchi shoirlar kabi falsafiy fikrlashni, teran mushihadani, voqeani poetik tasavvur qilishni o'rganib, bu xususiyatni o'z she'rlariga badiiy sodda ifodalarda singdirdi. Uning lirikasida siyosat va ijtimoiy turmush hayotiylik, originallik, chuqr hissiyot, poetik tuyg'u, intim kechinmalar bilan sug'orildi, yurak sadosi bo'lib yangradi va mehr o'ti bo'lib olovlandi. Shuning uchun ham shoir shu yillardagi she'riy majmualariga «Yurak» va «Mehrim» deb nom qo'ydi...

Usmon Nosir yosh ijodkorlarga murabbiylit qildi. O'rta maktabda o'qib yurgan chog'larida Qo'qondagi havaskor

qalamkashlar, o‘z davrining yosh shoirlari Amin Umariy, Nasrulla Davron, Ibrohim Nazir va shu satrlarning muallifi – kamina kabi shoirlar uning ko‘magidan bahramand bo‘ldi... Keyinchalik Usmon Nosir barcha katta-kichik shoirlar yuragiga kirib bordi va ularga o‘rnak bo‘lib qoldi.

...Usmon Nosirning adabiyotda paydo bo‘lishi hammaning e’tiborini tortgan edi. Uning ijod maydoniga kirib kelishi mislsiz kuchi bilan hammani o‘ziga jalb qilgan notanish bir pahlavonning maydonga kirib kelishiga o‘xshar edi. Ha, u ijod maydoniga yosh va kichkina jussasi bilan keldi-yu, juda katta yuk ko‘tardi.

«Usmon she’riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo‘ronday! U shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she’riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda «O‘zbekning Lermontovi», Moskva gazetalarida «Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi», deb yozishdi», – deydi shoir Turob To‘la.

...Usmon Nosir 1944- yil 23- martda 32 yoshida Uzoq Sharqda vafot etdi. Lekin shoir o‘zi aytganidek, uni Vatan, xalqimiz, adabiyot unutmadi!

Bargdek uzilib ketsam
Unutmas meni bog‘im.
Ishimni hurmat qilur,
Gullardan haykal qurur.
She’rlarim yangrab qolur,
Ming yillardan keyin ham
Unutmas meni bog‘im, –

(«Bog‘im»)

degan edi Usmon».

O‘tkir Rashid,
filologiya fanlari nomzodi, 1984- yil

YURAK

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo‘r etding.
Ko‘zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.

Senga tor keldi bu ko‘krak,
Sevinching toshdi qirg‘oqdan.
Tilim charchar, ajab, gohi
Seni tarjima qilmoqdan.

Sen ey, sen – o‘ynoqi dilbar,
Zafardan izla yoringni.
To‘lib qayna, toshib o‘yna,
Tirikman, kuyla boringni.

Itoat et!
Agar sendan
Vatan rozi emas bo‘lsa,
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli, tamom o‘lsam!..

1933, Samarqand

Usmon Nosirning «Yurak» she’ri shoirning insoniy xarakterini va ijodiy taqdirini o‘zida mujassam etgan she’rlar sirasiga kiradi. Ijodkor tarjimayi holidan o‘rin olgan shoir Turob To‘laning unga bergen ta’rifi yodin-gizdami? «Yurak» she’ridan xuddi shu bo‘ronday shiddatni, to‘polonni, to‘lqinni his qilmaymizmi? Shoir Yurak obrazini o‘zining ilhomni, ijodiy intilishlari, his-tuyg‘ulari, orzu-o‘ylarining mujassam timsoli deb biladi. Ya’ni uning Yurakka murojaati, aslida, o‘z shaxsiga, ijodiga murojaatidek yangraydi. Qalbida ilhom bulog‘i jo‘sh urgan shoirgina:

Senga tor keldi bu ko'krak,
Sevinching toshdi qirg'oqdan.
Tilim charchar, ajab, gohi
Seni tarjima qilmoqdan, –

deyishi mumkin.

Qarang, Yurakning xuddi qaldirg'och jivir-jiviridek, bulbul chah-chahidek kuyini, zavq-u shijoatini shoirning tili bor-yo'g'i tarjima qilishga zo'rg'a ulguradi. Chunki ichingizda ozmi-ko'pmi she'r, hikoyalar yozishga ishtiyoqmand o'quvchilar bo'lsa guvohlik berishlari mumkin-ki, ilhom degan to'lqin hech bir ogohlantirishsiz, egasini qalam-qog'oz olishga-da ulgurtirmay, toshib keladi. Usmon Nosir bir she'rida aytganiday: «Ilhomning vaqtি yo'q, selday keladi...»

Shoir fikricha, Yurakka faqat bir o'rinda buyruq bermoq, uni itoatga ko'niktirmoq, balki majburlamoq ham qiynamoq mumkin: agar undan «Vatan rozi emas bo'lsa...»

Usmon Nosir ham ko'ziga oyni berkitib, u bilan ishqibozlik qilishiga-da yo'l qo'yib bergani Yurakdan, avvalo, Vatan rozi bo'lishini talab qiladi. Aks holda: «Yoril, chaqmoqqa aylan sen, Yoril! Mayli, tamom o'lsam!..» — deya yurtga nafi tegmaydigan ijoddan o'limni afzal biladi.

Savol va topshiriqlar

1. Usmon Nosir hayoti va ijodi haqida bilgan ma'lumotlaringizni adabiyotshunos olim O'tkir Rashid esdaliklari bilan boyitib, tengdoshlaringizga hikoya qilib bering.
2. Shoir necha yil ijod qilishga ulgurdi? Shu yillar ichida qanday asarlar yozdi?
3. «Yurak» she'ri bilan shoirning shaxsi, ijodiy uslubi o'rta-sida qanday bog'liqlik bor, deb hisoblaysiz?
4. Shoir Yurakka murojaat etib, «Sen ey, sen – o'ynoqi dilar, Zafardan izla yoringni», – deydi. Shu misralarga jo bo'lgan ma'noni, lirik qahramon istagini sharhlashga harakat qiling-chi.

NIL VA RIM

(Tarix kitobidan)

I

Lampam yonur... Yaralangan qanotday og‘ir
O‘y bosadi. Yuragimda go‘yo sel yog‘ir.
Qiynalaman. Tirishaman. Hushim parishon
O‘tmish, hozir va kelajak ko‘rinur har on.
Tirishaman, butun kuchim ko‘zimga kelar,
Chirog‘imga parvonadek urinar yillar –
To‘rt atrofim to‘lib ketar kuygan qanotga...
Xayolimda: katta sahro, men minib otga –
Shamoldan tez, bulutlardan yengil chopaman;
Kuyib tushgan har qanotdan bir jon topaman.
Termilaman o‘lik ko‘zga (nega qo‘rqayin?).
Barchasidan o‘yib olib ko‘zining oyin –
Termilaman: qichqiradi yillar, odamlar,
Eshitilar menga ular bosgan qadamlar...

II

Sariq qumlar orasidan qon rangli quyosh —
Ko‘tarilar. Nil oqadir – qullar to‘kkkan yosh.
Faryodlarga chidolmaydi yer bilan osmon,
Ro qayerda? Azirisa? Qiynaydi Tifon¹!
Kimga yig‘lab, kimdan madad kutsin bemor qul?
Erki qulfdir, hayoti qulf, bor Xudolar qulf!
Kosasida suv yo‘q, quruq xaltasi: non yo‘q!
Botayotgan quyosh kabi rangida qon yo‘q.
Ko‘zida ko‘z yo‘q, belida bel yo‘q, hayhot!
Fir‘avn² uni chumoliday ezadi: voy dod!..
Fir‘avnning hukmi qattiq, fir‘avn – xo‘jayin,
Xudolarga u manzurdir, hayoti tayin.
Neki qilsa, o‘zi bilur, o‘zi hukmron,
Misr bo‘ylab Nil oqadur – «qullar to‘kkkan qon!»

¹ Ro, Azirisa, Tifon – qadimgi misrliklar tushunchasidagi xudolar nomi.

² Fir‘avn – qadimgi Misr davlatini boshqargan hukmdor.

III

To Minisdan Ramzesgacha, Ramzesdan nari
«Malika qiz» – Kleopatra¹ hukmron davri.
Undan tortib... yana uzoq, yana ko‘p yillar
Xarsang bilan yotqizilgan necha ming yo‘llar.
Ko‘zyoshidan, dil toshidan qurilgan haykal
Mag‘rur turar, mag‘rur boqar; hech biron mahal
Na odamdan, na zamondan qo‘rmas asti u.
G‘azabini yutib o‘lgan qullar dasti bu!
Qullar... (Menman u qullarning o‘lmas avlodni,
Mana menman, u qullarning hech so‘nmas yodi,
Mana menman, falaklarga lov-lov o‘t qo‘yib,
Otalarimning boshidan poydevor uyib,
Ozodligim obidasin qurgan insonman!
O‘sha jonman, o‘sha qonman va o‘sha shonman!)

IV

Otim uchar (xayolimda) oldinga doim,
Avval bahor osmonidek yig‘lar gado Rim...
O‘lim yaxshi, odam agar shunday xor bo‘lsa!
Bir parcha non nima o‘zi! Shunga zor bo‘lsa!
Nahot, chaqmoq yondirmaydi butun ochunni²?
Kul gardiday umr – tog‘day kulfat uchunmi?
Javob bergin menga, zakki qadimgi Homer³,
Ko‘zyoshi-yu qonga rostdan tashnami bu – yer?
Qo‘y, yaxshi chol! Ko‘nglim to‘ldi, gaplashamiz so‘ng,
Bu nimasi? Eshitasanmi, og‘ir, hazin mung?
Hamon yig‘lar yalang‘och Rim, hamon dil ezar,
Hamon tilla qadahda qon ichar Sezar⁴!

V

Rim ustida shamsiyadek tumanli osmon,
Katta sirkka sig‘ishmasdan qaynar olomon:

¹ Minis, Ramzes, Kleopatra – quzdorlik davri Misr hukmdorlari.

² Ochun – dunyo, olam.

³ Homer – qadimgi yunon shoiri, ko‘zi tug‘ma ojiz bo‘lgan.

⁴ Sezar – Rim imperiyasini boshqargan hukmdor.

«Odam bilan hayvon o‘yin ko‘rsatar emish...»
(Bunday qiliq bizning uchun qandayin erish!..)
Tishlarini irjaytirib bo‘kirgan yo‘lbars
To‘rt tarafga tashlanadi, talpinib lars-lars.
Och ko‘zлari qonga to‘lgan, sakrab o‘ynaydi...
O, bechora, qoch! U seni tirik qo‘ymaydi!
Ana! Ana, tirnog‘ini nishlab kelar u,
Changal soldi! Xalq o‘rnidan birdan turdi duv...
Chapak chaldi. «Ey, ahmoq Rim, sevinma qonga!
Bundan boshqa xo‘rlik bormi, axir, insonga?» –
Dedi, parcha-parcha bo‘lgan gladiator.
Rim – o‘yindan o‘lim kutgan jinni teatr!

VI

Issiq izlar... hamon u isyondan is bordek,
Bulutlarning orasinda yurar Spartak¹.
Osmon – qalqon, kamon yoyi – chaqmoq, yonar o‘t,
Zulm uchun yig‘i, fig‘on va erksizlik sud².
Javob bersin. Aflatunmi³, Vergiliymi⁴, yo –
Boshqa biri, qani kim? Kim mard? Kim guvoh?
Ki, tun qancha qora bo‘lsa, oy shuncha yorug‘!
Spartakning lashkarlari hali ham borur.

Mana menman, u isyonning o‘lmas avlodi,
Mana menman, u quyllarning hech so‘nmas yodi.
Mana menman, falaklarga lov-lov o‘t qo‘yib,
Otalarimning boshidan poydevor uyib,
Kelajagim obidasin qurgan insonman!
O‘sha jonman, o‘sha qonman va o‘sha shonman!!!

1935

(She‘r juz’iy qisqartirilishlar bilan berildi).

¹ Spartak – Rim quldarlik tuzumiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonning rahbari, o‘zi ham qul bo‘lgan.

² Sud – ma’no, mohiyat.

³ Aflatun (Platon) – qadimgi yunon faylasufi.

⁴ Vergiliy – qadimgi yunon lirik shoiri.

Avvalgi sinflarda «Jahon tarixi» darslaridan quldorlik davriga oid voqealarni o‘rgangan edingiz. Yodingizda bo‘lsa, hozirgi Italiya davlatining poytaxti Rim shahrida bo‘lgan ulkan imperiya jahonning ko‘plab mamlakatlarini bosib olib, ularning xalqini qul qilgan edi. Misrda bo‘lsa, fir‘avnlar o‘zlarini yerdagi Xudo hisoblab, o‘z xalqi va atrofdagi xalqlarga uy hayvonlaridek munosabatda bo‘lishni odat qilgandilar. Bu quldorlik davlatlarida inson umrining sariq chaqalik qadri bo‘lmay, o‘n minglab, yuz minglab kishilar umri imperiyalarning o‘zaro besamar urushlari oloviga tashlanardi. Bu urushlarda asir tushgan odamlar qul bozorlarida sotilar, ularning keyingi taqdiri bilan hech kimning ishi – tashvishi bo‘lmasdi. Qul egasi uni xohlagancha ishlatar, xo‘rlar, ko‘ngilochdi olishuvlarga solar, yoqmay qolsa, o‘ldirib yuborish ham uning ixtiyorida bo‘lar edi.

Harqalay, ko‘pchilicingiz G‘arb kinoijodkorlari tomonidan yaratilgan «Spartak», «Kleopatra» (bir necha variantlari bor), «Gladiator» singari filmlarni tomosha qilgansiz. Ko‘rgansizki, bir tomonda oltin va durlarga ko‘milib yotgan hukmronlar, ularning bu durlarga o‘ch bo‘lgan o‘nlab ayollari. Boshqa tomonda bo‘lsa, janglarda olgan jarohatlari qurtlab ketgan, ochlikdan va xorlikdan labi gezarib, «Non!» deya, «Non!» deya surinib kechayotgan (G‘afur G‘ulom), gardaniga temir zanjir quyilgan o‘n minglab qullar...

Tarix hikoyalarini qalbdan his qilib o‘qigan va o‘z zamonasida ham qullikning, inson xo‘rligining turli ko‘rinishlarini kuzatayotgan 23 yoshli shoir tasavvurida goh qullar ko‘zyoshidan to‘lgan Nil, goh «o‘yindan o‘lim kutgan jinni teatr» – Rim gavdalanaveradi:

Chirog‘imga parvonadek urinar yillar –
To‘rt atrofim to‘lib ketar kuygan qanotga...

Bu tarix kitobida zarvaraq bir yoqda tursin, oq varaq

ham yo‘q. Milt etgan yorug‘likka tashna bu yillar parvona-dek o‘zini chiroqqa uradi, baribir qismati yo‘qlik – kul...

Asarning II qismidagi tasvirlarga e’tibor beraylik. Uning bиринчи misrasida «Sariq qumlar orasidan qon rangli quyosh – ko‘tarilar», deyiladi. Boshqa bir misrada esa «Botayotgan quyosh kabi rangida qon yo‘q», – degan o‘xshatish ishlatiladi.

Agar tabiatga – yozda quyoshning chiqishi va botishiga razm solsak, aslida, buning aksiga guvoh bo‘lamiz. Quyosh ko‘tarilayotganda anchagina rangsiz, botayotganida esa qip-qizil rangga bo‘yaladi. («Monolog» she’rida shoir, darhaqiqat, «Ufqdan botar quyoshni Shart kesilgan boshga o‘xshatdim», – deydi!)

Endi savol tug‘iladi: nima, Usmon Nosir «Nil va Rim»da mantiqsizlikka, noaniqlikka yo‘l qo‘yanmi?

Mutlaqo! Hamma gap shundaki, shoir o‘zi la’natlayotgan davrda hayot, tiriklik mantig‘i, insoniy turmush tarzining oyog‘i osmondan keltirilganini mana shu «g‘alati o‘xshatish»lar orqali ham bo‘rttirib ifodalaydi.

Fir‘avnlarning qabri bo‘lmish Misr ehromlari, bu mam-lakatdagi ulkan tosh haykallari, mana necha asrlarki, «na odamdan, na zamondan qo‘rqadi». Ular shu qadar mustahkam, shu qadar chidamli. Holbuki, shoir nazarida, bularning bari «G‘azabini yutib o‘lgan qullar dasti»dir. Xo‘rlik, nochorlik, alamli hayot og‘riqlariga qarshi mah-kam tugilgan inson mushti ular!

Usmon Nosirning sevimli ustozи, safdoshi Cho‘lpon insonga murojaat etib: «Bo‘yin egma, kishan kiyma, ki, sen ham hur tug‘ulg‘onsen!» – degan edi. Darhaqiqat, inson bolasi yaralibdiki, qullikka, erksizlikka, mutelikka qarshi kurashib keladi. Tabiatan erk farzandi bo‘lgan shoir uchun o‘zidan minglab yillar ilgari o‘tgan insonlar qismati ham begona emas. U erksizlikning har bir qurbanini o‘z tug‘ishganiday ko‘radi, zolimlardan ularning xunini so‘raydi.

Asarda naqarotdek ikki bor qaytarilgan, «Mana menman, u isyonning o‘lmas avlodi...» – deya boshlanuvchi fidoyi hayqiriq, go‘yo Usmon Nosirning o‘zini kutayotgan og‘ir erksizlik, surgun zulmatlariga oldindan ko‘tarilgan isyondek yangraydi!

Savol va topshiriqlar

1. «Nil va Rim»dek yirik she’riy asarni yaratmoq uchun ijod-kordan iste’doddan tashqari yana nimalar talab qilingan?
2. Qullar mehnati, kuchi, hayoti evaziga Misr ehromlari, Rim obidalari bunyod etilgan. Bu ikki hodisa o‘rtasida ziddiyat yo‘qmi? Agar bo‘lsa, Siz uni qanday izohlagan bo‘lardingiz? Bu savollarga o‘qituvchingiz yordamida, sinfdoshlarining bilan birga javob topishga harakat qiling.
3. «O‘lim yaxshi, odam agar shunday xor bo‘lsa! Bir parcha non nima o ‘zi! Shunga zor bo‘lsa!» – misralarida ko‘proq qanday qadr to‘g‘risida gap ketyapti?
4. «Rim ustida shamsiyadek tumanli osmon» misrasida ko‘kdagi holat nimaga o‘xshatilyapti? Bu o‘xshatishning ramziy ma’nosи ham bormi?
5. O‘zbekiston xalq shoiri A.Oripovning «Olomonga» she’ri ni topib o‘qing. Bu she’rdagi olomon bilan «Nil va Rim»da yo‘lbars changalida parchalangan gladiatorning o‘limiga chapak chalayotgan «xalq» o‘rtasida bog‘liqlik bormi? Bu masalani ham o‘qituvchingiz yordamida muhokama qiling.
6. «Tun qancha qora bo‘lsa, oy shuncha yorug‘!» misrasiga jo qilingan ramziy ma’noni izohlashga urining.

YANA SHE’RIMGA

She’rim! Yana o‘zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda.

Yuragimning dardi – naqshisan,
Qilolmayman seni hech kanda!

O‘t bo‘lurmi ishqi yo‘q tanda?
Dardimsanki, she’rim yaxshisan.

Sen orada ko‘prik bo‘lding-da,
Geyne bilan o‘rtoq tutindim,
Lermontovdan ko‘mak o‘tindim.

Butun umrim sening bo‘yningda,
Saharda qon tupursam, mayli.
Men – Majnunman, she’rim, sen – Layli!

1935

Usmon Nosir singari chin ijodkorlar uchun she’r yozish, san’at yaratish birovga aql o‘rgatish ham, tirikchilik o‘tkazish vositasi ham emas. Baliq uchun suv, qush uchun osmon qanchalar zarur va tabiiy bo‘lsa, shoir uchun she’r bitish – ko‘nglini ochish shunchalar zarur ruhiy ehtiyojdir. Ayniqsa, Usmon Nosir uchun – hali uylanib ham ulgurmagan, chin suhabbatdosh orttirmagan iste’dodli qalb egasi uchun she’ridan – yagona suyuklisidan boshqa dard-dosh topilmaydi. Shoirning esa kitoblardan o‘qib bilgani, achchiq hayotdan orttirgan dardlari ozmuncha bo‘lmagan. Birgina «Saharda qon tupursam, mayli...» misrasida yashirin dardning o‘ziyoq endigina 23 bahorni ko‘rgan shoirni qancha o‘ylatgan. Gap shundaki, Usmon Nosir bolalik va o‘smirlilikning og‘ir yillari o‘sha paytda ko‘p tarqalgan sil kasaliga mubtalo bo‘lgandi. Hayot va go‘zallikka tashna yosh insonni bu dard qanday holga solishi mumkinligini o‘zingiz tasavvur qilib ko‘ring.

Lekin yaxlit olib qaraganda, mazkur she’rni tushkun (pessimistik) asar deb bo‘lmaydi. Unda shoir hayotga kelib topgani she’r atalmish mo‘jizani hech narsaga almashmasligini yaqqol sezdiradi. Shoir uchun bog‘dagi gulning chiroyi ne? Axir she’rning – insoniy ko‘ngilning jonli va o‘tli izhori oldida gullar tarovati ne kuchga ega?

Shoir she'rga nisbatan hatto «hayot shaxsisan» degan ta'rifni beradi. Bu nima degani? Bu degani: she'r na-faqat o'zining nafis go'zalligi, balki o'tkir fikrlari, ulug'g'oyalari, omma ong-u shuuriga o'tkazadigan kuchli ta'siri bilan ham tirik, yashovchandir. Ayniqsa, Usmon Nosir yashagan davr she'riyati mazmun-mohiyatida gul va bul-bullar, oshiq va ma'shuqalar ta'rifi emas, ijtimoiy, mafkuraviy, hatto siyosiy masala-muammolar muhokamasi ustunlik qilar edi.

Shoir she'rga nisbatan «dardimsan» ham deydi. Bu so'z faqat she'rlarda aks topgan lirik qahramon dardlariga ishora bo'lmay, ijod mas'uliyatini chuqur his qilgan shoirning asarlari taqdiridan kuyinishini ham anglatadi.

Usmon Nosirning shoir bo'lib shakllanishiga ustozি Cho'lpordan tashqari rus va G'arb adabiyotining ilg'or namoyandalarining asarlari ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Garchi bu she'rida ulardan faqat ikki nafari – Geyne va Lermontov tilga olinsa-da, shoir o'qib o'rgangan ustozlar juda ko'p bo'lgan.

Bilamizki, Layli va Majnun ikki vujuddagi bir ruh, bir olamdir. Ularni bir-biridan ayri, alohida tasavvur etib bo'lmaydi. Usmon Nosir ham o'z she'rlari bilan ijod-korlardan ajralib turardi. Shu tufayli ham shoir ismi tilga olinganda – she'r; she'r va she'riyat deyilganda, eng avval, Usmon Nosirning o'ktam siymosi ko'z oldimizda gavdalanaaveradi.

Savol va topshiriqlar

1. Shoir she'rga nisbatan «Yuragimning dardi – naqshisan» deydi. Shu misraga jo bo'lgan ma'noni izohlashga harakat qiling.
2. Geyne bilan «o'rtoq tutinish», Lermontovdan «ko'mak o'tinish»ni qanday tushunasiz?
3. She'rga nisbatan uning muallifi «Butun umrim sening bo'yningda» demoqda. Sizningcha, nimalar nazarda tutilyapti?
4. «Yana she'rimga» asariga o'xshash she'rlar boshqa shoirlarda ham bormi? O'ylab ko'ring.

SAID AHMAD

(1920–2007)

O‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Said Ahmad (to‘liq ism-sharifi Saidahmad Husanxo‘jayev) 1920- yilda Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida dunyoga keldi. U o‘rta maktabni tugatgach, avval Toshkent Rassomlik bilim yurtida, so‘ng Toshkent Pedagogika institutida o‘qidi va uni 1943- yilda tugatdi. Yoshligidan adabiyotga havasmand bo‘lgan adib adabiyot darslarida, mактабдаги то‘гаракларга фоол қатнашади. Адаб дастлаб «Mushtum» журналига адабиёв ходим бо‘либ исхга кирди. Табиатан hazil-mutoyibaga moyil Said Ahmad uchun bu jurnal muhiti yaxshigina ijodiy maktab bo‘ldi. Shuningdek, yozuvchining qator jurnal va ijtimoiy-siyosiy gazetalar tahririyatlaridagi faoliyati uning yetuk ijodkor bo‘lib yetishishiga, elga tanilishiga sabab bo‘ldi.



Said Ahmad juda sermahsul ijodkor. Adib ko‘p yozsada, xo‘b yozadi. Uning «Tortiq» nomli dastlabki hikoyalar to‘plami 1940- yilda chop etilgan. Shundan so‘ng adibning «Er yurak», «Farg‘ona hikoyalari», «Cho‘l burguti», «Muhabbat» kabi ellikka yaqin katta-kichik kitoblari alohida to‘plam va ko‘p jildliklar shaklida nashr etilgan. Bu asarlarning barchasi zo‘r qiziqish va hayajon bilan o‘qiladi. Sababi, adabiyotshunoslarimiz to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, Said Ahmad Oybekning psixologik tasvir mahoratini, G‘afur G‘ulom yumori, Abdulla Qahhorning ixcham va teran fikrlash fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan adib. Darhaqiqat, bu uch bobokalon qalam ustasining ijodiy taj-

ribasi sevimli yozuvchimiz uchun ulkan mahorat maktabi bo‘ldi.

Said Ahmad – o‘tkir kulgi ustasi. Bu xususiyat uning barcha janrlardagi asarlariga ko‘chgan deyish mumkin. Jumladan, adibning «Kelinlar qo‘zg‘oloni» (1976) komediyasi dovrug‘i olamga ketgan sahna asari hisoblanadi. Asar o‘zining samimiyligi tili, sharqona lutf va kulgiga boyligi, tarbiyaviy ruhi bilan ko‘plab xorijiy mamlakatlar tomoshabinlarining ham ko‘nglini rom etdi. Adib ssenariysi asosida yaratilgan qator kinofilmlar haqida ham shu gapni aytish mumkin.

Mustaqillik yillarda adib yana-da katta g‘ayrat bilan qalam tebratdi. U shu yillarda ko‘plab publitsistik maqolalar, badialar yozdi, shuningdek, quvnoq yumoristik, jo‘shqin lirik hikoyalar, ta’sirchan xotiralar yaratdi. Yozuvchining «Xandon pista», «Bir o‘pichning bahosi» kabi hajviy to‘plamlari, «Yo‘qotganlarim va topganlarim», «Qorako‘z majnun», «Kiprikdagi tong» kitoblari, 3 jild-dan iborat «Tanlangan asarlar»i xuddi shu istiqlol yillarda yaratildi.

Said Ahmad yirik nasriy asarlari bilan ham kitobxonlarga yaxshi tanish. Uning 1988- yilda yaratilgan «Jimjitlik» romani xalqimizning sho‘ro hukumati davridagi zohiran tinch, turg‘unlik, aniqrog‘i, «jimjitlik» yillarda kechirgan kunlaridan hikoya qiladi. Asarda «qizil imperiya»ning rang-barang nayranglari tufayli hayoti fojiali kechgan kishilar taqdiri bo‘yab-bejalmasdan, haqqoniy ko‘rsatilgan.

«Ufq» romani nafaqat Said Ahmad ijodida, balki adabiyotimizda ulkan voqeа bo‘lgan uch qismli asar bo‘lib, roman-trilogiya hisoblanadi. Asarda xalqimizning Ikkinci jahon urushigacha, urush davri, urushdan so‘nggi yillardagi qismati qalamga olingan. Romanning birinchi kitobi «Qirq besh kun», ikkinchi kitobi «Hijron kunlari-da», so‘nggi, uchinchi kitobi esa, «Ufq bo‘sag‘asida» deb ataladi. Trilogiyada o‘sha yillari xalq boshiga tushgan

mashaqqatli kunlar, musibatlar, ularni katta bardosh bilan yengib o‘tgan kishilar adib tomonidan zo‘r mehr va ilhom bilan tasvirlangan.

Said Ahmadning shaxsiy hayoti ancha murakkab bo‘lgan. U 1947- yilda «xalq dushmani» sifatida ayblanib, nohaq qamoqqa olingan, bir necha yil qatag‘on jabrini tortgan. 1953- yildan so‘nggina oqlangan. Biroq bu azoblar sevimli yozuvchimiz ruhini, qaddini buka olmadi. Adibning barakali va mazmunli ijodiy faoliyati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Adib «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» unvoniga, Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan, «Buyuk xizmatlari uchun», «Do‘slik» ordenlari bilan mukofotlangan. Said Ahmadga Vatanimizning yusak mukofoti – «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilgan.

QOCHOQ *(«Ufq» triligiyasidan parcha)*

...Baxtiyor odam hammani o‘ziga o‘xshatadi. Ikromjon hozir shunday kayfiyatda edi. Yor-birodarlari oldida yuzi yorug‘ bo‘ldi. Vatan uchun qilgan xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlandi.

U bu mukofotni o‘z qishlog‘ida, birga mehnat qilgan, birga ter to‘kkan jo‘ralari oldida ko‘kragiga taqdi. Hozir uning ko‘ziga boshqalar ham xuddi shunday baxtiyor, shunday shod tuyulardi. Hali majlisda qandaydir yaramas bir bola to‘g‘risida gap bo‘ldi. U yaramas bola armiyadan qochgan. Qishlog‘ini, ota-onasini xijolatga qo‘ygan. Negadir Ikromjon bunga uncha parvo qilmadi. Bu gaplarning unga mutlaqo aloqasi yo‘q. U taqdirlangan, zoye ketmagan mehnatlarining gashti bilan mast edi.

Klubdan chiqqan kishilar to‘da-to‘da bo‘lib simyog‘och tagida gaplashib turishibdi. Xotin-xalaj allaqachon tarqab ketgan. Tog‘a harbiy komissarlikdan kelgan leytenant bi-

lan pachag‘i chiqqan qora «Emka» mashinasi oldida nimanidir shivir-shivir gaplashib turibdi.

Ikromjon ularning gapiga xalal bermaslik uchun yonlaridan tez o‘tib ketdi. U hozir samovarga kirib bitta choy ichmoqchi. Klub ichi dim bo‘lib ketganidan terlab, chanqagan edi. Sholcha yozilmagan yaydoq so‘rida choy ichib o‘tirganlar oldidan o‘tib ichkariga kirayotgan edi, g‘alati bir gap eshitib to‘xtadi. Deraza tarafga qarab o‘tirgan yigit nimadir deyapti. Ikromjon tarafga qarab o‘tirgan keksaroq kishi unga yuz-ko‘zi bilan qandaydir ishora qildi. Yigit uning ishorasiga tushunmadi, gapini davom ettiraverdi:

— ...Dunyoning ishlari qiziq ekan-da, lekiniga Tog‘a malades, aytmadni. Aytganda Ikrom po‘st tashlavorardi. Bitta-yu bitta bolasi qochoq bo‘lib o‘tirsa-ya. Voy, mening bolam shunaqa qilsa, shartta kallasini uzib tashlardim...

Yigit gapini to‘xtatmaganidan diqqati oshib ketgan hamsuhbati jahl bilan:

— Ey, qo‘ysang-chi, qanaqa befahm odamsan, — deb o‘rnidan turib ketdi.

Shundagina yigit o‘girilib orqasiga qaradi-da, Ikromjonni ko‘rib qizarib ketdi, juda katta gunoh qilib qo‘yanini bilib boshini egib o‘tiraverdi.

Ikromjon garang bo‘lib qolgan edi. Yelkasida og‘ir yuk bordek, mashaqqat bilan uning oldiga keldi.

— Nima deding? Ayt, aytaver!

Yigit gap topolmay uning yuziga qarab angraygancha turaverdi.

— Senga aytyapman, — dedi Ikromjon baqirib. — Ayt, nima deding, ayt!

Ikromjon uning yoqasidan bo‘g‘ib oldi. Birpasda ularning atrofini odam o‘radi. Bu mojaro ustiga yetib kelgan Tog‘a yigitning tirsagidan tortib Ikromjonning qo‘lidan bo‘shatdi-da, uni koyidi.

Ikromjon javdirab Tog‘aga qaradi:

— Rostmi, Rayim... bu qanaqa gap?

Tog‘a unga juda ham bosiq javob qildi:

– Rost gap, do‘stim, rost gap.

Birpasda Ikromjonning qaddi bukildi-qoldi. Tog‘a atrofni o‘raganlarga jahl bilan qaradi. Uning bu qarashi-dan nima demoqchiligin anglagan kishilar sekin-sekin tar-qab ketishdi. Birgina Ummatali Ikromjonning yelkasidan omonat ushlab turardi.

Tog‘a Ummataliga qaradi.

– Siz borib kampirni suyuntiring, Ummatali.

Ummatali ikkilanib turdi-da, og‘ir-og‘ir qadam bosib nari ketdi.

– Bo‘ldi, oshnam, – dedi Tog‘a titroq tovushda. – Shunaqa bo‘lishini bilganimdan aytmagan edim-da. Qandoq qilasan, chidaysan, chidaysan-da, og‘ayni!.. – Tog‘a shundan boshqa gap topolmadi.

Ikromjon boshini sarak-sarak qildi, jahl bilan ko‘kragiga mushtladi. Mushti qattiq bir nimaga tegib og‘ridi. Engashib ko‘kragidagi ordenni ko‘rdi. U orden olganini unutib qo‘ygan edi. Jonholatda ordenini ko‘ksidan yulib oldi:

– Ol, olib qo‘y, Tog‘a. Taqishga haqqim yo‘q.

– Jinni bo‘lma!

– Ha, shunday. Bosh ko‘tarib qishloqda yurishga ham haqqim yo‘q. Odamlarning yuziga qanday qarayman? Nima degan odam bo‘ldim endi? I-ix! Qani endi, u yaramas shu topda oldimda bo‘lsa, tilka-tilka qilsam. Bo‘g‘ib o‘ldirsam.

– Yur, yur, Ikrom, bas endi, ketaylik.

Tog‘a uning tirsagidan ushlab yo‘l boshladi. Ikromjon bir silkinib undan tirsagini bo‘shatdi.

– Qo‘yaver, o‘zim ketaman.

– Birga ketaylik, unaqa qilma, oshna.

– Yo‘q, o‘zim ketaman.

Ikromjon dadil yurib qorong‘i ko‘chaga kirib ketdi. U eshigiga yetganda to‘xtadi. «Xotinimga nima deyman?» –

degan o‘y boshidan yalt etib o‘tdi-yu, u yoq-bu yog‘ini tuzatdi. Qaddini rostlab ostonadan hatladi.

Ayvonda Jannat xola bilan Nizomjon gaplashib o‘tirishardi. Jannat xola sandal ustida turgan suratni qo‘liga olib Nizomjonga ko‘rsatar, o‘g‘lining bolalikdagi sho‘xliklarini kulib, yig‘lab gapirar edi.

Ikromjon ayvon labiga o‘tirib yog‘och oyog‘ini yecha boshladi. U o‘tirganda qizil qutichani yoniga qo‘yan edi. Nizomjon buning nimaligini bilardi. Hamqishlog‘i Asrora orden olganda ko‘rgandi. Jannat xola erini charchagan bilib, sekin so‘radi:

— Maylisinglar uzoq cho‘zildi chog‘i. Charchabsiz. Mehmon bola ham, Xudoga shukur, tuzalib qoldi. Aytdimku, mening dorim darrov tuzatadi deb. Unga Tursunboygiganming suratini ko‘rsatayotgan edim.

Ikromjon undan ko‘zini yashirdi.

— Bolaginam, shundoq erka edi, shundoq erka edi, to mактабга боргунча ham dadasingin yelkasidan tushmadi. Opichib guzarga olib chiqardilar, opichib magazinga olib kirardilar.

Ikromjon g‘ayritabiiy intilish bilan bir oyoqlab o‘rnidan turib ketdi.

— Bas qil! Ovozingni o‘chir!

Jannat xola qo‘rqib ketdi. U o‘ttiz yil birga yashab eridan birinchi marta bu xil gap eshitishi edi.

— Bunaqa o‘g‘lim yo‘q! Befarzand odamman!

— Voy, nega unaqa deysiz? Tavba deng! Sizga nima bo‘ldi? Sizga nima bo‘ldi?

Jannat xola nima bo‘lganini bilolmay, devorga suyaniganicha dag‘-dag‘ titrab turardi.

Ikromjon bir oyoqlab uzoq turolmadi. Gandiraklab ayvon oldiga terib qo‘yilgan g‘ishtga yonboshi bilan yiqildi. Nizomjon sapchib turib uning oldiga keldi-da, azod ko‘tarib ko‘rpachaga yotqizdi. U behush edi.

Jannat xola nima gapligini bilmay devorga suyanib, rangi qum-qum oqarib turardi...

IX

Jannat xola endi cho‘ldan bir qadam ham boshqa yoqqa jila olmasdi. Uning yuragi shu cho‘lda. To‘qayga pinhoniy qatnab yurishiga, chodirdan ustara yo‘qolishiga sabab bor edi.

Tursunboy shu to‘qayda. Uning qamishlar orasida yashirinib yurishini Jannat xoladan boshqa hech kim bilmasdi.

Kecha Jannat xola o‘g‘lining oldiga borganda soqoli o‘sib ketganini, sochlari quloqlaridan osilib vahshiy qiyofasiga kirib qolganini ko‘rgan edi. Shuning uchun ham uerining ustarasini oborib bergandi.

Ikromjon qishloqqa ketdi. Endi tushlik paytida ham o‘g‘liga ovqat olib borsa bo‘ladi.

Hamma shudgorga chiqib ketgan. Chodirlar oldida hech kim yo‘q. Jannat xola shoshib un chalib quymoq soldi-da, boltani qo‘liga olib, to‘qayga qarab ketdi.

Tursunboy qamish kapa oldida tizzasini quchoqlab darvesh qiyofasida o‘tirardi. U turgan joyga odam qadami yetmagan edi.

U ko‘pdan beri birov bilan gaplashmagan, dunyoda nimiralar bo‘layotganidan bexabar edi. Sovun tegmagan betlari kir, ham ko‘rpa, ham to‘shak o‘rnini bosgan to‘nining yenglari titilib, etaklari balchiqqa belanganidan dog‘ bosib ketgandi. Uning bir vaqtlar qizlarni shaydo qilgan qopqora ko‘zları endi ma’yus, atrofga ma’nosiz boqardi.

Kecha sahar paytida osmoni falakdan turna o‘tdi. Tursunboy o‘shanda ham uyg‘oq edi. Turna ovozi unga juda ko‘p narsalarni eslatib ketgan edi.

Turna qanotida bu cho‘llarga bahor olib keldi-yu, ammo Tursunboyning qalbida uyilib, muz bitib yotgan orni eritolmadı. Unga bahor kelmadi.

U har kuni to‘qay kezib, qamishlar orasidan ishlayotgan hamqishloqlarini ko‘rib o‘tiradi. Ularning bari tanish odamlar. Faqat bittasi begona. Bu yigit kim bo‘ldi ekan?

Ikki kun bo‘ldi, Tursunboy Zebini shu yigit bilan ko‘rdi. Qum yoqasida u bilan ancha gaplashib o‘tirdi.

Tursunboy Zebining ovozini ham eshitdi. Eshitdi-yu, o‘zi ovoz chiqazolmadi. Agar yolg‘iz uchratolsa edi, albat-ta, ovqat keltirishni yalinib so‘rardi. Yo‘q, yolg‘iz uchratolmayapti. U kimdandir moxovlar yashaydigan orol ha-qida eshitgandi. Moxovlar oroliga hech kim kiritilmaydi, hech kim u yerdan chiqarilmaydi. Nahotki, Tursunboy ham o‘sha moxovlardek tanho yashasa?

Uning qamish chaylesi oldidan o‘rdaklar uchadi, yaqin-ginasidan to‘ng‘izlar o‘tadi. U bu joyda xuddi o‘shalardek yashirinib yashashga, odamlar ko‘ziga ko‘rinmay yashashga majbur.

U qachongacha shu xil yashashini bilmasdi. Bu to‘g‘rida o‘zidan so‘ramasdi ham. Mabodo shunaqa xayol boshiga kelsa o‘zidan-o‘zi qo‘rqib ketardi. U nimanidir ku-tardi. Nimani kutayotganini o‘zi bilmasdi.

U ko‘pincha ertani emas, taqdirini emas, onasining olib keladigan ovqatini kutardi. Shundan boshqa hayotdan ilinji qolmagandi.

Jannat xola chayla oldiga kelganda Tursunboy qimir-lamay o‘tirardi. U shoshib ona qo‘lidan tugunchani oldi-yu, hech qayoqqa qaramasdan, hech narsa demasdan o‘zini ovqatga urdi.

U bir umr ovqat ko‘rmagandek pishillab, shaloplatib quymoqni yeb bo‘ldi. Yog‘ bo‘lib ketgan qo‘llarini yaladi. Unga qarab turgan onaning yurak-bag‘ri ezilib, ko‘zlaridan mo‘lt-mo‘lt yosh dumalardi.

Tursunboy qo‘llarini to‘nining etagiga artib onasiga qaradi.

– Shattaligimni dadam biladimi? Unga aytma. Naq tutib beradi.

– Dadang bir oyoqdan ajrab kelgan.

– Bilaman, bilaman, – dedi Tursunboy yana labini yalab.

– Tog‘aning o‘g‘lidan qoraxat kelgan, xotiniga bildir-mayapti.

Tursunboy boshini egib qimirlamay o‘tirib qoldi. U raisning o‘g‘li bilan o‘rtoq edi. Ikkovi birga o‘qishgan, birga katta bo‘lishgan edi.

– Azizzon Qahramon bo‘ldi.

Tursunboy qo‘l siltab teskari qaradi. Birdan boshini egdi-yu, uzoq sukutda qoldi.

– Shunaqa, bolam. Seni ham shunaqa qahramon bo‘ladi, deb o‘ylagan edik.

Tursunboy indamadi. Boyagi o‘tirishida o‘tiraverdi. Keyin bosh ko‘tarib ma’yus dedi:

– Bir piyola achchiqqina ko‘k choy bo‘larmidi-ya!

– Qandoq qilib olib kelaman, bolam. Birov bilib qoladi. Sen sho‘ring qurg‘urga qumg‘on olib kelay desam, o‘t yoqolmaysan.

Tutunidan bilib qolishadi.

Tursunboy o‘rnidan turib kerishdi. U kerishganda to‘nining oldi ochilib yalang‘och ko‘kraklari ko‘rinib ketdi.

– Yaktaging ham kir bo‘lib ketibdi.

Birdan achimsiq ter hidi kelib ona dimog‘iga urildi. U burnini jiyirib yuzini teskari o‘girdi.

– Ko‘ylak olib kelmapsan-da.

– Qandoq olib kelaman. Dadang bilib qolsa nima bo‘ladi? Shu kunda o‘zimning ham ancha mazam yo‘q. Bezgak tutyapti. Dadangga bildirmayapman. Bilib qolsa, qishloqqa tushirib yuboradi. Men ketib qolsam, holing nima kechadi? Kechalari tanam zirqirab og‘risa ham tishimni tishimga qo‘yib chidayapman. Peshonam qursin, buncha sho‘r bo‘lmasa.

Bola onaning dardiga parvo qilmadi. Hamon labini yalab, boshqa o‘ylar bilan ovora edi.

– Shunaqa, bolam, kasalman. Ishqilib, toleyingga o‘lib qolmay-da.

- Anovi bola kim?
- Dadang boshlab kelgan. Yaxshi ishlayapti. Tizzalarimda darmon qolmadi.
- Ertaga ovqatni ko‘proq olib kel!
- Xo‘p, bolam, xo‘p. Ishqilib, kasalimni dadang bilib qolmasin-da, darrov qishloqqa jo‘natvoradi.
- Etik topib kelmasang, oyoqlarimni qamish tilib tashladi.
- Etikni qaydan olaman? Dadang bir poy etik kiyadi. Bir oyog‘i yo‘q uning. Bugun ustarasini qidirib meni juda qiynavordi. Umrimda qilmagan ishim. Qaychi opkelgan edim. Sochingni olib qo‘yaymi?

– Kerak emas. Etik topib kel!

Ona-bola uzoq gaplasholmadilar. Jannat xola, bolasini qabrga qo‘yib kelayotgandek, yuragida og‘ir dard bilan orqasiga qaytdi.

Tursunboy yana yolg‘iz qoldi. Yana qamishlarning sovuq shitirlashi, yana baqalarning kishi me’dasiga tegadigan bir xil qurullahshi.

Tepada ko‘m-ko‘k osmon, atrofda qovjiragan sap-sariq qamish...

Tursunboy onasi ketgan yo‘ldan asta yurib yalanglikka yaqin keldi. Atrofga asta razm solib, sekin qamishlar orasidan bosh chiqardi.

Notanish bola hamon ketmon uryapti. Yalang‘och badani terlab ketganidan yangi yuvilgan samovardek yaltiraydi. Marza chetida ikki qo‘lini beliga qo‘yib Zebi turibdi. Bola unga qaramaydi. Zebi xaxolab kuladi.

Uning kulgisi Tursunboyning qulog‘iga o‘qdek botdi.

Zebining boshidagi ro‘molini shamol uchiryapti, bo‘yinlariga o‘rab tashlayapti. Tursunboy uning shu bo‘yinlariga bilagini tashlagan. Kulgi toshib chiqayotgan lablaridan o‘pgan.

Qani endi, shu kunlar qaytib kelsa! Kelarmikin?

Shu topda ularning orasi ikki yuz metrcha ham kelmay-

di. Chaqirsa eshitadi. Yugursa yetadi. Ammo chaqirishning ham, yugurib yetishning ham iloji yo‘q. Ularning orasi millionlarcha kilometr, unga na yurib yetib bo‘ladi, na uchib. Balki, bir umr yetib bo‘lmas.

Zebi qumg‘ondan sopol piyolaga choy quyib yigitga olib bordi. Yigit bir dam ketmonini yerga tashlab qo‘lidan piyolani oldi. Zebiga qarab-qarab simira boshladи.

Tursunboy tamshandi. Sho‘r ko‘lmak ichaverib Tursunboy choy ta’mini unutayozgan edi. Shu topda unga Zebidan ko‘ra qo‘lidagi qumg‘on a’lo tuyulib ketdi.

To‘qayning aylana joyidan Jannat xola bir quchoq ildiz orqalab chiqdi. U betobligidan ildizlarni arang ko‘tarib kelardi. Orqasidagi yukdan munkayib, burni yerga tegay-tegay derdi. Notanish yigit shudgordan yugurib chiqib orqasidan yukni oldi. Kampir qotib ketgan belini silab, yerga o‘tirib qoldi. Tursunboy bu manzarani ko‘rib turardi. Shu topda uning ko‘ziga bu notanish bola nihoyatda bad-bashara, nihoyatda yovuz bo‘lib ko‘rindi.

Go‘yo onasining mehrini shu bola undan tortib olib qo‘yayotgandek, uni onasidan begona qilayotgandek tuyuldi.

Notanish bola ildiz boylamini yelkasida azod ko‘tarib chodir tarafga qarab pildirab ketdi. Shudgorda Jannat xola bilan Zebixon qoldi.

Tursunboy bir intilish bilan qamish orasidan chiqdi-yu, yuragi dov bermay orqasiga tissarildi.

Uning ko‘ksida Zebiga nisbatan qandaydir alamlı o‘ch yonardi. Zebixon Jannat xolani suyab marzaga olib chiqdi. Kapa oldidagi qamish g‘aramiga o‘tqazdi. Qumg‘ondan choy quyib tutdi. Kampir quruqshab qolgan lablarini piyolaga tutdi-yu, negadir ichmay to‘qay tomonga qaradi.

U qo‘lidagi choyni ham bolasiga ilinardi. Tursunboy tупгини yutdi. U o‘z onasini yaxshi biladi. Agar u shu topda uning yonida bo‘lganda, albatta, qo‘lidan olib shu choyni ichardi. Ona bir qultum suvgaga zor bo‘lib turgan bo‘lsa ham

baribir olib ichardi. Chunki onasi o‘zi yemay, unga yedirgan, o‘zi ichmay, unga ichirgan.

Yigit o‘tinni tashlab qaytib keldi. Jannat xolaga nimadir dedi. Kampir boshini sarak-sarak qilib o‘rnidan turdi. Munkayganicha chodir tarafga qarab ketdi.

Zebi bilan notanish bola orqasidan qarab qolishdi. Zebi qamish ustida yotgan fufaykani olib yigitning yelkasiga tashlab qo‘ydi.

Tursunboy titrab ketdi. Qo‘llari mushtga aylandi. Tishlari g‘ichirladi.

Tol shoxiga ilingan temirni kimdir tosh bilan urdi. Uning zalvarli ovozi cho‘l bo‘ylab yangrab ketdi.

Oshpaz odamlarni tushlikka chaqirayotgan edi.

Zebi bilan notanish yigit o‘sha yoqqa qarab keta boshlashdi. Yo‘lda Zebi yigitning bilagiga osilib oldi.

Bu manzarani Tursunboy g‘azab bilan kuzatib qoldi.

U ochlikni ham, tanholikni ham unutdi. Telbadek dovdirab balchiq kechib, bo‘ri uyasidek sovuq chaylasiga ketardi.

Tursunboy hamma narsadan kechganda ham birgina shu Zebidan kechmas edi. Shu tanholikda ham ko‘nglining bir chekkasida qachonlardir u bilan topishish ilinji yashardi. Endi u shu ilinjidan ham mahrum bo‘lganiga ishondi. Zebixon uning oxirgi ilinji edi. Uning jarangli kulgilari hamon qulqlari ostida yangrab turardi. Uning san‘at asaridek ko‘rkam qomati ko‘z oldida turardi. Birinchi bor o‘pgandagi labida umrbod qolgan allaqanday totli maza hamon uni tamshantirardi.

Endi-chi? Endi bu gaplar bir xayol, bir ro‘yo bo‘lib qoldi.

Tursunboyni hayotda ushlab turadigan hech narsa qolmadi.

Tursunboy hissiz ham yashay olardi. Yigitlik qasamidan kecha olgan, ona vujudini kemirayotgan dardni pisand qilmagan, sharmandalikda yashashga rozi bo‘la olgan yigitda yana qanday his bo‘lishi mumkin?

Shularning bariga ko‘ngan odam sevgisiz ham yashashi mumkin.

Tursunboy ana shunday bo‘lib qolgandi.

X

Jannat xola yarimjon bo‘lib yotib qolgan. U goh xud, goh bexud. Ikromjon bir oyoqlab shudgor kezadi.

Jannat xola shu ahvolda ham sudralib ishlayotganlar oldiga keladi. G‘imirsib ularga choy tashiydi. Eri qancha koyisa ham parvo qilmaydi. Ikki kungina yotadi-da, yana qumg‘on ko‘tarib shudgorga keladi, yo bo‘lmasa to‘qayga kirib o‘tinpob ildiz teradi.

– O‘tinning sira zarurligi yo‘q. Po‘k ildizdan o‘tin chiqmas, bu o‘tindan olov chiqmas. Nima qilasiz ildiz yig‘ib?

To‘lanboyning gapi unga kor qilmaydi. Baribir ildiz yig‘ib kelaveradi.

Jannat xola butunlay yotib qolishdan qo‘rqardi. Yotib qolsam, Tursunboyning holi nima kechadi, deb tashvishlanadi.

U bir haftadan beri o‘g‘lini ko‘rgani yo‘q. Tursunboy bilan bundan yetti kun oldin uchrashganda:

– Bolam, odamlardan ajralib chiqolmayapman. Ovqatingni zovur orqasiga qo‘yib ketaman, – deb tayinlagan edi.

Shundan beri ikki marta ovqat oborib qo‘ydi. Har bor-ganda bo‘shagan tovoqni olib kelardi.

Bugun hamma barobar shudgorga chiqqan. Har yer-har yerdan bo‘g‘ib pol olishyapti. Uch kun ichida pol tortib bo‘lishsa kanaldan ariq ochib kelishadi. Hammaning dala-da bo‘lishi Jannat xolaning ayni muddaosi edi. U kechadan beri o‘rnidan turolmay yotgan bo‘lishiga qaramay, vaqtini g‘animat topib, chodir orqasiga o‘tib qozon osdi. Go‘shtsiz bo‘lsa ham palov damladi-da, erining kelib qolishidan qo‘rqib dam yedirmay suzib oldi. Qumg‘onda qaynab turgan suvni grelkaga quyib bir kaft ko‘k choy soldi-da, munkillab orqa yo‘l bilan to‘qayga ketdi. Beliga boylab

olgan grelka paxtali nimchadan o‘tib biqinini kuydirardi. Ammo u munkayganicha alamda tishini tishiga qo‘yib chidab borardi.

– Peshonam qursin, ne kunlarga qoldim.

U to‘qay ichiga kirib, tashqaridan qaragan kishining nazari tushmaydigan bo‘lgandan keyingina grelkani belidan oldi. Terlagan ekan, bahor shabadasi tanini yayratib yubordi. Ko‘ylak yoqalarini yechib rohatlandi.

Jannat xola ko‘p o‘yladi. Bolasingin, erining, o‘zining taqdiri to‘g‘risida juda ko‘p o‘yladi, o‘yining oxiri shu bo‘ldi: «Bu xilda yashab bo‘lmaydi, endi bas! Tursunboyni insofga keltirish kerak. Egilgan boshni qilich kesmaydi. Urushga borsin. O‘zini oqlasin. Yagona yo‘l shu! Agar Tursunboy ko‘nmasa, uni o‘zim tutib beraman. Shunday qilaman!»

Onaning qarori qat’iy edi.

U Tursunboyning chaylasiga yaqin borganda birdan yuragi hovriqib ketdi. Bolasi doimo chayla oldida tizzasini quchoqlab o‘tirardi.

Nega ko‘rinmaydi? Kampir shoshib chayla ichiga bosh suqdi. Tursunboy qamish ustida ko‘zlarini yumib yotibdi. Ona qo‘rqib ketdi. O‘zini uning ustiga tashladi. Tursunboy ko‘zini ochdi, unga alamli qaradi.

– Senga nima bo‘ldi, bolaginam?

Tursunboyda allaqanday sher kuchi paydo bo‘ldi-yu, sapchib o‘rnidan turib ketdi. Keyin darmonsizlanib yana yonboshiga yiqildi.

– Nima bo‘ldi? Tobing yo‘qmi?

Tursunboy arang javob berdi:

– Bir haftadan beri tuz totganim yo‘q.

– Axir ikki marta ovqat keltirib qo‘ygandim-ku.

– Bo‘s sh tovoqdan boshqa narsa ko‘rganim yo‘q.

Jannat xola har gal tovoqni olgani borganda tovoq tuproqqa qorishib yotganini ko‘rardi. Biroq, u o‘g‘lining fe‘lini bilganidan, o‘zi shunaqa, u yerdagi cho‘pni bu

yerga olib qo‘ymasdi, deb qo‘ya qolardi. Bolaning aybi qachon onasiga bilinibdi, deysiz! Qancha xavf-xatarda pishirgan ovqati bolasiga buyurmeyotgan ekan, uni itlar talashib yeishayotgan ekan.

Jannat xola ro‘molga o‘ralgan tovoqni shoshib o‘g‘lining oldiga qo‘ydi. Tursunboy kir bo‘lib ketgan panjalarini baravar tovoqqa tiqib g‘ijimlab og‘ziga solardi. Ikki-uch oshamdayoq tovoq bo‘sadi. Ona grelkadan sopol piyolaga choy quyib bolasiga tutdi. Tursunboy ola turib qo‘li qaltirab piyolani tushirib yubordi. Ko‘zlari olayib ona tizzasiga boshini tashladi.

Badanidan achimsiq ter hidi kelib turgan bolani ona bag‘riga bosib, boshlaridan siladi.

Tursunboyning isitmasi baland edi.

– Bezgak tutyapti seni, bolam. Yur, yur, ketaylik. Seni olib ketgani keldim.

Tursunboy javob o‘rniga ingradi.

Shu topda Jannat xolaning ko‘ziga dunyo qop-qorong‘i bo‘lib ketdi. O‘z dardini unutdi. Boshidagi ro‘molini yechib ko‘lmakdan ho‘llab kelib, o‘g‘lining peshonasiga bosdi. Bolasi ko‘zini ochmay ingradi.

Jannat xola oriq barmoqlari bilan o‘g‘lining yuzlaridan silab, ko‘zlarini bir nuqtaga tikkanicha ovoz chiqazmay yig‘lardi.

Orzular shamolga uchdi. Homilalikdan to shu kungacha qilgan umidlari tamom bo‘ldi. Bolasining yo‘lga kirgan kundagi quvonch, tili chiqib, birinchi marta aya, degandagi olam saltanatiga teng shodliklar, dadasi opichlab guzarga olib chiqib ketayotganda eshik oldida orqasidan qarab qolgandagi hech narsaga teng ko‘rib bo‘lmaydigan baxt, birinchi bor maktabga kuzatganda oppoq ko‘ylak, g‘arch solib tikilgan etik kiyib chopqillab ketayotgandagi tongdek, hech qachon ko‘rmagan tong... Hammasi, hammasi ona ko‘z oldidan bir-bir o‘taverdi. Tursunboy alah-sirardi.

– Yangi to‘nim qani, etigim... Zebi, Zebi! Zebi! Eshikni kim taqillatyapti, ochma! Olma pishib qopti-ku. Kelyapti, kelyapti!

– Velosipedimga tegmasin! Etigimni tort! Oshingni yemayman! Zebi qani?!

Jannat xolaning yurak-bag‘ri ezilib ketdi. Nima qilsin? Nima qilsa, bolasining dardiga em bo‘ladi? Chorasiz! Uning dardini yengillatishga hech qanday imkon yo‘q. Bolasi quvg‘in. Hamma eshik berk. Ochiq havo ham unga berk. Shu torgina to‘qaydan boshqa makoni yo‘q uning. Bu joy ham uni umrbod saqlayolmaydi.

Ona ikki qo‘lini osmonga ko‘tarib faryod chekdi:

– E Xudo, menda shuncha qasding bormidi!

Uning havoga ko‘tarilgan qo‘llari shaloplab ikki tizzasi-ga tushdi. U shu ko‘yi qancha o‘tirganini bilmaydi. Atrofni qorong‘ilik bosgan, qamishlar shamolda sovuq guvullaydi. Yonida yotgan bolasi o‘qtin-o‘qtin ayanchli ingraydi. Shu payt olisdan kimningdir, «Jan-nnaaaat», – deb qichqirgani eshitildi. Ona hushiga kelib qulqoq tutdi. O‘scha ovoz yana bir necha bor takrorlandi.

Jannat xola o‘rnidan turdi. Qorong‘ida bolasining basharasi ko‘rinmasdi. Yana o‘tirib timirskilanib peshonasini topdi. Hamon issiq.

Ona ikki o‘t orasida qoldi. Ketsa, bolasidan ko‘ngli tinchimaydi. Kim biladi, holi nima kechadi? Ketmasa, hozir uni qidirib kelib qolishadi. Unda nima bo‘ladi?

U bolasining peshonasidan qo‘lini olmay turaverdi. Uni chaqirayotgan ovoz borgan sari yaqinlashaverdi. Ona shoshib chayladan chiqdi.

Qamishlar orasidan bir necha joyda mash’ala ko‘rindi. Har tarafdan «Jannat!», «Jannat!» degan tovushlar kelardi.

Uni adashgan yo bo‘lmasa biron falokatga yo‘liqqan gumon qilib hamma baravar oyoqqa turgan edi.

Jannat xola jonholatda shudgor olingan tarafga yugura boshladni. U qamish orasidan chiqishi bilanoq Nizomjon yo‘liqdi.

– Qayoqda yuribsiz, aya, tinchmisiz?
Jannat xola uning Nizomjonligini ovozidan tanidi.
Nima deyishini bilmay g‘o‘ldiradi.

Nizomjon ovozining boricha to‘qayga qarab qichqirdi:

– Kelaveringlar! Jannat ayam bu yoqdalar!

U bir necha marta atrofga shunday deb qichqirgandan keyin mash‘alalar shu tarafga qarab kela boshladi. Birinchi bo‘lib oqsoqlanib Ikromjon keldi. Birpasda uni mash‘ala ko‘targanlar o‘rab olishdi.

– Qayoqda yuribsiz?

Jannat xola javob berolmadi. Uning ko‘zлari bejo. Faqat qo‘llarini muttasil silkitib to‘qay tarafga qarab qichqirardi. Ona aqdan ozgan edi. Nizomjon uni suyab chodir oldiga olib kelguncha terga pishib ketdi. Jannat xola hamon to‘qayga qarab qichqirar, uning qo‘lidan chiqib o‘sha yoqqa yugurmoqchi bo‘ldi. Chodir ichiga kirishganda, u birdan jimib qoldi. Holdan toyib to‘sakka o‘zini tashla-di-yu, qimirlamay shiftga tikilib yotaverdi.

Odamlar birin-ketin tarqab ketishdi. Ikromjon Jannat xolaning og‘ziga choy tutdi. U boshini sarak-sarak qilib ichmadi. Darmonsiz qo‘llari bilan ko‘rpani boshiga tortib ko‘zini yumdi.

U shu yotganicha ertalab ham ko‘zini ochmadi.

U yagona farzandidan umid uzolmay, uning baxtini ko‘rolmay armon bilan chodirda jon bergen edi.

Erta azonda Nizomjon Tog‘aga xabar bergani Ziril-lamaga ot choptirib ketdi. Tushga qolmay Ikromjonning yor-birodarlari gruzovoyda tobut bilan yetib kelishi-di. Cho‘l ufqi qizarib turgan kech paytida marhumaning jasadi solingan tobutni yelkaga olishdi. Nizomjon unga o‘g‘il bo‘lib, hassa tutib, tobut oldiga tushdi.

Uning o‘z bolasi to‘qayda, qamishlar orasidan marosimni kuzatib turardi. U kim vafot topganini bilmasdi. Dadasining tobut oldida bel bog‘lab, yig‘lab ketayotganini ko‘rdi-yu, ko‘zлari bejo bo‘lib ketdi. Axir, u kuni bilan onasini kutayotgan edi. Unga ovqat olib kelmoqchi edi.

Nima bo‘ldi? Nahotki o‘lgan bo‘lsa? Endi uning holi nima kechadi? Endi unga kim ovqat olib keladi?

Ona unga faqat kiydirish, yedirish uchun ona edi, xolos. Ona uning firoqida, dardida ado bo‘ldi. Bolasi esa bu to‘g‘rida o‘ylamasdi.

Ona, qazoyim yetib olamdan o‘tsam, bolam o‘z qo‘li bilan qabrga qo‘yadi, deb umid qilardi.

Bolasi qabrga yaqin kelmay, bo‘riga o‘xshab to‘qaydan xunuk qarab turardi.

Ona, bolam orqamda qoladi, chirog‘imni yoqadi, deb niyat qilardi.

Bolasi bunday o‘ylarni boshiga keltirmasdi. U tug‘ib katta qilgan onasining jasadini begonalar yelkada tabarruk qilib ko‘tarib ketayotganlarini ko‘ra turib ham bir qadam oldinga jilmasdi.

Quyosh qip-qizil cho‘g‘ bo‘lib botayotgan cho‘l oqshomida hijronzada, alamzada, farzand dog‘ida kuyib ado bo‘lgan onani tuproqqa qo‘yishdi.

Hammaning boshi quyi egilgan.

Ikromjonne Tog‘a suyab turardi. Nizomjon qabr yonida cho‘kkalab bosh egib o‘tirganicha hamma qo‘zg‘alganda ham boshini ko‘tarmadi.

Oftob o‘chdi. Ufqda olovli bulutlar qoldi. Nizomjon boshini ko‘targanda yaltirab turgan parcha bulutlar kuygan qog‘oz cho‘g‘idek birpasda o‘chdi. Cho‘l jimjit bo‘lib qoldi. U hasrat-nadomat bilan bitta-bitta bosib chodir tomonga yura boshladi.

Qishloqdan kelganlar gruzovoyga chiqib olishgan. Tog‘a Nizomjonne kutib turgan edi, yoniga chaqirdi.

— Inim, chaylada yotma! Ko‘rpa-to‘shagingni ko‘tarib amakingning chodiriga kel. Yolg‘iz qolmasin, — deb tayinladi.

Nizomjon uning aytganini qildi. Chodirda fonar yoqmay Ikromjon tizzasini quchoqlaganicha qimirlamay o‘tirardi. Nizomjon nima deyishini bilmay bordon ustiga

o‘rin sola boshladi. Ikromjon unga qayrilib qaramadi ham. Nizomjon qattiq charchaganidan yonboshlashi bilan uxlab qoldi. U ertalab tong qorong‘isida uyg‘ondi. Ikromjon hali ham o‘shanday qimirlamay o‘tirardi. Nizomjon nima deb ovutishni bilmasdi. Nima deydi? Bola bo‘lib birovni yupatmagan. U Ikromjonning yoniga tiz cho‘kib, yelkasiga qo‘lini tashladi. Ikromjon unga o‘girilib qaradi. Uning oq oralab qolgan soqollarida yosh tomchilari titrab turardi.

Nizomjon o‘zini tutolmadı. Ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Chodir teshigidan yorishib ketgan osmonning bir parchasi ko‘rinib turardi.

XI

Ikromjon shovullab turgan kimsasiz to‘qay ichida ancha uzoqlab ketgan edi. Aksiga olib u na bo‘ri, na quyon, na o‘rdak uroldi. To u qo‘ltiqtayoqqa suyanib mo‘ljalga olguncha o‘rdak uchib ketar, quyon iniga yetib bo‘lardi. To‘qay yalangligida o‘zini oftobga solib yotgan bahaybat echkemar uning qorasini ko‘riboq dumi bilan qamishlarni shitirlatib chayqatib, birpasda g‘oyib bo‘ldi.

Ikromjon yura-yura charchadi. Miltiqni yerga qo‘yib chalqancha yotib oldi. Beg‘ubor ko‘m-ko‘k osmonga tikilganicha qimirlamay yotaverdi. Qattiq charchaganidan ko‘zi ilingan ekan, nimadir shitirlab uyg‘otib yubordi. Ikromjon biron hayvon bo‘lmasin, deb sapchib o‘rnidan turdi. U yoq-bu yoqqa alangladi.

Undan o‘n besh qadamlar narida, qamishlar orasida bir odam osmonda pildirab uchib ketayotgan o‘rdaklarga qarab turardi. Notanish kishi unga orqasini o‘girib turganidan basharasini Ikromjon ko‘rolmadi. Qo‘ltiqtayog‘iga osilib o‘rnidan turdi. Notanish kishidan ko‘zini uzmay engashib miltig‘ini olayotgan edi, u chap tomonga yura boshladi. Ikromjon beixtiyor unga ergasha boshladi.

Oyoq tagida quruq qamish shitirladi. Notanish o‘girilib orqasiga qaradi. Qaradi-yu, qo‘rquvdan ko‘zлari dum-du maloq bo‘lib ketdi. Ikromjon uni tanimadi.

Sochlari o'sib yelkasiga tushgan, kiyimlarining juldiri chiqqan, yuzlari chivin chaqqandan yara bo'lib ketgan bu odam Tursunboy edi. U ozib, qorayib, darmonsizlikdan arang sudralgandek yurardi.

Odam qiyofasi yillar o'tishi bilan, sharoit ta'siri bilan o'zgarib ketishi mumkin. Faqat odamning ko'zi o'zgarmaydi.

Ikromjon uning Tursunboyligini ko'zidan tanib qoldi. Qichqirib yubordi: – Tursun! Tursunboy qimirlamadi. Ikromjon tayoq bilan sakrab-sakrab oldiga kelayotgan edi, Tursunboy yana nari ketdi. Uning bu harakatlari xuddi allaqanday yovvoyi hayvonlarni eslatardi.

Chinakamiga u vahshiyashib qolgan edi. Yaqin olti oy birov bilan gaplashmay, odamsifat yotib-turmay, issiq tati-may shu ahvolga tushgan edi.

– Tursun, Tursunboy, bolam! – dedi jonholatda Ikromjon.

Tursunboy bu gal joyidan qimirlamay turib qoldi. Ikromjon bora solib uning bo'yniga osildi. Qo'lтиqtayog'i yerga tushdi. Bir oyoqlab turib uning yelkalarini silar, peshonalaridan o'pardi.

Birdan dimog'iga qo'lansa hid urilib Tursunboyni bag'ridan qo'yib yubordi-da, yakka oyoqlab turib qoldi. Muvozanatini saqlayolmay orqasiga chalqancha ag'darilish tushdi. Bolasi uni turg'azib qo'ymadi. O'zi bir qo'liga tiralib yana o'rnidan turdi. O'g'lining yuziga qaradi.

Tursunboyning yuziga ko'pdan suv tegmagan. Butun vujudidan achimsiq ter hidi burqsib turardi.

Ikromjon bu nogahon uchrashuvdan tamomila esankirab qolgan edi. Nima qilishini, o'g'liga nima deyishini bilmasdi. U shu bir oyoqlab turgancha juda oz fursat ichida ko'p narsalarni o'yladi. Ko'p narsalarni xotiriga keltirdi.

Xotinining to'qayga ildiz terishga borishi sababi shu bir necha minut ichida ayon bo'ldi.

Ikromjon butun borlig‘ini, bugunini, ertasini bag‘ish-lagan yolg‘iz farzandiga qarab birdan jirkandi. Qoshlari chimirilib, peshonalari tirishdi.

Uning oldida o‘z bolasi emas, bir yirtqich turgandek bo‘ldi.

– O‘tir! – deb buyurdi Ikromjon.

Tursunboy itoatkorlik bilan yerga cho‘kkaladi.

– To‘qayga qachon kelding?

Tursunboyning tili gapga kelmadidi. U go‘yo gaplashish qobiliyatini yo‘qtogandek javobga so‘z axtarayotganga o‘xshardi. Oxiri u qiynala-qiyinala javob berdi:

– To‘rt oy bo‘ldi.

Tursunboy boshini egib yerdan cho‘p olib tishlab o‘tiraverdi.

– Onang o‘ldi, – dedi Ikromjon.

– Bilaman. Ko‘mishga olib ketayotganlarida ko‘rib tur-gan edim.

Ikromjon o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Qarshisida o‘tirgan bolasini yagona oyog‘i bilan tepib yubordi. Tursunboy orqasiga ag‘darilip tushdi. U to o‘rnidan turguncha Ikromjon emaklab borib boshiga, yuziga uraverdi. Bola otasiga musht ko‘tarolmadi. Uning bunday qilishga darmoni yo‘q. Ochlik o‘z kuchini ko‘rsatib, uni holdan toydirgan. Ikromjon hamon uning duch kelgan joyiga musht solardi. U mushtlardi-yu, allaqanday xunuk ovoz bilan baqirardi:

– Onang qandoq xotin edi! Qandoq xotin edi! Nomard! Ona qabrga qo‘yilayotganda ko‘rib turib yoniga borol-magan, oqpadar! O‘z qo‘li bilan tuproqqa qo‘yishdan qochgan, yaramas! Onang qandoq xotin edi-ya! Sen juvon-margga qandoq mehr qo‘ygan edi-ya! Sen uni o‘ldirding! O‘zing o‘ldirib, yana o‘zing uni tuproqqa qo‘yganlarini tomosha qildingmi? Iflos! Ikromjon musht urib charchadi. So‘kib ovozi bo‘g‘ildi. U Tursunboyning bo‘g‘zini qo‘ldan bo‘shatib basharasiga qarab tupurdi.

– Mana senga!

U bunga ham qanoat qilmay qo‘ltiqtayog‘ini olib uning yelkasiga ikki marta zarb bilan urdi. Tursunboy alamdan ingradi. Orqasi bilan sudralib nari ketdi.

— Yot-begonalar tobutni yelkada olib ketayotganlarini ko‘rib chidab turdingmi? Yo‘lingga termilib ko‘r bo‘lgan onaga shumi mukofot? Butun umrini, jonini, rohatini bag‘ishlagan onaga shumi mukofot? Alifdek qomatini sen bukding, yuzlariga ajinlarni sen solding, ko‘zlaridan nurni sen o‘g‘irlading, shu yorug‘ dunyoni qorong‘i zindon qilding! Sen juvonmargdan qandoq umidlari bor edi onanning. Sening o‘rniningga it boqsak bo‘lmasmidi. Yelkamda ko‘tarib katta qilganman. Shu yelkalarimda katta qilganman. Og‘irimni yengil qilarsan, deb o‘ylagan edim. Mushkulimni oson qilarsan, deb o‘ylagan edim. Oq sut bergen onangni go‘rga qo‘yishga yaramading. Onaga vafo qilmagan bola, kimga vafo qiladi! Yurt ishiga yaramagan bola, qay ishga yaraydi!

Ikromjon unga qarab qahr-g‘azab bilan qichqirardi:

— Xoin! Qochoq! Nomard! Hezalak! Iflos! It! Tur o‘rningdan!

Tursunboy o‘rnidan turdi. Ikromjon yana qo‘ltiqtayog‘iga osilib qaddini rostlab oldi-da, unga buyurdi:

— Yur!

Tursunboy qimirlamadi. Ikromjonda qandaydir hech to‘xtatib bo‘lmash kuch paydo bo‘lgandi. Hozir u har qanday ishni qilishga qodir. Har qanday vahshiy kuch bilan olishishga tayyor edi.

Tursunboy bezovtalik bilan tutilib so‘radi:

— Qayoqqa?
— Qishloqqa. Yurt oldiga. Sen yaramasning jazoyingni yurt bersin.

— Dada, dadajon!

— Dada dema. Sendek bolam yo‘q. Seni allaqachon o‘ldiga chiqazib qo‘yanman. Ko‘zlarining o‘yilsin, o‘graygan ko‘zlariningni quzg‘unlar cho‘qisin! Yur, deyapman senga!

Tursunboy unga vahima bilan qarab turdi-da, birdan orqasiga burildi. Ikromjon uni ushlab qolmoqchi edi, siltab tashladi. Ikromjon yonboshi bilan yiqildi. U o‘rnidan turganda Tursunboy ancha nariga ketib qolgan edi. Ikromjon shoshib yelkasidan qo‘sh miltig‘ini oldi. Tirsagini qo‘ltiqtayoq charmiga tirab turib mo‘ljalga oldi. O‘q ovozi xuddi cho‘l ustida allaqanday vahimali hayvon o‘kirgandek bir necha daqiqa aks sado berib turdi. Tutun tarqaganda Ikromjon o‘g‘lining qamishlarni qayirib hamon chopib ketayotganini ko‘rdi. Xayriyat, tegmabdi, dedi. Yana miltiqni o‘qladi. Bu gal bolani mo‘ljalga olmadi. Jahl bilan duch kelgan tarafga qarab tepkini bosdi.

O‘q tovushidan cho‘chigan qushlar osmonni to‘ldirib bezovta qanot silkitishardi.

* * *

Ikromjon Tursunboyni uchratgan kundan beri tinchini yo‘qotgan edi. Bolasi ekan-da, ahvoli nima bo‘ldi, deb o‘yladi. Uning qilmishlarini eslab qahr-g‘azab ichida qovurilardi. U o‘sha kundan beri to‘qay kezib uni izlaydi. Topolmaydi. U endi Tursunboyni uchratsa, uning diliga insof solmoqchi, afv so‘ratmoqchi. Jangga yuborishlarini, qonli urushda dog‘ni yuvishni so‘rashga unatmoqchi.

U bu tong ham to‘qayga qarab ketdi. Bu gal u miltiq olmadi. Otalik jur’ati bilan uni ko‘ndirishni niyat qilgan edi.

G‘ira-shira tong yorishib kelayotgan edi. Ikromjon qamishlar orasida uzoq kezdi. Ovoz chiqarib o‘g‘lini chaqirdi. Hech qaydan javob bo‘lmadi.

Birdan qamish kapaga ko‘zi tushib to‘xtadi. Sekin borib kapa ichiga mo‘raladi. Tursunboy to‘zib ketgan to‘nini boshiga qo‘yib qimirlamay yotardi. Ikromjon ajib bir haya-jon bilan tepasiga keldi. Engashib:

– Bolam, bolam, – deb chaqirdi.

Ammo Tursunboy javob bermadi. U ota diydoridan, ota mehridan, yor-birodarlar davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetadigan joyda quvg‘in bo‘lib olamdan o‘tgan edi.

Ikromjon sovuq tanani bag‘riga bosib, qotib qolgan yelkalaridan siladi. Peshonalaridan o‘pdi. Uning ko‘zyoshlari Tursunboyning muzdek sovuq yuzlarini yuvdi. Ikromjon kimsasiz to‘qay orasida alamlarini, ichini kuydirgan dardlarini tanidan chiqarib yuborgudek bo‘lib o‘kirib-o‘kirib yig‘lardi.

Tursunboyning bari qilmishlari endi joni bilan birga tanini tark qilgan edi. Endi u yolg‘iz tana bo‘lib ota bag‘rida qolgan edi. Endi bu tana otaniki edi. U yoshlik paytla-ridagidek beozor uxlayotganga o‘xshardi. Yuzlari norasida yuzidek pok edi uning. Yigirma bir yil ardoqlab boqqan, shamolni ravo ko‘rmay joniga o‘rab o‘stirgan bolasi xoinlikdan, qo‘rroqlikdan, ona oldidagi hech qachon yuvib bo‘lmaydigan gunohlardan pok bo‘lolmay, ota quchog‘ida begonadek yotardi.

Ikromjon yig‘ladi, yig‘ladi, yig‘idan ko‘zyoshlari quridi. Bolasining boshiga xashak to‘plab yostiq qildi-da, uni asta yerga yotqizdi.

Atrofda oftob yashnayapti. Yangi popuk chiqazgan qamishlar yel bilan o‘ynashyapti. Osmoni zaminda qaychi-ga o‘xhab turna karvoni qo‘y haydagan cho‘pondek qurelab o‘tyapti! Osmon shu qadar so‘ngsizmi? Uning ortida nimalar bor? Bu zangori yo‘l qay tomonga olib boradi? Qiziq! Turnalar qayga uchayotganikin?

Ikromjon telbaqa o‘xhab to turnalar usfqa singib ketguncha qarab turdi. Birdan seskanib yana yerda yotgan bolasiga qaradi. To‘nini yechib ustiga yopdi-da, bir tizzalab cho‘kka tushdi-yu, qo‘ltiqtayog‘i bilan yer o‘ya boshladи.

U o‘g‘liga, yagona o‘g‘liga go‘r qazirdi.

Bolasi uyda umrini yashab o‘lsa bo‘lmasmidi? Yurt izzat bilan uni so‘nggi yo‘lga kuzatardi. Odamlar davra qurib ko‘zyosh to‘kib qabrga qo‘yardi. Endi u to‘qaydan chiqolmay, sharmandalik, yuzi qoralik bilan jon berdi. Uning go‘ri ham boshqalarnikiga o‘xshamasdi. Go‘ri ketmon bilan emas, qo‘ltiqtayoq bilan qazilardi.

Ikromjon ham alam, ham nafrat bilan go'r qazirdi. Bahor sellari mag'zi-mag'ziga singgan yer qo'litiqtayoq uchiga bir kaftdan ilinib chiqardi. Ikromjon qora terga tushib ketdi. U qabrni tizza bo'yi qaziganda hali oftob o'chmagandi. U qaddini rostlab yana osmonga qaradi. Osmon toza. Unda na qush uchar, na bulut suzardi. Yoniga qaradi. Uning choponi tagida Tursunboy yotardi. Ikromjon bir dam unga hasratli boqib turdi-da, yana yer o'yishga tushib ketdi.

Oftob so'ndi, ufqda qip-qizil shafaq yondi. Qamishlar uchi o'chayotgan sham so'xtasiga o'xshab qoldi. Ikromjon qabrdan chiqib terlab turgan tanidan yaktagini yechdi-da, Tursunboyni o'radi. Allaqanday g'ayritabiyy kuch bilan uni ikki qo'llab ko'tardi-da, bir tizzalab surilib qabr oldiga keltirdi.

Cho'l ustini asta qorong'ilik bosib kelayotgan yoz oqshomida ota o'z bolasini shonsiz, sharafsiz, marosimsiz qabrga qo'ydi. Loy aralash tuproq tortdi.

Oy singan qizil lagandek bo'lib bo'zarib chiqdi. U sekin-sekin havolanib terak bo'yi ko'tarildi-da, qimir-lamay osilib qoldi. Birin-ketin yulduzlar ko'zi ravshanlana boshladи. Osmoni zaminda arava orqasidan ko'tarilgan to'zondek bo'lib somonchi yo'li ko'rindi.

Ikromjon qabr tepasidan ketolmadi. Har gal o'midan turib ketmoqchi bo'lardi-da, yana faryod urib o'zini qabr ustiga otardi.

Oy yoritib turgan to'qay yalangligida Ikromjon qabrni quchoqlab yotarkan, kimdir uning yelkasidan ko'tardi.

– Dada, dada, turing, ketamiz.

Nizomjon ko'pdan beri uning ahvolini kuzatib turardi. Faryodiga chidayolmay, oxiri zo'r lab bo'lsa ham olib ketishga ahd qilgan edi.

– Yuring, yuring, ketamiz. Endi bas. Ketaylik.

Ikromjon bosh ko'tarib unga qaradi. Hech narsa demay sudralib borib qo'litiqtayog'ini oldi-da, chayqala-chayqala oldinga tushib ketaverdi.

To to‘qaydan chiqishguncha ham ular bir-birlariga churq etib og‘iz ochishmadi.

Nizomjon nima deya olardi?

Ikromjon nima deya olardi?

Ikromjonning bag‘rini kuydirayotgan alam bu poyonsiz to‘qaylarga, oy nuri ojiz yoritib turgan so‘ngsiz cho‘llarga sig‘masdi...

«UFQ» ROMANI HAQIDA

Ushbu romanda xalqimiz hayotining kichik, biroq mazmun-mohiyati jihatdan juda dolzarb davri aks ettirilgan. Chunki xalqimiz urush arafasidagi, Ikkinchı jahon urushi va undan keyingi yillarda mislsiz fidoyilik, qahramonliklar ko‘rsatdi. Uzunligi 270 km bo‘lgan Katta Farg‘ona kanalining qo‘l kuchi bilan 45 kunda qazib bitkazilishi misli ko‘rilmagan jasorat, har qanday jahon rekordini ortda qoldirar edi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, kanal qazishda 160 ming kishi qatnashgan, kanal trassasida 17,8 million metr kub tuproq chiqarilgan, shundan faqatgina 1,7 million metr kub tuproq mexanizmlar yordamida qazilgan. Urush yillarida xalqimizning front va front ortidagi og‘ir mehnati, urushdan keyingi tiklanish davridagi chekkan zahmatlari ning har bir kuni jasorat edi.

Bu ulkan ishlarning ortida qo‘li qadoq jonli odamlar, ularning murakkabliklar to‘la suronli taqdiri, orzu-armonlari bor edi. Said Ahmad xuddi shu fidoyi insonlar hayotini, kechinmalarini qalamga olgan, ular haqida bir emas uchta jozibali, lirik bo‘yoqlarga boy, hayajonli kitob bitgan. Ularni jamlab, «Ufq» deb nomlagan. Darha-qiqat, roman uch katta davrni o‘z ichiga olgani uchun uni roman-trilogiya deb ataymiz. «Qochoq» deb shartli nomlangan parcha romanning «Hijron kunlarida» deb ataluvchi ikkinchi kitobidan olingan. E’tibor bergen bo‘lsangiz, ushbu parcha juda og‘ir o‘qiladi, aniqrog‘i,

uni o‘qish emas, his qilish og‘ir. Urush qahramoni Ikromjon Usmonov frontdan bir oyog‘idan ajrab, qaytib keladi, ortidan unga berib ulgurilmagan ordeni ham tantanali topshiriladi. Bundan ruhlangan Ikromjon va uning rafiqasi Jannat xola barcha bilan barobar mehnat qiladilar. Biroq ular hayotida falokat yuz beradi – ularning yer-u ko‘kka ishonmay o‘stirgan yolg‘iz o‘g‘illari Tursunboy urushga ketayotib qochadi, ularning yuzini yerga qaratadi. Eng yomoni, Tursunboy qochib kelib, ular o‘zlashtirayotgan to‘qayzor ichkarisiga joylashib olgan. Bu sirni onasi Jannat xolagina biladi. U ikki o‘t orasida. Bir tomondan, o‘g‘lining Vatanga xiyonati ich-ichini o‘rtasa, ikkinchi tomondan, yolg‘iz farzandiga joni achiydi. Qochoq o‘g‘lini boqish, uni kishilar ko‘zidan yashirish bilan ovora bo‘lib, tinkasi qurigan mushtipar ona kasallanib qolib vafot etadi. Ikromjon o‘g‘lining isnodiga chiday olmay yurganda, to‘qayda Tursunboyni uchratadi. Ota va bola o‘rtasida jiddiy to‘qnashuv bo‘lib o‘tadi. Ikromjon o‘g‘lini el-yurt oldida uzr so‘ratmoqchi, diliga insof solmoqchi bo‘ladi. Biroq nobakor o‘g‘il ko‘nmaydi, ota qo‘lidan qochib ketadi. Qochoq o‘g‘il Tursunboy «...ota diydoridan, ona mehridan, yor-birodarlar davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetadigan joyda quvg‘in bo‘lib, olamdan o‘tadi».

Asarda Tursunboy qilmishi qoralanadi, hatto otasi ham xiyonatkor o‘g‘ilni mahv etishga tayyor. Avvalo, ota-onadan ham ayb o‘tgan: ular yolg‘iz o‘g‘illarini erka, tantiq qilib o‘stirganlar. Bugun erka farzand ularni el orasida sharmisor qilyapti. Biroq bu ayblovlar zamirida urushni qoralash, bu qirg‘inbarotni o‘ylab chiqarganlarni la’natlash yotibdi. Urush ota-onalarni farzand dog‘ida kuydirdi, bolalarni yetim qildi, mamlakatni xarobaga aylantirdi. Barcha baxtsizliklarning sababi – ana shu urush.

Aziz o‘quvchi, so‘z garchi Tursunboy taqdiri haqida ketayotgan bo‘lsa-da, asarda u yolg‘iz personaj hisoblan-

maydi. Siz buni yaxshi bilasiz, chunki «Ufq» trilogiyasini to‘liq o‘qigansiz (qaysingiz o‘qimagan bo‘lsangiz, maslahatimiz, roman bilan, albatta, tanishib chiqing). Yozuvchi «Ufq» romanida xalqimizning urush ortidagi mehnati, mashaqqatli hayotini Ikromjon, Jannat xola, To‘lanboy, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A’zamjon kabi qator qahramonlar taqdiri orqali tasvirlaydi.

Ustoz adib Abdulla Qahhor yozuvchining ushbu asardagi mahoratini shunday ta’riflaydi: «Bu kitobni («Ufq» romanini) kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo‘g‘ilmasdan o‘qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg‘usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbat, g‘azabi, og‘zidan chiqadigan har bir so‘zi rost...»

Darhaqiqat, ushbu asar «... odamga quvvat beradigan umid, uning boshini «toshdan» qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir». Ushbu roman uchun bundan-da yuksak baho bo‘lmasa kerak.

Savol va topshiriqlar

1. Said Ahmad hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?
2. Adib ustozlari Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhorlardan qanday xislatlarni o‘zlashtirgan?
3. Said Ahmad yozuvchilikdan tashqari yana qanday san‘at turini egallagan?
4. Said Ahmad turg‘unlik yillaridan hikoya qiluvchi qanday asar yaratgan?
5. Said Ahmad ssenariysi asosida yaratilgan qanday badiiy filmlarni bilasiz?
6. «Ufq» romanining yaratilish tarixi haqida nimalar deya olasiz?
7. Roman-trilogiyaning «Qirq besh kun» deb nomlangan birinchi qismi qanday umumxalq qurilishi haqida hikoya qiladi?
8. Tursunboyning qismati haqida fikringizni bildiring?

9. Tursunboyni ko‘proq nima qiziqtiradi? Asardan olingan parchadan bu savolga javob toping.

10. Ikromjon o‘g‘li Tursunboyni to‘qayzorda uchratganda, ular o‘rtasida shunday savol-javob bo‘lib o‘tadi:

– To‘qayga qachon kelding?...

– To‘rt oy bo‘ldi.

Tursunboy boshini egib yerdan cho‘p olib tishlab o‘tiraverdi.

– Onang o‘ldi, – dedi Ikromjon.

– Bilaman. Ko‘mishga olib ketayotganlarida ko‘rib turgan edim.

Ikromjonning shu javobdan keyingi holatini parchadan topib, mazmunini sharhlab bering.

11. Ikromjonning ruhiy iztiroblarida, musibatlarida ko‘nglini ko‘targan, dardiga malham bo‘lgan mehribon kishilar – To‘lan-boy, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A’zamjon haqida so‘zlab bering. Ikromjon va Nizomjon munosabatlari haqida gap ketganda ularga nisbatan quyidagi qaysi maqolni qo‘llasa bo‘ladi (masalan, «Mahallang – ota-onang», «Tug‘ishgandan tutingan afzal» kabi)?

12. Ikromjonning o‘g‘li xatti-harakatlariga munosabati ikki xil: bir tomondan unga farzandi sifatida joni achisa, ikkinchi tomondan uni «Xoin! Qochoq! Nomard!» deya la’natlaydi. Buni siz qanday tushunasiz?

13. «Ufq» romanidan olingan parchadan tabiat tasvirining asar qahramonlari ruhiyatiga mos keladigan o‘rirlarni toping va adabiyot daftaringizga ko‘chirib oling.

14. Said Ahmadning «Ufq» romanini «...odamga quvvat beradigan umid, uning boshini «toshdan» qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir», – deb ta’riflagan adib kim edi?

15. Ikromjon, Jannat xola, Nizomjon xarakterlaridagi milliylik nimalarda ko‘rinadi?

NAZARIY MA'LUMOT

ROMAN SHAKLLARI

Roman (*frans. roman*) – nasriy asar janri. Uning dastlabki lug‘aviy ma’nosi roman tillarida (o‘rtalarda roman tillarida yozilgan har qanday asarni anglatadi) yaratilgan adabiy asardir. Keyinchalik bu atama o‘zining lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashib, keng qamrovli nasriy asar nomini anglata boshlagan. Roman – inson hayotini jamiyat bilan bog‘lab, keng tasvirlovchi yirik epik janr hisoblanadi. U boshqa nasriy janrlar – qissa, hikoyalardan o‘zida ko‘plab personajlarning taqdirini aks ettirishi, katta miqyosdagi voqealari tasvirlashi bilan farq qiladi.

Roman mavzu va shakl jihatdan xilma-xil. Jumladan, tarixiy roman – A. Qodiri, «O‘tkan kunlar»; O.Yoqubov, «Ulug‘bek xazinasi»; harbiy roman – Oybek, «Quyosh qoraymas»; Shuhrat, «Shinelli yillar»; zamonaviy roman – P.Qodirov, «Olmos kamar»; O.Yoqubov, «Diyonat»; sarguzasht va fantastik roman – X.To‘xtaboyev, «Sariq devni minib»; ijtimoiy-falsafiy roman – A.Muxtor, «Davr mening taqdirimda» kabi.) Ushbu janrni to‘liq idrok qilishda uning shakllarini bilish ham juda muhimdir. Chunki shunday romanlar bitiladiki, romannavis ko‘ngliga tukkan, yoritishi kerak bo‘lgan voqealar bir kitobga sig‘maydi. Muallif uni ikki, uch, to‘rt va hatto undan ortiq kitob holida yaratishi mumkin. Shunga ko‘ra roman o‘zining hajmi va shakliga ko‘ra dilogiya, trilogiya, tetralogiya, romanlar turkumi ko‘rinishlarida bo‘lishi mumkin. Demak, romanning voqealar ko‘lami uning necha kitobdan iborat bo‘lishini belgilaydi. Quyi sinfda roman va uning turlari bilan tanishgansiz. Bilimlaringizni mustahkamlash maqsida ayrimlarini eslatib o‘tamiz.

Umumiy mazmuni, g‘oyasi, asosiy qahramonlari, voqealar tizimining o‘zaro aloqadorligi, bog‘liqligi bilan bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi ikki kitob-

dan iborat ikki mustaqil roman – roman-dilogiya deb ataladi va nisbatan katta voqealari qamrab oladi. Bunda asardagi bosh qahramonlar taqdiri tasviri har ikkala kitobda ham davom etadi. Masalan, P. Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni», H.G‘ulomning «Mash‘al», M.Ismoiliyning «Farg‘ona tong otguncha», X.To‘xtaboyevning «Sariq devni minib», «Sariq devning o‘limi» romanlarini o‘zbek adabiyotida yaratilgan roman-dilogiyalarining namunalarini desa bo‘ladi.

Roman-trilogiya haqida ham roman-dilogiyaga nisbatan qo‘llangan ta’rif mos keladi. Shunday ekan, trilogiya – uch kitobdan iborat roman bo‘lib, ijtimoiy hayotning katta bir davrini o‘z ichiga oladi. Bunday asar undagi qahramonlar hayotini, davrning juda katta qismini voqealar fonida ko‘rsatishga qodir bo‘ladi. Masalan, Siz kuni kecha o‘rgangan Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi uch kitobdan iborat romandir. Romanning birinchi kitobi «Qirq besh kun» deb atalib, unda xalqimizning urushgacha bo‘lgan hayoti, uning mehnat jasorati (Katta Farg‘ona kanali qurilishi) qalamga olingan. «Hijron kularida» deb ataladigan ikkinchi kitob esa, birinchi kitob qahramonlarining urushda va front ortidagi qahramonliklari haqida hikoya qiladi. Asarning uchinchi kitobi – «Ufq bo‘sag‘asida» esa, ularning urushdan so‘nggi taqdiri tasvirlangan. Ko‘ryapsizki, ushbu roman-trilogiyada juda katta davr qamrab olingan va bu uch mustaqil kitob qahramonlarning g‘oyat murakkab, baxtli va mashaqqatli taqdirlini batafsil yorita olgan.

Jahon adabiyotida L.N.Tolstoy, S.T.Aksakov, Xalqaro Nobel mukofoti laureatlari: ingliz yozuvchisi Jon Golsuorsining «Forsaytlar haqida qo‘shiq», arab yozuvchisi Najib Mahfuzning «Xan al-Xalili», Vasiliy Yanning «Chingizzon», «Botu», «So‘nggi dengizgacha», o‘zbek adibi S.Ahmadning «Ufq» kabi trilogiyalarini uch kitobdan iborat roman-trilogiyalarining mukammal namunasi desa bo‘ladi.

Roman-tetralogiylar to‘rt kitobdan iborat roman shakli bo‘lib, jahon romanchilik tajribasida uchraydi. (Masalan, rus adibi V.Katayevning «Qora dengiz to‘lqinlari» tetralogiysi.)

To‘rtadan ortiq kitobdan iborat roman shakllarini romanlar turkumi deb atash rasm bo‘lgan. Romanchilik tajribasida bunday asarlar turkumiga fransuz adiblari Romen Rollanning o‘n jildlik «Jan Kristof», Roje Marten dyu Gar ning sakkiz jildlik «Tibo oilasi» romanlarini misol qilib keltirish mumkin. Ahamiyatlisi shundaki, har ikkala adib ham ushbu asarlari uchun Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganlar.

Romanchilik deganda, epopeya degan tushuncha ham ko‘p ishlataladi. Uning roman shakllari (dilogiya, trilogiya, tetralogiya, romanlar turkumi)ga faqat bilvosita aloqasi bor, ya’ni unda asarning necha kitobdan iborat bo‘lishi emas, balki qanchalik ko‘p va katta voqeа-hodisalarining qamrab olinishi muhim. Masalan, asar qahramonlarining bir necha avlodи taqdiri yoritilgan buyuk fransuz adibi Balzakning «Insoniyat komediyasi», S.Ayniyning «Qullar» kabi roman-epopeyalari shular jumlasidandir.

Savol va topshiriqlar

1. Romanlarning mavzu va shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Roman-dilogiya, roman-trilogiya, roman-tetralogiylarini ta’riflang. Ular orasida qanday o‘xhashlik va farq qiluvchi jihatlar mavjud?
3. Romanlar turkumi nima? Bu atama qanday shakldagi asar-larga aytildi?
4. Qanday asarni roman-epopeya deb aytamiz?

ASQAD MUXTOR

(1920–1997)

XX asr o‘zbek she’riyati, nasri, tarjimachilik san’ati rivojida Asqad Muxtorning alohida xizmatlari bor. Adib 1920- yilning 23- dekabrida Farg‘ona shahrida tug‘ilgan. Jahon adabiyotining eng sara namunalarini puxta o‘rgangan, badiiy ijodga juda jiddiy faoliyat turi sifatida qaragan bu adib o‘zidan boy va ibratli adabiy meros qoldirdi.

O‘tgan asrning 50 - yillaridan boshlab Asqad Muxtor o‘z ijodiy imkoniyatlarini prozaik janrlarda ham sinab ko‘rishga kirishdi. Dastlabki kichik hikoyalardan so‘ng, birin-ketin yozuvchining «Daryolar tutashgan joyda», «Qoraqalpoq qissasi», «Buxoroning jinko‘chalari», «Bo‘ronlarda bordek halovat», «Jar yoqasidagi chaqmoq», «Kumush tola» singari qissalari, «Opas singillar», «Tug‘ilish», «Davr mening taqdirimda», «Chinor», «Amu» nomli yirik romanlari yaratilib chop etildi. Bu asarlarning har biri o‘zbek o‘quvchisi tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Bundan tashqari, Asqad Muxtorning bolalarga bag‘ishlangan «Hayotga chaqiriq», «Dunyo bolalari» nomli hikoyalari to‘plamlari ham nashr qilingan.

«CHINOR» ROMANI HAQIDA

Asqad Muxtor romanlari ichida, ayniqsa, «Chinor» asari muallifga katta shuhrat keltirgan. Bu asar o‘ziga qadar yaratilgan o‘zbek romanlaridan bir necha jihatlari bilan ajralib turadi.

Avvalo, romanning kompozitsion tuzilishi – asar voqe-a-hodisalarining o‘zaro shaklan joylashuvi boshqa



asarlardan keskin farq qiladi. Unda go‘yo bir-biri bilan bog‘lanmaydigan qator hikoyalar, rivoyatlar, hatto qissalar aralash tartibda kelaveradi. Ularda tasvirlangan voqeа-hodisalar ham zamon, vaqt nuqtayi nazaridan izchil tizimga bo‘ysunmaydi. Masalan, roman yaratilgan davr (o‘tgan asrning 60- yillari) hodisalarini hikoya qilib borilib, birdaniga asarning boshida yuz bergen fojialar tafsilotiga o‘rin beriladi.

Aytishimiz kerakki, bu «g‘alatilik» faqat tashqi tomonidan – yuzaki qaragandagina shundaydir. Aslida, roman ga jalb etilgan barcha katta-kichik insoniy taqdirlar asar markazida turuvchi obraz – 93 yoshli Ochil bobo taqdiriga borib bog‘lanadi.

Romanning boshida butun yurtga tarqab ketgan uzoq-yaqin qarindoshlaridan xabar olgani otlangan Ochil boboga qo‘shilishib muallif (demak, o‘quvchi ham!) olis safarga chiqadi. Mana shu o‘ta qiziqarli va ibratlari safar asnosida bobo peshonalaridagi ajinlar singari bir-biriga ulanib ketgan insoniy taqdirlar haqidagi goh shirin, goh achchiq hikoyalarga oshno tutinasiz. Bu taqdirlar bir-birlari bilan Ochil bobo orqali bog‘lanib, yagona shajarani – azim Chinorni vujudga keltiradi.

Romandan o‘rin olgan hikoya va qissalar, ko‘p asarlarda bo‘lgani singari, albatta, yaxshilik bilan, ezgulikning yovuzlik ustidan qozonadigan g‘alabasi bilan tugayvermaydi. Asarda o‘nlab insonlar taqdiri borki, shafqatsiz va chigal hayot bo‘roni ularni xuddi cho‘ldagi bir uyum xashak singari sarson-sargardon qiladi.

Adib qahramonlar taqdiriga behuda aralashish, ularni «to‘g‘ri yo‘lga solib yuborish»dan o‘zini tiyadi. Ortiqcha hayajon, chuchmal emotsiyonallik Asqad Muxtor uslubiga mutlaqo yot ekani «Chinor» romanida yaqqol o‘zini ko‘rsatgandi. Bu jihatdan, yozuvchi yoshligidan o‘qib-o‘rgangani rus va G‘arb adabiyoti tamoyillarini milliy adabiyotimiz maydonida ham dadil qo‘llaganiga guvoh bo‘lamiz. Hozirgi paytda o‘zbek adabiyotshunosligida

ko‘p tilga olinayotgan «shafqatsiz realizm» ko‘rinishlarini Asqad Muxtor o‘tgan asrning 60- yillardayaoq romanchi-ligimizga olib kirgan.

Endi, Ochil bobo – Chinor shajarasida unib qolgan ana shunday «mo‘rt bir barg» – Akbarali ismli konchi yigit taqdiridan hikoya qiluvchi mungli qissani birgalikda o‘qiylik-da, keyin suhbatimizni davom ettiraylik.

CHINOR

(Romandan parcha)

...Mehmonxona tez topildi: chiroqlar ko‘proq tomon-ga yurishgan edi, katta chorrahadan chiqishdi, undan sal narida ikki qavatli jo‘ngina mehmonxonaning viveskasi ko‘rinib turardi.

Navbatchi, xushmuomalagina, uyqusiragan bir kampir, ularni yo‘lakning narigi boshidagi katta xonaga joylashtirib, choy damlash uchun objo‘shti qayerdan olishni ham ko‘rsatib qo‘ydi. Yaxshi uyqubop joy ekan. Bir qavatli derazadan uzoqdagagi tog‘ daryosi Shodasoyning bir me’yorda shovullashi eshitilib turibdi.

– Mana, – dedi o‘z ko‘nglini o‘zi ko‘tarib Ochil buva, – shukur, yetib keldik. Bemalol dam olaylik. Akbaralini bo‘lsa ertaga topib olamiz, hech qayoqqa ketmaydi. – U etigini yechib, odaticha karavotga chiqib chordana qurdi. Shunday bir o‘tirib soqolini tutamlab chapga buramasa nafas rostlaganday bo‘lmas edi. – Lekin muzey eshigini qoqqanimiz qiziq bo‘ldi, – dedi u yana, – shahar juda ham o‘zgarib ketibdi-da, a?..

Charchagan Azimjon yelkasini qisdi. U qo‘l yuvgach, qiyig‘ini stolga yozib, non sindirdi, xurjunni yoniga tortib kovlashtira boshladi. Ochil buva nafas rostlagach, tunuka choynakni olib, choy damlagani chiqdi.

«Kubovaya» deb yozilgan xonani ochsa, hammom-dagidek issiq hovur gup etib yuziga urdi, burchakda katta bak sharaqlab qaynab yotar edi. Ochil buva choyni ach-

chiqqina qilib damlab, orqasiga qarasa, bir odam qaynoq suv olmoqchi bo‘lib piyola tutib turibdi.

– Choy quyib bera qolay, – dedi.

– Suv ham bo‘ladi, dori ichmoqchi edim, – dedi haligi odam.

Ochil buva uning yuziga qaramadi, bug‘ ichida ko‘rib ham bo‘lmasdi.

– Choy yaxshi, tuting piyolangizni, savobtalab odamiz, – to‘latib quyib berdi, choyning xushbo‘y hidi dimoqqa urildi.

– Rahmat, – dedi notanish odam.

Ochil buva choynagini ko‘tarib yo‘lakka chiqqanda, haligi odamning tovushi qulog‘iga tanishdek tuyilib, to‘xtab qoldi. Qaytib kirmoqchi edi, u odamning o‘zi chiqib, limlim to‘la piyolasiga tikilgancha yonidan o‘tib ketdi. O‘tib ketdi-yu, nariroqqa borib u ham to‘xtadi. Lekin orqasiga qayrilib qaramadi, cholning to‘xtab turganini sezgan edi.

– Menga qarang, bolam, – dedi Ochil buva u tomon yurib, u odam ham o‘girildi. Ochil buva shundoqqina ro‘parasiga borib to‘xtadi.

Ular bir-birlarining yuzlariga tikilib qolishdi.

– Sen... – dedi Ochil buva sekin, undan ko‘z uzmagان holda egilib, issiq choynakni yoniga, poyandozga qo‘ydi. Yana tikilib qolishdi.

Yo‘lakning u boshidagi chiroq ularning yuzlarini xira yoritar edi.

– Buva! – deb xunuk qichqirib yubordi haligi kishi, piyola qo‘lidan tushib sindi. Ular quchoqlashib ketishdi.

Bu – Akbarali edi. Ochil buva uni zo‘rg‘a tanidi. Vaqt ko‘p o‘tganidan emas, yetti yilda odam bunchalik o‘zgarmaydi. O‘ttiz yoshida bunchalik qarimaydi. Akbaralining hayotida, shubhasiz, bir musibat yuz bergen edi. Uning suyagi qolibdi, xolos. Yonoqlari turtib chiqqan, oq oralagan soch-soqoli o‘sinq, ko‘zlarida nur yo‘q. U gapirolmay qoldi, ko‘z tagidagi ko‘k xaltachalari titrab, yig‘lab yubordi.

– Kasalmisan, bolam?

Akbarali yengi bilan yuzini to‘sib, bosh silkidi: «Yo‘q».

– Qamoqdan chiqdingmi? – dedi Ochil buva tikka qarab.

Akbarali bosh qimirlatdi: «Yo‘q».

– Nega bu yerda yuribsan? Mehmonxonada...

Akbarali chuqur botgan ko‘zлari bilan bobosiga iztirobli tikildi: «Hali hech narsadan xabaringiz yo‘q ekan...»

– Hammasini aytib beraman. Sizga aytib beraman, buva...

– Uzoq gapmi?

– Uzoq gap.

– Biz seni qidirib yuribmiz... Azimjon ham shu yerda.

Akbarali tushunmadi: «Nega qidiradi? Azimjon kim?»

– Azimjon-chi, senga ammavachcha bo‘ladi. Chet eldan... Seni ko‘rgani keldi.

Akbarali tushunmadi. Uning chalkash, zaif o‘ylari boshqa yoqda ekani yuz-ko‘zidan bilinib turardi.

– Buva, sizga aytib beraman... faqat sizga. – U Ochil buvani o‘z xonasiga yetakladi. Xona g‘ira-shira, sovuq, bir stol, bir karavot; allaqanday qo‘lansa hid anqir edi. Ochil buva derazani ochib xonani shamollatgach, Azimjonni chaqirib keldi. Azimjon patnisda non-choy ko‘tarib kirdi. Tanishgan bo‘ldilar, Akbarali unga tikilib turdi-yu, indamadi, kimligini bilolmadi chog‘i. Azimjon ham qarin-doshini boshqacha tasavvur etgani uchun hozir uni ko‘rib birdan gap topolmadi.

– Gapir, – dedi Ochil buva. Uning charchog‘i ham, uyqusi ham qochgan, ko‘ngli bir shumlikni sezganday, keksa, horg‘in yuzini betoqatlik ko‘lankasi qoplagan edi.

QISSA

...Shodasoyda qayoqdan ham paydo bo‘ldi u kishi! Oti Bektemir edi. Akbarali uning otini tilga olgisi kelmaydi, qo‘rqadi. Uyquda alahsirab aytib qo‘yishi bor.

Kechasi kelib derazani taqillatdi. «Och, Bektemirman. Dadangning o‘rtog‘iman», – dedi.

Akbarali unaqa odamni bilmasdi. «Dadangning o‘rtog‘iman», – deganidan keyin turib eshikni ochdi. Hali-hali ko‘z o‘ngida turibdi: bir ko‘zi ko‘r edi bu odamning. Kirib kelishi bilan brezent qalpog‘ini yelkasiga tushirdi-da, Akbaralini o‘z bolasiday bag‘riga bosdi. Undan dimiqqan xom teri hidi kelardi.

– Akbaralimidi otting?

– Ha.

U xaltasini burchakka qo‘yib, yomg‘irligini yechdi. Ustida pidjagi ham yo‘q, ko‘ylakchan edi. Akbarali shuncha tikilsa ham tanimadi. Lekin otasi tengi odam edi. Juda uzoqlardan, ko‘p qiyinchiliklar ko‘rib kelgan bo‘lsa kerak, nihoyat boshpana topganidan ruhi tetik, jihozlarga tikilib-tikilib qarar, issiq pechkaga qo‘l tekkizib kaftini kaftiga ishqar edi.

– Choy qo‘yib yubor. Oying yo‘qmi?

Mehmonga choy qo‘yish esiga kelmabdi. Shoshib qoldi Akbarali. Choyga urindi.

– Oyim... boshqa er qilib ketganlar.

– E-ha... – dedi Bektemir cho‘zib. Stol yoniga o‘tirib, o‘z uyidagidek yengini shimardi. – Shundoq degin, – dedi yana o‘ychan.

U Akbaraliday baland bo‘yli, yuzini chuqur ajinlar tilkalagan, ko‘r ko‘zi yumuq, ichiga cho‘kkan, qora, cho‘-tir odam edi. – Biz dadang bilan urushga birga jo‘nagan edik... Bir eshelonda, – dedi boshqa so‘z topolmaganday. – Kapsanlikman, hov tog‘dan.

Shugina ekan-ku. Akbarali, dadamga juda yaqin odam-mikan, deb o‘ylagan edi. Hafsalasizgina choy damlab keldi.

– Dadam urushning birinchi yiliyoq halok bo‘lgan, – dedi.

– Bilaman. Eshitgan edim.

– Hozir qayoqdan kelyapsiz?

– Buning tarixi uzoq... – dedi mehmon. U choy ho‘p-ladi-yu, hech narsa yemadi. Boshidan ko‘p savdolar o‘tganligi ko‘rinib turardi.

Chindan ham tarixi uzoq ekan, kechasi bilan gaplashib chiqishdi.

Bektemir 1942- yili Mozdok yaqinida qurshovda qolib, uch oy jang qilgandan keyin, ochlikdan sulaygan, o‘qdorisiz o‘n yetti yarador bilan birga dashmanga asir tushdi. Darmonga kirib olay, sal o‘zimga kelay, deb lagerma-lager yurib, hamma tanishlarini yo‘qotdi. Ularni bir joyda uzoq tutishmas, dam allaqanday yerosti korxonasisiga, dam tunnel qurilishiga, dam tosh karyeriga qo‘yishar, kechalari bilan notanish yo‘llardan kolonna qilib haydashar edi. Bektemir bu yillar ichida ne-ne odamlarni, ne-ne azoblarni ko‘rmadi, bir necha tillarni o‘rgandi, necha-necha o‘limlardan qoldi, necha xil kasalliklarga yo‘liqdi. Endi uning bir ko‘rmagani o‘lim edi. Hamma narsadan umid uzib, o‘limni kutar edi u.

Urushdan keyin ularni hamma unutib tashlab ketgan asirlar lageridan amerikalik soldatlar kelib qutqazdi. Shundan keyin Bektemir ajalga chap berdi hisob-u, lekin endi uning uchun darbadarlikning yangi davri boshlangan edi. Yevropada elma-el sudralib yurib rizqini terdi, ikki sog‘lom qo‘lidan bo‘lak tayanchi yo‘q edi. Gaplarga qara-ganda, Vatanga qaytish xavfli, u yerda unga o‘xshaganlar uchun yana lagerlar tayyor emish...

Lekin yo‘q, vatangadolikning azobi go‘r azobi bilan teng ekan. O‘n uch yil sargardonlikdan keyin yuragini ho-vuchlab bo‘lsa ham yurtiga qaytdi. Qaytib kelsa, «Yaxshi qilibsiz, boring, oilangiz bilan tirikchililingizni qiling», – deyishibdi.

Bektemir peshonasiga tars etib urdi, o‘rnidan turib ketdi.

– Kelganimdan beri bironta tanishga ko‘ringanim yo‘q, seni qora tortib keldim, Akbarali. Dadangni yaxshi ko‘rib qolgan edim, kelishim bilan lop etib esimga tushdi...

– Ovqatdan oling, Bektemir aka...

Bektemir dasturxonga qaradi-yu, hech narsani ko‘r-madi, u iztirobda edi.

– Menga qara, men... men bir ish qilishim kerak. Ni-madir qilishim kerak, bilasanmi!..

– Bola-chaqa omon ekanmi?

– Ha, xotnim, qizim... Lekin hali uyga borganim yo‘q, yurak dov bermayapti.

– A?

– Ular mening tirik ekanimni bilishmaydi. Qaysi yuz bi-lan boraman? Nima deb boraman? – Bektemir yalang‘och ko‘ksiga, yuragiga, cho‘ntaklariga shapatilab, jahl bilan gapirdi: – Nima bilan boraman? Men... bir ish qilishim kerak.

– Ishga kiring.

– Ha, avval – ish. Senga kelganimki... menga bir ish topib ber, uka. Shunday kasb kerakki, qasd qilib qo‘ydim: kecha-yu kunduz ishga sho‘ng‘ib ketay. Toki odamlar meni ko‘rmasin, faqat mehnatimni ko‘rishsin. Mehnat! Mehnat! Boshqa narsa kerak emas. Shundagina bir kuni borib xotnim bilan qizimning oyog‘iga bosh qo‘ysam, balki gunohimdan o‘tishar. Akbarali, uka, senga yorildim, yordam qil...

O‘shanda ertasiga u dadasinging o‘rtog‘iga konni ko‘r-satadigan bo‘ldi. Quyoshli kuz ertasi juda chiroyli edi. Yo‘l bo‘yidagi qayrag‘ochlarning shapaloqdek-shapaloq-dek qizg‘ish barglari oyoq ostida shitirlaydi, ko‘lmak suvlar jimirlaydi. Tog‘ shabadasi Shodasoyning sovuq shovqinini daralarga taratmoqda, uzoqda qorli cho‘qqilar quyoshga o‘chakishgandek yilt-yilt charaqlaydi, kungay yonbag‘irlarda saf tortgan archalar qorayib ko‘rinadi. So‘qmoqyo‘l qadam sayin yuqoriga o‘rlab boradi, past-da eski Shodasoq qishlog‘i sarg‘ish daraxtlarga burkanib yotibdi, sal berida unga tutashib ketgan kon shaharchasi-ning tunuka tomlari. Konchilar smenadan chiqqandan

keyin uyga qaytadigan yo‘lni zap manzarali joylardan solishibdi-da! Kela-kelguncha hordig‘i ham chiqib ketsa kerak.

Yo‘lda duch kelgan odamlar Akbaralini tanib salom berishar, bular ikkalasi barobar alik olib, shoshmasdan gaplashib, atroflarni tomosha qilib borishar edi. Bektemir o‘z smenasiga ketayotgandek, ko‘ngli yayraydi. Agar u konga ishga kirib olsa, har kuni mana shu yo‘ldan yuradi. Necha yillardan beri birinchi marta o‘z odamlari ichida, o‘zi uchun yeng shimarib, terga botib, yayrab mehnat qiladi. Keyinroq xotini bilan qizini ko‘chirib kelib, uy-joy ham qilib olsa! Bektemirning bir vaqtlar o‘ylashga ham yuragi dov bermay yurgan orzulari shu emasmidi? Akbarali buning nimaligini tushunmaydi, uning uchun bu oddiy bir ish kuni. U shunchaki, yo‘l-yo‘lakay bir tanishini boshlab, o‘zining odatdagি smenasiga ketyapti. Konchilar kiyadigan petlitsali qora pidjagini bilagiga tashlab, tor so‘qmoqdan mehmonga yo‘l berish uchun chetdagи shag‘al uyumlarini shaqir-shuqur bosib odimlamoqda. Bektemir uning oftobda ter tomchilari yiltillagan yuziga qarab qo‘ydi.

Akbarali otasiga uncha o‘xshamas, novcha, ingichka, kamgaproq edi. Lekin kechasidagi hikoyalaridan keyin oqko‘ngil Bektemir aka unga yoqib qoldi, ota o‘rniga mehribon bir odam orttirgandek bo‘ldi Akbarali.

– Uylanmabsan-da, chakki qilibsan... – dedi Bektemir aka.

Akbarali yerga qarab kulib qo‘ydi.

– Ha, mayli, hali kech emas. Mening qizim ham bo‘yi yetib qolgandir. Onasiga tortgan bo‘lsa do‘ndiqqina bo‘lishi kerak, olib kelaman, ko‘rasan. Yoqtirsang, senga beraman, Xudo xohlasa.

Akbarali yana kulib qo‘ydi. Konga yaqinlashib qolishgan edi. Qirlardan, jarlardan hatlab osma vagonetkalar g‘izillarydi. Tashlandiq jinslardan paydo bo‘lgan tepaliklar dam qizg‘ish, dam qo‘ng‘ir rangga kirib tovlanadi. Kon yaqinida ular suv sepilgan keng asfalt yo‘lga chiqishdi.

— Meni kirgizisharmikan? — deb so‘radi Bektemir.
Ruda ortilgan MAZlar o‘tib borardi, Akbarali eshit-madi.

— Hujjatim yo‘q, kirgizisharmikan?

— Men bor-ku! — deb qichqirdi Akbarali kulib. Eshit-madi deb o‘ylab, ko‘kragiga urib ko‘rsatdi: — Men, men! Mana bo‘lmasa, kiyib oling, buni ko‘rsa to‘xtatib o‘tirmaydi, — deya pidjakini irg‘itdi Akbarali. Bektemir aka pidjakni ilib olib, kiyди.

— Yarashdi, yarashdi! — deb qichqirdi Akbarali. Ikkalasi ham xandon tashlab kului. Bu vaqt MAZlar o‘tib bo‘lgan edi, kon og‘zida ularning kulgisi yangrab eshitildi, tog‘lardan bir zum aksi sado kelib turdi.

— Endi sening o‘zingni kirgizmasa-chi? — deb kul-di Bektemir aka yigitning yana ham ingichka tortgan ko‘ylakchan gavdasiga qarab.

— Meni tanishadi, — deb qo‘l siltadi Akbarali. — Propusk olsak ham bo‘ladi-yu, idora uzoq. Bitta hiyla ishlataylik-chi, o‘tarmikan. — Ikkalasi yana yayrab kului. Bektemir aka ustidagi formali pidjakka qarab-qarab quvonardi.

— Erta-indin o‘zimga ham tegadi, Xudo xohlasa.

Qorovulxonada ularga hech kim indamadi, yo‘lakda qo‘llariga bittadan karbid fonari olib, boshlariga kaska kiyishdi-da, konga kirib ketishdi.

Tog‘ qa‘rining zaxsovug‘i birdan ko‘krakka urdi. Piyoda yuradigan taxta yo‘lak zax devor bo‘ylab borar, temiryo‘l izlari uchrashgan chorrahalardagina tunnel biroz kengayib, yorug‘ maydonlarga olib chiqar edi. Bektemir aka bosh ustidagi yo‘g‘on-yo‘g‘on kabellarni, issiq-so-vuq suv, havo quvurlarini, elektr, telefon simlarini ushlab qo‘yar, Yevropada ishlagan konlarini gapirib, chiroqsiz, havosiz, xuddi ko‘rkalamushdek yer qaziganlarini eslab, u yerlarda insonning xorligini so‘zlab borardi. Ular uzoq yurishdi. Tepadan chakka tomib badanlarni junjiktiradi, ruda ortilgan vagonetka eshelonlari o‘tganda, quloqlari-

ga barmoqlarini tiqib, devorga yopishgancha to‘xtab turishadi. Necha-necha «tor ko‘cha»larga kirib chiqishdi, uzoq shtreklarga borib kelishdi, zaboylarda odamlar bilan gaplashishdi, bir yarim soatcha yurgandan keyin orqaga qaytadigan bo‘lishdi.

– Ha... – dedi Bektemir aka, – avval yordamchi bo‘lib biron kasbga zehn solib yurishga to‘g‘ri keladi. Murakkab-lashib ketibdi...

– Nima bo‘lsa ham konchi bo‘ldingiz endi, Bektemir aka, – dedi Akbarali.

Tog‘ qa’ri jimjit bo‘lib qoldi. Taxta yo‘lak tagida shildirab suv oqar, chirog‘ini silkib oldinda ketayotgan Bektemir aka o‘ychan jilmayar edi: u chindan ham konchiga o‘xshaydimi?

Bir mahal muyulishga kelganlarida qayerdadir chaqmoq chaqilgandek bir nima yilt etdi-da, ikkalalarining ham ko‘zları qamashib, bir zum hech narsa ko‘rmay qolishdi. So‘ngra zulmat taralganda, bir-birlariga savol nazari bilan qarashdi. Bektemir aka temiryo‘ldan sakrab o‘tib, oldinga yugurdi. Nariroqqa borganlarida bir nima chirs-chirs etib, yana chaqmoq chaqildi.

– Bu yoqda! – dedi Bektemir yana oldinga yugurib.

Ho‘l taxtalar ustidan oldinma-keyin yugurib, toyib, qoqilib bir joyga yetib borishsa, yo‘l chetida devorlari betonlangan katta kameraning shifti o‘pirilib, yo‘g‘on relslardan yasalgan temir balkalarning bir uchi muallaq osilib yotibdi. Butun temir balkalardan payvandlab ishlangan og‘ir shift bir chetidangina ilinib, lopillab turar, har lopillaganida allaqayerida chirs-chirs elektr chaqmoq chaqib butun shtreklarni dam charaqlagan shu’laga, dam zim-ziyo qorong‘ilikka g‘arq etar edi.

Akbarali yaxlit temir shiftning vahimali lopillashidanmi yo ko‘zları hech narsani ko‘rmay qolganidanmi, o‘zini yo‘qotib baqira boshladi:

– Ehtiyyot bo‘ling, qoching, Bektemir aka!

Elektr hamon chirsillab ko‘z ochirmas edi, ular bir-birlarining qayerda turganlarini ovozlaridan, nafas olishlari-dangina payqashar edi.

– Transformator! – deb qichqirdi Bektemir. – Hozir balkalar bosib tushsa, transformator portlaydi! Bu – yong‘in degan gap, zaboylarda odam bor! Bu yoqqa yur!

– Qoching! Nima qilmoqchisiz?

– Transformatorni o‘chirish kerak, portlaydi!

– Qoching, bosib qoladi hozir!

– O‘chirish kerak, falokat yuz bermasin, qayoqdasan?

Chirs-chirs chaqmoq chaqilar, temir shift dahshatli lopillar edi. Bektemir uning tagiga kirib, qaytib chiqdi.

– Dastaga bu yondan yaqinlashib bo‘lmaydi, ko‘zga uryapti.

– Qayoqdasan, ko‘tar buni! – U devor tagida turgan qandaydir eski yashikka yopishdi.

– Qoching, deyapman, Bektemir aka! Ana tushyapti! – deb baqirdi Akbarali. Bektemir bo‘lsa bo‘yin tomirlari o‘ynoqlab yashikni siljitar edi, yashik og‘ir, jiqla suv, chetlariga beton yopishib qotgan...

– Ko‘tarishvor! Bir zumda yacheykadan oshib tushib o‘chirib chiqaman! Qayoqdasan?

Chirs-chirs etgan shu'lada Akbarali uning qonsiz yuzini, og‘irlik zo‘ridan soqqaday bo‘lib ketgan yolg‘iz ko‘zini so‘nggi marta ko‘rib qoldi.

– Qayoqdasan?!

– Qoching, Bektemir aka! Tezroq qoching, portlaydi!

Akbaralining tovushi o‘ziga ham allaqayoqlardan eshitilgandek bo‘ldi. Qayoqqa ketayotganini o‘zi ham bilmasdan, qoqla-surina qochar, baqirar edi. U negadir birdan darmonsizlandi, tomog‘i xirillab, ovozi chiqmay qoldi, chakkasini ushlagan qo‘lida qon yuqini ko‘rib yana vahimasi oshdi. Uzoqda tuynukdagidek bo‘lib kun yorug‘i ko‘ringanda hammayoqda chiroq o‘chdi. Yo‘llar, shtreklar zim-ziyo bo‘lib qoldi. Shu payt orqada bir nima gursil-

lab, uzoqdan mudhish faryod eshitildi. Bu achchiq tovush oyog‘idan chalgandek, Akbarali qorong‘ida zax devorga yuzi bilan suyalib qoldi. Biroq shtreklardan nimadir guvul-lab uni quvlab kelayotgandek edi, haligi tovushning tog‘ qa’ridagi aksi sadosi eshitildi qulog‘iga. U tuproq devorga suykalib, tirmashib oldinga siljidi, nafasi bo‘g‘ilib, uzoq-dagi kun yorug‘i uni o‘ziga tortayotgandek edi. Haligi tovush... Bektemirning tovushi. Uni temir balkalar bosib qoldi. Ulgurmadi. Transformatorni o‘chirdi-yu, o‘zi chiqib olishga ulgurmadi... Qochish kerak, endi qochish kerak!

Kimdir qo‘rqmadi, u qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rqdi. Bir zum... Bir zum. O‘scha hal qildi. Qaytmoqchi ham bo‘lgan edi, qaytmadi. Yashik... og‘ir, sementli yashik... Qayt-madi. Qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rquv... Endi qochish kerak! Qochish kerak!

– Qochish kerak!!!

– Bolam, Akbarali! Menga qara, o‘rgilay, ag‘darilib yot, bolam, bosinqirayapsan...

Akbarali o‘rnidan sakrab turib, chakkasini ushlab ko‘rdi – qo‘lida qon yuqi yo‘q edi. Ro‘parasida, rangi quv o‘chgan onasi turibdi.

– Uxlaganga ham o‘xshamaysan, bolam. Nimadan qo‘rqding, yomon tush ko‘rdingmi?

Akbaralining ko‘z o‘ngida hamon Bektemir turardi. Lekin Bektemir yo‘q. Bektemir temirlar ostida majaqlanib ketgan... Akbarali xunuk tushga o‘xshagan bu o‘ylarini uloqtirib tashlamoqchi bo‘lgandek ko‘zini yumib, boshini silkidi. Boshi toshdek og‘ir edi...

U qochib keldi. Qochib qutulganman deb o‘yladi. Lekin odam o‘zidan qochib qutulolmas ekan. Kallasi ham, ko‘ksi ham bo‘m-bo‘sh...

O‘rtoqlari kelganda yana o‘zini chetga oladigan bo‘ldi. Xola razm solsa, orada eng kamgap, kamsuqumi shu. Ke-yinroq oshnalari chaqirib kelsa ham, «Chiqmayman», – deb javob beradigan bo‘ldi. O‘shandan beri sheriklari ham

kelmay qo‘yishdi. Akbarali ularga qulfi dilini ocholmadi, el bo‘lomadi.

Dardingni aytolmaganingdan keyin el bo‘lomaysan-da.

Shunday vaqtlar ham bo‘lar ekanki, do‘srlaringdan, odamlardan najot so‘rolmaysan, o‘zingni o‘zing himoya qilolmaysan, o‘z orzularing yuziga o‘zing tuproq tortib, jon rishtalarining o‘zing qirqasan.

U yana o‘sha-o‘sha, gardanidan bosgan ko‘rinmas yukan dan bukchayib, dardini birovga aytolmay yo ishida zavq, yo uyqusida halovat, yo oshida ta’m sezmay kunlarni, oylarni yolg‘iz, yer suzib o‘tkazdi.

...Sharofat xola yotib qolgandan keyin Hadyaning ham, Abdusamadlarning ham daragi bo‘lmay ketdi. Akbarali hammasini o‘zidan cho‘chitib, bezdirib qo‘yganga o‘xshaydi. U uyning qorong‘i bir burchagida uzoq yolg‘iz o‘tiradigan bo‘ldi. Ba’zan o‘z-o‘zi bilan gaplashadi: «Bir zum... faqat bir zum... O‘sha lahzada bir zумгина o‘zimni boshqacha tutganimda edi... Odam o‘zini o‘zi o‘ldirganda ham unga bir zumlik bardosh yetishmay qoladi, deyishadi...». Yana allanimalar deydi. Keyin qo‘rqib o‘rnidan turib ketadi.

Borib qayoqlardandir ichib keladi, kechasi uxlamay u yoqdan bu yoqqa ag‘darilib chiqadi.

Keyingi vaqtida onasiga, uning betobligiga ham e’tibor bermay, allaqayoqlarda bir nima qidirgandek, bir o‘zi tentirab yurar, kech qaytar edi. Bugun ham kun botguncha aylanib yurib, posyolkaning ovloq bir yeridagi kimsasiz bufetga kirib bordi. Bu yerda bufetchi xotin uni tanib qolgan edi, so‘ramasdanoq, ikki yuz gramm aroq quyib berdi. Ishsiz kunlari Akbarali bu yerga ikki-uch qayta kelib ketadi, boshqa kunlari bo‘lsa ishdan keyin...

Uyda Sharofat xola kasal. O‘ziga qaramasa ham, o‘g‘lining hushtak chalib, papiro tutatib kelganiga ba’zan xursand bo‘lib bosh ko‘taradi. Ammo qarovsiz qolgan bemorning ahvoli kundan kun og‘irlashardi. Ayniqsa,

o‘g‘lining undan yashiriqcha icha boshlaganini payqagach, u so‘nggi ilinjini ham yo‘qotgandek bo‘ldi.

– Oyi! – dedi Akbarali bir kuni mast holda onasining yoniga o‘tirib.– Men hammasini aytib berdim. Sonyaga. Bufetchi xotinga aytdim...

– Nimani aytding, bolam?

– O‘shani... U yoqda... odam o‘ldirganimni... Sabab bo‘lganimni. Sharofat xolaning ko‘zi tindi, xuddi tushdagidek, tubsiz qorong‘i jarlikka sho‘ng‘ib ketdi. Lekin hushi bor edi, gapirolmas edi, xolos. «Iloyo, ketib qolmasam bas. Yana qittak quvvat bor!» – deb o‘ylaganini biladi. Anchadan keyin tili aylandi:

– U nima dedi, bolam?

– Ichgin, unutasan, dedi.

Akbarali omonat o‘tirgan joyidan gandiraklab, yiqilib tushishiga sal qoldi. Sharofat xola darmonsiz qo‘li bilan uni ushlab qolmoqchi bo‘lib, allanima dedi. Endi unga baribir edi. «Endi u dunyoligimni o‘ylashim kerak», – deb qo‘ydi ichida. Shuning uchun: «Kimni, nega, qanday qilib?» – deb so‘rab o‘tirmadi.

– Sen, bolam, bufetchi xotinga emas, boshqa hech kim-ga ham emas, faqat shodasoyliklar oldiga borib gunohingni o‘tinishing kerak. Faqat o‘shalar gunohingdan kecha oladi. O‘zingni ko‘rsat, bosh eg. Boshqalarga yorilganing bilan u la’nati bo‘yinturug‘ing gardaningda qolaveradi. Qaytaylik, jon bolam, ko‘zim ochig‘ida...

Mast Akbarali karavotdan sirg‘alib, qoq polga mukka tushdi-da, bo‘kirib yig‘lab yubordi...

Shu kechadan keyin Akbarali ichkilikni tashlay olmasa ham, soqoli o‘sgan, qovog‘i salqi, mast holda onasiga qatiq-sut, dori-darmon olib kelib berib yurdi. Ammo Sharofat xola endi na ovqat yer, na dori ichar edi. Bir kuni u o‘g‘lini yoniga chaqirib, vasiyat qildi:

– Rozi bo‘l, bo‘tam... Shodasoyga olib borib, otabuvalarimiz yoniga qo‘y, men ham rozi ketay, jon bolam... Tirigimda unamading...

Akbaralining kayfi birdan tarqab, zaif badanini titroq bosdi, rangi oqarib ketdi. Faqat anchadan keyingina o‘ziga kelib:

— Oyi!— deb o‘zini karavotga tashladi. Lekin Sharofat xola allaqachon ko‘z yumgan edi...

— Men o‘ldirdim sizni, oyijon, men o‘ldirdim, men, men, men!.. — derdi Akbarali ikki qo‘li bilan salqi yuzlarini changallab.

...Akbarali ona qabridan bosh ko‘tarib, o‘rnidan turga-nida atrof nimqorong‘i edi. Oyoq ostida xazon shitir-lab jimlikni buzdi, qo‘nalg‘ada qushlar cho‘chib pitir-lashdi. Akbarali teraklarni, qabr do‘ngliklarini oralab panjaralarga, sag‘ana toshlarga urilib, so‘qmoq yo‘lni izlar, allaqanday vahimadan qora ter bosib ketgan edi. Nima-gadir ilinib yengi yirtildi, qovjirab o‘t bosgan do‘ngliklar, xarsangtoshlar qorong‘ida vahimali soyaday kishi yuragiga g‘uluv solardi. Akbarali nihoyat so‘qmoqni topdi, uzoqdan panjarali darvoza ko‘rindi. Biroq muyulishda bir odam qorasini ko‘rib, sochining tomirlarigacha muzlab ketdi. Odam juda katta edi, u daraxtlar soyasida, qorong‘ida pisib turgandek ko‘rindi. Tanini sovuq ter bosgan bo‘lsa ham, Akbaralini qandaydir g‘ayritabiyy kuch o‘sha tomonga sur-gadi. «Qo‘rqaveramanmi, endi mening qo‘rqadigan joyim yo‘q!» — deb pichirladi-yu, o‘zi istamasa ham oyog‘i tortib ketdi. Odam sharpasi daraxt soyasida birpas ko‘rinmay qoldi, Akbarali dadil bosib borardi. Daraxt orasidan oqarinqirab ufq ko‘rindi. Shu payt besh qadamchagina narida haligi sharpa yana paydo bo‘ldi. Endi u yoni bilan turardi. Akbarali unga qarab to‘xtadi-yu orqaga tisarildi. Birdan... Havogacha titrab ketdi. U baqirib yubordimi, o‘zi bilmaydi, lekin og‘zi ochilib, bexosdan tamom gung bo‘lib qolgan edi. Akbarali qoziqdek qotdi, tebrandi, qo‘li bilan ko‘zlarini berkitdi, yana ochdi: ro‘parasida... o‘zi... ha, o‘zi, Akbarali turardi!

Bu yerdan qanday qilib qochganini u bilmaydi, bir ma-hal borib darvoza panjasiga urilganida sal o‘ziga keldi.

Xayriyat, yiqilib qolmabdi... Yo yiqilib, yana turib ketdimi? Qancha yotdi? Tildan qolmadimikan?

Gapirib ko‘ray desa yonida odam yo‘q. O‘zicha gapirsa ham bo‘ladi-ku. Tili shishinqirab og‘ziga sig‘may turganga o‘xshaydi, lekin yo‘q, aylanyapti.

– Yolg‘on! Yolg‘on! Bas. Qo‘rqmayman! – deb qichqirib yubordi u.

Qorong‘ida jimjit qabriston yangrab ketdi, soyning nariqi qirg‘og‘idagi jardan: «...as!» «...an!» – degan aks sado keldi. Akbarali o‘z tovushidan yana qattiqroq qo‘rqib ketgan edi. «Nega qichqiryapman? – deb o‘yladi.– Bu jinilik alomati emasmikan? Bu ko‘zimga ko‘ringan odam... odam? O‘zim-ku bu! Yo jinni bo‘lganda odam o‘ziga o‘zi ko‘rinarmikan? O‘zim...»

Ha, bu uning xuddi o‘zi edi. O‘sha qirra burun, yonog‘i chiqqan oriq yuz... Lekin qop-qora. Soya!

...U haqiqatan ham, hech narsani o‘ylamay qo‘ydi. To‘g‘ri borib mehmonxonaga kirdi. Yo‘lakda mudrab o‘tirgan semiz xotin biqqi qo‘lini cho‘zib uning pasportini oldi-yu kalitni berib, yana uyquga ketdi.

Akbarali kalitda nomeri ko‘rsatilgan xonani ochib kirdida, yechinmasdanoq karavotga cho‘zildi. Derazalar lang ochiq, tashqaridan Shodasoyning muzdek shovullashi quloqqa chalindi. Bu – ruhan charchagan, jisman ezilib ketgan Akbaralining chalkash o‘ylarini birpasda alla-qayoqlarga olib qochdi, u qachon qotib uxlab qolganini ham bilmaydi. Ertalab junjikib o‘rnidan turdi.

Endi u ancha tetik edi. Tungi g‘alati voqeani aniq eslab, labining bir cheti bilan salgina ma'yus jilmayib qo‘ydi. Qattiq charchagan ekan-da, odamning jinni bo‘lishi ham hech gapmas. Endi nima qilish kerak? Kimga uchrash kerak? Uchrash? Nega? Akbarali hech narsaga tayyor emas, hech qanday rejasi yo‘q edi. Karavotda o‘tirgancha o‘sinqoqollarini paypaslab ko‘rdi. Och qoringa papiro tutatdi. Eshik taqillaganda cho‘chib o‘rnidan turdi, odam tovushi eshitilishi bilan kechagi charchog‘i yana qaytib kelgan-

dek, ichida nimadir yana so‘ndi, bo‘shashib, loqayd bo‘lib qoldi.

Eshik qoqqan kechagi semiz xotin ekan, Akbaralini ko‘rib, qo‘rqib ketgandek, g‘alati salomlashdi-da, stolga mehmonxona anketasini tashlab, to‘ldirib berish kerakligini aytib, chiqib ketdi.

Akbarali anketa qog‘ozni qo‘liga oldi. Ikkita. Ikkita tashlab ketibdi. Nega ikkita? Har ehtimolga qarshi deb bo‘lsa kerak, biri buzilib-netib qolsa...

Nimalarni o‘ylayapti o‘zi? Shundan boshqa o‘yi yo‘qmi? Yo‘q-da, miyasiga tuzuk-quruq o‘y kelmay qoldi. Miyasi karaxt. Nima gap o‘zi? Nima qilish kerak? Bu yerda nima qilib o‘tiribdi? Anketa... mana, anketa to‘lg‘azish kerak.

U beixtiyor g‘ijimlab qo‘ygan anketani stolga yozib, kafti bilan tekisladi-da, qo‘liga qalam oldi. Qog‘ozga tikildi. «Akbarobod posyolka mehmonxonasi» deb yozilgan edi anketaning tepasida. Akbarali o‘qidi, negadir iljayib qo‘ydi, keyin hijjalab o‘qigandek, yana uzoq tikilib turdi. Ko‘zini pirpiratdi. G‘ijim qog‘ozni kafti bilan yana tekislab, yana o‘qidi, ikkinchi anketani ham olib, solishtirib o‘qidi. Ko‘zini chetga olib birpas o‘tirgach, yana tikildi. Qog‘oz lovullab yonib ketgandek, seskanib o‘rnidan turdi. Eshikka otilmoqchi bo‘ldi-yu, ostonada to‘xtab, yana stoldagi qog‘ozlarga qaradi. Oyoq uchida qaytib kelib, ko‘zini uqalab, yana o‘qidi. Endi buning ro‘yo emasligiga astoydil ishondi shekilli, yuzi qog‘ozdek oqarib, o‘rniga o‘tirib qoldi. Suvdan chiqib qolgan baliqdek og‘zini ochib ancha o‘tirgandan keyin, qog‘ozga bir nima bo‘lmadimikan, degandek qiya ko‘z tashladi. Qog‘oz turibdi. Tepasiga aniq yozilgan: «Akbarobod posyolka mehmonxonasi». Akbar... Akbarali... Akbarobod... Nega Akbarobod? Shudasoy edi-ku? Oti boshqa bo‘libdi-da. Boshqa... boshqa Akbar.

Shu payt ro‘paradagi toshoynaga ko‘zi tushib, o‘rnidan sapchib turdi. Ko‘zguga yaqinlashdi, birdan terga tushib,

tizzalari qaltiray boshladi: unga basharasini soqol bosgan, yonoq suyaklari turtib chiqqan, rangsiz, yovvoyi bir odam ko‘zları baqraygancha tikilib turardi.

— Bu boshqa... Boshqa, boshqa! — deb qichqirib yubordi Akbarali. Birdan lop etib kechagi go‘ristonda ko‘rgan odam qorasi yodiga tushdi. U Akbaraliga ko‘proq o‘xshardi...

U hozir boshi tars yorilib ketadigandek, otolib yo‘lakka chiqdi. Semiz xotin qahrabodek husayni uzum bilan choy ichib o‘tirardi. Cho‘chib o‘rnidan turdi.

— Menga qarang... Menga qarang... — dedi Akbarali unga. Lekin tili aylanmay qoldi. Qo‘li bilan g‘alati harakatlar qildi-yu, xotinning qattiq qo‘rqqanini ko‘rib, ga-pirolmay, shoshgancha ko‘chaga otildi.

Shu ketgancha yuguraverdi.

Tongda suv sepilgan asfalt yo‘lkalar salqin, ozoda, tov-silib (*tovlanib*) qolgan kuzak gullar sof havoda xushbo‘y hid taratib turadi. Hansiragan Akbarali bularni payqayot-gani yo‘q, unga havo yetishmayapti, etagiga o‘t ilashgandek hamon yugurmoqda. Qayoqqa ketyapti, o‘zi bilmaydi.

Bir mahal uni kimdir chaqirgandek bo‘ldi. U orqasiga qayrilib qarashga jur‘at qilmay, to‘xtab devorga suyandi. O‘pkasi og‘ziga tiqilgandek hansirar edi. Haligi ovoz yana keldi.

Bu chorrahadagi reproduktor edi. Unda konchilar hayotining so‘nggi yangiliklarini eshittirishmoqda: «Akbarobodliklar kecha yana bir quvonchli voqeanning guvohi bo‘ldilar: mahalliy futbol komandası Olmaliq sportchilarini qabul qilib...»

Akbarali yana yugurdi. Uni qandaydir bir dahshat quvlab borar, noaniq bir fikr oldinga sudrar edi. Dokadek oqargan, badanlari qaltiragan holda go‘riston darvozası oldida paydo bo‘ldi. Avval darvozaning salqin pan-jarasidan ajralolmagandek anchagacha yopishib turdi-da, keyin yana yugurdi, qoqla-surina kechagi qora ko‘ringan

muyulishga yetib bordi. U oyoqda zo‘rg‘a turar, ko‘zlarini ishqalab-ishqalab haykalga tikilar, hech narsa ilg‘amas edi.

Chala sarg‘aygan qayrag‘och soyasida, qabr ustida chog‘roqqina bronza haykal. Kecha shomda ko‘lankaday qorayib, katta, haybatli bo‘lib ko‘ringan ekan.

Akbarali avval tepada suzib borayotgan bulutlarni ko‘rdi. So‘ngra qayrag‘ochning haykalga soya solib turgan shoxini. Shundan keyin o‘zining yaqinlashdi yoshlik davriga juda o‘xshash, chiroyli, irodali, navqiron bir konching qiyofasiga ko‘zi tushdi.

Odam o‘ziga o‘zi tikilib tursa, g‘alati bo‘larkan. Boshqa olamdan, narigi dunyodan kelgandek... Akbaralining hushi o‘zida bo‘lmasa ham, lekin negadir haykalni o‘z qo‘li bilan ushlab ko‘rgisi keldi. Sarg‘aygan o‘tni bosib, o‘zining bronza qiyofasidan ko‘z uzmasdan, asta yaqinlashdi, qo‘lini uzatib sovuq xarsang toshga barmoqlarini tegizdi. Yana yaqinroq qadam bosay deganida qabr do‘ngligiga qoqindi. Go‘r... Akbaralining go‘ri. Ancha cho‘kib ham qolibdi...

«Men tirikman, men tirikman...» – derdi ko‘nglida boshqa bir fikr dam-badam bosh ko‘tarib.

O‘zi esa haykalni paypaslarkan, pichirlardi:

– Akbarali... Akbarali G‘oziyev...

Toshga o‘yib zarhal bilan yozilgan lavhada ham shunday deyilgan edi:

AKBARALI G‘OZIYEV (1931—1960)

*Konchi do‘sstarini halokatdan qutqarish
yo‘lida qahramonlarcha halok bo‘ldi*

Akbarali endi hech narsaga hayron bo‘lmaydigan bo‘lib qolgan. Hayron bo‘lish, o‘ylash qobiliyatini yo‘qotgan, bir mo‘jiza yuz berib, otasi bilan onasi tirilib kelib, hozir ro‘parasida paydo bo‘lsa ham hayratda qolmas edi chog‘i.

U bir qo‘li bilan xarsangga suyangancha qotib qoldi, ko‘zi tindi. Anchadan keyin zarhal harflar ko‘z o‘ngida yana paydo bo‘ldi: «A-k-b-a... Akbarali G‘oziyev... halok bo‘ldi».

U yana ko‘zini yumdi. Miyasining qaysi bir burchidadir kichkinagina umid, bir o‘y sarg‘aygan bargday zo‘rg‘a ilinib, qiltillab turar edi: «Ko‘zimga ko‘rinyapti, hozir ko‘z ochaman-u mening otim o‘rnida Bektemir akaning oti paydo bo‘ladi!»

Yo‘q, yana o‘zining oti paydo bo‘ldi. U harflarni paypaslab ko‘rdi, ularni qaltiliq bargday zo‘rg‘a ilinib, qiltillab turar edi: «Ko‘zimga ko‘rinyapti, hozir ko‘z ochaman-u mening otim o‘rnida Bektemir akaning oti paydo bo‘ladi!»

Qon yuqini ko‘rib hushi yorishgandek bo‘ldi, bu qon allanimalarni esiga soldi. Qon, zax... qorong‘i shtreklar. Dahshatli shovqin, achchiq yovvoyi tovush, ingrash...

Akbarali qonli barmog‘iga yana qarab, talpindi, qochmoqchi bo‘ldi, keyin bo‘shashib to‘xtadi: «Axir bu Bektemir aka-ku! Bektemir aka halok bo‘ldi! Odamlarni deb... majaqlanib ketdi!»

U qovjiragan maysaga o‘tirib yig‘ladi. Uzoq yig‘ladi, endi tamom hushiga kelgan edi, voqeа butun tafsilotlari bilan yodiga tushdi, yana bir marta xayolidan o‘tdi. Hatto o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan tafsilotlar ham ko‘rinib ketdi ko‘ziga. Mana, konda chiroqlar o‘chib, barcha motorlar, konveyerlar to‘xtagandan keyin hamma shtreklardan qo‘l fonarini yoqib konchilar chiqib kelishdi. O‘n, o‘ttiz, yetmish, yuz kishi... Ular transformator yonida temir tom bosgan yolg‘iz murdani topadilar, qurshab oladilar, kaskalarini yechadilar. Qorong‘ida uzoq sukut. Yuzlab odamlar hayotini saqlab qolgan bu mardning kim ekanligini hech kim aytolmaydi, yuzi tanib bo‘lmaydigan darajada majaqlanib ketgan... Keyin kostum... kastum cho‘ntagidan propusk, shaxsiy guvohnoma chiqadi.

Akbarali Bektemir akaning baxtiyor kulib turgan yuzini ko‘z oldiga keltirdi, u konchi formasini kiyganda qanday quvonib ketgan edi: «Yarashdi, yarashdi, Bektemir aka!» «Ha, yaqinda o‘zimga ham tegadi!...»

Guvohnoma: Akbarali G‘oziyev. Hamma yerda hayratomuz, musibatli tantana. Mitinglar. Akbaralining nomi tildan tushmaydi. Qariyalar duoda, tirik qolgan konchilarning bolalari uning fidokorligiga bag‘ishlab sborlar o‘tkazadilar. Haykal, muzey... Konchilar posyolkasi «Akbarobod» deb ataladi. «Akbar», – desa onalarning ko‘ziga yosh keladi. Akbarali ezgu nom...

Bu-chi, bu bo‘lsa ayanchli bir qo‘rroq, chirkin bir hasharotdek kovaklarda pisib yuribdi, o‘zining la’nati, iflos vujudini, bir paqirga qimmat jonimi o‘ylab do‘slik, muhabbat, ona mehridek ezgu narsalarni poymol qilib kelib, mana, go‘ristonda o‘tiribdi, tiriklar u yoqda tursin, yonida-gi qabrlarga ham bosh ko‘tarib tik qaragani haddi yo‘q.

«Odamlarning soddaligi! Odamlarning sofligi... aziz armonlari. Yo‘q, bular meni bu dunyoga sig‘dirmaydi. Men qayoqqa borishim kerak? Bektemir aka! Notanish odam... Qora yerda men yotsam bo‘lmasmidi! – Akbarali qabr toshidan boshini ko‘tardi. – Men yana o‘zimni o‘layapman. Nahotki, shundan boshqaga yaramasam?.. Yarar edim, o‘sha bir zum – daqiqadan o‘tib olsam, al-batta, yarar edim. Lekin endi... endi kech. Bir zumlik xato. Bir nafas tubanlik... uni endi butun hayotni berib ham tuzatib bo‘lmaydi. – Akbarali o‘zining haykaliga qaradi. – Xayr... Bektemir aka»...

– Meni hech kim tanimayapti, bobo! Hech kim tanimayapti... – deb yig‘lab yubordi Akbarali qissasini tugatar ekan.

Ko‘zlarini javdiratib ag‘rayib o‘tirgan Azimjonga ham u endi bu dunyoning odami emasdek tuyulib ketdi. Yuzi uniqqan, oriq, cho‘kib ketgan ko‘zlari nursiz. Odamga tikiladi-yu, hech narsani ko‘rmayotgandek. Shuncha hikoyadan keyin ham u Azimjonga begonaligicha qoldi.

Uzoq jimlik cho‘kdi. Vaqt yarim kechadan og‘ib qolgan, tun salqin edi. Ochiq derazadan Shodasoyning salqini bilan qayerdandir pishgan behi hidi anqib kirdi. Qizg‘ish lampochka zirillab yonar, Ochil buvaning ajin peshonasida ikki tomchi ter yaltirar edi.

O‘rtadagi stolda o‘sha to‘ldirilgan anketalar yotibdi. Azimjon bu jimlikda nima bilan shug‘ullanishini bilmay, stolda yotgan qalamni olib, anketaga bir nimalar chizdi. Rus harflarini mashq qilib, «Akbarobod... Akbarobod», deb takrorlab yozdi. Qiziq... U Akbarobodda o‘tiribdi. O‘z xolavachchasi Akbaralining shahri. Chiroyli shahar. Chiroyli afsona. Sirli mangulik... (Azimjonning ko‘zi Akbaraliga tushdi.) Faqat mana bu odam...

Xona hamon jimjit. Tun ham bu uch odam o‘rtasidagi sirni saqlashga qasd qilgandek, og‘ir sukulga tolgan edi. Lekin Ochil buva jimlikni buzdi:

– Ha, bolalarim... Odam deb o‘lgan odam – doim tirik bo‘ladi.

Bobo o‘zi o‘ylab o‘tirgan gapni yakunladi shekilli, Azimjon bunga uncha tushunmadi. Voqeа butunlay buning aksini ko‘rsatib turibdi-ku: odamlarni deb o‘lgan Bektemir aka degan kishi, u o‘lib, nom-nishonsiz ketgan. Tiriklar – boshqa...

Lekin Azimjonga bobosining gapi yoqdi: «Odam deb o‘lgan odam – doim tirik». Azimjon buni hatto anketa qog‘ozining orqasiga mashq qilayotgan ruscha harflar bilan yozib ham qo‘ydi, yana bir o‘qib ko‘rdi.

Akbarali ma’nosiz ko‘zlari bilan bo‘shliqqa tikilib o‘tirar edi. Ochil buva «Yotib dam olish kerak», – deb o‘rnidan turganida u birdan ko‘zlari mo‘ltillab unga yolvorganday termilib qoldi: «Aytadigan gapingiz shumi? Endi men nima qilaman?» – degan qo‘rquv bor edi ko‘zlarida.

– Ertalab miya tiniqroq bo‘ladi. Bir chorasinи toparmiz, hozir kech bo‘lib qoldi, sen ham yotib dampingni ol.

U soqolini silab o‘rnidan turganda, salobatli gavdasi xonani to‘ldirgandek bo‘ldi. Uning bir maslahat bermay o‘rnidan turishi Akbaraliga o‘lganning ustiga tegpandek bo‘ldi shekilli, battar quti o‘chdi. Azimjon u bilan bir zum yolg‘iz qolishga qo‘rqqandek bobosiga ergashdi.

Ular o‘z xonalariga chiqib yotishdi. Qayerdadir xirqiroq xo‘roz qichqirardi.

– Adashib qolgan jo‘jaxo‘roz bu. Hali vaqt bor, uxla, dampingni ol, – dedi Ochil buva chiroqni o‘chirib yotarkan.

Lekin Azimjon payqadiki, boboning o‘zi uxlayotgani yo‘q. U hadeb u yoqdan bu yoqqa ag‘darilaverdi. Akbaralining fojiasi uni endi to‘lg‘antira boshladi shekilli. Dam nafasi ichiga tushib ketar, dam uzun, chuqur uf tortar edi.

Azimjon bir vaqt boshini ko‘tarib qarasa, bobosi qorong‘ida oppoq bo‘lib karavotda o‘tiribdi: soqoli oq, ko‘ylak-lozimi oq. Tushundiki, boboning Akbaralining oldidan «Yotamiz, dam olamiz», – deb chiqib kelgani yotish, dam olish uchun emas ekan.

– Bobojon, nega indamadingiz, maslahat berma dingiz? – dedi Azimjon bobosining yoniga borib o‘tirarkan.

– Men shu uzundan uzoq umrimda-chi, bolam, hech qachon bunday ojiz, bunday ayanch holga tushgan emas dim, – dedi Ochil buva.

Shundan keyin ikkalasi ham indamadi. Ular shu o‘tirganlaricha tong otguncha karavotda o‘tirib chiqishdi.

– Dam olsin, o‘ziga kelsin, – deb qo‘yardi Ochil buva har zamonda. O‘zi bo‘lsa o‘tirgan joyida tebranib, keksa asablarini bosishga urinar, peshonasini artib-artib o‘y surar edi.

– Siz hech qachon ayanch holga tushmaysiz, buva, – deb shivirlaydi yonida Azimjon. – Siz... siz hamma nar saga xo‘jayinsiz. Nazarimda, qismat ham sizning qo‘lin gizda... Bizning shirkatimizning bosh direktori keksa odam. Nufuzli pirga qo‘l bergen. «Pirimming olti ming muridi bor», – deb maqtanardi. U pirni ko‘rganman. Juda xasis odam, nasha chekar edi. Mashina bosib ketdi...

Azimjon «Buni nega gapiryapman?» – deb xijolat che-
kip o‘tirgan edi, bobosi kulib yubordi – ta’sir qilibdi:

– Pirni mashina bosib ketibdi, degin? – Ochil buva yana
maza qilib kuldii.

Shu bilan ular jonlanib, o‘rnilaridan turishdi. Deraza-
lar tong shafag‘idan qizargan edi. Yuvvinib-kiyinishguncha
yo‘lakda qadam tovushlari ham eshitila boshladi, chelak-
larini taraqlatib farroshlar ishga tushishdi.

Bobo-nevara boshlashib chiqib, Akbaralining eshigini
qoqishdi. Qiya turgan eshik ochilib ketdi. Akbarali yo‘q
edi. Xona o‘sha-o‘sha: tartibsiz, derazalar lang ochiq, joy
g‘ijim.

Ochil buva kirishi bilan yuragi «shuv» etdi-yu, indamay
o‘tirdi: birpas kutish kerak. Azimjon yo‘lakka mo‘raladi,
allaqayoqlarga borib ham keldi, xonaning egasi hech qa-
yerda yo‘q edi. Besh minut o‘tirishdi, yigirma minut...
Ochil buva toqati tugab o‘rnidan turmoqchi edi, stoldagi
anketa qog‘oziga ko‘zi tushdi. «Adem dep o‘lgen adem
dayemo tirik». Bu Azimjonning qo‘li. Kechagi yozgani.
Xatolari bo‘lsa ham ancha o‘rganib qolibdi. Zehni joyida.
Bunisi nima? Tagida yana bir xat bor-ku. Qo‘li qaltirab,
aji-buji, lekin xatosiz yozibdi: «O‘zini deb yashagan –
o‘lik». Oho, hikmat-ku! Ikki satr bayt bo‘pti!

Ochil buva jilmaygancha birpas yozuvga tikilib
o‘tirgach, yuziga yolqin urgandek, birdan o‘rnidan turib
ketdi. Yalt etib derazaga qarab, qog‘ozni cho‘ntagiga tiqdi.
Eshikka otildi.

O‘qdek o‘tib ketgan chol bilan yigitga yo‘lakdagilar
anqayib qarab qolishdi. Azimjon qayooqqa ketishayotganini
hali bilmas, bobosiga arang yetib yurar edi. Bobo meh-
monxonani aylanib o‘tib, o‘t bosgan chorborg‘ ustidan yo‘l
soldi, paxsa devor raxnasidan oshganlarida go‘ngtep padagi
bir to‘da tovuq vahima bilan qaqlagancha tirqirab qochdi.
To‘zg‘igan pat ichidan chiqib kuchukka yo‘liqishdi, xayri-
yat, bog‘log‘liq ekan, tomorqadan tekis yalanglikka chiqib
olishdi.

Yalanglikda Ochil buva qadaminini sekinlatib, nafasini bosishga urindi. Lekin rangi oqargan, to‘g‘riga tikilgan ko‘zlarida odatdagagi vazmin xotirjamlik yo‘q edi. Yalanglik ko‘m-ko‘k maysa, oyoq bosilmagan; shabnam nuqraday yiltillar, tep-tekis edi. Ikki yuz qadamcha yurganlarida yalanglik bilan qirqilib, tikka tushib ketgan jar tagida qaynab oqqan Shodasoy ko‘rindi, salqin shamoli, yurakka vahima soladigan shovullashi yuzlarga urdi.

– Bobo! Beriroq turing! – deb qichqirib yubordi Azimjon.

Ovoz eshitilmasa ham, Ochil buva bir qadam orqaga chekindi. Soyning betinim shovullashidanmi, ko‘p yugurganidanmi, yo noma’lum hayajondanmi – Azimjonning boshi aylanib ketdi. Bobosi uning yuziga qarab, ahvolini tushundi, lablari qimirladi: «Bu yerda hamma ham shunday bo‘ladi, qo‘rqma», – dedi shekilli. Uning etigi qo‘njigacha nam, yuzida ojizlik, musibat ko‘lankasi kezar, soqoli sal titrar edi. U avval jar ostida ko‘piklanib turgan soyga uzoq qarab turdi, keyin cho‘kkalab shabnamda qolgan qandaydir izlarni paypasladi, kaftini soqoliga surib o‘rnidan turdi, orqaga qaytdi.

Azimjon ergasharkan, voqeani tushungan edi. U Akbaralining qissasidan bu jar haqidagi so‘zlarini esladi: «Tagida yalmog‘iz kamar bor deyishadi. Bolalarni u yerga yo‘latishmasdi. Meni ham dadam u yerdan quvlagani-quvlagan edi...»

Soyning suroni orqada qolgandan keyin, qaltiroq bosib ketgan Azimjon so‘radi:

– Siz shunga aminmisiz, bobo?..
– Ha, – dedi Ochil buva nevarasiga hazin qarab. Cho‘ntagidan g‘ijimlangan qog‘ozni olib unga tutqazdi. Azimjon dam to‘xtab, dam yurib uzoq o‘qidi. Akbaralining kechagi qutsiz yuzi, ma’nosiz qarashlari ko‘z oldiga keldi.

– Kechqurungi o‘sha gapingiz... turtki bo‘libdi-da, –

dedi u bobosiga, – Komilani uydan haydab bir xato qilgan edingiz. Bu safar ham...

– Bu safar xato qilganim yo‘q. O‘zi... bandi mo‘rt edi. Uchdi ketdi.

– Berahmsiz...

– Hayot berahm. – Cholning qatlam-qatlam ajin bosgan ko‘z yonlari namlandi. – Qo‘rroqqa, ayniqsa, berahm. Bola ahvolni o‘zicha tuzatmoqchi bo‘lgan. Lekin yana qo‘rroqlik bilan. Yo‘q, xatoni tuzatish, haqiqatni yuzaga chiqazish uchun jasorat kerak, sen ham bilib qo‘y!

«Chinor» romani haqida

Chinakam badiiy asarlarda hayot haqiqati bor bo‘yi bilan tasvirlanadi. Ulardagi murakkab ziddiyat osonlikcha hal bo‘lmaydi, biron falokatni keltirib chiqargan hodisa sababchisini topish yengil kechmaydi. Asar qahramonlari, xuddi hayotdagi singari, Sizning ayblovlaringizdan o‘zini himoya qiladi, o‘zining mantiqiy da’volarini Sizga qarshi qo‘yadi...

«Chinor» romanidagi fojiali qismat egalaridan biri – Akbarali obrazi to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin. Ko‘rganimizdek, Akbarali tappa-tuzuk yigit. Onasini yaxshi ko‘radi, urushda o‘lgan otasining xotirasiga hurmatni yo‘qotmagan.

U «bersang – yezman, ursang – o‘laman» deydigan odamlar xilidan ham emas. Konda, og‘ir sharoitda halol mehnat qiladi, yaxshi ishlagani uchun hatto faxriy yorliqlar bilan ham taqdirlanadi.

Uning qalbi ham insoniy tuyg‘ularga to‘la. Darslikda berilgan parchanigina emas, romanning to‘liq matnini o‘qisangiz, Akbarali va u bilan birga ishlaydigan go‘zal bir qiz o‘rtasida qanchalar haroratlari muhabbat kechganiga guvoh ham bo‘lasiz...

Bir qarashda, bunday yigitning hayotdan baxt talab qilishga, umrini tinch-xotirjamlikda o'tkazishga to'liq haqqi bor. Lekin...

Lekin yozuvchi inson bolasidan kutiladigan vazifa, uning dunyoga berishi lozim bo'lgan hissasi bu bilan cheklanmasligini qat'iy turib isbotlaydi. Dunyoda faqat yaxshi bo'lishning, odobli, itoatli, yumshoqtabiat bo'lishning o'zi yetmasligini uqtiradi. Zero, hayot shunchalar shafqatsiz, uning kutilmagan zARBalari, sinovlari shu qadar ko'pki, inson ularga doimiy tayyor turmog'i lozim.

«Hayotim bir tekis, avvaldan rejalahtirganimdek, ortiqcha g'avg'olarsiz o'tadi», – degan kimsa aksariyat holda adashadi. Agar hayot rejaga, bir chiziqqa doimo bo'ysunganida edi, insoniyat allaqachon o'ziga jannatlarni qurib olgan bo'lardi. Afsuski, o'zbek xalqi topib aytganidek, «Uyning gapi ko'chaga to'g'ri kelmaydi!»

Ancha paytga qadar Akbaralining hayoti bir tekis, ortiqcha tashvishlarsiz kechayotgan, u o'zi sevgan kasbini qilib, tirikchiligin o'tkazib yurgan edi. Agar yarim kechada uning uyiga otasining quroldosh do'sti Bektemir kirib kelmaganida, balki bu sokin hayot yana uzoq davom etgan ham bo'lardi...

Taqdir deganlari o'z aytganidan qolmadi – Akbaralini bir necha daqiqalik sinovga soldi va... shafqatsizlarcha sindirdi!

O'sha mash'um daqiqada Akbaralining ichida kamida ikki his bir-biri bilan ayovsiz olishdi. Ulardan biri: «Yur, Bektemirga yordam ber, agar ikki kishi bo'lsalar, ulgurasizlar! Axir Bektemir otang bilan birga bunaqa xavflarning nechtasini yengib kelishgan. Ular cho'chimagan-ku!» – deb uni oldinga chorlasa, ikkinchisi: «Borma, xavfli, oldinda o'lim turibdi, yosh joning juvonmarg bo'-lib ketadi! Yaxshisi – qoch! Joningni, hayotingni saqla!» – der edi.

Agar fursat salgina ko'proq bo'lganida, ozgina o'ylab keyin bir qarorga kelishga imkon bergenida edi... Afsuski,

bu gal ham alloma G‘afur G‘ulom aytgan haqiqat isbotlandi:

Ba’zida bir nafas olgulik muddat
Ming yulduz so‘nishi uchun yetgulik...

Ming yulduzni so‘ndirishga qudrati yetadigan hal qiluvchi lahzalar Akbarali yulduzini ham so‘ndirdi. Endi uning ko‘rgan kuni – kun emas. Azob-uqubat, vijdon qiyognog‘i, qalb so‘rog‘i...

Bu qiyonoq kundan kunga kuchaysa-kuchayadiki, aslo ozaymaydi. Uning kuchayishiga esa sabablar ko‘p. Ular ichida bir sabab borki, uni aslo unutib, yoddan chiqazib bo‘lmaydi. Garchi romanda bu haqda alohida aytilmasa-da, Siz bilan biz bu sababni, bu holatni sezmasligimiz mumkin emas.

Bektemir bir emas, bir necha yillar davomida dahshatli urushni kechib kelgan. O‘nlab, balki yuzlab marotaba ajalga ro‘para kelib, uning changalidan qutulishga o‘zida kuch topgan. Uni fashist degan – hayotning yovuz kushandasini ham mahv qila olmagan. Bektemir ne-ne o‘limlarni dog‘da qoldirib, «Endi yashayman, urushda ko‘rgan azoblarimning hammasi evaziga ham endi yashayman!» – deb yurtiga qaytgan odam edi! Uning orzulari – oilasi, go‘zal qizchasi suyunishi uchun ham ro‘yobga chiqarmoqchi bo‘lgan orzulari ko‘p edi. U tun-u kun charchoqni bilmay ishlashga, ishlab urush ko‘rgiliklarini unutishga, endi hayotdan faqat va faqat baxt topishga talpingan va bunga to‘la haqqi bor bir jon edi – inson edi! Shunday insonning umriga... Akbarali zomin bo‘ldi!

Yo‘q, u Bektemirni bo‘g‘ib, osib, urib o‘ldirmadi. Hatto haqorat ham qilgani yo‘q. Bor-yo‘g‘i... hech nima qilmadi, xolos...

Unga yigitlik umrida bir marotaba inson bolasi, HAYOT atalmish ne’mat najot qo‘llarini cho‘zgan edi. Bir marotaba undan o‘zining ham INSON EKANLIGINI IS-BOTLASHni so‘ragan edi. Akbarali mana shu HAYOT-

ning qo‘llarini tutmadi, yordamga muhtoj insonning yoni-ga bormadi!..

Bu yog‘i – o‘zingizga ma’lum – azob, azob, azob...

Yozuvchi Akbaralini qurshab olgan mana shu azob-ni bor bo‘y-basti bilan tasvirlaydi, qahramonga qo‘sib o‘quvchini ham shu azob orasidan olib o‘tadi. Akbarali o‘zini chalg‘itishga, o‘sha mash’um lahzani unutishga har qancha urinmasin – foydasi yo‘q! Bektemirning yordam so‘rab qilgan chaqirig‘i quloqlari ostida jaranglayveradi, tushlariga kiraveradi.

«Chinor» romanidan joy olgan bu mungli qissa hali uzoq zamonlar ko‘plab avlodlarni o‘yga toldiradi, ularni ham birrov o‘z umriga, hayotiy a’moliga jiddiy nazar tash-lab, o‘zini taftish qilishga undayveradi. Bu avlodlar orasi-da Siz-u biz ham bormiz, albatta.

Savol va topshiriqlar

1. «Chinor» romanidagi Akbarali obrazi Sizda qanday taas-surot qoldirdi? Unga achindingizmi?
2. Bektemirning orzulari qanday edi? Nima uchun u aynan Akbaralini qora tortib keldi?
3. Asardagi Akbaralining onasi – Sharofat xolaning eng katta orzusi nima edi? Nega u butun umr shu orzu bilan o‘tdi?
4. Asar parchasidan Akbaralining ruhiy qiynoqlari aks ettiril-gan tasvirlarni toping.
5. O‘z qilmishidan qiynalayotgan Akbarali nega onasiga yoki do‘sstariga dardini ayta olmaydi? Bu ham qo‘rqaqlikmi yoki boshqa tuyg‘ular sababmi?
6. Hamma ham Akbaralidek ruhiy qiynoqlarga tushishi mum-kinmi? Bu narsa nimadan dalolat beradi?
7. Ochil boboning Akbarali o‘limidan keyingi so‘zlarini qan-day izohlagan bo‘lardingiz? Nega u Akbaralini «mo‘rt barg» deb nomladi?
8. Akbarali o‘z joniga qasd qilib to‘g‘ri yo‘l tutdimi? U boshqa nima qilishi mumkin edi?

OZOD SHARAFIDDINOV

(1929–2005)

Ozod Sharafiddinov 1929- yilning 1-martida Qo‘qon shahri yaqinidagi Oxunqaynar qishlog‘ida tavallud topdi. U Toshkent shahrida o‘rta mакtabni tugallab, O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti)ga o‘qishga kiradi va 1951- yilda uni muvafqaqiyatli yakunlaydi. Oradan uch yil o‘tar-o‘tmas, Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini ham himoya qiladi.

O.Sharafiddinov mehnat faoliyatining asosiy qismi o‘zi o‘qigan universitetda kechdi. U 1955–1995- yillar oralig‘ida, qariyb qirq yil mana shu ilm dargohida yoshlariga bilim va tarbiya berdi, minglab shogirdlarga beminnat ustozlik qildi.

Uning «Tafakkur» jurnali bosh muharriri o‘rinbosari, 1997- yildan to umrining oxiriga qadar «Jahon adabiyoti» jurnali bosh muharriri vazifalarida ishlagan kezlari ham ni-hoyatda barakali, sermahsul ijodiy yillar bo‘ldi.

Yosh olimning 1962- yilda chop etilgan «Zamon. Qalb. Poeziya» nomli dastlabki kitobiyoq o‘zbek adabiyotshunosligiga juda o‘ktam bir ovoz kirib kelayotganidan darak bergandi. Shundan so‘ng e’lon qilingan «Adabiyetyudlar», «Yalovbardorlar», «Iste’dod jilolari», «Birinchi mo‘jiza», «Talant – xalq mulki», «Adabiyot – hayot darsligi», «Hayot bilan hamnafas», «Go‘zallik izlab» singari o‘nlab kitoblarida O.Sharafiddinov o‘zbek adabiyoti durdonalarini mohir zargar singari sinchiklab tahlil etdi. Hali el nazariga tushmagan o‘nlab iste’dodlarni kashf qildi.



Ozod Sharafiddinovning ko‘plab maqolalari adabiy jamoatchilik orasida birdan og‘izga tushar, turli katta-kichik davralarning munozara mavzusiga aylanardi. Ayniqsa, boshqalar nomini tilga olishga ham cho‘chigan Cho‘lpon, Fitrat singari ijodkorlar to‘g‘risida yozgan maqolalari, e’lon qilgan kitoblari adabiyot ixlosmandlaridagina emas, umumomma orasida ham katta shovshuvlarga sabab bo‘lgandi. (1968- yili O. Sharafiddinov muharrirlik qilgan «Tirik satrlar» nomli to‘plam hamma yerdan yig‘ishtirib olingandi.)

1991- yilda yurtimizning mustaqillikka erishgani Ozod Sharafiddinov hayoti va ijodiga yangi nafas baxsh etdi. Olim «Istiqlol fidoyilar», «Sardaftar sahifalari», «Ma’naviy kamolot yo’llarida», «Dovondagi o‘ylar», «Ijodni anglash baxti» singari kitoblarida milliy mustaqillik yo‘lida kurashgan yirik tarixiy shaxslar – Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor, Oybek, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda singari zabardast adiblar to‘g‘risida eng so‘ngi haqiqatlarni bitdi. Mazkur kitoblardan, shuningdek, Ozod Sharafiddinovning hayot va tiriklikning mazmun-mohiyati, inson umrini qanday o‘tkazishi lozimligi to‘g‘risidagi chuqur mushohadalarga boy falsafiy maqolalari, hozirgi globallashayotgan dunyoning og‘riqli muammolari borasidagi teran mulohazalari ham o‘rin olgan.

Ozod Sharafiddinov dunyo adabiyotining o‘nlab durdona asarlarini, yuzlab donishmandlarning ilmiy-falsafiy maqolalarini ona tilimizga mohirona tarjima qildi. Ellik yil sho‘ro hukumatiga, uning aldamchi partiyasiga sidqidildan xizmat qilib, evaziga ozgina insoniy mehr va e’tibor ko‘rmay, «alam va iztiroblar ichida hayotdan ko‘z yungan» mushtipar onasidan farqli o‘laroq, Ozod Sharafiddinov o‘z xalqining e’tibori va e’zozini qozondi. Unga «Mehnat shuhrati» (1997), «Buyuk xizmatlari uchun» (1999) ordenlari va «O‘zbekiston Qahramoni» (2002) degan eng oliy unvon berildi.

Afsuski, shafqatsiz o‘lim Ozod Sharafiddinovni 2005- yil 4- oktabr kuni hayotdan olib ketdi. Chin ma’no-dagi ziyoli, milliy ma’naviyatimizning yirik darg‘alaridan bo‘lgan Ozod domlaning farzandlariga aytgan so‘nggi so‘zлari ham avlodlarga bir vasiyatdek yangrab qoldi:

«Kitoblarimni asranglar, mening eng katta boyligim mana shu kitoblar edi...»

O‘LSAM, AYRILMASMAN QUCHOQLARINGDAN

Vatan. Vatan tuyg‘usi. Vatan muhabbatি. Nimadir bular? Bular qanday sehrli qudratki, hali voyaga yetmagan, dunyo ko‘rmagan, turmushning past-balandlaridan bexabar, o‘yin-u sho‘xliklardan o‘zga dardi yo‘q bir o‘smirning yuragiga jo bo‘lib olib, butun umr uning xatti-harakatini, yurish-turishini boshqarib turadi? Bu tuyg‘u inson farzandida tug‘ma bo‘larmikin? Yoki go‘dak tamshana-tamshana onasini emganida, ona suti bilan birga bu tuyg‘u uning ham tomirlariga yugurarmikin?

Umuman, «Vatan» deganning o‘zi nadir?

Tug‘ilib o‘sgan uyingmi? Beshikda qulog‘ingga kirgan mungli va ayni chog‘da nurli allami? Buvningning ertak-larimi? Maktabmi? Ilk bor visol onlariga guvoh bo‘lgan so‘lim xiyobonlarmi? Albatta, bularning hammasi va yana allaqancha narsalar birlashib, «Vatan» degan narsaning so‘nmas timsolini yaratса kerak. Va yana o‘ylaymanki, bolaning murg‘ak qalbidagi ilk bor paydo bo‘lgan Vatan timsoli har qancha yorqin bo‘lmasin, hali o‘zining shakl-u shamoyilini to‘la topib ulgurmagan bo‘ladi. Vatan tuyg‘usi insonning o‘zi bilan birga o‘sib ulg‘ayadigan tuyg‘u bo‘lar ekan. Tajribangiz ortgani sari, hayot doshqozonida qaynab pisha borganingiz sari, Vatan degan narsani chuqurroq qadrlaydigan bo‘lib qolasiz. Vatan haqidagi tasavvuringiz to‘lishib, kengayib, boyib boradi...

Shuning uchun men «o'lsam, ayrilmasman quchoqla-ringdan» deya bot-bot takrorlaganimda bilamanki, men Vatanimga kerakman. Kimligimdan, yosh-u qariligidan, kasb-u korimdan qat'i nazar. Bilamanki, mensiz Vatanimning nimasidir kemtik, noto'kis bo'lib qoladi. Ayni chog'da, shuni ham bilamanki, Vatanim menga ko'proq kerak. Vatan mensiz yashashi mumkin, lekin men Vatsiz yashayolmayman! Rost-da! Men yetmishga kirib, umrimda nimaiki ro'shnolik ko'rgan bo'lsam, shu Vatanning bag'rida uning saxovati tufayli, «bir mehribon qo'l» bilan peshonamni silagani tufayli ko'rdim...

Men bunga ba'zan o'zimda yo'q xursand bo'laman, yaratganga beadad shukronalar qilaman, ba'zan esa, Vatanning menga ko'rsatgan behisob inoyatlariga, el-u yurt ardog'iga munosib javob bera olayotganim yo'q, Vatan oldidagi farzandlik burchimni to'la o'tayolmayapman, deb o'kinib qo'yaman. Bu o'kinch meni ko'p narsalar to'g'risida o'ylashga undaydi.

Axir bu go'zal Vatan Allohning el qatori menga ham atagan buyuk tuhfasi. Menden avval o'tgan avlod-ajdodlarim, uni jamiki betakror jozibasi bilan, tunganmas xazinalari bilan menga meros qoldirgan. Xo'sh, nima qilmoq kerak?

Tekin meros ekan deb, uning boyliklarini bir chekkadan sovuraverishim kerakmi? Axir, yotib yesa tog' chidamas ekan.

Yo'q, orqa-oldimizga qaramay sovurish yo'lini tutadigan bo'lsak, bu go'zal o'lka uch-to'rtta avlodning umri o'tmasdanoq odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadigan dasht-u biyobonga aylanadi-yu, biz hammamiz kelajak avlodlarning qarg'ishiga uchraymiz. Baxtimizga, o'tgan avlod-ajdodlarimiz bizga Vatanni meros qilibgina qoldirgan emaslar, balki bu Vatanni chin yurakdan sevishni, unga fidokorlik bilan xizmat qilishni, uning husniga husn, boyligiga boylik qo'shishni ham meros qoldirishgan. Vatanni sevmoq iymondandir, deb ta'lim berishgan ular...

Shu o‘rinda, olis zamonlarda o‘tgan ajdodimiz Shiroq-ning Vatan yo‘lidagi buyuk fidokorligi yodimga tushadi. Biz bu odamning oddiy cho‘pon bo‘lganini bilamiz, xolos. Shuni aniq aytish mumkinki, u biror mакtabda o‘qib, xat-savod chiqarmagan bo‘lsa kerak. Yana shunisi aniqki, u televizor ko‘rmagan, radio eshitmagan, gazeta o‘qimagan. Binobarin, Vatanni sevish, unga jon fido qilish kerakligi haqidagi xitoblar-u siyqasi chiqqan balandparvoz cha-qirqlarni eshitmagan. Lekin yurtiga bostirib kelgan yovni sahroga olib borib adashtirib kelishga qaror qilganida, sah-rodan o‘zining ham sog‘ qaytib kelmasligini yaxshi bilgan. Demak, ona-Vatanini yovdan saqlab qolish uchun ongli ravishda jonini qurbon qilishga otlangan.

Ha, Vatan muhabbatи ana shunday pokiza, oliyanob, beminnat bo‘lmog‘i, har qanday maqtanchoqlikdan, sun’iylikdan, pisandan holi bo‘lmog‘i kerak.

Shu o‘rinda, bir shoirning Vatan sevgisi haqidagi atigi to‘rt misrada aytgan bir gapi esimga tushib ketdi: Vatan uchun kimlar, nimalar qilmagan? Birovlar, Vatan deb jon fido qilgan, birovlar Vatan deb gap sotgan...

Vatanni sevish va ayniqsa, bu sevgini amalda namoyon qilish unchalik oson ish emas. Bu odamdan juda katta jasoratni, bardoshni, chidamni talab qiladi. Qizig‘i shundaki, Vatan o‘z farzandlaridan har oyda, har haftada, har soat, har soniyada jon fido qilishni talab qilmaydi. Vatan yo‘lida sodir bo‘ladigan bunday fidokorlik eng yuksak, eng oliy fidokorlik bo‘lib, u favqulodda hollarda ro‘y beradi. Lekin Vatan sevgisi odamdan bir qarashda mahobatli ko‘rinmaydigan, insонning oddiy faoliyatidan kam farq qiladigan, aslida esa, juda mashaqqatli mehnatdan iborat bo‘lgan kundalik jasoratni talab qiladi...

Sezib turibman – shu o‘rinda bir tabiiy savol tug‘ilishi mumkin – maqolada Vatan sevgisi og‘izda emas, amalda, ishda namoyon bo‘lmog‘i kerak, degan gap ko‘p aytilyapti. Yaxshi, lekin dushman qo‘shinini sahroga olib borib

adashtirib kelishga har kuni ham imkoniyat topilavermaydi-ku? Yoxud bugungi kunda jadidchilik faoliyati bilan shug‘ullanish juda ham joiz bo‘lmasa kerak. Xo‘sh, bugungi oddiy odam nima qilmog‘i, Vatanga muhabbatini qanday namoyon etmog‘i kerak? Axir, tarixda qilingan ulug‘ jasoratlarni hamma ham har kuni qilavermaydi-ku?

Menimcha, Vatan yo‘lida bir ishni qilishni istagan odam avvalo tarixga kirish haqidagi o‘ylarni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘ymog‘i kerak; chunki bir shoir aytganidek, avval ishni qoyil qilmoq kerak, shon-shuhurat esa keyin bo‘lishib olinaveradi...

Faqat bir narsani aytmoq joizki, savob ishlar, shu jumladan, Vatan ravnaqi yo‘lidagi ishlar hech qachon avvaldan tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha, birovlarning ko‘rsatmasi bilan qilinmaydi. Har kim o‘z aql-zakovati bilan, o‘z qalbining amriga ko‘ra qudrati yetgan darajada, imkonibor darajada Vatan, el-yurt yo‘lidagi ishlarni qiladi...

Odam ota-onasini tanlay olmaganidek, Vatanni ham tanlay olmaydi. Albatta, Alloh odamga Vatanni muzliklardan ham, sahrolardan ham, changalzorlardan ham ato etishi mumkin. Lekin siz bilan bizga Alloh O‘zbekiston deb atalgan, tuprog‘ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog‘ desa tog‘i bor, bog‘ desa bog‘i bor, har tongda bulbullar madhini o‘qib tamom qilolmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergen ekan, buning uchun o‘zimizni BAXTLI deb bilmog‘imiz kerak. Vatan bizga ato etilgan ulug‘ ne’mat ekan, Vatanga muhabbat ham har birimizga berilgan ulug‘ ne’matdir. Chunki Vatanini sevgan odam, uning biron koriga yaragan odam hayotining chuqur ma’no kasb etayotganini, umri zoye o‘tmayotganini his qiladi, uning insoniy g‘ururiga g‘urur qo‘shiladi. Vatan muhabbatidan benasib odamlar esa, unga loqayd qaraydigan, hatto unga qo‘l ko‘tarishdan toymaydigan odamlar esa, har qanday qiyofaga ega bo‘lmasin, basharasini har qan-

day niqob bilan panalamasin, ma’naviy qashshoq, imonsiz, Xudo bexabar, baxtsiz odamlardir. Ular Alloh oldida qandaydir gunoh qilgan maxluqdirki, Alloh ularni Vatanni sevish baxtidan benasib qilgan.

Aziz vatandosh! Siz bilan biz o‘zbeklarmiz. O‘zbekning o‘z g‘ururi bor. Bugun biz dunyo xalqlarining saflaridan munosib o‘rin olishga harakat qilmoqdamiz. Lekin biz, g‘ururimiz har qancha baland bo‘lmashin, o‘z qadrimizni har qancha baland qo‘ymaylik, o‘zimizni hech kimdan yuqori qo‘ymoqchi, bironqa xalqni kamsitib, pastga urmoqchi emasmiz. Biz yaxshi bilamizki, Alloh jahon ayvonida o‘zining hamma bandalarini teng qilib, barobar qilib, do‘s qilib yaratgan. Ha, shunday, biz hamma xalqlarga birodarmiz, lekin hech kimning oldida tili qisiqlik joyimiz ham yo‘q. Shuning uchun «qayga borsam, g‘oz yuraman boshda do‘ppi gerdayib» (E.Vohidov, «O‘zbegim»), deyish uchun to‘la asosimiz bor. O‘zbekning dovrug‘ini eshitmagan, «O‘zbekiston» degan jannatmonand yurting ta’rifidan xabar topmagan bir jon qolmasin. Faqat «O‘zbekman» deb gerdayganimizda, shu go‘zal yurtning ravnaqiga qo‘shgan jinday hissamiz uchun qaddimizni tik tutib bir gerdayib qo‘yaylik.

(Maqola juz’iy qisqartirishlar bilan berildi.)

* * *

Ozod Sharafiddinov uchun Vatanga muhabbat, uning oldidagi farzandlik burchini ado etish mas’uliyati umrining bosh masalalaridan bo‘lgandi. Maqolasida u kamtarlik bilan o‘zining ona yurtimiz madaniyati, fani, ta’lim-tarbiya sohasi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi to‘g‘risida biror og‘iz gap aytmaydi. Holbuki, olim tarjimayi holida yozganimizdek, zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining taraqqiy etishiga Ozod Sharafiddinovning katta xizmatlari singgan.

Endi «O'lsam, ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasidagi ayrim o'rirlarni birgalikda sharhlashga urinib ko'raylik.

Olim o'z ruhiyatidagi uzoq yillik o'zgarishlardan xulosa yasab: «Vatan tuyg'usi insonning o'zi bilan birga o'sib-ulg'ayadigan tuyg'u bo'lar ekan», – deydi. Biror tuyg'uning o'sib-ulg'ayishini tasavvur qilish uchun, avvalo, o'sha tuyg'u insonda bo'lmos'i, inson uni his qilmog'i talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan har birimiz o'zimizga bir savol berib ko'raylik: «Menda Vatan tuyg'usi bormi? Bu tuyg'uni nimalar orqali his qilaman?»

Vatan tuyg'usi insonning o'zi bilan birga o'sib-ulg'ayishini unchalik katta bo'lмаган hayotiy tajribalaringiz orqali, oddiygina solishtiruvlar yordamida sezishingiz mumkin. Yodingizda bo'lsa, boshlang'ich sinflarda maktab hovlisidagi daraxtlarga ko'p ham ahamiyat beravermas, agar ularning shoxiga varragingiz ilinib qolsa yoki shoxdagi mevalarga qo'lingiz yetmasa, hech narsani o'ylab o'tirmay, daraxt shoxini sindirish mumkindek tuyulardi. Hozir-chi, hozir ham shunday deb o'ylaysizmi, hozir ham o'sha hech narsani o'ylamaydigan «bebosh bola»misiz?

Harqalay, bu daraxt ham xuddi Sizdek yashashga haqli, goh mevasi, goh soya-salqini bilan odamlarga xizmat qiladigan hayotning bir parchasi ekanini endi anglab qoldingiz, to'g'rimi? Endi yuragingizga shafqat degan, o'z yashayotgan joyingizni obod qilish, qo'lingizdan kelgancha boshqalarga yordam berish degan hislar begona emas.

Agar diqqat bilan o'qigan bo'lsangiz, maqolaning nafaqat bu joyi, balki butun maqsad va mazmuni ertangi kunga yo'naltirilgani, kelajak tashvishi bilan yo'g'rilganini sezasiz. Muallif uzoq moziyda yuz bergan Shiroq qahramonligini eslaydimi yoki XX asr boshida faoliyat yuritgan jadidlarni tilga oladimi – barchasidan murod – Vatanning ertangi kuni qanday bo'ladi? – degan savolni o'ziga va zamondoshlariga berib ko'rmoqlikdir. Olimning

bu o‘ylari maqoladagi mana bu mulohazasi bilan chambar-chas bog‘liq:

«Axir bu go‘zal Vatan Allohning el qatori menga ham atagan buyuk tuhfasi. Menden avval o‘tgan avlod-ajdodlarim uni jamiki betakror jozibasi bilan, tunganmas xazinalari bilan menga meros qoldirgan. Xo‘s, nima qilmoq kerak? Tekin meros ekan deb uning boyliklarini bir chekkadan so-vuraverishim kerakmi?»

Darhaqiqat, Vatan degan imorat ko‘chmanchi qabilalar bahorda vaqtinchalikka qurib, qish boshida buzib yig‘ishtirib ketadigan chodir emas. Bu muqaddas dargoh Siz bilan bizga qadar ham bo‘lgan, Siz bilan biz o‘tib ket-ganimizdan keyin ham abadiy qolajak! Hamma gap uni ertangi kunga qanday ahvolda qoldirmoqlikdir. Vatan chinakam Vatan bo‘lmog‘i uchun uning ravnaqiga har bir avlod istisnosiz o‘z hissasini qo‘sishi, uning boyliklarini ko‘paytirib, kelgusi nasllar uchun qoldirmog‘i shart.

Odam bolasining shunday nozik tuyg‘ulari, hislari bo‘ladiki, ular har qadamda oshkor qilinib, elga dasturxon bo‘lavermaydi. Insonning farosatliligi, ibosi, imoni mana shu tuyg‘ularni asrab-avaylashi, ularni tarbiyalashi, ichdan kuchaytirib borishi bilan o‘lchanadi. Har qanday tuyg‘u, agar huda-behuda munozara mavzusiga aylanaversa, hammaga oshkor qilinaversa, o‘tmaslashib, siyqasi chiqib boraveradi. Ayniqsa, Vatanga muhabbat tuyg‘usi mana shunday asrovga, e’tiborga munosib muqaddas tuyg‘ular sirasiga kiradi. Vatan xuddi Ona singari yagona, odam ixtiyori bilan tanlanmaydigan, doimiy e’tiborga loyiq qadriyatdir. Onaga xiyonat qilish, uning yuzini yerga qaratish, uni haqoratlash qanchalar og‘ir gunoh hisoblansa, Vatanga bemehrlik ham shunchalar og‘ir ko‘rgilikdir.

Afsuski, hali oramizda Vatan boyliklari, imkoniyatlari dan istagancha foydalanib, uni asrab-avaylashni bilmaydigan kimsalar uchrab turadi. Bundaylarga qolsa, kimdir ular uchun ishlashi, o‘ylashi, muammolarni hal etishi, bar-

cha narsani ular iste'moli uchun tayyorlab berishi kerak. Faqat o'z maishatini, tor manfaatlarini o'ylab yashaydigan, mana shu bachkana, maishiy tashvishlaridan yuqori ko'tarila olmaydigan kishilar, aslida, qo'lida quroq tutgan dushmanidan ko'ra xavfliroqdir. Chunki qurollangan, maqsad-muddaosi aniq dushmanni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushslash mumkin. Ularning qilmishiga yarasha qanday jazo tayinlanishi ham qonunlarda belgilangan. Boyagi kimsalarning dunyoqarashi, axloq-ruhiyati, kundalik zararkunandaligini esa, na bir qonun bilan, na nazorat bilan tartibga solib bo'ladi. Ular «men shunday o'layman, menga shu kerak, men qanday xohlasam, shunday yashash huquqiga egaman» deb, o'zbekcha qilib aytganda, «bersang – yeypman, ursang – o'laman», – deb yashashga ko'nikkanlar. Ayni shunday kimsalarning nafsi hech qonmaydi, ayni o'shalar ham davlatning, ham fuqarolarning boyliklarini hech narsadan parhez qilmay o'zlashtiradilar.

Ozod Sharafiddinov mana shunday kishilardan ogoh bo'lishga, ularning yuzidagi pardaga aldanmaslikka bar-chamizni da'vat etadi:

«Vatan muhabbatidan benasib odamlar esa, unga loqayd qaraydigan, hatto unga qo'l ko'tarishdan toymaydigan odamlar esa, har qanday qiyofaga ega bo'lmasin, basharasini har qanday niqob bilan panalamasin, ma'naviy qashshoq, imonsiz, xudobexabar, baxtsiz odamlardir. Ular Alloh oldida qandaydir gunoh qilgan maxluqdirki, Alloh ularni Vatanni sevish baxtidan benasib qilgan».

Shiddatli umri davomida juda ko'p yurtlarni ko'rgan, yer yuzining eng go'zal go'shalari, dunyo madaniyatining eng ilg'or markazlari to'g'risida jild-jild kitob o'qigan va barcha ko'rgan-bilganlarini sarhisob qilib, buyuk haqiqatni o'zi kashf etgan mutafakkir inson – Ozod Sharafiddinov avlodlarga mana bunday vasiyat qoldirdi:

«Siz bilan bizga Alloh O'zbekiston deb atalgan, tuprog'ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan,

tog‘ desa tog‘i bor, bog‘ desa bog‘i bor, har tongda bulbular madhini o‘qib tamom qilolmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergen ekan, buning uchun o‘zimizni BAXTLI deb bilmog‘imiz kerak».

Savol va topshiriqlar

1. O.Sharafiddinovning ulkan merosidan nega, aynan Vatan to‘g‘risidagi maqolasi tanlanganini Siz qanday izohlaysiz?
2. «O‘lsam, ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasida Vattanni «og‘izda sevish» bilan «amalda sevish» bir-biriga qarshi qo‘yilgan. Shu masalada, Siz muallif fikrlariga yana qanday qo‘shimchalar qila olasiz?
3. Muallif qahramon Shiroq hamda jadid bobolarimizning Vatan ozodligi, uning taraqqiyoti uchun qo‘shgan hissasi to‘g‘risida yozgan. Siz bu borada yana kimlarni misol qilib keltirgan bo‘lardingiz?
4. Maqoladagi «Jasoratlar, fidokorliklar faqat favqulodda odamlarning mahriga tushgan emas» degan fikrni izohlab, munosabatingizni bildiring.

TO'RA SULAYMON

(1934—2005)



O'zbekiston xalq shoiri, o'z ijobi bilan o'zbek she'riyatiga qadim xalqona ohanglarni qaytarishga urin-gan iste'dodli adib To'ra Sulaymon 1934- yilning 15- fevralida Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi Aldash-mon qishlog'ida tavallud topdi.

Agar shoir tug'ilgan yilga e'tibor bersangiz, uning bolalik yillari sobiq sho'rolar davrida «qama-qama»lar avjga chiqqan, barcha sohalarda «xalq dushmanlari va ularning dumlari»ni fosh qilish jarayoni kechayotgan pallaga to'g'ri kel-ganini anglaysiz. Bu falokat To'ra Sulaymon oilasini ham chetlab o'tmagan. Uning otasini ham «xususiy mulk egasi», «mushtumzo'r» sifatida quloq (ruscha «kulak» – mushtumzo'r so'zining o'zbekchaga moslashtirilgan shakli) qiladilar. Oilaning butun tirikchilik tashvishi bechora onaning zimmasiga tushadi.

1939- yilda uning otasi qamoqdan qaytadi va oilasini Sirdaryoga ko'chirib ketadi. To'ra Sulaymon shu yerda-gi qishloq maktabida o'qiydi. O'qishni bitirib, bir necha yillar davomida qishloq maktablarida turli fanlardan dars beradi. Urushdan keyingi yillar maktablarda oliy ma'lumatli mutaxassislar yetishmas, To'ra Sulaymon singari maktablarning uquvli bitiruvchilari ta'lim-tarbiya ishiga jalb qilinardi.

O'zi qiziqqan badiiy ijodga umrini bag'ishlash istagi uni Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)ning filologiya

fakulteti sirtqi bo‘limida o‘qishga undaydi. Bo‘lg‘usi shoir ham o‘qiydi, ham ishlaydi. O‘qishni bitirib, Guliston tumanidagi maktablarda ona tili va adabiyotidan bolalarga saboq beradi.

1962- yilda uning birinchi kitobi «Istar ko‘ngil» nomi bilan bosmadan chiqadi. Shundan so‘ng, uning «Qorasoch» dostoni, «Men qayga borar bo‘lsam» she’riy to‘plamlari nashr etiladi va Sirdaryoda yana bir iste’dodli ijodkor paydo bo‘lganidan ko‘pchilik xabar topadi.

Shoir ijodi o‘ndan ortiq kitoblarga jo bo‘lgan. Ular orasida «Jahongashta» dostoni, «Hamqishloqlarim» (maqolalar to‘plami), «Intizor», «Sirdaryo qo‘shiqlari», «Iltilijo», «Alhazar» (satirik va humoristik asarlar to‘plami), «To‘yboshi», «Sizni eslayman», «Qora ko‘zginam», «Gulshan», «Sarvinoz» kitoblari bor.

Mustaqillik yillarida shoir yangi kuch va ilhom bilan ijod qildi. Respublika vaqtli matbuotida uning she’riyat, adabiyotshunoslik, kunning dolzarb mavzulariga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalari chop etildi. «Xarsang», «Jahonna», «Gul bir yon, chaman bir yon», «Yov qochdi» singari kitoblari adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To‘ra Sulaymonning qator she’rlari o‘zbek xonandalari tomonidan qo‘shiq qilib kuylanib, millionlab odamlarning ko‘ngliga kirib bordi. 1999- yilda To‘ra Sulaymon «O‘zbekiston xalq shoiri» degan yuksak unvon berildi.

2005- yilda ajoyib shoir va samimiy inson – To‘ra Sulaymon 71 yoshida dunyodan ko‘z yumdi.

ILTIVO

Bahor kelsa boshlanar bog‘da bulbul xonishi,
Sa’va, qumri nag‘masi, suralay¹ tovlanishi.
Qirlarda lola sayli, qishlovlard²da yilboshi,

¹ *Suralay* – patlari rang-barang qush turi.

² *Qishlovlard* – qishloqlar.

To‘xtagay tabiatdan haqqushlar zorlanishi –
Bahor, ketma mening bog‘imdan.

Qilmishi qing‘ir zotga davr qayda, davron qayda?
Vatangado kimsaga beminnat makon qayda?
Yolg‘iz otga olamda nom qayda, nishon qayda?
Bahor, sensiz sahro-yu, tog‘-u toshga jon qayda?
Ketma, bahor, mening bog‘imdan.

O‘lmaslikka ishora – o‘langa oshiqligim,
Saodatga ishora – zamonga oshiqligim,
Teranlikka ishora – ummonga oshiqligim,
Go‘zallikka ishora – bo‘stonga oshiqligim –
Bahor, ketma mening bog‘imdan.

Bukun qay bir yerda qish, qayda xazonrezgilik,
Qaylarda yoz, qayda kuz, qayda jondan bezgilik,
Ko‘klamning har nafasi umrga arzigulik,
Bog‘siz, bog‘bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik...
Ketma, bahor, mening bog‘imdan.

Giyoh bilan qoplanmish ko‘hna qabr boshlari,
Maysadagi shudringlar kimlarning ko‘zyoshlari?
Bu yerda yotar otam ham uzangidoshlari¹,
Har bahor eslar uni qavmi qarindoshlari –
Bahor, ketma mening bog‘imdan.

Yoz bo‘yi qorga zorman, qishda bahorga zorman,
Chamanda gul bo‘yiga intiqman, intizorman,
Kuz kelmay xazon bo‘lgan sevgi, guldan bezorman,
Bahorsiz ham diyorsiz el ichra benazarman² –
Bahor, ketma mening bog‘imdan.

She’riyatda milliy badiiy tafakkurning noyob jilvalarini
namoyish qilgan G‘afur G‘ulomning «Vaqt» she’ri tahlili
yodingizda bo‘lsa kerak. Unda shoirning kichik hayotiy
detallardan katta umumlashmalar yasay olish fazilatiga

¹ Uzangidoshlari – yor-do‘stlari, birga ot chopishgan jo‘ralari.

² Benazarman – e’tibordan, nazardan qolgan.

urg‘u bergen edik. Shoir, tomchida dengiz aks etganidek, lahzada abadiyat suratini chizgan edi.

To‘ra Sulaymonning «Iltijo» she’ri, chetdan qaraganda, yil fasllaridan biri – go‘zal bahorga bag‘ishlangan. She’rning dastlabki bandida, darhaqiqat, kelinchak bahor kelishi bilan tabiatda yuz beradigan o‘zgarish va jonlanishlar tas-virlanadi. Biroq ikkinchi banddan shoirning bahorga iltiosi tobora kengroq ko‘lam, borgan sari chuqurroq mazmun kasb eta boshlaydi. Endi bahor bir fasl nomigina emas, balki tansiq tuyg‘ular mujassami, ezgulikning ramzi bo‘lib gavdalaniadi.

Shoir «Bahor, sensiz sahro-yu, tog‘-u toshga jon qayda?» – der ekan, bu sahro – beminnat makon qidirib, sargardon kezgan vatangado kimsalarning, tog‘-u toshlar – qilmishi qing‘ir zotlarning ramziy ifodasi ekanini ilg‘aymiz. Demak, bu zotlarning bahori yo‘q. Ular o‘z umri bahoriga mensimay qaragan, unga noshukurlik qilgan, bahorini toptagan kimsalardir. Ular hayot bahorini xazonga almashganlar.

Shu nuqtayi nazardan she’rning to‘rtinchi bandini qayta o‘qisak, unda eslangan har bir fasl nomida ham ramziy ma’no borligiga shohid bo‘lamiz. Darhaqiqat, dunyoning bizning yurtimizdek tinch, osoyishta hududlarida yilning to‘rt fasli bunyodkorlik, ezgulik yumushlari bilan kechadi. Bunday ellarda qishning qirovli kunlarida ham qor ostida «shivirlar bahor» (Oybek). Yurtida va yuragida bahor kezib yurgan shoir uchun ham «ko‘klamning har nafasi umrga arzigulik!»

Afsuski, Yer yuzining qator mamlakatlarida yashayotgan insonlar qalbiga na bahor, na yoz go‘zalligi tatiydi, ular uchun kuz saxovati ham, kumush qish ziynati ham begona. Chunki har turli balo-qazolar – urushlar, ommaviy ochlik va muhtojliklar, bedavo kasalliklar, diniy hamda irqiy asosdagi nizolar ular turmushini zulmatga chulg‘aydi. Mana shu ko‘rguliklardan boshi chiqmaydigan yurtlarni nazarda tutib shoir:

Bog‘siz, bog‘bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik...
Ketma, bahor, mening bog‘imdan, –

deya iltijo qiladi.

Uning ona diyorida kezayotgan bahor esa ko‘hna qabr boshlarini ham yam-yashil giyoh bilan qoplaydi. Jonsiz xotiralar tirilib, dalalar bag‘ridan o‘tmishda otalar mingan ot dupurlari sadosi eshitiladi. Maysalarga qo‘ngan shudring – shudring emas, balki armonli umr egalarining ko‘zyoshlaridir.

Yuqorida jazm etib chiqargan xulosalarimiz to‘g‘ri ekanini she’rning so‘nggi bandi yana bir bor tasdiqlaydi. Shoirning «Bahorsiz ham diyorsiz el ichra benazarman» degan e’tirofi she’rda bahor obraziga jo qilingan teran mazmun-mohiyatga ishoradir.

Savol va topshiriqlar

1. Maktabingiz kutubxonasida shoirning qaysi kitobi borligi bilan qiziqing. Undagi asarlarni sinfdoshlaringiz bilan birlashtib mutolaa qiling.
2. To‘ra Sulaymonning xalqona ohanglarda yozuvchi ijodkor ekanini qaysi she’rlari asosida isbotlasa bo‘ladi?
3. «Iltijo» she’riga nega bunday sarlavha qo‘yilgan?
4. Nega «o‘langa oshiqligim» – «o‘lmaslikka ishora» deyilmoxda? Bu yerda qanday o‘lim to ‘g‘risida gap boryapti?
5. «Bog‘siz, bog‘bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik...» misrasini izohlashga Siz ham harakat qiling. Bog‘ va bog‘bonning ezgulikka hamroh ekanini qanday isbotlash mumkin?
6. «Yoz bo‘yi qorga zorman, qishda bahorga zorman» misrasida inson xarakterining qanday xususiyatiga ishora qilin-yapti?

ARMON

Bobomning orzulari amalga oshmas bo‘lsa,
Yurgan yo‘limda o‘lan, qo‘shiq qalashmas bo‘lsa,

Qo'shiqlarim bog'lardan, tog'lardan oshmas bo'lsa,
El-yurt baxtini kuylash menga yarashmas bo'lsa,
Ko'nglimda armon yotar
Cho'kib qolgan nor¹ misol.

Bemavrid xeshlarimning ko'zlarida yosh ko'rsam,
Bir mard bilan noplakning taqdirin tutash ko'rsam,
Qaysi bir begunohni keng yo'lda adash ko'rsam,
Bir betayin kimsaning oyog'ida bosh ko'rsam,
Ko'nglimda armon yotar
Terskay²dagi qor misol.

Aro yo'lda qolguday bo'lsa biror yo'ldoshim,
Manzilga yetmay turib, qoqlisa qayg'udoshim,
Muhtoj bo'lsa kimgadir, jon ayamas qurdoshim,
Badkor degan nom olsa biror bir vatandoshim,
Ko'nglimda armon yotar
Ulab bo'lmas tor misol.

Gulzorni alaf bossa, zog' bossa bog'bon turib,
Muallaq qolsa kimdir, yer turib, osmon turib,
Bir gazanda toptasa, tuproqni posbon turib,
Bir yo'rtoq yo'l boshlasa, qudratli karvon turib,
Ko'nglimda armon yotar
Buzilgan ro'zg'or misol.

Tuyg'u va tushunchalarni har bir odam o'zicha – o'z darajasi, ehtiyojidan kelib chiqib anglaydi, talqin qiladi. Masalan, kimningdir o'zini baxtli hisoblashi uchun unchalik ko'p narsa kerak emas. Boshqalarning havasini kel-tiradigan hovli-joy, betashvish yashashni ta'minlaydigan mol-dunyo bunday odamlar uchun baxt manbasi hisoblanadi. Boshqa bir odam uchun esa bu narsalarning bari – bor-yo'g'i qulay yashash sharoitidan boshqa narsa emas. Bunday insonlar baxt tushunchasiga juda katta ma'no yuklaydilar.

¹ Nor – tuyu.

² Terskay – quyosh nuri tushmaydigan joy.

To‘ra Sulaymonning lirik qahramoni bu tushunchaga juda jiddiy talab bilan yondashadi. Uning ko‘nglini hayotning mayda-chuyda hoy-u havaslari, o‘tkinchi manfaatlari armonga to‘ldirolmaydi. Bu lirik qahramon o‘ziga hayotda nihoyatda katta talablar qo‘yadi. O‘sha talablarga loyiq bo‘lomaslik uni xavotirga soladi, cho‘chisa shundan cho‘chiydi.

She’rning har bir misrasida faqat lirik qahramon taqdirliga emas, balki xalqi va insoniyat taqdiriga daxldor muammolarni bu qahramon o‘z muammolari deb bilishi ochila boradi.

Keling, shu katta armonga sabab bo‘ladigan holatlarning ayrimlariga to‘xtalaylik:

«El-yurt baxtini kuylash menga yarashmas bo‘lsa...»

Shu birgina misrada bir necha ma’no nazarda tutilayotganiga e’tibor beraylik.

Xo‘sh, shoирга el-yurt baxtini kuylash qachon yoki nega yarashmaydi?

– agar el-yurt aslida baxtsiz bo‘lsa-yu, uni «baxtli» deya kuylash chinakam shoирга yarashmaydi;

– agar o‘zini shoирman deb yurgan odam el-yurt baxtini samimiyl, ishonarli va ta’sirli kuylay olmasa – bu ham yarashiqsiz qiliqdir;

– agar shoир el-yurt baxtini kuylashni oddiy maddohlik deb o‘ylab, o‘ziga ep ko‘rmasa, bu – ijodkor samimiyatidan emas, balki takabburligidan nishonadir;

– agar shoир o‘z ijodida nuqlu muammobozlik, hasrat bilan shug‘ullanib, baxt qo‘shiqlarini kuylashdan qolgan bo‘lsa...

Endi mana bu misraga diqqat qilaylik: «Muallaq qolsa kimdir, yer turib, osmon turib...»

Matndan olib qaraganda, «yer turib» tayanchsiz – muallaq qolishni tasavvur qilish va qoralash mumkin. Zaminidan oyog‘i uzilgan – kibr zabitiga olib xalqdan uzoqlashgan, bosar-tusarini bilmay «uchib yurgan» kimsalar aks

ettirilgan bu holat hammaga tanish. Lekin nima uchun shoir «muallaq qolsa kimdir ... osmon turib» ham deydi? Axir osmonda tayanch nuqtasi yo‘q-ku! Nima, shoir ha-yot haqiqatiga zid boryaptimi? Mantiqsizlikka yo‘l qo‘ya-yaptimi?

Aslo! Bu yerda gap boshqa yoqda. Avvalo, inson o‘zini ko‘klarga ko‘targan xalqning osmon qadar yuksak ishonchiga tayanishi, bu tayanch – ishonchni boy berib qo‘ymasligi lozim. Ikkinci ma’no – ishora shuki, agar insonning imon-e’tiqodi mustahkam bo‘lsa, u har qancha yuksalib borsa-da, iymon tayanchini – Xudoni yod-dan chiqarmaydi. Unga suyanadi. Shoir, odam bolasi ikki dunyo orasida muallaq qolmaslikni istasa, Yerga – o‘zi singari odamlarga va Osmonga – o‘zini yaratgan qudratga suyanmog‘i lozimligini birgina misrada ifoda etadi.

Shunday qilib, yuqorida ta’kidlanganidek, «Armon» she’rining har bir misrasidan ruhiyatga oziq bo‘luvchi ma’nolarni ko‘plab topish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. «Bir mard bilan nopolning taqdirin tutash ko‘rsam...» misrasida nazarda tutilgan hayotiy vaziyatlarni ko‘z oldingizga keltira olasizmi? Bir-ikkita misol keltiring-chi?

2. Qachon «betayin kimsa»lar oyog‘iga odamlar bosh uradilar? Nega bu ham shoir ko‘nglini «terskaydagi qor misol» sovuq armonga to‘ldiradi?

3. «Bir gazanda toptasa tuproqni posbon turib» misrasida ifodalangan holat bizning yurtimizda ham bo‘lganmi? Misollar keltiring.

4. Har bir banddagisi so‘nggi ikki misraning biri o‘zgarishsiz qolib, ikkinchisi o‘zgarayotganining sababi nimada? Bu o‘zgarish o‘sha banddagisi boshqa misralarda ifodalangan mazmun bilan bog‘liqmi?

* * *

To‘ra Sulaymonning yuqoridagi ikki she’ri tahlili tajribasiga suyangan holda, navbatdagi she’rlarini o‘zingiz mustaqil tahlil qilishga urining. Bunda she’rlar uchun berilgan savol va topshiriqlarning har biriga alohida diqqat qilish yaxshi samara beradi.

TAVALLO

Nelardandir ko‘ngil bo‘lib g‘ash,
Xam egilib, bu egilmas bosh,
Ko‘zlarimda qalqib tursa yosh,
Bu holimga berolmay bardosh,
Bir mushtipar Onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

Qaytar bo‘lsam quruq qo‘l ovdan,
Qora qozon qolsa qaynovdan,
Ham ayrilib o‘lja, ulovdan,
Qarzga botar bo‘lsam birovdan,
Taskin berib Onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

Birda haqdin, birda nohaqdin,
Jabr ko‘rsam bir betavfiqdin,
Ortda tursam qalbi quroqdin¹,
Qadrim xarob bo‘lsa tuproqdin,
Ohlar urib Onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

Og‘a-ini o‘rtasida gap...
Alhol, kelib chiqsa ixtilof,
Biri izzat, biri mulk talab,
– Bu oq sutim, mehrimga xilof, –

¹ *Qalbi quroq* – qalbi aynigan, ruhiyati maydalashib, «yamoq bosib ketgan» kimsa ma’nosida.

Deya sho'rlik Onam yig'laydir,
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Sinalmoqning gali kelganda,
Nogoh mag'lub bo'lsam maydonda,
Nomim qolmas bo'lsa jahonda,
Kim do'st-dushman bilinar onda
Ahvolimga Onam yig'laydir,
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

G'anim bir yon, men bir yon bo'lsam,
U ustuvor, men uryon bo'lsam,
Bu ham kamday nogiron bo'lsam,
Yog'och ot¹ga yonma-yon bo'lsam,
Oy tutilib, Onam yig'laydir,
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Bo'lsam gumroh, bo'lsa gunohim,
Vujudimga solmasdan vahm,
Qabul aylab tavallo – ohim,
Darig' tutmay mehring, Illohim,
Yig'latmagin mushfiq Onamni,
Volidayi muhtaramamni.

Savol va topshiriqlar

1. Nega birgina Ona yig'isi samimiy bo'ladi-yu, «qolganlari yolg'on yig'laydir»?
2. «Ortda tursam qalbi quroqdin» misrasida ifodalangan holat to'g'risida mulohaza yurita olasizmi?
3. She'rning to'rtinchi bandidagi manzaraga, harqalay, duch kelgan bo'lsangiz kerak. Bu hayotiy manzara Sizga qanday ta'sir qilgan edi?
4. Onalar to'g'risida kuylangan boshqa she'rlardan «Tavallo» she'ri nimasi bilan farqlanib turadi?

¹ *Yog'och ot* – tobut.

GUL BIR YON, CHAMAN BIR YON

Chaman ichinda bir gul, gul bir yon, chaman bir yon,
Sarv-u sanobarmidir – soch bir yon, suman bir yon,
Sahar, subhi sodiqda mushk bir yon, mujgon bir yon,
Tun pardasin tortsa gar, oy bir yon, osmon bir yon.

O‘sgan bog‘iga olqov¹, o‘stirgan bog‘boniga,
Xavf-u xatardan saqlab kelgan soyaboniga,
Andalib² qo‘nar, zog‘lar qo‘nolmas bo‘stoniga,
Maqtoviga men bir yon, borliq suxandon bir yon.

Hakim zoti bor yerda dard bir yon, darmon bir yon,
Yoring jafokash bo‘lsa, uy bir yon, zindon bir yon,
Ikki jon bir bo‘lmasa, sham bir yon, shamdon bir yon,
Ayri bo‘lsa yo‘llari, tug‘ bir yon, qalqon bir yon.

Bu olamda Oy tanho, muborak Quyosh tanho,
Bo‘y qizlarning ichinda bir shu egma qosh tanho.
Uningdek hech kim menga bo‘lmasa sirdosh tanho,
Go‘ro‘g‘li sulton bir yon, To‘ra Sulaymon bir yon.

Savol va topshiriqlar

1. «Chaman ichinda bir gul» – «kim»mi yoki «nima»mi?
2. «O‘sgan bog‘iga olqov, o‘stirgan bog‘boniga,
Xavf-u xatardan saqlab kelgan soyaboniga» misralarida
kimlar yoki nimalar to‘g‘risida gap ketyapti?
3. She‘rning uchinchi bandi mazmunini izohlashga harakat
qiling. «Ikki jon bir bo‘lmasa», «ayri bo‘lsa yo‘llari» – bunday
oilani nimalar kutadi?
4. Mazkur she‘r asosida yaratilgan qo‘sishni sinfdoshlaringiz
bilan birga eshiting. She‘rning qo‘sishqa aylanishida «topgan-
lari» va «yo‘qotganlari» xususida fikr almashing.


¹ Olqov – maqtov, rahmat ma’nosida.

² Andalib – bulbul.

SHUKUR XOLMIRZAYEV

(1940 – 2005)

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev 1940- yilning 24- mart kuni Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug‘ilgan. 1963- yilda Toshkent davlat universiteti(hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti)-ning Jurnalistika fakultetini tugatgan. Yoshlar nashriyoti va bir necha jurnallarda muharrirlik qilgan. Sh.Xolmirzayevning hikoya va ocherklari talabalik yillaridayoq Respublika ommaviy axborot vositalarida e’lon qilina boshlagan. U qissalar yozishga ham tengdoshlariga nisbatan erta kirishgan. Yosh adibning hikoyalari, «To‘lqinlar» (1963), «O’n sakkizga kirmagan kim bor» (1965) nomli qissalari ko‘plab muxlislar orttiriши bilan birga, Abdulla Qahhordek ustozlar e’tiborini ham qozongan.



Yozuvchi roman janrida ham o‘z kuchini sinab, «So‘ngi bekat», «Qil ko‘prik», «Yo‘lovchi», «Olabo‘ji», «Dinozavr» kabi asarlar yozdi. Agar «Qil ko‘prik» romanida o‘tgan asrning 20- yillaridagi birodarkushlik urushining halokatli hodisalari tasvirlangan bo‘lsa, qolgan romanlarda 70–80- yillardagi ma’naviy-mafkuraviy tanazzul o‘z aksini topdi.

Shukur Xolmirzayev sho‘ro davrida faqat qoralanib kelgan «bosmachilik harakati»ga ham yangicha yondashishga urindi. 1987- yilda yaratgan «Qora kamar» pyesasida mazkur hodisani butun murakkabligi bilan chuqrur badiiy talqin etdi. Xotin-qizlarimizning sho‘ro davridagi fojiali hayo-

tini ro‘yirost yoritgan «Ziyofat» pyesasi esa 1990- yilda sahnalaşdırıldı.

Yozuvchi adabiy ijodning turli janrlarida qalam tebratgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyoti tarixida, avvalo, usta hikoyanavis sifatida qoldi. Uning «Olis yulduzlar ostida», «O‘zbekning soddasi», «Ora yo‘l», «Odam», «Cho‘loq turna», «Kimsasiz hovli», «Bodom qishda gulladi», «Tog‘larga qor tushdi», «Yashil Niva», «Xumor» singari o‘nlab asarlari milliy hikoyachiligidan xazinasidan munosib joy olgan.

O‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘chmas iz qoldirgan yozuvchi Shukur Xolmirzayev 2005- yil 29- sentabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

Aziz o‘quvchi, adibning quyidagi ikki hikoyasini o‘qir ekansiz, avvalo, bosh qahramonlar ruhiyatidagi, dunyoqarashidagi jiddiy farqlarga e’tibor bering.

OT EGASI

Inodning uchta boyligi bor edi. Biri – soy bo‘yida-
gi serdaraxt qishlog‘i; qishloq chetida bosmachilar bilan
urushda halok bo‘lgan otasining qabri do‘ppayib turar,
Inod goho uni ziyorat qilgani borardi. Ikkinci boyligi –
qishloq o‘rtasidagi tepada o‘rnashgan ikki xonali maktabi
edi; bu mакtabga tog‘ning olis-olis burchaklaridan otli,
eshakli bo‘lib o‘quvchilar qatnar, hammasining yagona
muallimi shu Inod edi. Uning uchinchi boyligi – qoraba-
yir oti edi; bu otning olis avlodi muallimning otasiga ham
vaqtida xizmat qilgan, uni ko‘p jang-u jadallardan omon
olib o‘tgan edi. Lekin Inodning qo‘lidagi ushbu qorabayir
ham unga sodiq xizmatini o‘tardi, ikki bor anavi soyni sel
suvi bosganda, egasini olib chiqqan, to‘rt yildan buyon
ko‘pkarilarda uloqni muttasil shu ayirib chiqar, yana uning
bir xosiyati quyidagicha edi...

Uzoq yili Inodning bor-yo‘q ikki farzandi beda solingan

bostirmaga tuynukdan kirib, gugurt o‘ynaydi, bedaga o‘t ketadi. Ularning qiy-chuvini eshitgan onalari borib, eshikni ochmoqchi bo‘ladi, biroq eshik qulf, u ham jonsarak holatda tuynukdan o‘zini ichkariga tashlaydi. Bolalarini topadi, biroq tutun-u olov bosgan xonada kirgan tuynugini topolmaydi. Alangani ko‘rib yayov chopib kelgan Inod xotin, bola-chaqasining allaqachon sob bo‘lganini ko‘radi. So‘ng ularni otasi yotgan qabristonga ko‘mib, chorborg‘da yolg‘iz qoladi. U ruhan va jisman har qancha kuchli bo‘lmasin, g‘am uni eza boshlaydi, qishlog‘-u maktabidan ham ko‘ngli sovib boradi. Nochorlikdan qorabayirni minib, toqqa ketadi. Cho‘ponlar ovulida sang‘ib, marhum otasining jang qilgan yerlarini ko‘radi, zumrad qorli cho‘qqilar ostidan o‘tib, yashil o‘tloqlarda tunaydi va o‘zi sezmagan holda ko‘ngli ko‘tarilib, dardi pasayib, qishloqqa qaytadi. Shundan keyin darsdan bo‘s sh kunlarida qorabayirda sayr qilish unga odat bo‘lib qoladi.

Oylar o‘tib, yigit qalbidagi yara bitgandek bo‘ladi. Qishlog‘i-yu maktabiga bo‘lgan mehri yana jo‘sh uradi. U azalgi ahvoliga qaytgandek his etadi o‘zini.

Maktab ikki xonadan iborat bo‘lib, biri dahliz, biri sinf-xona. Ana shu sinfda yetti yashar bolakay ham, o‘n ikki yashar yigitcha ham yonma-yon o‘tirib o‘qishadi, ularning har biri har xil sinf o‘quvchisi bo‘lgani holda, bir sinfda o‘tirib saboq olishlari bir-biriga xalaqit bermaydi. Chunki bu atrofda bundan o‘zga maktab yo‘q, shu yerga qatnab, imkonи boricha ilm oladilar. Inodning o‘zi vaqtida o‘n sinfni bitirgandi, xolos. Qolaversa, ular o‘qituvchilarini sevadi, bu – bir qadar xo‘mraygan, og‘irkarvon va allanechuk odamovi yigitni hurmat qilishadi. Inod bo‘s sh soatlarda va mehnat darslarida qorabayir otini maktab qoshidagi maydonga keltirib, o‘quvchilarga arg‘umoqda yurishni ham o‘rgatadi, miltiq otishni ham ko‘rsatadi, goho soy suvini band qilib, bolalari bilan baliq ham tutadi.

Bir kech Inod mактабдан chorbog‘ qоровули билан yayov qaytib kelarkan, qоровул Bo‘riboy:

— Eshitdingizmi, shaxsiy ot saqlash man bo‘lipti, qарор chiqipti. Bir milisa kecha bizning yонимиздаги yуртдан bir cho‘ponning otini haydab ketdi, — dedi.

Inodning ko‘ngli xira bo‘ldi:

— Yangilik-ku... Lekin men otimni bermayman, — dedi.

Darhaqiqat, bu tog‘ yonbag‘irlari qarashli bo‘lgan rayondagi partiya komiteti «nega o‘zimiz tog‘lik bo‘lib, qimiz ishlab chiqarmaymiz!» degan mulohaza bilan yangi bir sovxoз tashkil etishga qарор qilgan, aholining ortiq-cha baytallarini sotib olish uchun tashkilotlardan joylarga vakil jo‘natgan edi. Bu tomonlardan biya sotib olish esa kichik leytenant Egamberdi Xudoyberdiyevga topshirilgan edi. Uning esa dilida boshqa bir pinhoniy istagi ham bor edi: ana shu tog‘dagi suv bo‘yida joylashgan qishloqda istiqomat qiladigan muallimning ko‘p yaxshi, chopqir, chiroyli oti bor-da. Shuni o‘ziniki qilishning iloji yo‘qmikin?

U o‘ylab-o‘ylab, ilojini topdi: bir necha biyaning narxini bichib, rayonga jo‘natgandan keyin Tumshuqda bitta cho‘ponning soppa-sog‘ baytali turgan holda, uning minib yuruvchi otini aldab-suldab, qo‘rquitib, do‘q urib sotib oldi va «Nega biya olmading, deb so‘rashsa, biyasi yo‘q ekan, otini bera qoldi. Buni almashtirish mumkin-ku, deyman-da», — deb o‘yladi. U bilardiki, qishloq qоровули cho‘ponga qo‘shni, qishloqda esa Inod muallimdan bo‘lak kishi yo‘q hisobi. Aholisi bo‘z yerlarga ko‘chib ketgan. Demak, bu xabarni qоровул chol Inodga yetkazadi...

Inod peshayvonli uyi oldidagi bedapoyada yo‘ng‘ichqa o‘rardi. Quyosh kunbotarga egilib, kunchiqardagi adirlar bag‘rini yoritar, soyning ham u yer-bu yeri yiltirar edi. Nari sohildan to‘riq ot mingan shapkali, pogoni bor kishi pastlay boshladи. Suvni kechib o‘tib, bu sohilga chiqib kel-di.

Inod unga bir qaradi-da, ishidan qolmadи.

Egamberdi pakana jiydalarni oralab, bedapoya adog‘ida paydo bo‘ldi.

– Hov, salomatmi? Qani bu, mehmon keldimi, demaysiz? – dedi.

Inod qaddini ko‘tarib turdi. O‘roqni o‘rik tanasiga qat-tiq sanchib:

– Keling, – dedi do‘rillab.

Egamberdi to‘riqni jadal haydab, o‘rik ostiga keldi, egardan sakrab tushib, tizgindan tutganicha chorbog‘ egasi tomon yo‘rg‘aladi.

Inod u bilan xomush ko‘rishdi.

– Qani, bu maza yo‘qmi? – dedi Egamberdi kulib va tizginni o‘rik cho‘qmoriga bog‘ladi, o‘rib qo‘ygan o‘tdan bir qo‘ltiq olib ot oldiga tashladi; kaftlarini bir-biriga urib qoqqanicha, Inodga kulimsirab boqdi. – Bilaman, nimadan xafasiz, – dedi, so‘ng chuqur xo‘rsindi: – Endi, Inodboy, bu ko‘pga kelgan to‘y, jo‘ra. Biz oddiy ijrochi. Shuning uchun bizdan xafa bo‘lmaysiz endi.

– Yo‘g‘-e, sizdan nimaga xafa bo‘laman, – deb to‘n-g‘illadi Inod va uyi tomon burildi. Ayvonga yetib, ichkaridan ko‘rpacha olib chiqdi. Sholchaga yozib tashlab: – O‘tiring, chalob ichasizmi? – dedi.

– Chalobmi, chalobdan ham chakki ma’qul! – dedi militsioner ko‘rpachaga cho‘kkalab.

Inod dasturxon chiqarib to‘sadi, ustunga ilig‘liq qo‘y qornidan qilingan tulum og‘zini ochib, kosaga yog‘och qoshiq bilan suzma olib sola boshladi.

– Bu, Inod jo‘ra, qachon uylanasan endi? – o‘zini unga yaqin ko‘rsatish uchun sen-senlab so‘radi Egamberdi.

– E, o‘lmasak, uylanamiz-da bir kuni, – dedi Inod. Kosani keltirib, dasturxonga qo‘ydi. Qorovulning xotini yer tandirda pishirib yuborgan uy nonini to‘rt bo‘lakka bo‘lib, mehmonning oldiga tizdi.

– Oling, dasturxonga qarang.

– Qani, o‘zlaridan, qani.

– Olavering, qornim to‘q... Lekin, Egamberdi, bekor

kepsiz bu yerga, men baribir otimni bermayman. U men-ga... juda qadrdon bo‘lib qolgan.

Egamberdi suzmaga bulab olgan nonni og‘ziga solib, duduqlanganicha bidillay ketdi:

– Bilaman, bilaman, jo‘rajon. Sizlarga ot suv bilan havoday zarur! Lekin iloj qancha... Lekin menga berma-sang, boshqasi kelib, olib ketadi. Shunday emasmi? Ma-salaning boshqa jihatiyam bor. Mendan, Inodning oti qani, deb so‘raganda, nima deb javob beraman? A? To‘g‘risi-ni aytaman-da, shuni talab qilishadi, to‘g‘ri so‘z aytgan-ga jazoyam kamaytiriladi. Unda, jo‘rajon, o‘zinga qiyin bo‘ladi... Qarorni bajarishdan bosh tortgan, deyishadi seni. Bu yomon gap, bilsang.

Inod boshini quyi solib, ancha vaqt jim o‘tirdi. Nihoyat:

– Shundaymi? – dedi.

– Ha, albatta! – dedi Egamberdi.

Inod yana jim qoldi. So‘ng mehmonga manglayi os-tidan qaradi.

– Bilişimcha, sizlar kelishuvchanlikkayam ko‘nasiz-lar, – dedi.

– Qanday? – o‘smoqchiladi Egamberdi.

– Shu... jo‘ra deyapsiz meni, rahmat bunga... Egamber-di, menda bir sog‘in sigir bor, shuni ola keting, o‘zingiza... Lekin shu ot qolsin menda, a?

Egamberdi chaynayotgan nonini yutmay: «E, bir sigir-li bo‘laman-ku!» – deb o‘yladi va govmish sigirga egalik qilish hissi uning qorabayirga bo‘lgan ishqini susaytirdi. Shundan keyin u jiddiy tus oldi:

– Bu poraxo‘rlik-ku, davlatni aldash-ku?

– Bilaman, – dedi muallim nochorlik bilan. – Bilaman... Lekin sizning ko‘nglingizni olay deyman-da. Bu... siz-ga bog‘liq-ku! Mayli, men uch-to‘rt yilgacha otni rayon-ga yo‘latmayman, hov toqqa, tanishlarning qo‘liga berib qo‘yaman, o‘sha yoqda tursayam ko‘nglim to‘q.

Egamberdi manglayini changalladi: «Hozir sigirning ustiga o'n bosh qo'y ber desam ham beradi!» deb ko'nglidan o'tkazdi.

– Xo'p, lekin oting yoningda qoladi, deb va'da berolmayman, birorta katta payqab qolsa, o'zing javob bera-san! – dedi.

Egamberdi kosani yalab, turdi.

– Men anavi qirning ortidagi Eshmat podachining uyida bo'laman, qosh qoraygandan keyin... sigirni yetaklab o't. Cholga berib qo'ysang, o'zi podasining ichida boqib yuraveradi. Lekin shu gap shu yerda qolsin, – dedi. So'ng tahdid bilan davom etdi: – Birovdan shu gapni eshit-sam, Inodboy, bilib qo'y, ayb o'zingga tushadi. Organning odamini yo'ldan urmoqchi bo'lgan deyishadi seni. Men uni sinagan edim, qancha shaxsiy moli borligini bilmoqchi bo'lgan edim, deyman... Menga ishonishadi.

– To'g'ri gapingiz, – dedi Inod.

Egamberdi ketgandan keyin qorabayirga egalik qilish istagi unga yana tinchlik bermadi, hafta o'tkazib, xafaqon bir kayfiyatda tag'in to'rig'ini yo'rttirib, Inodning chor-bog'ida paydo bo'ldi.

– Bu ishimiz o'tmadi, jo'ra, – dedi u Inodga. – Senda ot borligini rayonning yetti yasharidan yetnish yashariga-chá bilarkan. O'lgan desam ham ishonishmadi. Yashirgan, topib kelng... bo'lmasam, ishga sovuqqonlik bilan qara-gan, deb o'zingizni javobgarlikka tortamiz, deyishdi. Mana, keldim.

– Yana bir marta yo'q deb yuboring, – dedi Inod. – O'n bosh qo'yim bor, shuyam sizniki... Otni bersam, kuni-m qattiq bo'ladi, Egamberdi. Otamdan yodgorlik. Er yigitning oti bo'lishi kerak, der edilar. Shu ot... mening og'ir kunimga yaradi.

Egamberdi yana manglayini ushladi, qo'ylarni o'ziniki qilganidan keyin ham yana ot xumoriga tushib kelishini his etdi va:

— Yo‘q, endi, jo‘rajon! — dedi. — Shu sigiringni olganimdan beri ko‘nglim qora. Xohlasang, borib podachidan qaytib ol.

— Shundaymi?

— Ha! — dedi Egamberdi va ko‘ngliga g‘ashlik tushib, uning nima qilishini kutdi.

Inod yirik gavdasini og‘ir burib, uyi orqasiga o‘tib ketdi. Archazor yonbag‘ridagi qo‘riqda boyloq turgan qorabayirni yetaklab keldi. Uni o‘rik ostida qaqqaygan Egamberdi yonida to‘xtatib, qashqali peshonasidan o‘pdi-da, bedapoyaning o‘rtasiga olib borib, tizgini uchini tikanga bog‘ladi, uyga qaytdi.

Egamberdiga Inodning harakatlari juda sirli ko‘rinib, ko‘ngliga vahima tushdi. «Nima qilmoqchi o‘zi u?» — deb orqasidan qarab qoldi. So‘ng ko‘m-ko‘k yo‘ng‘ichqazorda suvsardek yaltillab, odatdagи otlarnikidan yo‘g‘on bo‘ynini gajak qilib, odatdagи arg‘umoqlarnikidan keng o‘mrovini kerib va odatdagи chopqir otlarnikidan ingichka oyoqlarini yerga qattiq tirab turgan qorabayirga qaradi. Uning ko‘zlariga ko‘zi tushib, eti jimirlab ketdi.

Ot xuddi dahshatli bir xavfni sezgandek olayib, egasi kirib ketgan uyga qrarar, hayratda qotgan antiqa haykalga o‘xshar edi. «Yopiray!» — dedi Egamberdi va xona eshidiga Inodning qorasini ko‘rdi. Ot birdan titroq tovushda kishnab yubordi.

Shunda uy eshididan otilgan miltiqning tutuni cho‘zilib chiqdi, arg‘umoq balandga sapchishi hamon o‘q ovozi eshitildi. Nihoyat, eshikdan qo‘lida miltiq tutgan Inod chiqdi. Qorabayir yonboshlab yotib oyoqlarini silkir, qisqa-qisqa kishnar edi. Egamberdi o‘q uning peshonasiga tekkani, qon u yerdan tirqirab chiqayotganini ko‘rdi-yu, ham dahshat, ham achinish bilan ko‘zlarini yumdi.

Inod miltiqni sholchaga tashlab, supa labiga o‘tirdi.

«Buning avzoyi buzuq», — deb ko‘nglidan kechirdi Egamberdi Xudoyberdiyev va miltiqqa nazar tashladi: bir

tig‘li. «U o‘q chiqarib joylaguncha ancha yerga borib ola-man», – deb o‘yladi... Yigitning karaxt gavdasiga bir qarab olib, to‘rig‘ini yechdi, o‘zini egar ustiga olishi bilan bu manzaradan yuragi yorulgudek bo‘lib turgan ot uni olib qochayotgandek yugura ketdi.

«Meni qamashadimi?!» – loqayd o‘yladi Inod otliq orqasidan qarab va bu o‘yi kor qilmay, ustunga suyandi. Qorabayir xirillar, hamon ingichka oyoqlarini silkir, issiq qon hidi atrofga yoyilgan edi.

Ot jimib qolgandan keyin Inod uning boshiga bordi va birdan uning bo‘ynidan quchoqlab, ko‘zlarini yumdi. Ot badani sovidi. Inod o‘rnidan turdi: qarshisidagi archali tog‘lar ham, chorborg‘i, daraxtlari ham, anavi soy-u olisda oqarib turgan maktabi ham ma’nosini yo‘qotgan, yigitning ko‘zları loqayd boqardi.

U tag‘in ot boshida cho‘nqaydi-yu, qishloq yoqasidagi qabristonning oq yalovi, tug‘ uchidagi qo‘chqor shoxini ko‘rdi. Beixtiyor ot tizgini bilan uning oyoqlarini kulliklab, bilagiga soldi. Yonboshiga yiqilgudek mayishib, sudray boshladi. Qabristonga yetib, jigarları go‘ri yonida ot ni qoldirib, qaytdi. Ketmon olib borib, yorma go‘r qazidi va Qorabayirni tushirib, ko‘mdi.

So‘ng kechgacha shu yerda o‘tirdi, otasi va bola-chaqasining ham ruhiga tilovat qilgan bo‘ldi. Keyin uyga qaytib, eshiklarini qulfladi-da, soyga tushib bordi.

Uning yoqasi bilan yurib, qosh qorayganda, suv oqib chiqayotgan tog‘ betiga yetdi. O‘tirdi. Oy chiqib, olisda qolgan qishloqni-yu tepadagi maktabni ravshan yoritdi. Shunda Inod bosh olib ketib, qayerda ham yashashi mumkinligi haqida o‘ylab qoldi.

Inod bir necha oydan keyin Egamberdining o‘shandagi niyati nima ekanligini payqadi. Lekin bu vaqtida uning ko‘nglida qolgan ikki sevgilisi – qishlog‘i-yu maktabi yana tomir otib ulgurgan edi.

1971- yil

OMON OVCHINING O'LIMI

U o'zi ham o'lishi mumkinligini o'ylamasdi. U o'ldi-rishni... hayvonlarni, parrandalarni, xullas, Olatog'da ov qilishga arzirli o'lja borki, u qo'liga miltiqni olishi bilan o'zi anglamagan holda, ulardan nimanidir otish – o'ldi-rishni o'ylardi. Ba'zan, masalan, kiyik oviga ketayotgan bo'lsa, yo'lida duch kelgan kaklik, chillarni ham ayamasdi. Zag'izg'on-u cho'pon aldag'ich qushi uchrasa ham tirik qo'ymasdi. Mabodo ovdan qo'li quruq qaytsa – bunday voqeja juda kam bo'lardi – u bamisolli otasi o'lgandek aza tutar, qovog'i ochilmas, shunda xotini ham ko'ziga yomon ko'rini, bechora biron-bir yetishmovchilikdan zorlansa, u: «Jonga tegding-ku sen ham!» deya miltiqni qo'lga olardi...

U odam otmagan, biroq undan ko'plar qo'rqi shardi, uni yolg'iz uchratganda xushomad qilishar, gavjum joylarda unga yaldoqlanib ovi baror olib turganmi ekanini so'rashardi. Omon sovuqqonlik bilan qisqa javoblar berardi.

Uning otasi Rahmon polvon qirq yoshida ham kurashda yiqlimagan, keyin bir o'rtacha polvon bir qoqmada yiqtib qo'yganida – dardi shunchalikki, omborga bo'yra to'shab, ustidan suv sepib, unga bag'rini berib yota-yota oldin yo'talni orttirib, keyin qon quса-quса o'lib ketgandi. U kishi Omonga o'n uch yasharligida, «indamas» miltiq – melkokolibr miltig'i olib bergen, Omon birotar ov miltig'ida emas, shunda qush otishni o'rgangan, shu tariqa o'tkir mergan bo'lib yetishgan edi: u bolalikdan yovvoyi qush-u yovvoyi hayvonlar otish va yeish uchun yaratilgan deb o'ylar, har qanday ovchida ham ma'lum bir yoshda paydo bo'ladigan rahmdillik unda hamon uyg'onmas, chamasi, uning yuragi ham baquvvat ko'kragidek qattiq ediki, buning sababini ehtimol uning otasiga xos jihatlardan izlash mumkin.

...U harbiydan qaytgan yili otasi qazo qilib, Omon uning ishini oldi: qishloqchaga tutash sakkiz gektar

o'rikzor bo'lib, otasi Rahmon polvon unga qorovul, ayni chog'da unga bog'bon ham edi. Ikki yildan keyin onasi uni uylantirdi. Onani ham tuproqqa topshirgan yili o'g'il ko'rdi. O'g'li to'qqizga qadam bosganda...

...Omon bir kuni ovdan quruq qaytdi: Zovboshida bir qobon, bir megajin va o'ntacha churpani kamarga qamab chiqishini kutib yotgan edi, tepada geologlarning vertolyoti paydo bo'lди-da, naq kamar ustiga pasayib shunday shovqin ko'tardi, shamoli joni qattiq archalarni ham titratdiki, qamaldagi cho'chqalar sel bosganday vahimada chiqib, xuddi Omon pisib turgan archa tagiga o'zlarini urdi. Omon kalovlanib, archa orqasiga o'ta oldi, xolos. Cho'chqalar odamning beliga uradigan miyazorga oralab, ilonizi yo'l qoldirib ketipti. Omon birinchi marta o'zini o'q bo'shatishdan tiydi: bunday paytda o'q qobonga tegadimi, bolasiga tegadimi – bo'lди, qobon burila solib, ovchiga hujum qiladi.

Omonning ta'bi xira bo'lib, qishloqqa qaytgandi. Xotini sigir sog'dirmayotganidan koyinib edi, Omon o'zi xurma-ni olib, sigir tagida cho'nqaydi. Endi yelinni ushlaganini biladi, sigir bir qimtindi: oyog'i ko'zani urib, chil-chil qildi. Omon o'rnidan turib chetga chiqdi. So'ng xotirjam kavshanayotgan hayvonga birpas qarab turdi-da, pichanga sanchib qo'yilgan panshaxani olib, sigirning beliga ikki tushirdi. Jonivor og'ir mo'rab yuborib, yotib qoldi: dir-dir titraydi.

– Voy, inakni o'ldirdingiz-e, beshafqat! – deb yig'lab yubordi xotini.

...Qishloqda Omon sira kutmagan voqeа sodir bo'la boshladи: qo'shnilar birin-ketin janubga – Bandixon cho'liga ko'chib keta berishdi: cho'lquvar bo'lib... Omon ularni gangib kuzatar, bu qishloqni, shimoldagi Olatog'ni va unda bor archazorlar-u hayvon-parrandalarni tashlab cho'lga – pashsha qaynagan qiziriq cho'lga tushib ketayotganlarini aqliga sig'dirolmasdi...

Qovunni ko'rib qovun rang olgani shumi – hademay qishloq bo'shab qoldi. Bu endi qishloq emas, satti chordevor edi: tomlari buzilgan, yog'och to'sinlari ham olib ketilgan. Tez orada u yerda kalamush va sichqonlar ko'paydi. Keyin esa ularning kushandalari boyqushlar ko'paydi: ba'zisi kunduz kunlari ham devor kemtiklarida hurpayib o'tirar edi.

Omon negadir bularni sira otmas, aksincha, ularni uzoq-uzoq tomosha qilishni yaxshi ko'rар, ba'zan kechalari tash-qariga chiqib boyqush sayrashini eshitganda – yurak ses-kanishi qayda! – parishonxotir bo'lib tek qolardi. Shunda u bu tun qushlarining mungli hamda nimasi bilandir tunga o'xshab ketadigan unlariga allaqanday singishar, go'yo o'zi ham shu tunga, shu mungli unga, boyqushga aylanib qolardi.

Uyda xotinning g'ishing-g'ishingi ko'paygan edi.

– Yovvoyi odamlarga o'xshaymiz... Siz ketganda, kunduz kuniyam qo'rqaman bu yerda... Yosh bola bir o'zi markazga qatnaydi. Hademay qish kiradi...

– Men hech qayoqqa bormayman... Men ham shuning yoshida qatnar edim markazga... – deb qo'yardi Omon.

Bir kecha boyoqish juda zorlandi:

– Shamollapti o'g'lingiz. Ichiray desam, sut yo'q, to-mog'iga malham bo'lardi. Tog'dagi juvanalaringiz inak bo'luncha kosamiz oqarmas ekan...

– Xotin, chidasang – shu, chidamasang jo'na! – dedi Omon.

Xotin bir muddat boshini xam qilib turdi-da:

– Mayli. Taloq qilsangiz... – dedi.

– Bor. Taloqsan, uch taloq! – So'ng ayvonga chiqib bir-pas turdi-da, qaytib kirib, o'g'liga: – Sen qol... Anaviday miltiq olib beraman, – dedi.

– Menga miltiq kerak emas, – dedi bola.

– Bo'lmasam, sengayam katta yo'l!

Ertasi Omon tajang holda ovga ketdi. Yoz edi.

Pishiqchilik. Har qanday shafqatsiz ovchi ham bunday paytda toqqa chiqib, endi jo'jasini uchirma qilayotgan kaklikka yoki bolalari mushtdek bo'lgan quyonga o'q uzmaydi: ularning ham tirik jon, surriyot qoldirishga huquqli ekanini his etishmi bunga sabab, balki ne bir sirli tuyg'u ularning ham inson qavmiga yaqin ekanini sezdiradimi...

Omon ovchi shu ketishda katta bir burgutni ham otib, so'ng uni xo'p tomosha qilib, keyin uning xuddi besh yashar bolaning panjalaridek oq-sariq, biqqi barmoqli oyoqlarini kesib olib, uyga qaytib kelganda bari jihoz o'z o'rnila, faqat xotin bilan bola yo'q edi.

«Enam ham otamdan chiqib ketgan edi bir-ikki marta. Keyin qaytib kelib edi. Bular ham keladi hali...» – deb o'yladi u va g'ashlanib esladi: o'shanda u har gal ota-si yonida qolar edi. Kiyik ovlarga chiqqanda to'rt-besh kunlab kimsasiz kamarlarda yotib, pistirmalarda tunab, yolg'izlikka mutlaqo o'rganib ketgan Omon mergan xotinsiz uyiga ham ko'nikdi. Boladan uning ko'ngli xotirjam edi...

Omon mergan tunda: o'rmonda, tog'da hech narsadan qo'rqmagani kabi jin-ajina degan narsalarga ham ishonmas, shu ma'noda «qon tutadi», «gunoh», «ko'z tegadi» degan gaplarning ham uning uchun ma'nosi yo'q edi. Masalan, qadimdan qolgan gap bor: ovchi kiyikdan bitta otishi kerak. Aks holda, bir falokat yuz berishi mumkin emish. Omon bu gapga ham panja orasidan qarardi. Chunki bu gap – qadim-qadimdan kiyiklarni asrab qolish, ularni qirib yubormaslik uchun diniy tus berib aytilgan, deb o'ylardi.

...Omon «indamas»ni zanglatmaslik uchun o'rikzorga oraladi. Bitta zag'izg'on otdi. So'ng uni olvolish, tog'da tulki ko'rgan yerlariga qo'yib poylashni o'yladi-yu, buni o'ziga ep ko'rmadi. Otilgan zag'ig'on otvorildi...

U kiyik oviga jo'nadi. Uy orqasiga o'tganda bo'ri izini ko'rdi. Iz naridagi choldevorlar tomon ketgan, qorda

baayni bitta bo‘ri yurgandek edi. Biroq, Omon bitta emas, kamida ikkita bo‘ri yurganini izning kattaligidan bildi: odatda, bo‘rilar ovga chiqqanda, bir-birining izini bosib yurishadi. Omon jilmayib qo‘ydi. Ertalab ovchiga bo‘ri uchrasa, ovi baror oladi, deydilar. Shuni eslagan edi. Keyin, bu udumning aksini qilishni istab, qishloqni chetlab o‘tib ketdi.

Qor qalin va yumshoq edi. Omon mergan mahsi ustidan choriq kiyib olgan, oyog‘i yengil, qorga botmasdi. U Olatog‘ning ilk cho‘qqilaridan biriga yetguncha havo ochilib, kun chiqdi: ayni kaklik ovlaydigan payt bu. Kun sovuq emaski, kakliklar kamarlardan chiqmasa. Tuman ham yo‘qliki, uni ko‘rish qiyin bo‘lsa.

Omon mergan Olatog‘ning o‘zi toshini sanagan so‘qmoqlaridan biriga tushganida, yuqoridagi cho‘qqilaridan qor ko‘chdi. Guvullagan tovush tingach, jarlikdan oq to‘zon ko‘tarildi. Shunda qarshisida bir kiyik o‘ynoqlab chiqdi-ku!

Omon uning qoq manglayini nishonga olib otdi. Jonivor tepaga bir sakrab, pastga qulab ketdi. Shunda... uning o‘rnida yana bir kiyik paydo bo‘ldi. Omon miltiqni o‘qlay solib, uni ham otdi. U ham tepaga bir talpinib, quyiga uchdi. Keyin esa, shoxi gajak bir arxar ko‘rindi. Omon miltiqqa o‘q joylar ekan, allanechuk shoshar edi. Arxarning ham ajali yetgandek qochmasdan quyiga qarab turib qoldi. Omon uni ham otdi...

Keyin, ancha kutib yotdi. Boshqa jonzot ko‘rinmadni. O‘z-o‘zidan ma’lum: bu kiyiklar ko‘chkidan vahimaga tushib qochgan, orqasidan bo‘ri-mo‘rining quvgan bo‘lishi ham ehtimol. Aks holda, o‘zini o‘qqa tutib bermasdi bular. Omon otishga... shunchalik berilgandiki, kiyiklarning qayerga yiqilib tushayotgani haqida ham o‘ylamasdi: yana otgisi, jonivorning sakrab tushib ketishini tomosha qilgisi kelardi.

Nihoyat, u iz tushmagan so‘qmoqdan qoplondek yengil yurib borarkan, ular yiqilgan joy suv urib ketgan arna ekani, kiyiklar u yerda bo‘lmasa, etakka uchib ketganlanini tusmolladi. Borib qarasaki, uchovi ham shu yerda, ostin-ustun bo‘lib, qonga belanib, hamon tipirchilab yotishibdi.

Omon ular yotgan joyga bir qur ko‘z yogurtirib, birini ham ola bilmasligiga ishondi: ular besh-olti gaz pastda – tokchada, ikki tomon esa tik devor.

Omon mengan ular ko‘p tipirchilasa, pastga tushib ketishlari uchun har biriga yana bittadan o‘q bo‘shatishni ma’qul ko‘rdi. Masofa arzimas darajada. Cho‘nqayib, biringning qulog‘idan, birining yuragidan otdi. Kayfi chog‘ holda kechki payt qishloqqa qaytib keldi.

... U kiyik otishga berilib, ularning qayerga tushayotganini o‘ylamagani singari, buning shavqi orqasida tag‘in bir narsani xayoldan faromush qilganini ertasi kuni do‘sti Hamdam bilan bir eshakka arqon va qop tashlab shu joyga kelganida bildi.

Uchala o‘lja ham dabdala bo‘lgan, besh-oltita bahaybat, bo‘yni tuksiz g‘ajirlar ularni «hashar» qilmoqda edi. Omon miltig‘ini o‘nglaguncha, ular o‘zlarini jarlikka «tashlab» uchib ketishdi. Shunday esa-da, Omon ular orqasidan o‘q bo‘shatib qoldi.

Uning ta’bi xira bo‘lgan, ikki kiyigu bir arxardan ajralgan edi. Bu yerda ortiq turmay, orqaga qaytishdi.

– Uvol bo‘pti-ye, uvol, – dedi Hamdam. – Yomon ekan-ku, bular, a? Arxarning ko‘zini o‘yib yeyayotgan ekan bit-tasi.

Tog‘dan ena boshlaganda Omon mengan, nihoyat, tilga kirdi:

– Otam aytgich edi, urush yillari tog‘da yolg‘iz qolgan odamlarni ham yeb ketishgan bu qushlar. Rost aytding... Bo‘riga tashlansayam ko‘zini o‘yadi oldin. – Keyin u siniq

kulimsiradi. – Biron joyda shikastlanib yotib qolsang, hech chalqancha yotma...

Qishloqqa yetishgan edi.

Yo‘lni kesib suv urgan arna o‘tadi. Uning tubidagi suv allaqachon muzlab qolgan, eni ikki gazdan oshiq esa-da, Omon undan bemalol sakrab o‘tib ketib yurardi.

Eshak qurg‘ur ariqning tor joyidan ham o‘tmay taysallayverdi. Hamdam narigi betga hatlab, no‘xtadan tortdi. Omon uning quymuchidan zo‘r berib itargandi, hayvon lipillab o‘tib ketdi-yu, Omonning oyog‘i ostidagi qor ko‘chib, to‘p etib muzga tushdi. Arnaning bu tor yeri ancha chuqur edi. Undan ham chuqurroqqa Omon sakrab tushsa, hech narsa bo‘lmasdi. Chunki, tabiiy hol, u tizzalarini bukibroq sakrar edi. Hozir esa, muzga tikka tushdi.

Oyoqlari sal og‘ridi, xolos. Biroq o‘rnidan turgan edi, to‘piqlarida og‘riq shunday zo‘raydiki, u engashib qoldi. Shu ko‘yi qirg‘oqqa tirmashdi. Hamdamning qo‘lidan ushlab, arnadan chiqib oldi. Biroq yana o‘rnidan tursa og‘rishini tusmollab qorda o‘tirgancha, mahsisini yechib qaradi. Ikki oyog‘ining to‘pig‘i ham shishib ketgan, yon-verida jigarrang dog‘lar paydo bo‘lgan edi. Omon mahsini kiyib:

– Jo‘ra, hech munday bo‘lmanman. Eshakni qaytar, – dedi.

Hamdam eshakni qaytarib kelib, unga o‘ng qildi. Omon bir qo‘lini do‘stining yelkasiga tirab, eshakka minib oldi.

– Oyog‘im chiqqan bo‘lsa, chatoq... Eski siniqchi ustalardan qolganmi?

– E, ustani nima qilasan! – dedi Hamdam. – Balnisaga boramiz. Eng zo‘r ustalar o‘sha yerda. Rengin qilishadi. Bilishadi...

– Bo‘lmasam ko‘chadan yurmaylik.

– Mayli, Ichaksoydan boramiz.

Ichaksoydan borib, kasalxonaning etagidan chiqishdi. Omon miltiqni qopga solib, qorga ko‘mdirdi-da, nihoyat,

to‘qimda boshini egib o‘tirgancha kasalxonan darvozasidan kirdi. U garaj oldida Hamdamni biroz kutib qoldi. Hamdam borib, xirurg va rengenchilar bilan gaplashib keldi.

Omon eshakdan tushib yurolmay qoldi. Uyalganidan ter chiqib ketib, do‘sriga suyana-suyana tegishli xonaga yetdi. Uni tanish hamshira tepasiga qandaydir apparatlar engashib turgan muzdek karavotga yotqizdi.

Oyoqlari shishib ketgan edi. Mahsilar qo‘njini yorib chiqarishdi. Keyin oyog‘i uchini dam shiftga qaratib qo‘yib, dam yonboshlatib, rengenga tushirishdi. Birozdan keyin ho‘l, yaltiroq-sarg‘ish qog‘ozni keltirib, Omonga ko‘rsatishdi.

– Ana. Katta boldir suyagingiz singan. Bolshoy bersoviy kost singan... To‘piqning ustidan. Ikki oyog‘ingiz ham... Yomon bo‘pti, Omon aka. Ochig‘ini aytamiz, buning tuzalishi qiyin bo‘ladi. Oyog‘ingiz gipsdan chiqqandan keyin ham besh-olti oy qo‘ltiqtayoqda yurasiz. Gav-danining og‘irligi to‘piqqa tushadi-da...

Omon merganning oyoqlarini oq sement aralashmasi shimdirligan qalin dokalar bilan tizzasigacha o‘rab gipslashdi. Gips tezda qotar ekan. Keyin Hamdam eshakni deraza pastiga olib keldi. Omonni o‘tqazib jo‘nadi.

... Shunday qilib, Omon mergan arzimagan bir ehti-yotsizlik orqasida ikki oyoqni nogiron qilib, yotib qoldi. Amma kelib yig‘ladi.

– Senga ko‘z tegdi, – dedi. – Keyin, hadeb jonlini jonsiz qilishingniyam xosiyati yo‘q. Qusham xudoning maxluqi... Uyam bir vaqtlar odam bo‘lgan emish...

Omon oyoqlarining singan joylarini solayotganda ham inqillamagan edi. Endi ihrab yubordi.

– Miltiqni obering! Yonimda tursin...

Amma qo‘rqa-pisa «indamas»ni, keyin u aytgan yerdan bir changal o‘qni olib berdi.

... O‘limidan bir kun oldin kechasi bilan qor yog‘ib chiqdi. Keyin qattiq shamol esdi: qor uchqunlari deraza oynasiga shitirlab urilardi. O‘rikzorda ikki-uch marta bo‘ri

uvlagani eshitildi. Ertalab havo tund, osmonni past tushgan bulutlar qoplab olgan, ayvonda chumchuqlar chirqillashar edi.

Omon ittifoqo kaklik sayrashini eshitib qoldi!

«Ha, qor qalin. Yemish uchun qishloqqa engan», – deb o‘yladi va shunday paytlarda choldevorlar ichida kezib, ham kakliklarni uchirib otgani, qanotlari muzlab qorga kirib qolganini tayoq bilan urib olganini... eslab, shunday betoqatlandi! Darhol turib o‘tirib, miltiqqa o‘q joyladi. Keyin derazadan boqqa uzoq tikildi. Ammasi bilan Hamdam bosib keladigan so‘qmoq ham ko‘rinmas edi.

«Kak-kiba, ka-kiba, kak-kak-kak!...»

Kaklik uyi orqasidan, chamasi, o‘scha Quriqsoy tomonda sayrardi. Omon aqlini yo‘qotgandek kalovlanib, tik kiteli kissasiga ham uch-to‘rtta o‘q soldi-da, choponining yenglarini ham kiyib, o‘rmalay ketdi. Ayvonga chiqdi. Kaklik haqiqatan ham, Quriqsoy tomonda sayrardi. Shunda u Hamdamning yaqinda sovxozdan ikkita odamni yo‘lda uchratgani, ular ikki eshakka bug‘doy to‘la xurjun ortib, toqqa ketayotganlarini aytganini eslab miyig‘ida jilmaydi. «Soy bo‘yidagi qo‘riqqayam don sepishgan...»

Boshqa payt bo‘lganda Omon bu tariqa ovdan or qilar-di.

Hozir...

U shaxd bilan supa labiga emaklab bordi-da, qorga tushsa, gipsi nam tortishini o‘yladi. Keyin: «Sandalda qu ritib olaman-da!» – deya bir qo‘lini qorga botirdi – qor tir-sakdan keldi. Keyin ikkinchi qo‘lini botirdi. Keyin, sudralib tushib, oyoqlarini tizzadan ko‘tarib oldi. Shu topda uzoqdan qaragan kishi uni ko‘rmas edi.

U ketarkan, harbiyda shunday qilib – «po plastunski» yurgan chog‘larini ham esladi...

Omon birinchi tepalik ustiga chiqqanida, oyog‘ini tiz-zadan bukishni unutgani, bemalol sudralib kelayotganini ko‘rdi. Garangsib uni siypab ko‘rayotgandi, kaklik narigi

do‘ng ortida sayrab yubordi yana. Omon mengan burila solib yana o‘rmalay ketdi. Bu yoq enish edi. Tez tushdi. So‘ng oxirgi kuchini to‘plab olmoqchidek birpas hansi-rab, bo‘yniga osig‘liq miltiqni pastdan ko‘tarib turdi-da, yana shaxd bilan tepalikka tirmasha ketdi. U ba’zi joylar-dan sirg‘alib tushar, yana emaklar, bunga sari ko‘ziga qon to‘lib borar edi.

«Ularni otmasam, qaytmayman!»

Omon o‘rkachda!.. Simto‘r bilan o‘ralgan «qo‘riqxona» ichida, qordan chiqib turgan yapaloq xarsang ustida uchta chiroyli oqish kaklik chug‘ur-chug‘ur, g‘ut-g‘ut qilib don-lashar edi.

Omon g‘ayritabiiy olayib, bittasini nishonga oldi. Shoshilmasdan otdi. Kaklik nariga surilib ketib tek qoldi. Omon miltiqni o‘qlay solib, ikkinchi kaklikni ham otdi. U tipirchilab qoldi. Shundan keyin uchinchi kaklik uchmoq-chi bo‘lib, chetga bordi-da, sheriklariga, keyin tevarakka biroz qarab turib, tag‘in tez-tez donlayverdi.

Uning nihoyatda och ekani ko‘rinib turardi.

U ham cho‘zilib qolgach, Omon mengan tezroq tushib bormasa, uchovi ham tirilib uchib ketadigandek shitob bilan pastga ena boshladi. Endi... Yapaloq tosh. U yonbosh-lab yotgan ko‘yi kakliklarni bitta-bitta terib oldi. Nihoyat, ularga jilmayib qarab, patlarini titdi: o‘q tekkan joylarini ko‘rdi. So‘ng o‘zidan qanoatlanib, hali... tuzalib, oyoq-qa turib ketsa, yana ovlarga chiqishi, mayli, hozir kak-liklar kamayib, kiyiklar yuksak cho‘qqilarga chiqib ketgan bo‘lsa ham, o‘zining o‘scha yerlarga ham chiqib borishini xayol qilib, bir muddat rohatlanib o‘tirdi. Keyin tuyqus xayoliga bir gap keldi: «Olatog‘da jonivor zoti qurisa, nima qilaman? – Uning ko‘ziga Hamdamning uyida televi-zorda ko‘rgani Kavkaztog‘ manzarasi, kiyiklar ko‘rindi. – Boraman. U yerlargayam boraman...»

U mana shunday xayol bilan band ekan, qor yana uch-qunlayotganini ko‘rdi. Shunda yana... oyog‘i esiga tushdi:

chamasi, bu shunday ikki oyoqli maxluq ediki, yarim tannasi uzilib qolgan chog‘da ham, ruhi ovda... o‘ldirishda... bo‘lar, chamasi, shuning o‘zi unga bas, shu hayot edi.

...Omon mergan shu o‘ylaridan keyin besh minut ham o‘tar-o‘tmas nobud bo‘ldi.

U miltiqni tag‘in bo‘yniga osib, kakliklarning bittadan oyog‘ini bir qilib tishida tishlab, kelgan izi bilan o‘rma-lab ketar ekan, simto‘rni tagidan ko‘tarib o‘tgan yeriga yetganda, bir sirpandi-yu, og‘zidan kakliklarning oyoqlari chiqib ketdi. Omon ularga qo‘l cho‘zganda yonbag‘irga ko‘ndalang bo‘lib qoldi. So‘ng asta-sekin dumalay bosh-ladi.

U dumalagani sari bir o‘ram oq kigizga o‘xshab ko‘ri-nar, biroq, kigiz tobora yo‘g‘onlashar edi. Oqibat, ajab-tovur paxta toyidek bo‘lib borib, yulg‘unlar ichiga kirib to‘xtadi.

...Omon bu paytda ham tirik edi. «Nima bo‘lyapti? Nimaga?» deb o‘ylardi. Nihoyat, nafasi bo‘g‘ildi. Ko‘tarilmoqchi bo‘lgan ko‘ksini qor bosib, dami ichiga tushib ketdi. Miyasida esa o‘sha savol javobsiz qoldi.

Qor yoqqandan yog‘ib, kechasi bo‘ron turdi. Qorni to‘zitib, tekis yerlarda kurtuklar paydo qildi, qori qalin betlarni yalab-supurib ketdi.

Erta ko‘klamda o‘rikzorga qorovul etib tayinlangan Ul-ton piyon degan kishi qishloqda buzilmay qolgan yakkayagona uy – Omon ovchining uyini ko‘rgani kelib, uni xosiyatsiz deb topdi: egasi g‘oyib bo‘lgan axir. Keyin, yonida olib kelgani yarimta aroqni maydalash uchun Quriqsoy bo‘yidagi tepalikka ko‘tarildi. Ancha o‘tirdi. Kun bota boshlab, shisha ham yarimlaganda qo‘zg‘aldi. Soy ichi bilan ketishni ma’qul bilib pastga enayotgan edi, hali barg chiqarishga ulgurmagan yulg‘unlar orasida do‘mpayib yotgan g‘alati qor kurtugiga e’tibor qildi. Unga yaqinlashib o‘tarkan, undan chiqib turgan bir juft oppoq...

Burila solib soy ichi bilan qochdi. Uyiga yaqinlashganda, o'pkasini bosib olish uchun shishada qolgan aroqni ham simirdi-yu, uyga yetib uchib qoldi.

...Ertasi Ulton piyonning vahimasiga «ergashib» rayondan chiqib kelgan bir to'da odam Quriqsoy yoqasiga enaverib, ko'ngil aynituvchi manzarani ko'rdi. Bir gala masliqxo'r g'ajirlar yulg'unzor ichida, go'yo qor supasida yotgan bir kimsani cho'qib-cho'qib yer edi.

1985

(*Hikoya juz'iy qisqartirishlar bilan berildi*)

Inson hayotini uni o'rab turgan tabiatdan xoli tasavvur etib bo'lmaydi. Tabiatning esa ming bir giyohi, jonzoti bor. Insonning o'zi ham, bir mavjudot sifatida, tabiat farzandi hisoblanadi. Odamzodni mana shu ona zamin, uning behisob ne'matlari boqadi, kiyintiradi, unga boshpana va so'nggi manzil ham bo'ladi. Shunga ko'ra, tabiatga munosabatiga qarab ham odamlarga baho berish, kimning qanday inson ekanini aytish mumkin.

Aytilganidek, Shukur Xolmirzayev Surxon vohasining beqiyos so'lim Boysun tumanida tug'ilib voyaga yetgan. Uning ijodkor sifatida shakllanishiga tug'ma iste'dodi bilan birga, yurtning shu go'zalliklari o'z ta'sirini o'tkazgan, albatta. Buni yozuvchi asarlarida tabiat manzaralarining, hayvonot va o'simlik dunyosining nihoyatda tiniq, ichdan his etilib tasvirlanganidan bilsa bo'ladi. Mutolaa qilganimiz ikki hikoya matni ham shundan yaqqol darak beradi.

Bizningcha, «Otning egasi» hikoyasi talqinini, avvalo, bosh qahramonga tanlangan ismni tushunishdan boshlash kerak. Harqalay, Siz ham kamdan-kam uchraydigan bu ism ma'nosiga qiziqib qolgan bo'lsangiz kerak. Inod – arabchadan olingan bo'lib, «cho'rtkesar», «qat'iyatli», «qaysar» ma'nolarini beradi. Agar oldindan shuni bilib hikoya voqealariga razm solsak, muallif aytmoqchi bo'lgan muhim haqiqatni, g'oyani chuqurroq his qilamiz.

Asar muqaddimasi va oxirida alohida ta'kidlanganidek, Inodning hech narsaga alishmaydigan boyliklari – ko'ngil mulki bor. Garchi otasidan juda erta, xotini va farzandlaridan fojiali tarzda ayrilgan bo'lsa-da, ulardan yodgor, judolik taftini bosib turadigan qishlog'i, maktabi hamda qorabayir oti unga madad. Qorabayirga qarab faqat «zo'r» tulporni ko'rayotgan kichik leytenant Egamberdi Xudoyerdiyev uchun esa Inodning ko'ngli, unda kechayotgan tuyg'ular begona. Birovning mulk-u molini o'zlashtirishdan vijdoni qiynalmaydigan bu kimsa, endi o'sha birovning ko'ngil boyligiga ham changal solmoqni xohlaydi. O'sha «birov» deganlari ham odam ekanligi, faqat qorabayiridan ayrimaslik uchun u nega hamma narsasidan voz kechmoqqa tayyorligi Egamberdini bir zum bo'lsin o'ylatmaydi. U niyatiga yetishsa – qorabayirga ega bo'lsa, bo'ldi.

Garchi tog' qishloqlarining katta-kichik bolalariga muallimlik qilsa-da, tabiatan sodda va ishonuvchan Inod chiroli gaplardan, kitobiy so'zlardan nihoyatda yiroq. Uning tiliga chiqarib aytal olgani: «...Men baribir otimni bermayman. U menga... juda qadrdon bo'lib qolgan... Otni bersam, kunim qattiq bo'ladi, Egamberdi. Otamdan yodgorlik. Er yigitning oti bo'lishi kerak, der edilar. Shu ot... mening og'ir kunimga yaradi» – degan gaplar bo'ladi, xolos.

Biz Inodni sodda, ishonuvchan deya ta'riflar ekanmiz, buni osmondan olayotganimiz yo'q. Siz nega u, Egamberdining gapi rost yoki yolg'onligini surishtirmadi? Rayon markaziga borib, tegishli idoralarga uchrasha bo'lar edi-ku, deya e'tiroz bildirmoqchi bo'lsangiz ham, ajab emas.

Aslida, hamma gap mana shunda! Egamberdi o'z manfaati yo'lida ishlatgan asosiy omil ham ayni shu! Ya'ni Inodning Egamberdi va u singari kimsalarni ham o'zidek odam deb ishonishida. Davlat bu odamlarga vazifani, «shapka» va «pogon»ni berib qo'yibdimi, ular aldashlari mumkin emas, deya e'tiqod qilishida.

Inodning o‘z otini o‘z qo‘li bilan nobud qilishi masalasi ham sinfingizda jiddiy tortishuvga sabab bo‘lishi mumkin. Bu borada har bir o‘quvchi o‘z fikriga ega bo‘lish huquqi borligini e’tirof etgan holda, biz ham o‘z mulohazamiz bilan o‘rtoqlashamiz.

Tasavvur qilaylikki, Inod qorabayirni Egamberdiga berib yubordi. O‘zi har kuni so‘zsiz dardlashadigan, aytiganiidek, otasidan yodgor, og‘ir kunlarida yaragan birodarini birovning qo‘liga tutqazib yubordi...

Xo‘sish, keyin nima bo‘lar edi?

Har kun emas, har soat, har daqiqa uni ko‘rmoqni, yoljni siypalamoqni, ko‘zlariga tikilib o‘tirmoqni qo‘msarmidi-yo‘qmi? Uni tirik ekanini bilsa-da, lekin qayerda, kimning qo‘lida, ne ahvolga tushganini o‘ylarmidi-yo‘qmi? Oradan oylar, yillar o‘tar ekan, noma’lum manzilga olib ketilgan oti o‘lik yoxud tirikligini bilmay va bilolmay, o‘zi har kun ming o‘lib, ming tirilarmidi-yo‘qmi? Axir qorabayir uning uchun oddiy ot, minib yuriladigan jonzot emas, xuddi otasidek, xotini va bolalaridek aziz va mehribon, ular o‘rnida ham darddoshi emasmi?..

Bizningcha, otdan voz kechishdek fojiali holatda ham Inodning jismiga monand ismi, ismiga mos tabiat o‘z so‘zini aytdi. Uning qat’iyati, qaysarligi, cho‘rtkesarligi yana bir bor namoyon bo‘ldi.

Hikoya davomida Inod Egamberdiga ikki marotaba bir xil savol beradi: «Shundaymi?» Bu so‘z Inodning tilidan emas, balki qalbidan savoldan ko‘ra javobdek, to‘g‘rirog‘i, qat’iy qarordek yangrab chiqadi. U o‘zining ko‘ngil boyligini boshqalar ixtiyoriga, dargumon taqdирга topshirishdan ko‘ra, uni, jonsiz holda bo‘lsa-da, yonida qolishini istadi. Shunda har kun uni yo‘qlab borishi, sog‘inganda topishi, ruhan dardlashishi mumkin bo‘ladi.

Biz yuqorida Shukur Xolmirzayevning tabiat manzaralarini, hayvonot va o‘simlik dunyosini nihoyatda tiniq, ichdan his etib tasvirlay olish qobiliyatini ta’kidlagan edik. Buning tasdig‘i uchun hikoyadan kichik bir parchani

tahlil qilamiz: «Egamberdiga Inodning harakatlari juda sirli ko‘rinib, ko‘ngliga vahima tushdi. «Nima qilmoqchi o‘zi u?» – deb orqasidan qarab qoldi. So‘ng ko‘m-ko‘k yo‘ng‘ichqazorda suvsardek yaltillab, odatdagagi otlarnikidan yo‘g‘on bo‘ynini gajak qilib, odatdagagi arg‘umoqlarnikidan keng o‘mrovini kerib va odatdagagi chopqir otlarnikidan ingichka oyoqlarini yerga qattiq tirab turgan qorabayirga qaradi. Uning ko‘zlariga ko‘zi tushib, eti jimirlab ketdi.

Ot xuddi dahshatli bir xavfni sezgandek olayib, egasi kirib ketgan uyga qarar, hayratda qotgan antiqa haykalgaga o‘xshar edi. «Yopiray!» – dedi Egamberdi va xona eshidiga Inodning qorasini ko‘rdi. Ot birdan titroq tovushda kishnab yubordi».

Sezganingizdek, «Nima qilmoqchi o‘zi u?» – degan savol ayni lahzada nafaqat Egamberdining aqlida, balki qorabayirning ham g‘ayrishuurida chaqmoqdek chaqnadi. Yuqorida ta’rifini berganimiz Egamberdidan farq qilaroq, Inodning fe’lini juda yaxshi bilgan ot o‘z egasining dahshatli qarorga kelganini ichki sezgisi bilan birdan his qiladi. Shu tufayli ham uning ko‘zlariga ko‘zi tushgan Egamberdining eti jimirlab ketadi...

Yozuvchi otni tasvirlar ekan, «odatdagagi» so‘zini uch bora takror qo‘llaydi. Undan keyingi so‘zni (otni, sifatni) esa har safar o‘zgartiradi va shu tariqa qorabayirning boshqa otlardan farq qiladigan ajoyib obrazini ko‘z oldimizda gavdalantiradi.

Bo‘lajak fojiadan voqif bo‘lgan jonivor ichidan o‘tgan hislar to‘lqini esa o‘quvchiga birgina gapda to‘la sezdiriladi: «Ot birdan titroq tovushda kishnab yubordi».

Hikoyada bunday – faqat ko‘z bilan emas, ko‘ngil bilan o‘qib his qilinadigan yana ko‘p o‘rinlar borki, bu maroqli yumushni o‘zingizga qoldiramiz.

Ikkinchi hikoya – «Omon ovchining o‘limi» qahramoni biz bilgan Inodning tamom teskarisi. Unga nafaqat tabi-

at va uning jonzotlariga, balki odam bolalariga nisbatan shafqat ham butkul begona. Agar Inodning ismi uning jismi va ruhiyatiga juda mos bo‘lsa, Omon ovchining harakatlaridan biror jonivor omon qolmaydi.

Buning bosh sababi nimada, degan savolga dabdurust-dan javob berish oson emas. Muallif bu borada ayrim ishoralar qiladiki, o‘quvchi o‘shalarga diqqat qilmog‘i kerak. Masalan, Omonning otasi Rahmon polvon bilan bog‘liq qisqa ma’lumotlarni eslaylik. Bunga qo‘s Shimcha, Omon xotiniga taloq bergach, «Enam ham otamdan chiqib ketgan edi bir-ikki marta. Keyin qaytib kelib edi. Bular ham keladi hali...», – deb o‘yladi u va g‘ashlanib esla-di: «...o‘shanda u har gal otasi yonida qolar edi. Kiyik ovlarga chiqqanda to‘rt-besh kunlab kimsasiz kamarlarda yotib, pistirmalarda tunab, yolg‘izlikka mutlaqo o‘rganib ketgan Omon mergan xotinsiz uyiga ham ko‘nikdi», – degan tafsilotlar nima uchun «uning yuragi ham baquvvat ko‘kragidek qattiq» ekanining sirini oshkor etadi.

Ko‘rinadiki, Omonning bag‘ritosh, berahm bo‘lib o‘sishiga oilasidagi muhit, ayniqsa, otasining ta’siri kuchli bo‘lgan. Zero, «U kishi Omonga o‘n uch yasharligida, «indamas» miltiq – melkokolibr miltig‘i olib bergen, ... u bolalikdan yovvoyi qush-u yovvoyi hayvonlar otish va yeypish uchun yaratilgan deb o‘ylar»di.

Bularga qo‘s Shimcha, «qon tutadi», «gunoh», «ko‘z tegadi» degan gaplarning ham uning uchun ma’nosi yo‘q edi.

Siz bugun yaxshi bilasizki, «qon tutadi», «gunoh», «ko‘z tegadi» degan gaplar insonning dunyoni ruhiy tomondan idrok etishi bilan bog‘liq tushunchalardir. Modomiki, Omon uchun bu gaplarning ma’nosi yo‘q, ular hech narsani anglatmas ekan, bu uning ruhiy jihatdan qanchalar qashshoq ekanidan darak beradi.

Hikoyada e’tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan yana bir muhim holat bor. U ham bo‘lsa, qishloqning aksariyat

aholisi cho‘lni o‘zlashtirish uchun ko‘chib ketishi, Omonning esa, oilasidan voz kechib bo‘lsa-da, shu yerda yolg‘iz qolishi bilan bog‘liq manzaradir. Shu yovvoyi yolg‘izlik holati tasvirini qaytadan o‘qiymiz: «...Hademay qishloq bo‘shab qoldi. Bu endi qishloq emas, satti chordevor edi: tomlari buzilgan, yog‘och to‘slnlari ham olib ketilgan. Tez orada u yerda kalamush va sichqonlar ko‘paydi. Keyin esa ularning kushandalari boyqushlar ko‘paydi: ba’zisi kunduz kunlari ham devor kemtiklarida hurpayib o‘tirar edi.

Omon negadir bularni sira otmas, aksincha, ularni uzoq-uzoq tomosha qilishni yaxshi ko‘rar, ba’zan kechalarini tash-qariga chiqib boyqush sayrashini eshitganda – yurak ses-kanishi qayda! – parishonxotir bo‘lib tek qolardi. Shunda u bu tun qushlarining mungli hamda nimasi bilandir tunga o‘xshab ketadigan unlariga allaqanday singishar, go‘yo o‘zi ham shu tunga, shu mungli unga, boyqushga aylanib qolardi».

Mana shu parchada ham Shukur Xolmirzayev hikoya usulining o‘ziga xos jihatini ilg‘asak bo‘ladi. U qahramonlar ruhiyati, kayfiyati, holatini bevosita emas, balki bilvosita tasvirlashga ko‘proq e’tibor beradigan yozuvchi. Ya’ni tashqi narsa va hodisalar tasvirlanayotgandek yo‘l tutilib, aslida qahramon ruhiyatidagi siljishlar, uning ichki tabiatidagi o‘zgarishlar o‘quvchiga sezdiriladi.

E’tibor bering: Omon «negadir» kalamush, sichqon, boyqushlarni sira otmaydi. Aksincha, uzoq-uzoq tomosha qilishni yaxshi ko‘radi, ularning tundek unlariga singishib o‘tirishni istaydi. Inson bolasi ruhiyatidagi bu aynish holati G‘arb psixologiya fanida «nekrofiliya» – «o‘limsevarlik» deya talqin etiladiki, vaqt kelib bu ilmlardan ham xabar-dor bo‘lishga harakat qilasiz, deb ishonamiz.

Shukur Xolmirzayev hikoya tilida o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtda qo‘llaniladigan so‘zlar, iboralar, atamalarni ham me’yorida ishlatadi. Bu bilan, avvalo, qahramonlari, ular harakat qilayotgan hudud, yuz berayotgan hodisaning jonli

tasviriga erishsa, ikkinchi tomondan, adabiy tilimiz leksik qatlaming boyishiga o‘z hissasini qo‘sadi.

Hikoyada qo‘llanilgan «qoqma» (kurashda chalib yiqitish), «zovboshi» (kichik jarlikning labi), «churpa» (yovvoyi cho‘chqa – qobonning bolasi), «kamar» (berk joy), «miyazor» (urug‘i zaharli yovvoyi o‘t), «xurma» (sopol ko‘za), «inak» (sigir), «juvana» (buzoqcha), «g‘ajir» (yirik yirtqich qush – tasqara), «arna» (selda hosil bo‘lgan chuqur ariq), «kurtuk» (qoyasimon qotgan qor, muzlik), «masliqxo‘r» (o‘laksaxo‘r) singari so‘zlar asar badiiyati yuksalishiga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. «Otning egasi» hikoyasidagi Inodning xotinini qanday ayol sifatida tasavvur qildingiz?

2. Inod o‘quvchilarining hurmatiga nimalar evaziga erishgan, deb o‘ylaysiz?

3. «— Chalobmi, chalobdan ham chakki ma’qul! – dedi miltisioner ko‘rpachaga cho‘kkalab». Ayni javob miltisionerning yana qanday odam ekanidan darak beradi?

4. Quyidagi manzara qahramon xarakterining qay jihatini yoritadi: «Meni qamashadimi?!» – loqayd o‘yladi Inod otliq orqasidan qarab va bu o‘yi kor qilmay, ustunga suyandi».

5. «Omon ovchining o‘limi» asaridagi Rahmon polvonning kurashda bir boragina yutqazganini ko‘tara olmay o‘lib ketishi – uning qanday odam ekanidan darak beradi? Sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

6. Omonning to‘qqiz yashar o‘g‘li dadasiga: «Menga miltiq kerak emas», – deydi qat’iy. Sizningcha, hikoyachi nimaga ishora qilyapti?

7. «— E, ustani nima qilasan! – dedi Hamdam. – Balnisaga boramiz. Eng zo‘r ustalar o‘sha yerda. Rengin qilishadi. Bilishadi... – Bo‘lmasam ko‘chadan yurmaylik».

Omon nega shunday istak bildiryapti, deb o‘ylaysiz?

8. Omonning g‘ajirlar cho‘qiyotgan jasadini boshqa birov emas, aynan Ulton piyon ko‘rib qolishida ham nedir ramziy ma’no bormi?

MUHAMMAD YUSUF

(1954—2001)



O‘zbek adabiyoti shunday chamanzorki, uning bo‘stonida gul ko‘p, chechak ko‘p. Bu bo‘stonda bir-biriga o‘xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan iste’dodli shoirlar avlodi qayta-qayta bo‘y cho‘zaveradi. Ana shunday betakror shoirlardan biri, shubhasiz, O‘zbekiston xalq shoiri, xalqimizning bulbulzabon farzandi Muhammad Yusuf edi.

U 1954- yil 26- aprelda Andijon viloyatining Marhamat (1898- yilda mashhur Dukchi eshon qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tgan Mingtepa) tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida oddiy zahmatkash odamlar oilasida tug‘ildi. Mana shu qishloqda beg‘ubor bolaligi, sho‘x-shodon o‘smirligi o‘tdi.

Nechun qulluq qilmay Andijonga men –
Shu yurtda tug‘ildim, shu yurtda o‘sdim.
Agar do‘stim bo‘lsa, bitta u do‘stim –
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..

Yodimga o‘t tushsin, etmasam yodlar –
Dukchi eshonlari qilgay faryodlar.
Uni tavof etgan Mashrabdekk zotlar,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men! –

deb yozadi keyinchalik shoir.

O‘rta maktab ta’limini olgach, Muhammad Yusuf Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutiga o‘qishga kiradi va uni 1978- yilda bitiradi. Uning dastlabki she’rlaridan namunalar 1976- yilda «O‘zbekiston madaniyati» haftaligi sahifalarida chop etilgandi.

Bu paytlar o‘zbek she’riyati o‘zining yangi yuksalish pog‘onasiga ko‘tarilgan, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron singari ko‘plab iste’dodlar o‘rtasida o‘ziga xos ijodiy musobaqa avjga chiqqan edi. Bu ijod davrasiga dadil kirib borish, o‘ziga mos o‘rinni egallash oson ish emas edi. Bu ishning uddasidan chiqa olgan, adabiy ja-moatchilik nazarini o‘z tomoniga qarata olgan shoirlardan biri Muhammad Yusuf bo‘ldi.

Muhammad Yusuf she’riyatning turli yo‘nalishlarida esda qolarli asarlar yaratayotgan qalamkash do‘satlari, us-tozlari orasida o‘zini shoir sifatida isbot qilishga astoydil harakat qildi:

Shoir shunday ko‘pki, ularga yer tor,
Hammasi mashhur va hammasi nomdor,
Ulug‘vor, ularga yetmoq ko‘p dushvor.
Ammo ular oyga bosib yuzini
Turganda osmonin bag‘riga ilk bor
Biz olib borgaymiz tuproq isini,
Gulday dimog‘iga tutamiz, qizim,
Biz hali hammadan o‘tamiz, qizim!..

Muhammad Yusuf 1997- yildan e’tiboran O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari etib tayinlandi.

Garchi uning she’rlari vaqtli matbuotda tez-tez chop etilib turgan bo‘lsa-da, birinchi she’riy to‘plami nisbatan kech – 1985- yilda gina e’lon qilingandi. Shundan keyin shoirning «Bulbulga bir gapim bor», «Iltijo», «Uyqudagি qiz», «Halima enam allalari», «Ishq kemasi», «Ko‘nglimda bir yor», «Bevafo ko‘p ekan», «Yolg‘onchi yor», «Erka kiyik», «Osmonimga olib ketaman» singari o‘nlab she’riy majmualari o‘quvchi qo‘liga yetib bordi. U yirik poetik janrlarga ham murojaat etib, «Osmonning oxiri», «Qora quyosh» singari dostonlar yaratdi.

Yurtimizning mustaqillikka erishgani Muhammad Yusuf ijodida yangi ufqlarni ochdi. Uning millat va yurt

istiqloli sharafiga bitgan go‘zal she’rlari o‘zining sami-miyligi, soddaligi, badiiy mukammalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning «Vatanim», «Xalq bo‘l, elim», «Dunyo», «Inshoolloh», «O‘zbekmomo», «Iqror», «Tilak» singari o‘nlab she’rlari chinakam she’riyat yurtni qanday kuylamog‘i lozimligini isbotlagan asarlar bo‘lib qoldi.

Istiqlol yillarida erishgan yuksak ijodiy yutuqlari uchun Muhammad Yusufga 1998- yilda «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.

Muhammad Yusuf ijodi keyingi davr o‘zbek qo‘sinq-chiligi rivojida muhim o‘rin tutadi. Milliy san’atimizning eng yirik va iste’dodli vakillaridan tortib, havaskor qo‘sinqchilargacha shoir she’rlarini kuya soladilar.

Afsuski, Muhammad Yusufning umri qisqa bo‘ldi. U 2001- yilning 31- iyulida Qoraqalpog‘istonning Ellikqal'a tumaniga qilingan ijodiy safar chog‘ida yurak xurujidan vafot etdi.

Biroq bu umr bir dilbar shoirning tug‘ilishi, kamol topishi, o‘zini voyaga yetkazgan yurt va millatga samimiyy va ixlos ila xizmat qilib, ortidan yaxshi nom qoldirishi uchun kifoya qildi...

Ol, deya bir Egam, osmonga uchsa ruhlarim,
Bir ajib moviy diyor bo‘ynini quchsa ruhlarim,
Ko‘k mening ko‘ksim bo‘lur, yulduzları – anduhlarim,
Gul o‘pib, gul yopinib har dilda mozorim qolur,
Men ketarman bir kuni, navolarim, zorim qolur...

VATANIM

Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim.
O‘zim xoqon,
O‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim.

Yolg‘izim,
Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamhard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o‘zing mehri
Ilig‘imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan.
Navoiysan, shoh yonida
Faqirni duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko‘ringan da’vo qilgan,
Ming bir yog‘i ochilmagan
Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan.
Muqannasan qorachig‘i
Olovlargacha ragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon:
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonda,
Boburing – Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolik deb,
Yotarlar zimistonda.
Taqab ketgan to‘qson olti
Urug‘imsan, Vatanim...

O‘g‘lim, desang osmonlarga
G‘irot bo‘lib uchgayman,
Chambil yurda Alpomishga
Navkar bo‘lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug‘beging quchgayman,
G‘ichir-g‘ichir tishimdagi
So‘lig‘imsan, Vatanim...

O‘tgan kuning – o‘tgan kundir,
O‘z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergen zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo‘lin bog‘lab,
Dilin dog‘lab,
Yetaklashib ketgan kun,
«Voh bolam!» – deb aytolmagan
Dudug‘imsan, Vatanim...

Sen – shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam, o‘g‘lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo‘ynimdagи iftixorim,
Bo‘ynimdagи tumorim,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim!

Muhammad Yusufning bu she’ri asosida yaratilgan qo’shiqni eshitmagan, uni xonandaga jo‘r bo‘lib birga ayt-magan yurtdoshimiz kam topiladi. Bastakor she’r matniga – mazmun-mohiyatiga shunchalar mos, ohangdosh musiqa topganki, go‘yo shoir oldindan shu musiqani xirgoyi qilib ash’or bitganday. She’rdagi mazmun va ohang rivoji (dinamizmi) musiqada ikkinchi umrini boshlaydi, xonanda ovozi goh kuchayib, goh pasayib o‘zbekning tarixiy ko‘tarilish va tanazzul bosqichlarini ifoda etadi.

Aslida, Vatan to‘g‘risidagi, yurtimiz tarixida o‘tgan ulug‘lar nomlarini birma-bir sanab, moziyda bo‘lgan voqealarni eslab, ularga hamd-u sanolar aytish tarzida yozilgan she’rlarning soni bor-u sanog‘i yo‘q. Ularning deyarli barchasida Amir Temur, Manguberdi, Navoiy va Boburlar, Cho‘lpon va Fitratlar, albatta, tilga olinadi, hammaga ma’lum sifat va o‘xshatishlar orqali ular ulug‘lanadi. Biroq nima uchun ularning ko‘pchiligi Muhammad Yusuf she’ri singari mashhur bo‘lmadi? Nega bu she’riy tizmalar millionlar ko‘ngliga jonli his bo‘lib ko‘chib o‘tmadi?

Demak, Vatan to‘g‘risida kuylash ham har xil bo‘lar ekan-da. Bu she’r-u qo’shiqning ham samimiysi, yurakdan chiqib yurakka boradigani va... aksincha ta’sir qiladigani bo‘lar ekan-da. Avvalgi darslarda Ozod Sharafid-dinovning inson qalbidagi Vatan tuyg‘usi, unga sadoqat hislariga bag‘ishlangan «O‘lsam, ayrilmasman quchoqla-ringdan» maqolasi ustida bahs yuritganimiz esingizdam? Olim amalda emas, balki ko‘proq og‘izda «vatanparvarlik» qiladiganlardan ozurda ko‘nglini to‘kib solgandi o‘z maqolasida. Boyagi she’rlarni ham «Vatan mavzusida ham yozib turish kerak, ajabmas qo’shiq bo‘lib qolsa, agar mashhurroq qo’shiqqa aylanib ketsa, davlat biror unvon berib qolsa qani...» qabilidagi o‘ylar ortidan «dunyoga kel-gan», biroq tug‘ilibiq shu on jon bergen chalajon, rangpar tizmalardir, deyish mumkin. Chunki Vatanni tama bilan,

pisanda bilan sevish mumkin bo‘lмаганидек, у haqda ayni maqsadlar bilan yozib ham, kuylab ham bo‘lmaydi.

Muhammad Yusufning «Vatanim» she’rida esa mutlaqo boshqa hodisaga duch kelamiz. Shoirning ona yurtdan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq. U bir aka bo‘lib, bir o‘g‘il bo‘lib bu mehrga javob bergisi, agar shu yurt «o‘g‘lim», deya unga mushtoq bo‘lsa, har qanday mushkulot qarshisiga chiqqisi, kelgusi padarkushlardan kelajak ulug‘beklarini pana qilib quchgisi keladi. Uning uchun Ulug‘bek, Navoiy, Bobur yoxud Mashrab bir inson ismi emas, balki xalq, millat fazilati, xalq va millatning mujassam ismidir. Bu ismlar bag‘riga shoir xalq tarixini, uning eng zafarli va eng achchiq kunlarini jamlaydi. She’rning har bir bandi oxirida Vatanga beriladigan sifat («ulug‘imsan», «ilig‘imsan», «qo‘rig‘imsan», «cho‘lig‘imsan», «urug‘imsan», «dudug‘imsan») kamida yuz yillik hodisalar natijasi, quvonch-u alamini ifoda etib keladi. Birgina bandda ifoda topgan ma’nolar ko‘lamiga e’tibor beraylik:

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonda,
Boburing – Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolik deb,
Yotarlar zimistonda.
Traqab ketgan to‘qson olti
Urug‘imsan, Vatanim...

Bandning dastlabki misrasida chor hukumati tomonidan yurtidan chiqib ketishga majbur qilingan, umrbod ortga qaytolmay, Qashqar tuprog‘ida xoki qolgan shoir Furqat eslansa, ikkinchi misrada sho‘ro davlati qatag‘oni qurboni bo‘lgan, Sibir o‘rmonlarida daraxt kesib umri chirigan Usmon Nosir yodga olinadi. Jaloliddin Manguberdi va Bobur qismati esa Sizga yaxshi ma’lum. Parchadagi keyinги ikki misra alohida tahlilni talab etadi.

Andijonda tashkil etilgan Bobur nomli xalqaro jamoat fondi turli sabablarga ko‘ra qabrlari xorijda qolib ketgan ulug‘larimizning so‘nggi makonlarini izlab topish, ularning hozirgi holatini o‘rganish bo‘yicha juda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, xalqaro ekspeditsiya tomonidan suratga olingan, hozirgi Afg‘oniston hududidagi Navoiy, Lutfiy va boshqa mutafakkir bobolarimizning tashlandiq qabrlari, turli mojarolar tufayli katta shikast yegan maqbaralarini ko‘rib yurtdoshlarimiz nafsoniyatiga ozor yetmasligi mumkin emas. She’rdagi «Bu qanday yuz qarolik deb, Yotarlar zimistonda» misralari ayni shu holatning ham achchiq ifodasi tushunilishi mumkin...

Shoir nihoyat mustaqilligini, ozodligini qo‘lga kiritgan Vatanni qutlar ekan, haqli ravishda xalq nomidan «O‘zim xoqon, O‘zim sulton, Sen taxti Sulaymonim», deya faxr etadi.

MEHR QOLUR

O‘tar qancha yillar to‘zoni,
Yulduzlar – ko‘zyoshi samoni.

O‘tar inson yaxshi-yomoni,
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Qorachig‘da porlagan o‘sha,
Iqboliga chorlagan o‘sha.

Dunyoni tor aylagan o‘sha –
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Anor, sening yuzlaring suluv,
Xumor, sening ko‘zlarining suluv,
Yodda qolmas so‘zlarining suluv,
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Oqib ketdi suvlarda Tohir,
Zuhro yig‘lab qoldi qon bag‘ir.

Kelganda ham qiyomat oxir,
Mehr qolur, muhabbat qolur...

Nima deysan, ey, g‘ayur inson?
G‘iybatlaring qildi meni qon.
Sen ham bir kun o‘tursan, inon,
Mehr qolur, muhabbat qolur!

Tilimizda «nekbin tuyg‘ular» degan ibora bor. Bu – toza, pok, samimiy tuyg‘ular deganidir.

Hozircha Sizga tushunilishi, yana ham aniqrog‘i, his qilinishi biroz qiyinroq bo‘lgan hayotning achchiq haqiqatlari bor. Bu haqiqatlarning biri shundan iboratki, dunyo, tiriklik tashvishlari insonni har ko‘yga solishi, uning qalbidagi ko‘plab toza hislarga zarar yetkazishi mumkin.

Agar odam dunyoning bu o‘tkinchi tashvishlariga o‘ralashib, ruhiyatini ana shu tashvishlar girdobidan olib chиqa olmasa, buning natijasi juda xunuk oqibatlarni keltirib chiqarishi tayin. Albatta, bu oqibatlar yarq etib ko‘zga tashlanmasligi, odamning sirtiga qalqib chiqmasligi mumkin. Biroq qalbda paydo bo‘lgan qashshoqlik, odam bolasini insoniy his-tuyg‘ular tark etishidan-da, kattaroq fojia yo‘q bu dunyoda.

Odamni odam qilib turgan, uning hayotiga insoniy mazmun baxsh etadigan inja tuyg‘ular, avvalo, mehr va muhabbatdir. Shu tuyg‘ular tufayli olamda hayot davom etadi, tiriklik tantana qiladi. Zero, ota-onaning farzandga mehri, akaning singilga achinishi, do‘sning do‘sning madadi, yigitning qizga muhabbati dunyoni tutib turgan abadiy tuyg‘ulardir. Insonlararo munosabatlar asosida, aslida mana shu tuyg‘ular yotibdi.

Bu ko‘hna hayot ne-ne saltanatlarni, «dunyo manim!» degan ne-ne jahongirlarni ko‘rmadi. Xo‘sh, Yer yuzidagi hayotni, tiriklikni shu saltanatlar-u shu jahongirlar saqlab qoldimi?

Mutlaqo! Hayotni, tiriklikni insonlar o‘rtasidagi, ularga Yaratgan tomonidan omonat sifatida in’om etilgan mehr va muhabbat atalmish qudrat asrab qoldi!

Agar insoniyatga mana shu tuyg‘ular u yaratilayotgan-dayoq berilmaganda edi yoki ular butkul unutilib ketganda edi, hech qanday insoniy kuch, biror qudrat Yerdagi hayotni tugab bitishdan saqlab qololmas edi. Shoir:

Qorachig‘da porlagan o‘sha,
Iqboliga chorlagan o‘sha... –

der ekan, bu noyob tuyg‘ular o‘zini doim ham oshkor qilavermasligini urg‘ulaydi. Ularni porlab turgan qorachig‘lardan, ko‘ngilda turib iqboliga chorlayotgan sassiz ovozlardan izlamoq darkor. Shunisi ham borki, dunyodan mehr-u muhabbat talab qilgan odamning o‘zida shu tuyg‘ular ustuvor bo‘lishi lozim. Agar shaxs tabiatida o‘zgalarga g‘ayirlik, boshqalarni ko‘rolmaslik singari nafsiy qarashlar yetakchilik qilsa, mehr ham, muhabbat ham bunday sahosifat vujudni tark etadi...

YURTIM, ADO BO‘LMAS ARMONLARING BOR...

Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig‘latgan dostonlaring bor,
O‘tmishingni o‘ylab og‘riydi jonim,
Ko‘ksing to‘la shahid o‘g‘lonlaring bor.

Bag‘rim o‘rtar bir o‘y bahor ayyomlar,
Oy botgan yoqlarga termilib shomlar.
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi maydonlaring bor...

Yurtim, ko‘nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig‘latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringda ham diydoringga zor,
Jayrondek termilgan Cho‘lponlaring bor.

Qo‘ling qadog‘iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, og‘ir olma so‘zimni,
Qayinbarglar yopib qaro ko‘zini,
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar –
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor...

Qurbaning bo‘layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring – mening fig‘onim,
O‘tmishingni o‘ylab qiyinalar jonim,
Aytsam ado bo‘lmas dostonlaring bor.

Siz tarix darslaridan yaxshi bilib boryapsizki, o‘zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri sanaladi. Va bu xalq tarixda misli ko‘rilmagan hodisalarini boshdan kechirgan. Ikki daryo oralig‘ida joylashgan, zamini hosildor, xalqi mehnatkash, o‘troq madaniyatning noyob namunalarni yaratgan bu diyorga kimlarning ko‘zi kuymagan deysiz. Bosqinchi ketidan bosqinchilar kelib, bu go‘zal yurtni g‘orat qilishga – boyliklarini talash, xalqini qullikka mubtalo qilishga urinardi.

Xalqimiz bamisli samandar (olovda tug‘ilib, olovdan omon chiqdigan affsonaviy qush)dek barcha sinovlardan omon chiqdi, sharaf bilan chiqdi. Biroq bu kurashlar, ozodlikka bo‘lgan intilishlar, albatta, qurbonsiz, yo‘qotishlarsiz kechmadi. Millatning ne-ne bahodirlari, yurt ozodligini har narsadan ustun bilgan xalqning asl farzandlari shu kurash maydonlarida jon berdilar.

Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, yov kelganda o‘zini chetga olgan, joni shirinlik qilib sha’nidan kechgan, hatto do‘sstarini sotgan kimsalarni ham, afsuski, tarix yoddan chiqarmaydi.

Ularning kirdikorlari tufayli yurtning «ado bo‘lmas armonlari, toshlarni yig‘latgan dostonlari» paydo bo‘ldi.

Mana shu o‘tmishni o‘ylamaslik, bilmaslik, his qilmaslik mumkin emas. Xotira qachon bizga ko‘makka keladi, ertangi kun uchun xizmat qiladi? Qachonki, u uyg‘onsa, anglansa va his qilinsa!

Ayniqsa, sobiq sho‘ro davrida yurtimiz va yurtdoshlarimiz boshidan kechgan musibatlarni unutishga hech kimning haqqi yo‘q. «Qora ko‘zlarini» tug‘ilmay qolgan farzandlari emas, balki olis Sibir o‘rmonlaridagi «qayinbarglar yopgan» Usmon Nosirning ham xuddi Siz-u bizdek yashashga haqqi bor edi. Uning ham joni sabil emas edi. Afsuski...

Afsuski, o‘zimizdan chiqqan sotqinlar, mehrobga in qurgan chayonlar Usmon Nosirning ham, Abdulla Qodiriyning ham, Cho‘lpon va Fitratning ham umriga zomin bo‘ldilar.

Albatta, bugun bir millat vakillarining bobolari hayotida yo‘l qo‘ygan xatolari tufayli bir-birlarini qoralab o‘tirish mavridi emas. Lekin bu degani, «o‘tgan o‘tdi-ketdi», qabilida ham tushunilmasligi lozim. Shoirning istagi – bugungi va kelgusi avlod bu o‘tmishdan saboq chiqarsin, ertaga bo‘ladigan ming turli hayot sinovlariga tayyor tursin!

Shundagina millat millat bo‘ladi, xalq chinakam xalq bo‘ladi. Shundagina odamlar ruhiyatidan olomonlik hissi chekinib, chinakam shaxslar shakllanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Muhammad Yusufning «Biz hali hammadan o‘tamiz, qizim!...» («Madina» she’ridan) degan orzusini qanday izohlaysiz? Mana shunday maqsadlarsiz shoir bo‘lish mumkinmi?
2. Muhammad Yusufning istiqlol yillaridagi ijodi to‘g‘risida mulohaza yuriting. Uning she’rlari asosida aytiladigan qaysi qo‘shiqlarni bilasiz?
3. «Mehr qolur» she’ridagi
«O‘tar qancha yillar to‘zoni,
Yulduzlar – ko‘zyoshi samoni»

misralarida ifoda etilgan mazmunni va bu mazmun ifodasining badiiy jihatlarini izohlang.

4. «Yurtim, ado bo‘lmas armonlarинг bor» she’rida nima sababdan shoир «O‘tmishingni o‘ylab og‘riydi jonim», deydi? Hamma ham shoирning bu so‘zlarini ayta oladimi?

5. Shoир nima uchun «Fayzullodek mardi maydonlar» qismatini «bahor ayyomlar» va «oy botgan yoqlarga termilib shomlar» o‘laydi? Bunda «bahor ayyomi» bilan «oy botgan shom» qanday holat va kayfiyatning ifodasi?

6. Yurtning «yulduzni yig‘latgan dostonlari»dan xabardormisiz? Bu yerda gap faqat o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari ustida ketyaptimi yoki boshqa mazmun ham bormi?

7.«Qurboning bo‘layin, ey onajonim», deganda shoир kimga murojaat qilyapti? Shu murojaat she’rdagi ma’noga qanday qo‘sishimcha ma’nolar yuklaganini o‘ylang.

8. Muhammad Yusuf she’rlaridan ko‘nglingizga eng yaqinini yod oling va sinfdoshlaringiz oldida ifodali o‘qib bering.






JAHON ADABIYOTIDAN

MUHAMMAD FUZULIY

(1498 – 1556)

Ozarboyjon shoiri Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy turkiy she’riyatning Alisher Navoiydan keyingi eng mashhur qalam sohiblaridan biri hisoblanadi. Chunki u adabiyotda aynan Navoiy an’analarni izchil davom ettirdi, yuksak g‘oyaviy-badiiy darajadagi go‘zal she’rlar ijod qildi. U o‘zining «Layli va Majnun» dostonida tabiiy ravishda Navoiyni ustoz yanglig‘ tilga oladi:

Turk-u arab-u ajamda ayyom,
Har shoira ver mish edi bir kom.
O‘lmish edi Navoiy suxandon –
Manzuri shahanshohi Xuroson.



O‘z navbatida, bu shoir asarlari o‘zidan keyingi davrlar turkiy adabiyot, jumladan, o‘zbek so‘z san’ati rivojiga ham katta ta’sir o‘tkazdi. O‘zbek she’riyatining Fuzuliydan keyingi davri taraqqiyotini bu shoir ijodining ta’sirisiz tasavvur qilish – qiyin. Boshqacha aytganda, agar Alisher Navoiy bo‘lmasa edi, Muhammad Fuzuliy ijodini, Muhammad Fuzuliy bo‘lmasa edi, Boborahim Mashrab ijodini hozirgi yuksak badiiy darajada tasavvur qilib bo‘lmas edi.

O‘tgan asrlarda Fuzuliy ijodiyoti yurtimizda yuksak qadrlangan. Uning devoni Sa’diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo‘ston» asarlari, Hofiz Sheroziyning «Devon»i, Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston»i, Navoiyning «Chor devon»i kabi madrasalarimizda maxsus o‘qitilgan.

Fuzuliy ozarboyjon adabiyotining eng gullab-yashnagan davrida yashab, ijod etti. Bu adabiyot turkiy xalqlar so‘z san’ati orasida Navoiy adabiy maktabidan keyingi eng ilg‘or adabiy maktab edi. Bunda Fuzuliyning alohida va kuchli o‘rni va ta’siri bor edi.

Qardosh turkiy xalqlar shoirlaridan faqat Fuzuliy asarlarigina bizda tarjimasiz chop etiladi, asl holida o‘qib, tu-shunilaveradi. Ko‘plab g‘azallari hozirgacha ham qo‘sishq sifatida kuylab kelinadi.

Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy 1498- yili hozirgi Iroqning Karbalo shahrida ziyoli oilada dunyoga keldi. U ozarboyjon xalqining bayot urug‘idan bo‘lgan. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, Fuzuliyning otasi asli Karbaloga Arash degan joydan ko‘chib kelib, qolib ketgan. Fuzuliyning o‘g‘li – Fazliy bobo yurti bo‘lmish Arashga qaytib borib, qarindosh-urug‘lari yonida yashagan.

Fuzuliy Iroqning Bag‘dod, Hilla, Najaf degan shaharlarda hayot kechirgan. Umrining oxirida o‘zi tug‘ilib-o‘sgan Karbaloga ko‘chib kelgan. Fuzuliy 1556- yili shu yerda vabo kasali bilan vafot etgan.

Shoir nisbatan qisqa, ya’ni 58 yillik umri mobaynida katta meros yaratdi.

Fuzuliy turkiy, forsiy va arabiy tillarda devon tuzgan. Bunday ko‘ptillilik kamdan kam qalamkashga nasib etadi. Bu devonlaridan tashqari, «Layli va Majnun» dostoni, «Mathla ul-e’tiqod» («E’tiqodning boshlanish joyi») falsafiy risolasi, «Hadiqat us-suado» («Baxtiyorlar bog‘i»), «Suhbat ul-asmor» («Mevalar munozarasi»), «Shikoyatnama», «Yetti jom» («Soqiynoma» ham deb yuritiladi), «Rind

va zohid» («Mayparast va tarkidunyochi»), «Sihat va maraz» (sog‘lik va bemorlik») kabi asarlar ham yozdi.

Fuzuliy asarlarining qo‘lyozmalari dunyoning turli mamlakatlari, jumladan, O‘zbekistonimizdagi nufuzli kutubxona va qo‘lyozmalar xazinalarida saqlanadi. Ammo Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan shoir «Kulliyot»i qo‘lyozmasining dunyoda yagona nusxasi eng muhim manba hisoblanadi. Chunki u, birinchidan, shoir vafotidan 34 yil keyin ko‘chirilgani uchun nihoyatda ishonchli, ikkinchidan, bu kitobga muallifning deyarli barcha asarlari jamlangan.

Turkiy devonidan 300 ga yaqin g‘azal, 75 ruboiy, 42 qit’a, 27 qasida, bir nechtadan tarje’band, tarkibband, murabba’ va muxammas o‘rin olgan.

Fuzuliy g‘azallari tilining ravonligi, ifoda va tasvirning jozibadorligi, vazn, qofiya, radif va badiiy san’atlar qo‘llashda yuksak professional darajasi, uslubining o‘ynoqiligi, lirik qahramon ruhiyatida ko‘tarinki kayfiyat, otashinlik va shiddatkorlik borligi, falsafiy mushohada-mulohaza va hukm-xulosalarning yangiligi, ya’ni ohoriyiligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Shoir g‘azallarining asosiy mavzusi ham – ishq. Shuning uchun lirik qahramon otashin oshiq timsolida namoyon bo‘ladi. Ammo bu g‘azallardagi ishqni keng ma’noda tushunish kerak. Ya’ni ularda shaklan majoziy (insonga bo‘lgan) ishq tasvirlansa ham, zimdan haqiqiy (Yaratganga bo‘lgan) ishq ham ko‘zda tutilaveradi. Navoiy g‘azallarida uchragani kabi, Fuzuliy g‘azallarida ham bu ikki ishq o‘zaro uyg‘unlashib ketadi.

Ba’zi kuylar, masalan, Xorazm «Lazgi»si birdan avj nuqtadan boshlanadi. Fuzuliyning ayrim g‘azallari ham kuchli bir shiddat bilan avj pallasidan boshlanadi. Shu tariqa she’rda ajib ko‘tarinki ruh, qalbiy jo‘shqinlik paydo bo‘ladi.

Ayrim matlalari mumtoz adabiyotimizdan boxabar ko‘p o‘zbek ziyolilari orasida xuddiki bir hikmatli so‘z kabi tez-tez tilga olinadi. G‘azallarida go‘zal ifodalar, ta’sirchan tuyg‘ular tasviri bor. Qalbga yoqadi. Jozibali.

Fuzuliy ijodining o‘zbek o‘quvchilari orasidagi qadr-qimmati oshgandan oshib bordi.

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub «O‘tkan kunlar» romanining Fuzuliy bilan bog‘liq bir sahifasi mavjud. Asar bosh qahramoni Otabek – toshkentlik. Lekin u Farg‘ona vodiysining Marg‘ilon shahrida Kumushbibi degan xush-ro‘y qizga uylangan. Ota-onasining orzu-havasi, qistovi bilan u Toshkentdan ham uylanishga majbur bir holatga tushgan. Biroq buning uchun u, avvalo, Kumushbibidan rozilik olishi kerak. Bu – oson ish emas. Shuning uchun avval bor gapni qaynata-qaynanasiga aytib, pishitadi, Kumush ham buni eshitadi. Kirsa, Otabek Fuzuliyning «Devon»ini mutolaa qilib o‘tiribdi. Erining ikkinchi bor uylangandan xabardor. Otabek xotinidan achchiq-chuchuk gaplar kutayotibdi. U: «...Birinchi xitobdayoq ota-onas gunohiga tavba qilishg‘a hozirlanar edi. Ammo ish u kutganidek chiqmadi. Kutilmagan joyda, go‘yoki uni bu og‘ir holdan qutqarmoqchi bo‘lg‘andek:

– Fuzuliy yaxshi kitob, – dedi Kumush, – men ham yolg‘iz qolq‘an kezlarimda bu kitobdan boshimni ololmas edim, sizammi?»

Bu yerda Abdulla Qodiriy, Fuzuliyni o‘qigan kishi ana shunday madaniyatli, ma’naviyatli, farosatlari bo‘ladi, ham demoqchi.

Abdulla Qodiriy Fuzuliyni o‘zining «Mehrobdan chayon» romanida ham eslaydi – asardagi oddiy qorovul bo‘lgan Tohir aka bu shoirning:

Dahr bir bozordur – har kas mato‘in arz edar, –
degan misrasini keltiradi.

Hamid Olimjonning:

*Fuzuliyini oldim qo 'limga,
Majnun bo 'lib yig 'lab qichqirdi;*

Erkin Vohidovning:

*Oshiqlar uxlaydi saharga tomon
Fuzuliy devonin boshiga qo 'yib.
...Mening shoirligim yolg 'ondir, ammo
Fuzuliy she 'riga oshiqligim – rost;*

Abdulla Oripovning:

*Bir lahza qo 'lidan qo 'yganmi o 'zbek,
O 'zing ayt, Fuzuliy bitgan devonni, –*

kabi misralari bizning davrimizda ham shoir asarlari naqadar yuksak qadrlanayotganidan dalolat beradi.

Xuddi Navoiy ijodi kabi, Fuzuliy merosi ham besh asr dan buyon o 'zbek va ozarboyjon xalqlari do 'stligi, qondosh-jondoshligini mustahkamlashga xizmat qilib kelyapti. Bu bugun ham juda ahamiyatli, kelajakda ham shunday kamarbasta bo 'laveradi. Bizni til, dil, din birligi, madaniyatlarimiz uyg 'unligi, ulug ' daholarimiz o 'giti birlashtirib turadi. Jahonda mamlakatlar va xalqlarning o 'zaro hamkorlikda yashash va mehnat qilishga kuchli intilishi yuz berayotgan bugungi zamonda buning alohida o 'rni va ahamiyati bor. Bunday do 'stlik va hamkorlikdan ikki davlat va xalqi – birday manfaatdor.

G'AZALLAR

«O'LANDAN SO'R» RADIFLI G'AZAL

Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o 'landan so 'r,
Zuloli zavq shavqin tashnayi diydor o 'landan so 'r.

Labing sirrin kelib guftora mandan o‘zgadan so‘rma,
Bu pinhon nuktani bir voqifi asror o‘landan so‘r.

Ko‘zi yoshlularing holin na bilsun mardumi g‘ofil,
Kavokib sayrini shab to sahar bedor o‘landan so‘r.

Xabarsiz o‘lma fatton ko‘zlarining javrin chekanlardan,
Xabarsiz mastlar bedodini hushyor o‘landan so‘r.

G‘amingdan sham’tak yondim, saboden so‘rma
ahvolim,
Bu ahvoli shabi hijron manim-la yor o‘landan so‘r.

Xarobi jomi ishqam, nargisi masting bilur holim,
Xarobot ahlining ahvolini xummor o‘landan so‘r.

Muhabbat lazzatindan bexabardur zohidi g‘ofil,
Fuzuliy, ishq zavqin zavqi ishqil vor o‘landan so‘r.

Yetti baytli ushbu g‘azal sof turkiy radif («*o‘landan so‘r*») bilan bitilgan. Bu – «*bo ‘lgandan so‘ra*» so‘z birikmasining ozarboyjoncha talaffuzdagi shakli. Qofiyada turkiy («*vor*», «*bor*»ning ozarboyjoncha shakli), forsiy («*bemor*», «*diydor*», «*bedor*», «*hushyor*», «*yor*») va arabiylar («*asror*», «*xummor*») so‘zlar qo‘llangan.

Vazni – hazaji musammani solim, ya’ni *mafoiylun mafoiylun mafoiylun*. Taqte’si: V —— / V —— / V —— / V ——.

G‘azal baytlarining ma’no-mazmuni quyidagicha:

Vaslning davosi qadrini hajr dardiga chalingan bemordan so‘ra,

Toza zavqning shavqini diydorga tashna bo‘lgandan so‘ra (matla);

So 'zlashmoqqa kelib, labing sirini mendan o 'zgadan so 'rama,

Bu pinhon so 'zni bir sirlardan voqif bo 'lgan (kishi)dan so 'ra (2- bayt);

Ko 'z yosh (to 'kish)laringning ahvolin g 'ofil (bexabar kishi) qayoqdan (ham) bilsin,

Yulduzlarning sayrini kechasi tongga qadar uxlamay chiqqan(odam)dan so 'ra (3- bayt);

Sho 'x ko 'zlarining javrini chekkanlardan xabarsiz bo 'lma,

Xabarsiz mastlar bergan azoblarni hushyor bo 'lgan (odam) dan so 'ra (4- bayt);

G 'amingdan shamdek yondim, shamoldan ahvolimni so 'rama,

Bu ahvolni hijron kechasida men bilan do 'st bo 'lgan (odam)dan so 'ra (5- bayt);

Ey ishqim shomining xarobi (bo 'lgan yor), nargis (guli) dek mast ko 'zlarining holimni biladi,

Xarobot ahli (mastlar, ya 'ni Allohga oshiq bo 'lgan so 'fylar)ning ahvolini xumor bo 'lgan (mastlikdan keyin bosh og 'rig 'i)ni qoldirish uchun yana may istagan (odam) dan so 'ra (6- bayt);

G 'ofil (bexabar) zohid (tarkidunyo qilgan kishi) muhabbat lazzatini bilmaydi,

Fuzuliy, ishq zavqini ishqni zavqi bor (odam)dan so 'ra (maqta).

G 'azal ishqiy mavzuda bitilgan. Ammo ishq bu yerda bir yigitning bir qizga muhabbati tushunchasiga qaraganda juda keng ma'noda talqin etilgan. Tasavvufda ishq inson uchun tiriklikning ma'no-mazmuni, maqsad-muddaosi si-

fatida talqin etiladi. Bu g‘azalda ham aynan ana shunday tasavvufiy ma’nodagi ishq g‘oyasi ilgari surilgan. Baytlar ma’no-mazmunidan ishqqa mubtalo bo‘lgan kishi bilan ishqdan bexabar odam o‘rtasidagi farq ohib boriladi.

Matlada chin oshiqning ahvoli bayon etilib, uning tim-soli o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantiriladi. 2- baytda lirik qahramon o‘zini ham ana o‘sha chin oshiqlar safida qilib tasvirlaydi. Tasavvufda, *Alloh insonni o‘zini sevdishish uchun yaratgan*, deb qaraladi. Biroq buni hamma ham bilavermaydi. Bu yashirin sirdan voqif bo‘lganlar, ya’ni so‘fiylar bor. Bu sir mohiyatini o‘shalardan so‘rash kerak. Chunki ishq yo‘lida ko‘z yoshi to‘kayotgan kishi ning ahvolini, yulduzlarning sayrini, ya’ni dunyoning tuzilishi va mohiyatini g‘ofil odam qayoqdan ham biladi, buni kechalari tongga qadar uxlamay, kuzatib chiqqan odamdan so‘rash kerak. Bu bilan shoir tasavvufda pir tutish an’ansi zaruratiga ishora qilyapti. Bilganlar bilan suhbat tutish g‘oyasi 4- va 5- baytda ham davom etadi. 6- baytga kelib bevosita gap borib «*xarobot ahli*»ga ulanadi. «*Xarobot ahli*» deganda tashqi tomondan mayxo‘rlar guruhi tushuniladi. Ammo ramzan Allohga oshiqlar, ya’ni so‘fiylar ham ularga o‘xshatiladi. Zimdan bu yerda ana shu so‘fiylar nazarda tutilgan. Ya’ni, *oshiqlikning ahvolini kechasi bilan ishq yo‘lida yonib chiqqan kishi ertalab xuddi mastlardek xumor azobini tortadi, bu ahvolni o‘shalardan so‘ra*, deyi-ladi baytda.

G‘azalda boshdan oxir tazod san’ati ustunlik qiladi. Deyarli har bir baytda goh zimdan, goh oshkor tarzda ikki o‘zaro zid tushuncha bir-biriga qarshilantiriladi. Baytlarda aynan kimdan so‘rash targ‘ib etilayotgan bo‘lsa, manтиqan buning zamirida aynan kimlardan so‘ramaslik ham anglashilib boradi. Matlada hamda 6- baytda xuddi shunday yo‘l tutilgan. Lekin 2- baytda qarama-qarshilik oshkor tusga kiradi: misralar oxiridagi «*so‘rma*» bilan «*so‘r*» shundan dalolat berib turibdi. 3- baytda «*mardumi g‘ofil*» («*bexabar kishi*») inkor etilib, sahargacha yulduzlar say-

rini kuzatgan kishi ma'qul ko'rilyapti, ya'ni undan ustun qo'yilyapti. 4- baytda esa «*hushyor*» (ya'ni oshiq, chunki u doimiy tarzda hushyor bo'lishi kerak) timsoli «*xabarsiz mastlar*»ga qiyoslanyapti. 5- baytda lirik qahramon o'zining ahvolini «*sabo*» («*shamol*»)dan emas, «*hijron kechasiswa u bilan do'st bo'lgan*»dan so'rashni uqtirmoqda. Maqtaga kelib esa – oldingi baytlardagi qarama-qarshilikning mohiyati ochiladi shu paytgacha ham oshiq timsoli zohid timsoliga qarshi qo'yib kelinayotgani ma'lum bo'ladi.

Oshiq kimligini bildik. U Alloh vasliga yetishga, buning uchun esa o'zini haddi a'losida, ya'ni oliy darajada komillikka yetkazishga chog'langan, buning uchun ikki olam sirini, dunyoni o'rganishdan tinib-tinchimaydigan kishi. Zohid esa tarki dunyo qilgan, ya'ni jannatga tushish ilinjida bu dunyoning bor lazzatlaridan voz kechgan odam. Albatta, hayotsevar lirik qahramon bunday tarki dunyochilar bilan chiqisha olmaydi.

G'azaldagi nekbinlik (optimizm) ruhi badiiy tasvirning kuchi bilan tezda o'quvchiga yuqadi. Bu she'r mashhurligining siri ham – shunda.

Savol va topshiriqlar

1. G'azalda tazod san'atining o'rni, ko'rinishlari va ahamiyati haqida so'zlang. Daftaringizga baytlardagi o'zaro tazod hosil qilgan so'z va ifodalarni yozib chiqing.
2. G'azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
3. G'azal mohiyatidan kelib chiqadigan bosh g'oyani tushuntirib bering.
4. G'azalni yodlang.
5. Shu g'azal asosidagi qo'shiqni eshitib ko'ring.

«KERAKMAZMI SANGA» RADIFLI G‘AZAL

G‘amzasin sevding, ko‘ngul, joning kerakmazmi sanga?
Tig‘a urdung, jismi uryoning kerakmazmi sanga?

Otashin ohim-la aylarsan manga taklifi bog‘,
Bog‘bon, gulbargi xandoning kerakmazmi sanga?

Yela verma dog‘idub haryon, ayoqlardan ketur,
Ey pari, zulfi parishoning kerakmazmi sanga?

Ey kamonabro‘, raqiba verma g‘amzangdan nasib,
O‘q otarsan tosha, paykoning kerakmazmi sanga?

Yondirib jonom, jahonso‘z etma barqi ohimi,
Osmon, xurshidi raxshoning kerakmazmi sanga?

Kufri zulfindan mani man’ aylamat loyiqmudur,
So‘fiy, insof ayla, iymoning kerakmazmi sanga?

Tutalimkim, ashk selobina yo‘qdur e’tibor,
Ey Fuzuliy, chashmi giryoning kerakmazmi sanga?

Ishqiy mavzuda bitilgan ushbu g‘azal – yetti baytdan iborat. Vazni – ramali musammani mahzuf (yoki maqsur). Taqtesi: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~). Qofiyalari («joning» – «uryoning» – «xandoning» – «parishoning» – «paykoning» – «raxshoning» – «iymoning» – «giryoning») – pishiq, jarangdor, radifi («kerakmazmi sanga») g‘azalni boshdan-oxir o‘z tizginida ushlab turibdi.

Lirik qahramon bu g‘azalda undalmalardan ustalik bilan foydalanadi. Izchil ravishda har baytda bittadan undalma qo‘llangan. Matlada bevosita «ko‘ngul»ga murojaat etiladi. 2- baytda «bog‘bon», 3- baytda «ey pari», 4- baytda «ey kamonabro‘», 5- baytda «osmon», 6- baytda «so‘fiy»,

maqtada «ey Fuzuliy» degan da'vatlarga duch kelamiz. Bu g'azalning o'ziga xos badiiy jozibasini ta'minlagan. Garchi matlada «ko'ngul»ga murojaat bo'lsa-da, bayt mazmunida ham ma'shuqa turibdi, ya'ni «g'amzasin sevding» so'zлari gap aynan yor haqida ketayotganini anglatadi. Keyingi baytlardagi «bog'bon», «ey pari», «ey kamonabro'» undalmalari bevosita, «osmon» esa bilvosita ma'shuqani bildirib kelgan. Faqat matla bilan maqtadagi murojaatlarni shoirning o'ziga o'zi da'vat etishi deb tushunish kerak.

G'azal baytlari ma'no-mazmuni quyidagicha:

Ey ko'ngil, (sen yorning) nozli qarashini sevding, senga joning kerak emasmi?

(O'zingni) tig'ga urding, senga yalang'och jisming kerak emasmi? (matla);

Olovdek yonib turgan ohim bilan meni bog' (sayriga) taklif qilasan,

Ey bog'bon, senga kulib turgan gul barglaring kerak emasmi? (2- bayt);

Har yon silkitib, yelga berma, qadahlardan keltir,

Ey pari, senga yoyilgan sochlaring kerak emasmi? (3- bayt);

Ey qoshlari kamondek egik, raqibga nozli qarama,

Toshga o'q otyapsan, senga o'qlaring (kipriklarining) kerak emasmi?

(4- bayt);

Jonimni yondirib, ohim chaqmog'idan jahonga o't qo'yma,

Ey osmon, senga porloq Quyoshing (yuzing) kerak emasmi? (5- bayt);

Kofirlik sochi (ga qarash)dan meni man' etmoq loyiq edimi,

Ey so'fiy, insof qil, senga iymoning kerak emasmi? (6- bayt);

Ko'z yoshlar seliga e'tibor yo'q, deb ham hisoblayin,

Ey Fuzuliy, senga yig'layotgan ko'zlarining kerak emasmi? (maqta).

Bu shoirning ko‘plab o‘zbek hofizlari tarafidan qo‘shiq qilib kuylangan mashhur g‘azallaridan biri hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1. G‘azalda undalmalarning o‘rni va ahamiyati qanday? Lirik qahramon «ko‘ngul» hamda «ey Fuzuliy» murojaatlari orqali nimani ko‘zda tutgan?
2. G‘azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
3. G‘azalni yodlang.
4. Shu g‘azal asosidagi qo‘shiqni eshitib ko‘ring.




ROBINDRANATH THAKUR

(1861–1941)

Hindistonlik buyuk shoir, yozuvchi, bastakor va tarbiyashunos, taniqli jamoat arbobi, xalqaro Nobel mukofotining laureati Robindranath Thakur 1861- yili 7-mayda Kalkutta shahrida tavallud topgan. Uning ota-si baland martabali, yuksak saviyali kishi edi. R.Thakur oiladagi 14 farzandning kenjasи bo‘lib, otasi uni butun Hindiston bo‘ylab o‘zi bilan olib yurar, mamlakatning muqaddas qadamjolarini ko‘rsatar edi. Bola tabiat go‘zalliklaridan ta’sirlanib zavqqa to‘lardi. Bo‘lajak adibning 8 yoshidayoq she’rlar yoza boshlagani shundan bo‘lsa kerak. R.Thakur dastlabki savodni uyida olgan. Keyinchalik, xususiy maktablarda, Kalkuttadagi seminariyada o‘qidi, uni bitirgach, Bengaliya akademiyasida tarix va madaniyatdan saboq oldi. 1878–1880- yillarda London Universitetining kolleji-ga o‘qishga kiradi. Biroq uni tugatmasdan Hindistonga qaytadi. Oilada akalariga ergashib, ijod qila boshlaydi. Angliyadagi jurnallarda dastlabki she’r, doston va maqolalari e’lon qilinadi. Uning 1882- yilda e’lon qilingan ilk she’riy to‘plami «Oqshom qo‘shiqlari» deb atalardi. Shundan so‘ng u pok insoniy muhabbat ulug‘langan «Tonggi qo‘shiqlar», «Suratlar va qo‘shiqlar», mustamlakachilik zulmi va ijtimoiyadolatsizlik qoralangan «Bibha sohilii» va «Donishmand Roja» tarixiy romanlarini yozadi. U asosan bengal tilida ijod qilgan.

1884–1911- yillarda R.Thakur ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda ishtirok etdi. Jumladan, Hindiston Milliy kongressida faol qatnashdi. Jahon tarixi darslaridan sizga ma’lumki, bu vaqtida Hindiston Buyuk Britaniya davlatining mus-



tamlakasi edi. Milliy ozodlik harakatida qatnashib, milliy ongi o'sganligi tufayli uning asarlarida ham hind xalqining ingliz istilochilariga qarshi kurashi, mustamlaka siyosatiiga nisbatan keskin noroziligi ifodalandi. Uning «Chitra», «Lahza» she'riy to'plamlari, «Roja va Rani», «Qurbanlik», «Chitrangoda», «Malini» falsafiy dramalari, keyinchalik o'zbek tiliga ham tarjima qilingan «Hisob-kitob», «Jazo» va «Nur va soyalar» hikoyalari ana shu harakatning ijtimoiy-badiiy ko'rinishi sifatida yaratildi.

R.Thakur asarlari Hindiston va undan tashqarida ham mashhur bo'la boshladi. U 1912- yilda o'zining «Gitanjali» she'rlar to'plamini ingliz tiliga tarjima qiladi. Mazkur asari uchun 1913- yilda Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ladi. Mukofot puliga esa Hindiston bolalariga bepul maktab ochadi. Bu maktab Birinchi jahon urushidan keyin bepul o'qitiladigan universitetga aylantiriladi. R.Thakur Yevropa mamlakatlariga, Yaponiya, Amerika Qo'shma Shtatlariga bir necha marotaba safar qiladi. Saфarda ko'рганларини Hindistondagi siyosiy ahvol bilan qiyoslaydi. Ko'рган-bilganlari asosida milliy ozodlikka da'vat ruhida kitoblar yaratdi. Bu asarlarida Hindistonda-gi barcha millat vakillarini, ular qaysi irq, tabaqa va diniy mazhabda bo'lishidan qat'i nazar, ozodlik uchun kurashda yagona ittifoqqa birlashishga chaqirdi. Uning 1911- yilda vatanparvarlik ruhida bitgan «Xalq qalbi» nomli qo'shig'i Hindiston Respublikasining milliy madhiyasiga, 1913- yilda yaratgan «Mening oltin Bengaliyam» qo'shig'i esa Bangladesh Xalq Respublikasining milliy madhiyasiga aylangan.

R.Thakur ijodi rang-barang. U adabiyotning turli janrlarida qalam tebratdi. Uning adabiy bisotida muhabbat haqidagi kichik lirik she'rdan to yirik epik dostongacha, purmazmun hikoya, qissadan to yirik romangacha, kichik sahna asaridan to salmoqli dramalargacha, kishini chuqur o'yga toldiradigan badialargacha mavjud.

R.Thakur Hindiston ozodligini, uning kelajagini ma’rifatda ko’rdi. U ozodlikka, avvalo, savodxonlik, ma’rifatga oshnolik, g’aflat va jaholatni yengish orqaligina erishish mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun u butun umri davomida o‘z xalqining ko‘zini ochishga urindi, yurtdoshlari, maslakdoshlarini ham shunga da’vat etdi. Buyuk adib shu jihatdan bizga ma’rifatparvar jadid bobolarimiz Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho’lponlarni eslatadi.

R.Thakur asarlari jahonning ko‘p tillariga tarjima qilin-gan. Xususan, o‘zbek tilida adibning sakkiz jildlik tanlan-gan asarlar to‘plami, shuningdek, «Nur va soyalar» (1957), «Ko‘zga tushgan cho‘p» (1973) nomli kitoblari nashr etil-gan.

O‘zbek sahnasida esa uning «Pochta» pyesasi va «Halokat» romani asosida tayyorlangan «Gang daryosining qizi» dramasi Hamza nomli akademik teatr (hozirgi Milliy teatr) da o‘ynalgan. «O‘zbekfilm» kinostudiyasida 1961- yilda xuddi shu nomda to‘la metrajli badiiy film yaratilgan.

R.Thakur ijodi o‘zbek yozuvchilar uchun ham taj-riba mактаби bo‘ldi, desak yanglishmaymiz. Ayniqsa, uning ma’rifatparvarlikni tarannum etuvchi asarları hind va o‘zbek xalqi o‘rtasidagi buyuk Bobur tomonidan o‘rnatilgan do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qadrli o‘quvchilar! Sakkizinchı sinfdā Sizga R. Thakurning «Shubxa» nomli hikoyasini o‘rganish tavsiya etiladi. Yaxshisi, hikoya bilan tanishaylik.

SHUBXA¹

I

Qizchaga Shubxashini (shirin zabon) deb nom qo‘ygan-larida, uning soqov bo‘lishini kim ham o‘ylabdi deysiz?

¹ “Shubxa” so‘zining o‘zbek tilidagi “shubba” (gumonsirash) so‘ziga aloqasi yo‘q. Asar qahramoni Shubxashini ismining qisqartma shakli.

Uning ikki egachisiga Shukeshini (Zulfizar) va Shuxashini (xushtabassum) deb nom qo‘ygan edilar; binobarin, otasi ohangdoshlik uchun kichigiga Shubxashini deb nom qo‘ygan edi. Uni qisqartib Shubxa deb chaqirardilar.

Katta qizlarini, odat bo‘yicha, ko‘p taraddud va xarajatlar bilan erga berdilar-u, kichik qizning taqdiri esa otanonani qattiq tashvishga solib qo‘ydi. Odamlar, gapirolmagan kimsada his-tuyg‘u ham bo‘lmaydi deb, Shubxanining taqdiri haqidagi tashvishlarini uning o‘z oldida ro‘yirost so‘zlay berardilar.

Qizcha dunyoga kelishi oilaning boshiga yoqqan la’nat bo‘lganini bolaligidanoq sezgan edi. Shuning uchun odamlardan o‘zini chetga olib, doim yolg‘izlikka intilar edi. Hamma uni birdan esdan chiqarib qo‘ya qolsa, unga ancha yengil bo‘lardi, chog‘i. Biroq, o‘z musibatini kim ham esdan chiqara oladi? Ota-onasi shu haqda o‘ylagani-o‘ylagan. Ayniqsa, onasi hammadan ko‘proq iztirob chekardi. U qiziga qarab o‘zidan nomus qilardi: qiz degan onaga o‘g‘il boladan ko‘ra hamisha yaqinroq bo‘ladi-da. Qiz bola ona vujudining bir qismi, undagi har qanday nuqson onani nomusga qo‘yadi. Shubxanining otasi Banikontxa hamma qizlaridan ham Shubxashinin yaxshi ko‘rardi, onasi esa aksinchha, unga uncha ro‘yxush bermasdi.

Shubxa tildan mahrum bo‘lsa ham, lekin ko‘zlari qora, shahlo, kipriklari uzun, lablari qiz qalbida tug‘yon urgan hislarni aks ettirib, gul bargiday titrab turardi.

Fikrimizni birovga bayon qilish uchun qanchadan qancha urinamiz. Yetarli darajada ravshan bayon etolmasak, fikrimizni noto‘g‘ri tushunadilar. Ammo qizning qora ko‘zlari so‘zga muhtoj emas: ular xuddi yurakning o‘zini ifoda etadilar: uning tuyg‘ulari goh alanganib, goh zaif miltillaydi, goh yolqinlanib ketib, goh horg‘in so‘nadi, goh botayotgan oydek osuda boqib, goh osmon gumbazini yoritib o‘tgan chaqmoqdek porlaydi. Kimki soqov bo‘lib tug‘ilsa, unda til vazifasini titroq lablar bilan ko‘z bajarar-

kan. Ko‘z tilining ifoda kuchi cheksiz: bu ifoda dengizdek chuqur, osmondek tiniq: u – tongotar bilan kunbotar chog‘i sokin yerda yog‘du va soyalar almashuvigacha aks ettirarkan.

Soqovlarda, xuddi tabiatdagidek, tanholikning salobati bo‘ladi, shuning uchun bolalar Shubxadan hayiqar va u bilan hech o‘ynamas edilar. U kimsasiz, jazirama peshin chog‘idek unsiz va tanho edi...

II

Shubxa Chondipur degan qishloqda turardi. Bengaliyaning ko‘p joylaridagidek, bu yerdan ham kichkinagina bir daryo oqib o‘tar, bu daryo o‘rtta tabaqaga mansub qizlarday odob saqlab, o‘zining tor qirg‘oqlaridan sira oshib toshmasdi.

Bu himmatli daryo qishloq oilalarining teng huquqli a’zosi singari, o‘z qirg‘oqlaridagi qishloqlarga astoydil g‘amxo‘rlik qilardi. Uning ikki sohili bo‘ylab uylar, yam-yashil daraxtlar tizilib ketgan, go‘yo daryo tangrisi o‘z qarorgohidan tushib, saxovat bilan bu yerkarta baraka va nusrat urug‘ini sepgan edi.

Banikontxaning hovlisi daryo qirg‘og‘iga tutashar, yonidan suzib o‘tgan qayiqchalarga poxol bilan yopilgan saroy, molxona, ombor, tamarind daraxtlari va butalar bilan ihota qilingan bog‘cha bemalol ko‘rinib turardi. Lekin bu to‘la-to‘kis ro‘zg‘orda soqov qiz borligini birovlar bilarmikin, buni ayta olmayman.

Shubxa ishlarini bitirib, darhol daryo qirg‘og‘iga bombardi. Bu yerda tabiat baxtsiz qizning yarimta ko‘ngliga malham bo‘lar, u bilan go‘yo suhbat qurardi. Suvning sharillashi, odamlarning ovozi, qayiqchilarning qo‘srig‘i, qushlarning sayrashi, daraxt yaproqlarining shitirlashi bir-biriga qo‘silib, Shubxa qalbidagi sevinchga quyilib, bolaning hayajonli, ammo mangu sokin yuragiga to‘lqinlar sadosidek kirib borar, tabiatning bu bo‘g‘iq suroni va bu

harakati soqov qizning tili edi; yaproqlarida chigirtkalar chirillab turgan daraxtdan tortib, to osmondagи sas-sadosiz yulduzlargacha hamma narsa uning kipriklari soya tashlagan shahlo ko‘zlarida aks etar edi. Shubxa uchun butun atrof sirli imo-ishoralar, harakat, qo‘sish, ko‘zyoshi va nidolar bilan to‘lgan edi.

Choshgohda paromlar to‘xtab, qayiqchi va baliqchilar ovqatga ketib, dehqonlar soya-salqinda yotib uxlaganda, qushlar nag‘masi tinib, notinch olam oromga tolganda, keng dunyo kimsasiz uydek huvillab, sukunat cho‘kkanda, jazirama osmon gumbazi ostida tilsiz tabiat bilan daraxt soyasida o‘tirgan soqov qiz yuzma-yuz uchrashadilar.

Shubxaning do‘satlari yo‘q emas. Molxonada Sharbashi va Panguli degan ikki sigir bor. Ular qiz og‘zidan o‘z laqablarini biror marta eshitmagan bo‘lsalar ham, uning qadam tashlashini sharpasidan bilar edilar. Qiz gapirolmasdi, lekin uning shivirlashi va ma’nosiz ovozini joni-vorlar har qanday so‘zdan yaxshiroq tushunardilar. Ular Shubxaning erkatalishlarini ham, koyishlarini ham anglardilar; agar qiz molxonaga kirib Sharbashining bo‘ynidan quchoqlasa, u yuzlarini uning yuzlariga surkar, Panguli bo‘lsa beozor ko‘zları bilan yosh do‘stiga tikilib, yuzlarini yalardi. Shubxa molxonaga kuniga uch daf'a kirishi lozim bo‘lsa-da, aslida u bu yerga ko‘proq qatnardi, ayniqsa uyda xafa qilganlarida darhol indamas do‘satlari oldiga kirib borardi. Hayvonlar itoatkor, muloyim, xayrixoh ko‘zları va qandaydir noma'lum bir sezgi bilan qizning qalbidagi dardni anglar, unga yaqinlashib, shoxlarini Shubxaning qo‘llariga asta surkab, beso‘naqay harakatlari bilan so‘zsiz tasalli berishga urinar edilar. Bulardan boshqa, yana echki bilan mushuk ham bor edi, lekin Shubxa ularga unchalik mehr qo‘ymagan, shunga qaramay, ular ham Shubxaga mehribon edilar. Mushukcha qizning yumshoq tizzasiga chiqib o‘tirishni, u nozik panjalari bilan bo‘yni va orqasini silaganda, xurillab yotishni juda yaxshi ko‘rardi.

III

Oliy mavjudot orasida ham Shubxaning bir o‘rtog‘i bor edi. Ularni bir-biriga bog‘lagan narsa nima ekanini aytish qiyin, chunki unga do‘sit bo‘lgan o‘g‘il bolaning tili bor edi. Bu esa ularning umumiy til topishlariga xalaqit berardi.

Gonshayning kichik o‘g‘li Protap juda yalqov bola edi, ota-onalari unga biror hunar o‘rgatamiz deb juda ko‘p urinsalar ham, hech qanday natija chiqmadi, oxiri noumid bo‘lib, bo‘lma ganga bo‘lishma maqomida uni o‘z holiga qo‘yib berdilar. Ammo bekorxo‘janing bir xislati bor: uydagilar ularni qancha urib-so‘ksa ham, o‘zgalar ularni, albatta, yoqtirib qoladi. Yalqovlar hech qanday ish bilan bog‘liq bo‘lma ganlari uchun go‘yo jamoat mulkiga aylanadilar. Har bir shaharga bir saylgho‘ bog‘ zarur bo‘lganidek, har bir qishloqda ham bitta-ikkita takasaltang bo‘lar ekan, ular yo o‘yin-kulgi ishqibozlarining xizmatida, yoki yalqovlarning suhabatida band bo‘ladilar.

Protapning asosiy mashg‘uloti qarmoq bilan baliq ovlash edi. Bu ishga u juda ko‘p vaqt sarf etardi, uni hamisha daryo bo‘yidan topish mumkin edi. U Shubxa bilan ham xuddi mana shu yerda uchrashib turardi. Protapga har qanday ishda ko‘ngilli sherik kerak. Baliq ovida esa, tilsiz sherikdan yaxshisi bormi? Shuning uchun Protap Shubxaning qadriga yetardi. Boshqalar qizni Shubxa deb atasalar, bu unga juda yaqin ekanini ko‘rsatish uchun sodda qilib Shu deb chaqirar edi.

Odatda Shubxa tamarind daraxti tagida o‘tirar, Protap esa sal nariroqda qarmoq solardi. Protapning betel chay-nash odati ham bor. Qizcha o‘rtog‘i uchun bu narsani o‘zi tayyorlaydi. U Protapni uzoq kuzatib, unga biror narsa bilan ko‘maklashishni chin ko‘ngildan istar, uning uchun ajoyib bir ish qilib, yigitchani, bu qiz ham yer yuzida ortiqcha emas ekan-ku, deb o‘ylashga majbur etmoqchi bo‘lardi. Biroq Shubxa hech narsa o‘ylab topolmadi. Shunda u

tangridan do'stini taajjubga qoldiradigan biron katta ish qilish uchun o'ziga kuch-quvvat tiladi, toki Protap hayrat bilan; «Qarang-a, Shubxaning qo'lidan bunaqa ishlar kelar deb sira o'ylamagan edim!» deb yuboradigan bo'lsin, deb iltijo qildi.

Qani endi Shubxa suv parisi bo'lsa! O'shanda u ohista suvdan chiqib, Protapga ilonlar shohining boshidagi tojdan qimmatbaho tosh olib kelar, Protap bu bachkana baliq ovini yig'ishtirib, shu bebaaho tosh bilan daryo tubiga tushib ketardi. Suvosti sultanatiga tushganida esa, kumush saroydagi oltin taxt ustida kimni ko'rardi deb o'ylaysiz? Albatta, shu tilsiz Shuni-da, Banikontxan qizi, bizning Shuni, ya'ni bu nurafshon va osoyishta suvosti olamining yagona qizini ko'rgan bo'lardi. Afsuski, bu mumkin emas! Bu, umuman, dunyoda mumkin bo'lmagan biror ish yo'qligidan ham emas, buning sababi shuki, Shubxashini podsho oilasida tug'ilmagan, Banikontxa oilasida tug'ilgan, binobarin, Gonshayning o'g'li Protapni hayratda qoldirishga uning kuchi yetmaydi.

IV

Shubxa balog'atga yetayozdi; u o'z tuyg'ularini ham anglay boshladi, chog'i. Yuragida oydin tunlar dengizza mavj uradigan to'lqinlarday zo'r, jozibador, yangi va g'alati fikrlar paydo bo'la boshladi. Uning boshginasida son-sanoqsiz savollar uymalashar, lekin qiz ularga javob topolmasdi.

Bir oydin kechada Shubxa astagina eshikni ochib qo'rqa-pisa tashqariga bosh suqib, tevarakka alanglab qaradi. Shubxaning o'ziday yolg'iz to'lin oy uxmlayotgan yerga boqardi. Qizning vujudida yoshlik mavj urar, quvonch va qayg'u uning borlig'ini qamrab olgandi: qalbida yolg'izlik dardi poyoniga yetib, qiz o'zi ham sezmag'an holda tanholikning chegarasidan hatlab o'tdi. Mana endi asta to'lqinlanib turgan ona tabiat bilan hayajonli tilsiz qiz yana yakkama-yakka uchrashdilar...

Bu orada qizni erga berish muammosi ota-onaga tinchlik bermasdi. Banikontxa badavlat odam bo‘lib, uning oilasida kuniga ikki marta baliq va guruch taom yeylaniga hasadchilar ham ko‘p edi; shundan bo‘lsa kerak, qo‘shnilari, u qizini erga berolmaydi, deb mudom g‘iybat va malomat qilar edilar. Banikontxa xotinlar bilan ancha maslahatlashib, bir necha kundan so‘ng qayyoqqadir jo‘nadi. Nihoyat, qaytib kelib:

– Kalkuttaga boramiz, – deb qoldi.

Begona shahar safariga tayyorlana boshladilar. Alaman yuraklari siqilgan Shubxaga ko‘zyoshlari sira omon bermasdi. Bir necha kundan buyon uni noma'lum bir xavf-xatar qiynar va u tilsiz bir jonivordek, goh onasi, goh otasi ketidan yurardi. Qiz shahlo ko‘zlarini katta ochib, biror narsa anglash niyatida, hayajon bilan tikilsa ham, ota-onasi unga biror og‘iz so‘z aytmas edi.

Nima bo‘ldi-yu, bir kuni tushda, odatdagicha qarmog‘ini tashlab o‘tirgan Protap kulib turib gap boshladi:

Shu, senga er topishibdi! Endi sen u yerga borib erga tegasan. Ammo bizni ham esdan chiqarma.

U ortiq hech narsa demay, yana baliq ovi bilan mashg‘ul bo‘ldi.

O‘q yeb, o‘lim oldida yotgan kiyik sayyodga qanday qarasa, Shubxa ham Protaga shunday qaradi. Uning mahzun, sassiz nigohi: «Men senga nima yomonlik qildim?» – deb so‘raganday edi. O‘sha-o‘sha, Shubxa bu daraxt soyasida o‘tirmaydigan bo‘ldi.

Banikontxa endi uyg‘onib, papiros chekib turganda, bir dan Shubxa chopib kirdi-da, uning oyoqlariga yiqilib zor zor yig‘ladi. Banikontxa unga tasalli berishga urindi-yu, lekin o‘z ko‘zyoshlarini to‘xtatolmadi.

Ertasiga Kalkuttaga jo‘nashlari lozim edi. Shubxa yosilik do‘satlari bilan xayrplashish uchun molxonaga kirdi. Hayvonlarga xashak soldi, bo‘yinlaridan quchoqladi, allanimalar deb shivirladi, ularga erkalatuvchi nigoh tashla-

di. Uning ko‘zyoshlari shashqator bo‘lib yuzlaridan oqib tushardi.

Qiz oydin kechada tashqariga chiqib, ko‘pdan beri aziz oshnasi bo‘lgan daryo bo‘yidagi xushbo‘y ko‘katlar ustiga o‘zini tashladi. U bashariyatning qudrati va xotirjam ona yerni quchoqlab: «O, ona, meni qo‘yib yuborma! Men seni quchganday, sen ham meni mahkam quchoqla!» – deb iltijo qildi.

Ular Kalkuttaga kelgach, onasi Shubxani yaxshilab kiyintirdi. Sochlarini turmaklab, lenta bilan bog‘ladi, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezadi, boshqacha aytganda, qizning tabiiy chiroyini barbod etdi. Shubxanining ko‘zlariidan yosh arimasdi. Buni ko‘rgan ona, ko‘zlari qizarib, qovoqlari shishadi, degan xavf bilan sho‘rlik qizni koyidi, urishdi, ammo hech qanday tahdid uning ko‘zyoshini to‘xtatolmasdi.

Nihoyat, bir do‘stini boshlab kelin ko‘rgani kuyov keldi. Qizning ota-onasi, go‘yo osmondan tangrining o‘zi tushib kelganday, tashvish va hayajonda qolishdi. Ona, unday qil, bunday qil, deb qizni shu ahvolga olib keldiki, sho‘rlikning fig‘oni falakka chiqdi, uni kuyovga ham xuddi mana shu ahvolda ro‘baro‘ qildilar.

– Durust, – dedi kuyov unga qarab.

To‘xtovsiz ko‘zyoshlarini ko‘rgan yigit, ota-onasi bilan judolikka shuncha iztirob chekkan qiz eriga yana ham muloyim, yana ham mehribon bo‘ladi deb o‘yladi-da:

Gavhar sadafning qimmatini oshirganday, qizning ko‘zyoshlari ham uning qadrini oshiradi, – deb qo‘ydi.

U boshqa so‘z demadi.

Kalendarga qarab xayrli bir kunni tayin etdilar. To‘y ham bo‘ldi. Soqov qizni yigitga topshirib, ota-onasi uyga qaytdi: ularning toifasi beobro‘ bo‘lish xavfidan qutulib, kelajaklari ta’min etilgan edi.

Shubxanining eri g‘arbda ishlagani uchun tez fursatda uni ham olib ketdi. Ammo bir hafta o‘tmay, kelinning soqov

ekanini hamma bilib qoldi. Bordi-yu, bitta-yarimtasi buni payqamagan bo'lsa, bu qizning aybi emas. Qiz biror odamni aldayman deb o'ylamagandi. U ko'zlar bilan butun haqiqatni aytib turar, lekin hech kim uning ko'nglidagini anglamasdi. Shubxa atrofga nazar solib yoshlikdan tanish biror odamni ko'rmadiki, u bilan umumiy til topib hasratlashsa. Ana shunda soqov qiz qalbida tutib bo'lmas, g'ayri-insoniy bir faryod qo'zg'aldi, afsuski, bu alamli faryodni ham parvardigordan boshqa eshituvchi bo'lmadi. Shubxaning eri bo'lsa, ikkinchi daf'a ancha e'tibor bilan faqat ko'zini emas, quloqlarini ham ishga solib, boshqa – tili bor qizga uylandi.

«SHUBXA» HIKOYASI HAQIDA

«Shubxa» hikoyasida bag'ritosh, insoniy sifatlardan mahrum, nafs bandalari hamda ezgu tuyg'ular egasi, pokiza qalb insonlar o'rtasida ixtilof va ziddiyatlar mahorat bilan tasvirlangan.

Banikontxalar xonodonida uch qiz o'sardi. Otasi Banikontxa birinchi qizini Shukeshini (Zulfizar) ikkinchi qizini Shuxashini (xushtabassum) va uchinchi qizini Shubxashini (shirin zabon) deb nomlagandi. Taqdirning qaltis o'yinini qarangki, ota-onasi Shubxashini ya'ni shirin zabon bo'lsin deb niyat qilgan qizlari gapirolmaydigan, til-zabonsiz tug'ildi. Qizcha ota-onasiga og'ir yuk bo'lib tug'ilganday sezar, shuning uchun odamlardan o'zini olib qochar, yolg'iz qolishga intilardi. Ota-onasi ham qizining bu holatini o'ylab afsus chekar, ayniqsa onasi nomus qilardi. Odamlar ham gapirolmagan kishi his-tuyg'udan mahrum deb o'ylashar, Shubxaning taqdiri haqida bechora qizning oldida ochiqchasiga gapiraverardilar. Uni otasi jonidan yaxshi ko'rар, onasi esa una achinar edi.

Biroq yozuvchi tasvirlaganidek, Shubxa «tildan mahrum bo'lsa-da, kelishgan, ko'zlar qora, shahlo, kipriklari

uzun, lablari qiz qalbida tug‘yon urgan hislarni aks ettirib gul bargiday titrab turardi».

Yozuvchi soqov Shubxaning oilada, odamlar orasidagi hayotini tasvirlar ekan, qizcha qalbida kechgan xayollari, tuyg‘ulari ifodasini g‘oyat mahorat bilan yozgan. Uning holatini sog‘ odam holati bilan taqqoslaydi. Mana bu satrlarga diqqat qilaydik: «Fikrimizni birovga bayon qilish uchun qanchadan qancha urinamiz. Yetarli darajada ravshan bayon etolmasak fikrimizni noto‘g‘ri tushunadilar. Ammo qizning qora ko‘zlar so‘zga muhtoj emas: ular xuddi yurakning o‘zini ifoda etadilar: uning tuyg‘ulari goh alangalanib, goh zaif miltillaydi, goh yolqinlanib ketib, goh horg‘in so‘nadi, goh botayotgan oydek osuda boqib, goh osmon gumbazini yoritib o‘tgan chaqmoqdek porlaydi. Kimki soqov bo‘lib tug‘ilsa, unda til vazifasini titroq lablar bilan ko‘z bajararkan». Tildan mahrum qizning ovunchog‘i nimalardan iborat deb o‘ylaysiz? Shubxa barcha ishlarini bitirgach tabiatga intilardi. U paromlar to‘xtab, barcha tushlikka chiqqach, qushlar nag‘masi tinib, keng olam orom olib, atrofga sukunat cho‘kkanda soqov qiz tabiat bilan yuzma-yuz uchrashadi. Shubxaning do‘satlari ham bor. Ammo ular odamlar emas, og‘ilxonadagi Sharbashi va Panguli laqabli sigirlar, echki va mushuklar edi. Ular soqov qiz kabi gapirolmasalar-da, uning erkalashlarini so‘zdan yaxshiroq tushunardilar, yuzlarini uning yuzlariga surkashar, shoxlarini Shubxaning qo‘llariga asta surkab, beso‘naqay harakatlari bilan so‘zsiz tasallli berishga urinar edilar. Odamlar orasida Protagan yalqov bola bor edi. Ammo u qizcha bilan deyarli gaplashmas edi. Xulosa shuki, soqov qiz qalbi g‘am-hasratga to‘la, bechora dardini birovga izhor qilolmas, faqat javdiragan, g‘am yoshiga to‘lgan shahlo ko‘zlar-yu, tiyrak lablarigina uning iztiroblarini ifoda etardi. Achinarligi shundaki, odamlar hatto tilsiz, zabonsiz hayvonlarchalik ham Shubxa dardini his qilolmasdilar.

Hindistonda qiz uzatishning o‘ziga xos tartiblari bor. Qizini ko‘plab sep-sarpo bilan uzatish uchun, avvalo, munosib kuyov topish kerak. Agar bo‘lajak kelin til-zabonsiz, gapirolmaydigan bo‘lsa-chi? Shubxaning otasi uzoq maslahatlashib, kalkuttalik yigitni topadi. Shubxa to‘y hozirligi ko‘rilayotganini bilib qattiq hayajonga tushadi. Kimga turmushga berishayotganini so‘rolmasdan tilsiz jonivordek goh onasiga, goh otasiga qarab javdirab termiladi. Quydagi tasvirni ko‘zda yoshsiz o‘qish qiyin: «Begona shahar safariga tayyorlana boshladilar. Alamdan yuraklari siqilgan Shubxaga ko‘z yoshlari sira omon bermassi. Bir necha kundan buyon uni noma'lum xavf-xatar qynar va u tilsiz jonivordek goh onasi, goh otasi ketidan yurardi. Qiz shahlo ko‘zlarini katta ohib, biror narsa anglash niyatida hayajon bilan tikilsa ham, ota-onasi biror og‘iz so‘z aytmas edi... Banikontxa endi uyg‘onib papirosh chekib turganda, birdan Shubxa chopib kirdi-da, uning oyoqlariga yiqilib zor-zor yig‘ladi. Banikontxa unga tasalli berishga urindi-yu, lekin o‘z ko‘z yoshlarini to‘xtatolmadi».

Xullas, soqov qizni kalkuttalik bir yigitga uzatdilar. Biroq bir hafta o‘tmay kelinning soqov ekanligini hamma bilib qoladi. Shundan so‘ng yigit, Shubxani qo‘yib, boshqa tili bor qizga uylanadi.

Hikoya kishi bag‘rini yanada vayron qiladigan darajada yakun topadi: «...Qiz biror odamni aldayman deb o‘ylama-gandi. U ko‘zlarini bilan butun haqiqatni aytib turar, lekin hech kim uning ko‘nglidagini anglamasdi... Ana shunda soqov qiz qalbida tutib bo‘lmash, g‘ayriinsoniy bir faryod qo‘zg‘aldi, afsuski, bu alamning faryodini ham parvardigordan boshqa eshituvchi bo‘lmadi».

Hikoya muallifi Shubxaning ayanchli taqdiri orqali kitobxonni, insonni tushunishga, uning qalbiga qulog solishga da’vat etadi. Nainki to‘rt muchasi sog‘, balki jismoniy kamchiligi bor har bir insonni ardoqlashga chorlaydi. Chunki hayotda barchanining haq-huquqi barobar. Ustoz

yozuvchi Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, «Odamning chiqiti bo'lmaydi!» Shunday ekan, qimmatli o'quvchilar, bir-birimizga hamiyatli bo'laylik, har bir insonni kimligidan qat'i nazar ardoqlaylik, quvonchiga sherik, dardiga malham bo'lishga harakat qilaylik. Atoqli adib R.Thakur bizni ana shunday ezgu harakatga chorlaydi. Buyuk adib o'gitiga sodiq qolaylik. Adib ijodida «Shubxa» hikoyasiga o'xshagan hikoya va qissalar juda ko'p. Ularning barchasi odamiylik, rahm-shafqat, ezgulik ruhi bilan sug'orilgan. R.Thakur asarlarini qancha ko'p va xo'p o'rgansak ma'naviyatimizni boyitgan bo'lamiz.

Savol va topshiriqlar

1. R. Thakurning hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
2. R. Thakur milliy ozodlik kurashchisi sifatida istiqlol uchun avvalo nima muhimligini ta'kidlaydi?
3. Adibning ma'rifatparvarlik faoliyati haqida so'zlab bering. Uning bu faoliyati bilan jadid bobolarimiz o'rtasida qanday o'xhashlik ko'rasiz?
4. R. Thakurning qaysi qo'shig'i Bangladesh Xalq Respublikasining davlat madhiyasi hisoblanadi?
5. Adib asarlarini asosan qaysi tilda yaratgan?
6. R. Thakurning qaysi romani asosida o'zbek sahnasida va kinosida asarlar yaratilgan va ular qanday ataladi?
7. «Shubxa» hikoyasida qanday mavzu qalamga olingan?
8. Shubxa obraziga ta'rif bering. U qanday qiz va uni nimalar iztirobga soladi?
9. Tildan mahrum Shubxa dardini nimalar bilan bo'lishadi?
10. Shubxaning do'stlari kimlar?
11. Hikoya qahramonlaridan Protap soqov qizning nomini qanday ataydi?
12. Hikoyada qahramonlar kayfiyati, ruhiy holati bilan tabiat tasviridagi uyg'unlik mavjud. Asardan ana shunday o'rirlarni toping.
13. R.Thakurning yana qanday hikoyalari bilan tanishgansiz?

SERGEY YESENIN

(1895 – 1925)

XIX asrda rus adabiyoti, jumladan, she’riyati shunday yuksak darajada rivojlandiki, bugun jahon adabiyotini shu davr rus so’z san’atisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Ayniqsa, XX asr boshlarida bu adabiyot yangi shoirlar berdi. Shular dan eng mashhuri – Sergey Yesenin.

Adabiyot ahli orasida, *shoirlar qishloqlarda tug‘ilib, shaharlarda vafot etadi*, degan gap yuradi. Bu rusning buyuk shoiri Sergey Aleksandrovich Yeseninga nisbatan to‘la mos keladi.

U 1895- yilning 3- oktabrida (eski hisob bo‘yicha 21-sentabrida) Rossiyaning qadim tarixga ega Ryazan guberniyasiga qarashli Konstantinovo qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida tug‘ildi. Otasining kambag‘alligi uchun u ikki yoshligidan o‘ziga to‘qroq bo‘lgan ona tomonidan bobosining oilasida tarbiya topdi. Besh yoshligida o‘qishni o‘rgandi, to‘qqiz yoshidan xalq qo‘shiqlariga o‘xshatib she’rlar bita boshladi.

Qishloq muallimlari tayyorlaydigan maktabni tugallab, o’n yetti yoshida Moskvaga bordi. Savdogarning idorasi da ishladi, bosmaxonada musahhihlik qildi, adabiy-musiqiy to‘garakka qatnashdi, she’rlar yozishni davom ettirdi. O’n to‘qqiz yoshidan she’rlari Moskva jurnallarida bosilib, mashhur bo‘ldi. Yigirma yoshida Petrogradga kelib, yana bir mashhur rus shoiri Aleksandr Blok bilan tanishdi.

1916- yildan armiya xizmatiga kirdi. Oq podshoh sharafiga she’r yozishdan bosh tortgani uchun intizomiy batal-yonga jo‘natildi, keyin xizmatdan tamoman voz kechdi.



1918–1921- yillarda Murmansk, Arxangelsk, Qrim, Kavkaz, Bessarabiya, shuningdek, Turkiston bo‘ylab safar qildi. 1922–1923- yillari esa amerikalik Aysedora Dunkan bilan Yevropaning Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya mamlakatlarini aylandi, to‘rt oy AQSHda yashadi.

Sergey Yesenin 1925- yil 28- dekabrda fojiali tarzda vafot etdi.

Shoir qayerda bo‘lmasin, umri bo‘yi o‘zini ruhan qishloqda yurgandek his qilib yashadi. Shoirning o‘z yurti va ona xalqiga yuksak muhabbati she’rlarida uning bevosita Ryazan o‘lkasiga mehri tarzida aks etgan.

Shoir asarlarida tarjimayi holi bilan bog‘liq nuqtalar ko‘p tilga olinadi. Mumtoz o‘zbek adabiyotida bunday asarlarga *hasbi hol* deyiladi. «Endi qaytmam uyimga» hamda «Singlimga xat» she’rlarida muallifning ko‘p umri xorijiy mamlakatlarda, safarlarda o‘tgani shundoq sezilib turadi. Ammo qayerda yashamasin, Vatani mehri uning qalbida jo‘sh uradi.

Sergey Yesenining satrlari qisqa-qisqa, tili ravon va soddaligiga ega. Lirik qahramonning hayot, tabiat, odamlarga munosabatida qishloqcha samimiylilik va to‘g‘rilik ufurib turadi. Eng muhimmi, asarlarida sharqona ruh bor.

Bu o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Shoir forsiy til-dagi mumtoz she’riyat namunalari bilan yaqindan tanishganidan keyin Eronga borishga qattiq intiladi. Biroq o‘sha paytdagi Rossiya va Eron munosabatlari rus shoirini u yoqqa yuborish maqsadga muvofiq emasligini taqozo etadi. Shunga qaramasdan, Sergey Yesenin qattiq turib, Eronga borishni talab qilgani uchun uni Ozarboyjonning Bokuga yaqin qishloqlaridan biriga yuborishadi. Bir necha muddat bu yerda yashab, sharqona ruhni his etadi, Sharq odamlarining hayot tarzidan zavqlanadi va tez fursatda uning «Fors taronalari» she’rlar turkumi yoziladi.

Sharq she’riyatida Allohga ishqni majozan yorga ishq tarzida kuylash kuchli edi. Shunga taqlidan rus shoiri ham

Sharq go‘zaliga bag‘ishlangan ishqiy she’rlar bitadi. Le-kin shu mavzu bahonasida G‘arb kishisining Sharqqa meh-ri jo‘sh urib turganini sezish qiyin emas.

Rus hayotini tasvirlaydimi, sharqona mavzularda qalam tebratadimi, bundan qat’i nazar, Sergey Yesenin she’rla-rining tub mohiyatida umuminsoniylik yotadi. Millati, dini, irqidan qat’i nazar, ularni o‘qigan kishining ko‘nglida bir yorug‘lik, zavq, mehr, ezgulikka oshnolik tuyg‘usi pay-do bo‘ladi. She’r qalbni poklaydi, deganlari shu.

Sergey Yeseninning aksar she’rlarini Erkin Vohidov maromiga yetkazib tarjima qilgan. Bu she’riyatning o‘zbek shoirlari ijodiga juda katta ta’siri bo‘ldi. Erkin Vohidov, Tilak Jo‘ra, Ma’ruf Jalil, Xurshid Davron va boshqalar ijodi-da buni yaqqol sezamiz. Xususan, O‘zbekiston xalq shoiri marhum Muhammad Yusuf ijodini Sergey Yesenin asarlari ta’sirisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

«DOG‘LAR KETMISH MAJRUH KO‘NGILDAN...» SHE’RI

Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan,
Mast vasvasa qo‘zg‘amas tug‘yon.
Men dardimga Tehron gulidan
Choyxonada topoldim darmon.

Choyxonachi – barvasta, o‘ktam,
Qoyil qolsin rus, deb, choyimga,
O‘tkir aroq, may o‘rniga ham
Achchiq-achchiq choy tutar menga.

Quy, mezbonim, ammo had bilan,
Bog‘ing aro turfa gullar bor.
Oqshom menga niqob ostidan
Ohu ko‘zin suzdi gulruxsor.

Rossiyada gulday qizlarni
Tutqunlikda saqlamas erlar.

Sarmast etar bo'sa bizlarni
Bexanjar-u bemakr-u bezar.

Bu tong yuzli dildor qoshimda
Bir bor xirom etsa noz bilan,
Shohi ro'mol solgum boshiga,
Yo'llariga sheroziy gilam.

Mezbon, choy quy menga lolagun,
Shoir senga so'ylamas yolg'on.
Ehtiyot bo'l o'zingga bugun,
So'ngra mendan qilmagin gumon.

Eshikka ko'p qarayberma san,
Gulbog'ingga, baribir, yo'l bor...
Oqshom menga niqob ostidan
Ohu ko'zin suzdi gulruxsor.

She'r yetti banddan tashkil topgan. Bu xuddi aksar g'azallar yetti baytli bo'lishini eslatadi. Chunki bu ham Sergey Yeseninning «Fors taronalari» turkumidan.

Mavzu ham o'sha-o'sha – rus yigitining Eron go'zaliga sevgisi kuylanadi. Buni ochiq bildirish uchun «Tehron», «sheroziy gilam», «Rossiya», «rus» so'zлari maxsus qo'llanadi. Bundan tashqari, she'r mazmunida Eron bilan Rossiyada ayollarga munosabat masalasidagi farqlar aytib o'tiladi ham. Satrlardagi «choyxona», «choy», «tong yuzli dildor», «shohi ro'mol», «ohu ko'z», «lolagun» so'z-timsollari ham Sharqni eslatib turadi.

1- bandda oshiq ko'ngildan dog'lar ketgani, mast vasvasa bezovta qilmayotganiga sabab ko'rsatiladi: u choyxonada Tehron gulidan darmon topgan. Bu yerda gul sevikli yorni ifodalab kelgan.

2- bandda choyxona atroficha tasvirlanadi. Choyxonachi rus choyimga qoyil qolsin, deb unga o'tkir aroq, may o'rniga ham achchiq-achchiq choy tutadi.

3- bandda «gullar» timsoli yana tilga olinadi-da, endi buning zamirida nima ko‘zda tutilayotgani oshkor etiladi – oqshom niqob ostidan bir gulruxsor ohu ko‘zini suzgan!

Shu niqob ajnabiy lirik qahramonni qiyosga chorlaydi. Rossiya bunday emas, erlar gulday qizlarni avaylab-asraydi, ya’ni niqobga o‘ramaydi, bizlarni yor xanjarsiz, makrsiz, zar-zevarsiz mast etadi...

Lekin lirik qahramon ishqining zo‘ridan o‘z yurtidagi qoidalardan voz kechib, bu yerning talablariga ko‘nmoqchi. Mayli, deydi u, agar bu tong yuzli dildor noz bilan qoshimda bir bor xirom etsa, boshiga shohi ro‘mol solib, yo‘llariga Sheroz gilamlaridan to‘shar edim...

Choyxonachi esdan chiqqan emas. Keyingi band bevosita unga «mezbon» deb murojaat qilishdan boshlanadi. Lolagun choy quy, shoир senga yolg‘on gapirmaydi, faqat o‘zingga ehtiyot bo‘l-da, keyin mendan gumon qilib yurma, deydi.

Xo‘sh, bu bilan nima demoqchi? Aytmoqchiki, eshikka ko‘p qarayverma, baribir, gulbog‘ingga yo‘l bor, chunki gulruxsor ko‘z suzgan.

She’r 3- band oxiridagi ikki misra takrori bilan tugaydi:

Oqshom menga niqob ostidan
Ohu ko‘zin suzdi gulruxsor.

Bu she’r lirikaning eng yuksak talablariga javob beradi. Holat, manzara, makon va zamon bor. Ularning bari lirik qahramon his-tuyg‘usi, tasavvuroti, kayfiyati, ruhidagi o‘zgarishlar, uning istagi va niyatiga yetish ilinji orqali ifodalanadi.

Satrular mag‘ziga ijtimoiylik ham singdirilgan. Bu Sharq va G‘arb qiyosi, xotin-qizlarga munosabatning, ayollar erkining turlichaligini solishtirish orqali aks etgan. Shular zamirida umuminsoniylik ham bor. Shoирning g‘oyasiga ko‘ra, sevgi-muhabbat uchun bu tafovutlar to‘siq bo‘lолmaydi. Axir, bu – dil mulki, ko‘ngilning ishi.

Savol va topshiriqlar

1. She'rning band tuzilishi, uning qofiya tartibini aniqlab, tahlil qiling.
2. 3- band oxiridagi ikki satr nega she'r so'ngida takror ishlataldi?
3. Asardagi qaysi so'z-timsollarda sharqonalik bor? Qaysilari lirik qahramon yurtini bildirib turadi?
4. Qaysi bandda ayollarga munosabatda Eron va Rossiya o'rtasidagi ijtimoiy tafovut haqida so'z boradi?
5. Lirik qahramondagi o'ziga ishonchga asos bo'lgan voqeani aniqlab, sharhlab bering.
6. She'rda «gul» bilan bog'liq so'z-timsollarning o'rni, ahamiyati, ma'nolarini izohlang.

«SINGLIMGA XAT» SHE'RI

Bizning Aleksandr
Delvig haqida
She'r yozgan, madh etib kalla suyagin.
Qanday shirin,
Qanday olis aqida,
Xuddi gulbog' yanglig' ko'ngilga yaqin.

Salom senga, singlim,
Salom, assalom.
Qadrdon dalalar salomat bormi?
Ayt, qalay parvarish qilmoqda bobom
Ryazandagi bizning oluchazorni?

O'sha oluchazor
Bormi yodingda?
Otam sho'rlik tinmay qilardi mehnat.
Bir parcha yeridan
Hosil olguncha
Omoch surib, qancha chekardi zahmat.
Unga maqsad edi
Kartoshka olish,

Biz bog‘ bo‘lsa derdik,
Bog‘ni kesishdi.
Dilim o‘rtanganin
Aytsin ho‘l bolish,
Bog‘ni kesishdi-yu,
Bag‘rim ezishdi.

Yodimdadir bayram,
O‘sha so‘lim may,
Sabzalar bezangan,
Gullab nastarin.
Oppoq qayirlarni
Quchoqlab tinmay,
Sho‘x xandon maydan ham
Mastroq edim man.

Oh, u oq qayinlar,
Oppoq qayinlar...
Qizlardek sarvinoz, suluv, xushqomat.
Sevmasligi mumkin ularni faqat –
Quvnoq navniholda ko‘rmagan samar.

Singlim!
Naqadar kam hayotda chin do‘st,
Ko‘plardek mening ham
Yuragimda dog‘.
Agar nozik qalbing
Toliqqan bo‘lsa,
Buning soz davosi —
Timmoq, unutmoq.

Sasha¹ni bilasan,
Sasha zo‘r edi.
Lermontov ham, asli,
Unga jo‘r edi.

¹ Sasha – Aleksandr Sergeyevich Pushkin.

Men bo‘lsam...
Kasalga chalinib turibman.
Endi esa nastarin qorlarda
Ruhimni davolab yuribman¹.

Senga achinaman,
Yolg‘iz qolarsan.
Men esam tayyorman
Duelga, hatto.
«Baxtlidir jomini ichib bo‘lмаган»
Va tinglab bo‘lмаган naydan ham navo.

Va lekin bog‘imiz...
O‘sha bog‘ aro
Erka bolalaring o‘ynar ko‘klamda.
Ular o‘ylab qo‘ysa qani bir bor, o,
Dalli devonalar
O‘tgan olamda.

Adabiyotda maktub vositasidan foydalanish keng qo‘llanadigan usullardan biri hisoblanadi. Bu rus she’riyatida ham mavjud. Sergey Yeseninning o‘zi bir necha she’rini xat tarzida yozadi: «Onamga xat», «Ayolga xat», «Onamdan xat», «Bobomga xat»...

O‘qib chiqqaningiz «Singlimga xat» ham shunday asarlар sirasiga kiradi.

Shoirning bir necha, masalan, «Pushkinga», «Gurjiston shoirlariga» she’rlari bag‘ishlov tarzida bitilgan. O‘zaro har qancha yaqin tursa-da, bularni xat deb hisoblab bo‘lmaydi.

Mohiyatan har qanday xat uzoqdagi yaqin kishiga yoziladi. «Singlimga xat» lirik qahramonning qishloqda qolgan singlisiga mehri jo‘sh urib bitilgan. Odatda, maktub salomdan boshlanishi kerak. Bu she’r dabdurustdan, lekin aka-singil o‘rtasida oson tushuniladigan Aleksandr Delvig

¹ Bu band S. Olim tarjimasida berildi.

haqidagi she'rnинг xuddi gulbog‘ yanglig‘ ko‘ngilga yaqinligini qayd etishdan boshlanadi, salom keyingi band-a keladi.

Aka olchazorni, bir parcha yeridan hosil olish uchun otalarining zahmat chekib ter to‘kishini eslaydi. Otaning dardi – kartoshka yetishtirish. Bolalarga esa bog‘ ma’qul edi. Bog‘ni kesishdi. Lirik qahramon o‘sanda yostiqni ho‘llab yig‘laganlarini yodga oladi. Bunday o‘kinchlari-ni kishi singlisigagina shunday samimiylit bilan aytishi mumkin. Albatta, so‘lim may kunlari nastarinning gul-lashi, bayramning nishonlanishi zavqidan oppoq qayinlarni quchoqlab quvnaganlari, may ichgandan ham kuchliroq mast bo‘lganlari esdan chiqmaydi. Axir, qizlardek sarvinoz bu oq qayinlarni yaxshi ko‘rmay bo‘ladimi?!

Shunday bolalarcha tuyg‘ular og‘ushida lirik qahramon birdan kattalarga xos mulohazalarga o‘tadi. Shu tariqa zimdan haqiqiy hayot bilan bolalik tasavvurlari muqoyosa qilinadi. Hayotda chin do‘sst topish mushkulligi, bu uning ko‘nglida dog‘lar qoldirgani, agar singlisining nozik qalbi ham toliqqan bo‘lsa, davosi – tinmoq, unutmoq ekani aytildi.

Shunda, kutilmaganda shoир Pushkinni, Lermontovni tilga oladi. Mantiqan o‘zini ularga qiyoslaydi. Pushkindan bir satr ham keltiradi:

◆

Baxtlidir jomini ichib bo‘lmagan.

Bog‘ asarning 1-, 2-, 3-, 4- bandlarida tilga olingan edi. Yana gap aylanib, shu boqqa bog‘lanadi. Shoир bir kun ke-lib singlisining erka bolalari ko‘klamlar shu bog‘da xuddi ular kabi o‘ynab yurganida bu dunyodan dalli devonalar o‘tganini xotirga olishar, deb umid qiladi.

Bu yakuniy bandda shoирning xuddi Pushkin, Lermontov kabi abadiy qolish ilinji yashirin.

Shunday bo‘ldi ham. Sergey Yesenin xalqining xuddi o‘sha Pushkin, Lermontov darajasida sevimli bir shoiriga aylandi. U bilan singlisining o‘sha bog‘larida ko‘klamlar

o‘ynab yuradigan erka bolalarigina emas, butun Ryazan, butun Rossiya faxrlanadi. Uning asarlari Yer yuzining ko‘pdan ko‘p mamlakatlarida sevib o‘qiladi, qanchadan qancha tillarga qayta-qayta tarjima qilinadi.

«Singlimga xat» she’ri ta’sirida turli tillarda qalam suradigan shoirlar asar yozgan. Jumladan, O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning ham «Opamga xat» nomidagi she’ri bor.

Savol va topshiriqlar

1. Adabiyotda, jumladan, Sergey Yesenin ijodida xat vositasidan foydalanish haqida nimalar deya olasiz?
2. She’rning tuzilishi, bandlari aro bog‘liqliklarni tahlil eting.
3. She’rda bog‘ timsoli qanday vazifalarni bajarganini tushuntiring.
4. Lirik qahramon talqinida bolalar bilan ota maqsadi o‘rtasida qanday farq bor?
5. Hayot haqidagi bolalik tasavvurlari bilan real tushuncha o‘rtasidagi tafovut mohiyatida nima yotadi?
6. Lirik qahramon nima ilinj bilan Pushkin, Lermontov kabi buyuk rus shoirlarini esga oladi?
7. Oxirgi bandda lirik qahramonning orzusi qanday badiiy vosa itorasi orqali ifodalangan?
8. Siz hali yoshsiz, lekin kichkinaligingizda ko‘nglingizda muhrlanib qolgan qanday voqeа-hodisa, his-tuyg‘u, o‘kinch-amonni eslay olasiz?
9. She’rning aynan qaysi satrlari Sizga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatdi?

«ONA IBODATI» SHE’RI

Qishloqning bir chetida
Pastakkina uy turar,
Sajda qilib shu uyda
Onaizor o‘ltirar.

Yolg‘iz o‘g‘lin eslar u
Yonib achchiq firoqda.
O‘g‘li esa yurt uchun
Jang qiladi yiroqda.

Ona sajda qiladi,
Ko‘zyoshlari shashqator.
Bir nuqtaga tikilgan,
Xayolida nelar bor?

Ko‘z oldiga keladi:
Keng dala – jang maydoni.
Jonsiz yotar maydonda
Mard o‘g‘li – pahlavoni.

Ko‘kragida jarohat,
Qop-qora qon har yog‘i.
Qolmish jonsiz qo‘lida
Dushmanining bayrog‘i.

Ona yuzin qoplar g‘am,
Chimirgancha qoshini,
Asta suyar qo‘liga
Oppoq sochli boshini.

Yurak dardi yosh bo‘lib,
To‘lib kelar ko‘ziga.
Marjon-marjon tomchilar
Oqib tushar yuziga.

Ona hamma zamon va makonda ham, barcha millat va mamlakatda ham – ona. Vatanni onaga o‘xshatish mumkin. Lekin onani o‘zidan boshqa hech narsaga qiyoslab bo‘lmaydi. Ona qalbida ibodatga moyillik – hamisha kuchli. Ishonmasangiz, onalaringiz Sizni duo qilayotganda ko‘zlariga boqing. Bu ko‘zlarda hech qachon hech kimda uchratmaganingiz iltijoni ko‘rasiz. Bu iltijoda esa onaning farzandga mehri yashirin bo‘ladi.

Sergey Yeseninning mutolaa qilganingiz she'ridagi ona qishloq chetidagi pastakkina uyda yashaydi. O'g'li jangga ketgan. Onaning ko'ngli – xotirjam, deysizmi?! Dilbandiga omonlik tilab, Xudoga iltijo qiladi. Ko'zlar esa jiqla yosh. Xayoli uni jang maydoni sari olib ketadi.

Qarasa...

O'g'li ko'kragidan jarohat yeb, dalada jonsiz yotibdi. Lekin qo'li dushmanning bayrog'ini changallagancha qotib qolgan. Shuning uchun shoir uni «pahlavon» degan sifat bilan «siylaydi».

Hamma zamon uchun ham urushda dushman bayrog'ini mahv etish g'alaba hisoblanadi. Shuningdek, Firdavsiyning «Shohnoma»sida ham Afrosiyob tush ko'radi. Tushida kuchli bo'ron turib, bayrog'ini qulatadi:

Ko'tarilib shu zum shiddatkor bo'ron,
Bayrog'imni yulib yiqdi nogahon.

Bayroqning qulashini Afrosiyob mag'lubiyat belgisi, deb biladi. Sergey Yesenin ham bu she'rida zimdan shunga ishora qilgan: agarki, yigit halok bo'lgan bo'lsa ham, u mag'lub emas, chunki dushman tug'ini qulatib jon beradi.

Tariximizdan bilamizki, asli xivalik mashhur Shayx Najmuddin Kubro, keksa yoshiga qaramay, Vatan himoyasi uchun qo'ynini toshlarga to'ldirib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jangga kiradi. Dushman o'qidan halok bo'layotib, chingiziylar bayrog'ining uchidagi «kokili»ni – po'pagini changallagancha jon beradi.

Albatta, Sergey Yesenin aynan Najmuddin Kubro voqeasini qalamga olgan, deb bo'lmaydi. Hatto, bundan mutlaqo bexabardir ham. Ammo Vatan himoyasiga otlangan mard qahramoning dushman bayrog'ini mahv etib o'lishi yuksak vatanparvarlik g'oyasi ifodasi uchun buyuk bir timsol vazifasini o'tagan.

Avvalo, o‘g‘il onaning xayolidagina halok bo‘ldi, xolos. Onaning ko‘ngli shuki, mabodo, u jon taslim qilgan taqdirda ham bu dunyodan mardlarcha, g‘olibona tarzda o‘tgan bo‘ladi.

Bu she’rda ona uchun Vatan va o‘g‘il degan ikki buyuk tushuncha birlashib ketgan. Vatanga sadoqat, uni himoya qilish yo‘lida jonni ham ayamaslik hissi onaning o‘zida bor.

Qisqa-qisqa misralardan iborat vaznlarda yozish – Sergey Yesenin she’riyatining asosiy xususiyatlaridan biri. Shoir bu asarida ham shu yo‘ldan borgan. Erkin Vohidov tarjimada bunga qat’iy amal qilib, o‘zbekchada ham yetti bo‘g‘inli (4+3 turoqli) vaznni ma’qul ko‘rgan. Bu vazn – o‘qishga oson, hayajonni yaxshi ifodalaydi, filr maromi va voqealar shiddatini kuchaytiradi.

Savol va topshiriqlar

1. She’rning bosh g‘oyasini aniqlang.
2. Asardagi inson timsollari kimlar?
3. Ona ibodat qilib, Xudodan nima so‘rayapti?
4. Ona xayolida kechgan voqeа mohiyatida nima yotibdi?
5. She’rdagi o‘g‘ilning dushman bayrog‘ini changallab, qulatib, jon taslim qilishi voqeasi bilan Shayx Najmiddin Kubroning halok bo‘lishi voqeasi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
6. Ona uchun Vatan va o‘g‘il tushunchasi qay tarzda birlashib ketganini tushuntirib bering.
7. Ona bolam jangda o‘lmasin, deb ibodat qilyapti, mabodo, ajali yetgan bo‘lsa, zimdan uning qanday jon berishini istayapti?
8. Siz o‘zingizni she’rdagi o‘g‘il o‘rniga qo‘yib ko‘ra olasizmi?

«IT HAQIDA DOSTON» SHE'RI

Quyosh o‘ynar javdar xirmonda,
Chiptalarda nuri – tillarang.
Bolaladi ona it tongda,
Yetti kuchuk tug‘di mallarang.

Yuvib-tarab tillari bilan,
Oqshomgacha erkaladi u.
Ona itning issiq bag‘ridan
Qor ustida erib oqdi suv.

Oqshom payti, tovuqlar endi
Qo‘nog‘iga tizilishgan dam
Uy egasi xo‘mrayib keldi,
Qopga soldi yettovini ham.

Sho‘rlik ona chopdi ketidan,
Uzoq-uzoq quvlab bordi u.
Muzdek terlar oqib etidan,
Achchiq-achchiq uvlab bordi u.

Botqoqlardan kechib o‘tdi loy,
Oyoqlari toldi, urindi.
Qaytar ekan tom ustida Oy
Bolasiga o‘xshab ko‘rindi.

Sho‘rlik yana bolasin so‘rab,
Ko‘kka boqib uvladi xasta.
Yangi Oy ham asta g‘ildirab
Tushib ketdi ufqdan pastga.

Bechoraga ermaklab, kulib,
Non o‘rniga otishgandek tosh,
It ko‘zidan yulduzlar bo‘lib
Qorga oqdi tomchi-tomchi yosh.

Ko‘rib o‘tganimiz «Ona ibodati» she’rida ona va o‘g‘il timsoli orqali Vatan mavzusi yoritilgan edi. «It haqida dos-ton»da shoir it bahonasida ona mavzusini qalamga oladi.

«Quyosh javdar xirmon uzra o‘ynagan» ko‘klam kezda tong mahali ona it bolalab, yetti tug‘di. Oqshomga qadar ularni shunday yalab-yulqab erkaldiki, bu issiq mehrdan go‘yo qor ustida suv erib oqdi. Kech tushdi. «Tovuqlar endi qo‘nog‘iga tizilishgan dam» uy egasi xo‘mrayib kelib, itning yetti bolasini qopga soldi-da, uzoq-uzoqlarga olib ketdi. Ona it bilan uning necha pullik ishi bor? Unda rahm-shafqat, ona dardini his qilish, insof qani?

Ona it sho‘rlik achchiq-achchiq uvlab, muzdek terlar oqizib, egasining ketidan quvlab bordi. Loylar kechdi, holdan toydi. Oxiri, umidini uzib, orqaga qaytar ekan, tom ustidagi oppoq Oy ham bolasiga o‘xshab ko‘rindi. Dardi yangilandi: ko‘kka boqib, bolasini so‘rab, yana no-la-fig‘onlar qildi. Bu og‘ir g‘am-alamga chidolmaganday, Oy ham ufqdan pastga tushib ketdi.

Oxiri:

Bechoraga ermaklab, kulib,
Non o‘rniga otishgandek tosh,
It ko‘zidan yulduzlar bo‘lib
Qorga oqdi tomchi-tomchi yosh.

Asardagi timsollar soni ko‘p emas: ona it, uning yetti bolasи, uy egasi, Quyosh, Oy, javdar xirmoni, qop, qor, muzdek ter, ko‘zyoshi...

Bu yerdagi har bir timsolning alohida badiiy yuki, tashiydigan ma’nosi bor. Asosiy nuqta – tongda bolalagan ona it quvonchining kechga borib fojiaga aylangani. Bir-daniga yetti bolasidan ayrilib qolgan onaning dod-u faryodiga chidab bo‘ladimi? Hatto osmondagi Oy ham onaizor itga bolalarini eslatadi.

Itki, shunchalar farzandsevar bo‘lsa, onalarimizdagi bizga bo‘lgan mehrning taftini nima bilan, qanday o‘lchaymiz?! Sezib turibsizki, she’rdagi it shunchaki it emas – u «ona»! Shoirning unga juda rahmi keladi. She’r ana shu yuksak darajadagi rahmdillik mahsuli yanglig‘ qog‘ozga tushgan.

Modomiki, shunday ekan, onaning qadriga yetish kerak.

Modomiki, shunday ekan, itga ham rahm qilish lozim.

Modomiki, shunday ekan, itga ham farzand – shunchalar shirin.

Modomiki, shunday ekan, odamzod itga ham ozor bermasligi, uni bolalaridan ayirmasligi zarur.

Ushbu asarning tarbiyaviy ahamiyati shundan kelib chiqadi.

Savol va topshiriqlar

1. She’rning bosh mavzusini belgilang.
2. Ona itning quvonchi, bolalariga mehrini shoir qanday ifodalagan?
3. Ona itning bolalaridan ayrilganidan keyingi holatini so‘zlab, tasvirlab bering.
4. Shoir ona itning osmondagи Oyga qarab bolasini eslaganini yozganda qanday o‘xshashlikka asoslangan?
5. She’rdagi rahmdillik g‘oyasi ifodasiga asos bo‘lgan voqeа, tasvir va ifodalarni ajratib ko‘rsating.
6. She’rning tarbiyaviy ahamiyati nimada? U bizni nimalarga undaydi?
7. Shoir ona it bahonasida nimani bo‘rttirgan?
8. Asardagi timsollarni sanab o‘ting.

MUNDARIJA

Kirish (<i>R. Qochqorov</i>)	3
Xalq og‘zaki ijodi (<i>S. Ahmedov</i>)	7
«Kuntug‘mish» dostonining bayoni	13
Nazariy ma’lumot. Ishqiy-qahramonlik dostonlari.....	40
Lutfiy (<i>S. Olim</i>).....	44
G‘azallar	46
Tuyuqlar.....	55
Nazariy ma’lumot. Aruz vazni.....	57
Alisher Navoiy (<i>S. Olim</i>)	65
Ruboiylar.....	66
Tuyuqlar	76
Fardlar	81
Mustaqil o‘qish uchun (Ruboiylar, tuyuqlar, fardlar)	86
Nodira (<i>S. Olim</i>).....	88
G‘azallar	92
Nazariy ma’lumot. Talmeh. Irsoli vasal. Tajnis	102
G‘afur G‘ulom (<i>R. Qochqorov</i>)	107
She’rlar	108
Oybek. «Na’matak», «O‘zbekiston» (<i>R. Qochqorov</i>)	122
Maqsud Shayxzoda (<i>S. Ahmedov</i>)	131
«Jaloliddin Manguberdi» tragediyasi	134
Nazariy ma’lumot. Tragediya (fojia)	169
Usmon Nosir (<i>R. Qo‘chqorov</i>).....	171
Nil va Rim (Tarix kitobidan)	177
She’rlar	182
Said Ahmad (<i>S. Ahmedov</i>)	185
Qochoq (“Ufq” trilogiyasidan parcha).....	187
Nazariy ma’lumot. Roman shakllari.....	214
Asqad Muxtor (<i>R. Qo‘chqorov</i>)	217
Chinor (Romandan parcha).....	219
Ozod Sharafiddinov (<i>R. Qo‘chqorov</i>).....	247
O‘lsam, ham ayrimasman quchoqlaringdan	249
To‘ra Sulaymon (<i>R. Qo‘chqorov</i>)	258
She’rlar	259
Shukur Xolmirzayev (<i>R. Qochqorov</i>).....	269
Hikoyalari	270
Muhammad Yusuf (<i>R. Qo‘chqorov</i>)	296
She’rlar	298
Muhammad Fuzuliy (<i>S. Olim</i>)	309
G‘azallar	313
Robindranath Thakur (<i>S. Ahmedov</i>)	321
«Shubxa» hikoyasi.....	323
Sergey Yesenin (<i>S. Olim</i>)	335
She’rlar	337

Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov

ADABIYOT

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan va to ‘ldirilgan to ‘rtinchi nashri

Muharrirlar: *Sanjar Tursunov, Oysuluv Musurmonqulova*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Xosiyat Hasanova*

Musahihh *Dono To ‘ychiyeva*

Kompyuterda sahifalovchi *Hilola Sharipova*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290. 04.11.16

2019- yil 1 aprel bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$.

«Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma. 22,0 shartli bosma toboq.

17,8 nashr tobog‘i. Adadi 567284 nusxa. raqamli buyurtma.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Shayxontohur tumani, Labzak ko‘chasi, 86.